

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH VAZIRLIGI**

K.D. RAXIMOV

LANDSHAFT REJALASHTIRISH

*O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi
tomonidan 5A340104 – “Landshaftlar arxitekturasi” va 5A340103 –
“Shaharsozlik qishloq aholi joylarini kompleks qurish” magistratura
mutaxassisligi bo‘yicha tahsil olayotgan magistrantlar uchun
o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etilgan*

TOSHKENT – 2018

UO‘K 7.047(21)

KBK 26.82

R 29

Raximov K.D. Landshaft rejalashtirish. (O‘quv qo‘llanma).

T.: «Barkamol fayz media», 2018, 305 b.

ISBN 978-9943-5143-9-3

O‘quv qo‘llanmada landshaft rejalashtirishda tabiiy sharoitlar va antropogen omillar, madaniy landshaflar, rekratsion muhitlar, sanoat va jamoat binolari hududlari landshaftlarining tipologiyasi, landshaft arxitekturasi obyektlarini shakllantirish omillari; landshaftni shakllantirishda relef va suvning ahamiyati; ochiq fazoviy muhit landshaftini rivojlantirish shartlari; shaharning tabiiy karkasini shakllantirish tamoyillari, shahar ko‘kalamzorlar tizimining tasnifi, shahar va shahar markazlarini landshaft-rekratsion rejalashtirish, shahar markazi bog‘-park tizimini shakllantirish; bog‘lar, parklar, maydonlar, xiyobonlar, saylgohlar, qirg‘oq bo‘ylari va piyodalar yo‘laklarini shaharsozlik talablari bo‘yicha joylashtirish kabi mavzular o‘zbek tilida yoritib berilgan.

O‘quv qo‘llanma “Landshaftlar arxitekturasi” va “Shaharsozlik va qishloq aholi joylarini kompleks qurish” magistratura mutaxassisligi bo‘yicha tahsil olayotgan magistrantlarga, shuningdek, landshaft dizayni, shahar va qishloq qurilishi, bog‘-park san‘ati sohalarida ishlayotgan loyihachi mutaxassislarga ham mo‘ljallangan.

UO‘K 7.047(21)

KBK 26.82

Taqrizchilar: **Nozilov D.A.** – arxitektura doktori, TAQI “Arxitektura nazariyasi va tarixi” kafedrasining professori;

Xudoyarova M.B. – arxitektura nomzodi, SamDAQI “Qishloq hududlarini arxitektura-loyihaviy tashkil etish” kafedrasida dotsenti.

ISBN 978-9943-5143-9-3

© **K.D. Raximov**

© «Barkamol fayz media» nashriyoti, 2018.

MUNDARIJA

Kirish.....	4
I BOB. Landshaft rejalashtirishda tabiiy sharoitlar va antropogen omillar	15
II BOB. Madaniy landshaflar, rekreatsion muhitlar, sanoat va jamoat binolari hududlari landshaftlarining tipologiyasi	48
III BOB. Ochiq fazoviy landshaft muhitini shakllantirish, shaharning tabiiy karkasini rivojlantirish tamoyillari, shahar ko‘kalamzorlar tizimining tasnifi	102
IV BOB. Shahar va shahar markazlarini landshaft-rekreatsion rejalashtirish	115
V BOB. Shahar markazining bog‘-park tizimini shakllantirish	139
VI BOB. Bog‘lar, parklar maydonlar, saylgohlar, qirg‘oq bo‘ylari va piyodalar yo‘laklarini shaharsozlik talablari bo‘yicha shakllantirish	199
Foydalanilgan adabiyotlar	270
Ilovalar	278

KIRISH

Respublikamizning barcha shahar va tuman markazlarida, hatto olis qishloqlarda ham aholining maroqli dam olishi va hordiq chiqarishi uchun ko'rkam madaniyat va istirohat bog'lari, xiyobonlar barpo etilayotir. Bu yaratuvchanlik zamirida, shubhasiz, inson baxti, saodatini ta'minlash siyosati mujassam.

Shu bois ham keyingi yillarda istirohat bog'larining aksariyati qayta qurildi, ta'mirlandi va takomillashtirildi. Ayni paytda yangi bog'lar bunyod etilishi ham jadal davom ettirilmoqda. Biroq istirohat bog'larining hozirgi holati zamonaviy talablarga, aholining talab va istaklariga to'la javob bermaydi.

Shuning uchun "Landshaft rejalashtirish" qurilishi va faoliyat yuritishining zamonaviy yo'nalishlariga jiddiy e'tibor qaratish, aholi, ayniqsa, yoshlarning mazmunli dam olishlarini tashkil etish hamda yurtdoshlarimizga yuqori saviyada madaniy xizmat ko'rsatish davr talabiga aylandi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev 2018–2022-yillarda aholi punktlarini Bosh rejalar bilan ta'minlash, loyiha tashkilotlari faoliyatini yaxshilash, shuningdek, shaharsozlik va landshaft arxitektura sohasida mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari "O'zbekiston bunyodkori" gazetasida o'z aksini topgpn. (№10 (155) 2018-yil 6-fevral).

Mazkur "Landshaft rejalashtirish" nomli o'quv qo'llanmada quyidagi asosiy mavzular yoritib berilgan: landshaft arxitekturasi obyektlarining shakllanish omillari, landshaftni shakllantirishda relef va suvning roli, yashil o'simliklar va ularning landshaftni shakllantirishdagi roli, bog'-park san'ati va landshaft arxitekturasi rivojlanish genezisi, bog'-parklarni loyihalashning rejaviy uslublari, markazlar ochiq muhitlarining tipologiyasi, markazlar hududining landshaft rekreasion tizimi, bog' va park obyektlarining klassifikatsiyasi, piyoda yo'llar hududlari, sanoat tumanlarining ko'kalamzorlari, shahar atrofidagi landshaft-

rekreasion hududlar, park peyzajlarining asosiy tushunchalari va ularni shakllantirish xususiyatlari, park kompozitsiyasida rangdan foydalanish, park kompozitsiyasida perspektiva, park o'simliklarining kompozitsiyalari, butalar kompozitsiyasi, gullar va o'tli o'simliklar kompozitsiyasi, gazonlar va ochiq maydonlar kompozitsiyalari, landshaft arxitekturasi obyektlarini loyihalash.

Yaxlit arxitekturaviy-landshaft muhitini shakllantirish tamoyillari (qonuniyatlari), inson yashash muhitida tabiatni asrash va ratsional darajada o'zgartirishni hisobga olgan holda tashkil etish, urbanizatsiya natijalarini neytrallashtirish – bularning barchasi landshaft arxitekturasi predmetidir.

Zamonaviy arxitekturaviy-landshaft ijodiyotining masalalari, obyektlari va uslublari haqidagi tasavvurni nazariy va amaliy asoslarini rivojlantirish tizimli yondashuvdan, arxitekturaviy-landshaft muhitni arxitektura obyekti bilan yaxlit tamoyillarda ko'rib chiqishdan iborat.

Umuman olganda, landshaft arxitekturasi vazifalari quyidagilardan iborat:

- insonning ochiq osmon ostidagi hayot faoliyatini funksional-fazoviy tashkil etish;
- landshaftlarni tabiiy xususiyatlarini asragan holda o'zgartirish;
- estetik tashqi obodonlashtirishni yaratish.

Arxitekturaviy landshaftni loyihalash masalalarini va obyektlarini aniqlashtirish uchun binolarning diferentsiatsiya va integratsiyasi talab qilinadi. Landshaft arxitekturasi masalalarini kengaytirish, masalan, ekologiyani rivojlantirishni (tirik organizmlarning o'zaro bog'liqligi va o'zaro ta'siri haqidagi maxsus tabiiy fanlardan boshlab jamiyat va muhit muammolarini tadqiq etuvchi sotsial ekologiyagacha) talab etadi. Landshaft arxitekturasi obyektlariga masalalarini konkretlashtirishda arxitekturaviy-landshaft va tabiatni asrovchi faoliyatlarining o'zaro hamjamiyatligi, landshaftni ratsional o'zgartirish va asrashning aloqalari masalalarini aniqlash ham muhim ahamiyatga ega. Bu munosabatlarda landshaft arxitekturasi uch guruh vazifalarini ajratish mumkin: landshaftni asrash, o'zgartirish (shakllantirish va qayta tiklash (rekultivatsiya). Tabiatni asrash masalasi bo'yicha, landshaft arxitekturasi

nazariyasida atrof-muhitni o'zgartirishni boshqarish asoslarini ishlab chiqish eng dolzarb hisoblanadi. Jamiyat nafaqat noyob tabiat yodgorliklari va bog'-park san'atini avaylab-asrashi, balki ularni rivojlantirish masalalari bilan ham shug'ullanishi lozim. Tabiatni asrash tamoyillari har bir arxitekturaviy-landshaft obyektlarini shakllantirishning asosida turishi lozim. Bu tamoyillar landshaftni loyihalashda mavjud tabiiy holatni asrash va yaxshilashda, dastur bo'yicha foydalanish jarayonida arxitekturaviy-landshaft obyektini mukammallashtirishda, hamda "obyekt-muhit" to'g'ri va teskari dinamika imkoniyatlarini hisobga olishda va umumiy tabiiy-antropogen holatlarni o'zgartirishda namoyon bo'ladi.

Shunday qilib, asosiy maqsad – tabiiy landshaftlardan foydalanish, o'zgartirish va maksimal ravishda asrash masalalari bobida kelishuv (kompromiss)ni topishdan iborat. Buni turistik rekreatsion faoliyatning rivojlanishi engil tasdiqlaydi. Masalan, 70–80-yillarda aynan rekreatsion bong shahardan tashqaridagi dam olish joylarida landshaftni haddan tashqari foydalanishidan asrash maqsadida tabiiy boylikni baholash va loyihalashning yangi uslublarini talab qildi. 90-yillarda dala hovlilari qurilishining ko'payishi shaharga yaqin joylashgan noyob landshaftlarni asrash muammosini keltirib chiqdi. Arxitekturaviy-landshaft masalalarini tizimlashtirish, ularning ierarxiyasini aniqlash, o'zaro kelishuv va ushbu masalalarni yechish tamoyillari va uslublarini aniqlash uchun obyektlarning ilmiy asoslangan tipologiyasiga ega bo'lish muhimdir. Tipologiya – bu nafaqat qandaydir obyektlarni sinflarga bo'lish, balki ilmiy anglash uslubi, obyektlar rivojlanishi qonuniyatlarini o'rganish, ularning yangi turlarinipaydo bo'lishi hamdir. Tashkillashtirilgan fazoviy arxitekturaviy-landshaftning alohida elementlarini ajratib, biz bino va inshootlar arxitekturasi, shahar va qishloqlar, dam olish zonalari, parklar va boshqalar haqida gapira olamiz. Ammo har qanday arxitektura obyektini ko'rib chiqayotganda ham, uni yaratish va foydalanishning tabiiy bashoratlaridan (ijtimoiy-iqtisodiy omillar orqali yoki to'g'ridan-to'g'ri) ajratib bo'lmaydi. Landshaft muhiti haqida yaxlit arxitekturaviy obyekt-antropogen muhit va kam o'zgartirilgan tabiiy landshaft kabi qarash, landshaft tipologiyasida yangilik hisoblanadi.

Natijada, biz tipologiya bo'yicha qanday obyektlar (parklar, o'rmon parklari va boshqalar) kerakligini emas, balki landshaft arxitekturasi va landshaft loyihalash obyektlari hisoblangan yaxlit ochiq muhitlar konsepsiyasini ko'rib chiqamiz. Zamonaviy tizimli-ekologik nuqtai nazardan muhitning biron-bir elementi, hattoki, aniq muddat mobaynida landshaft obyekti hisoblanmagani ham arxitektorning kasbiy faoliyatida e'tibordan chetda qolmasligi lozim. Kelajakda bu elementlar obyekt bo'lib xizmat qilishi ehtimoli borligi va yaxlit tizimga ta'sir etishi mumkinligi uchun ham ular e'tiborsiz qoldirilmaydi. Tipologiyaning asosini, umumiy qaraganda, faqat arxitekturaviy landshaftni hududiy zonalashtirish tashkil etadiganday ko'rinsada, amaliyotda u yetakchi hisoblanmaydi. Bitta hudud (masalan, respublika hududi) arxitekturaviy-landshaft masalalari iqtisodiy shaharsozlik, kompozitsion va boshqa ko'plab masalalar bilan bog'liq holda tumanni kompleks rejalashtirish obyekti hisoblanib, bir vaqtning o'zida, agarda, respublikaning alohida qo'riqlanadigan landshaftlari sxemasi, yoki respublikaning dam olish va turizm sxemalari ishlab chiqilsa, maxsus arxitekturaviy-landshaft loyihalashning obyekti bo'lishi mumkin. Shu narsani biz murakkab ijtimoiy-fazoviy va landshaft tizimi hisoblangan-shahar haqida ham aytishimiz mumkin. Biz uning aniq tizimlaridan biri, masalan, suvli yashil zonasini ajratganda uni juda chuqur o'rganib, mustaqil obyekt sifatida loyihalaymiz. Obyektlarning tipologiyasi va arxitekturaviy-landshaft masalalarini tizimlash uchun guruhlarining ikki darajasini ajratish lozim: 1) landshaft arxitektori faqatgina hammmuallif bo'lgan, landshaft masalalari iqtisodiy, ijtimoiy, rejaviy va ko'plab boshqa masalalar bilan bir qatorda turgan arxitektura va shaharsozlik obyektlari guruhi; 2) landshaft arxitektori mutaxassislar jamoasida berilgan obyekt yechimining dastur va uslublarini aniqlovchi yetakchi vazifada bo'ladi, bu guruh obyektlarida landshaft masalalari birlamchi hisoblanadi. Birinchi guruh obyektlariga – muhit elementi sifatida tumanni rejalashtirish loyihalarining kompleks va sohaviy sxemalari ishlab chiqiladigan davlat, respublika, tumanlar hududlari; bosh reja va batafsil rejaviy loyihalari tuzilayotgan aholi joylari, fuqarolik va shaharsozlik komplekslari mansubdir. Ikkinchi guruhga

tegishli obyektlarning umumiy shaharsozlik tarkibiga mansub arxitekturaviy-landshaft masalalarini quyidagicha izohlash mumkin:

- xalq xo‘jaligi kompleksi va landschaft muhitining o‘zaro ta’siri muammolarini yechish;

- muhitning turli funksiyaviy obyektlar joylashuviga munosabatini aniqlash;

- landschaftni batafsil loyihalash va zonalarga bo‘lish;

- landschaftlarning rejaviy faoliyat davomida o‘zgarishlari natijalarini bashorat qilish;

- ekologiya, muhitni asrash va gigiyenik hamda estetik sifatini yaxshilash talablaridan kelib chiqib, muhitni arxitekturaviy-landshaft tashkillashtirish; landschaft va qurilmalar o‘zaro aloqasining uyg‘unligi.

Arxitekturaviy-landshaft faoliyatiga xos obyektlar ancha rivojlangan tipologiyaga ega. Tashkil etiladigan obyektlarning landschaft vazifalari turlarga bo‘lingani kabi, ular bilan ishlash bosqichlari ham (dasturni ishlab chiqarish, loyiha oldi tadqiqotlari, loyihalash, loyihani amalga oshirish, foydalanishga topshirgandan keyingi nazorat) turlarga bo‘linadi. Landschaft arxitekturasida yetakchi uslublardan biri – butun arxitekturaviy ijodiyotda samarali bo‘lgan tizimli-landshaft yondashuvi hisoblanadi. Bu uslubning ma’nosi butun obyektни emas, balki inson faoliyati natijasida va tabiat qonunlari asosida doimiy o‘zgaruvchi arxitekturaviy-landshaft muhitining lavhalari (tizim osti)ni loyihalash, qurish va qurilganini nazorat qilishdan iborat. Regionlar va yirik shaharsozlik tuzilmalarida tizimli - landschaft uslubi allaqachon faol foydalanilyapti. Ammo qurilmalar kompleksini yaratishda, ayniqsa alohida inshootlar, hatto, ba’zida bog‘-park obyektlarda uning ahamiyatiga hali yetarli o‘rin ajratilmayapti. Landschaft loyihalashning ekologik uslubi landschaft komponentlari – relef, hovuzlar, oqoqalar, o‘simliklar va boshqalar orasidagi ustuvor munosabatlarni aniqlash va tabiiy jarayonlar dinamikasiga munosib yashash muhiti lavhalarini loyihalash vazifasini bajaradi. Arxitektorlar doimiy o‘zgaruvchan tabiiy materiallardan foydalanib, ochiq muhitlarni tashkillashtirishadi. Arxitektor har tomonlama egallagan bilimlariga assolanib, o‘zining ijodida landschaft holatini izlayotganda uning

yaxshi sifatlarini ko'rsata olganidagina, inson va landshaftning uyg'unligiga erishishi mumkin. Shunday qilib, zamonaviy landshaft arxitekturasi bir tomondan etnogenez (milliy ildizlar) va an'anaviy madaniyatni asrash va rivojlantirishga yo'naltirilgan umumdavlat muhitini tashkillashtirishining maxsus shakli bo'lsa, boshqa tomondan – mikrorayon, mahalla, aholi punkti darajasidagi inson yashashi konkret (aniq) muhitining loyihalash vositasidir. Arxitekturaviy ijodiyotning rivojlanishi an'analarga asoslanib, aytish mumkinki, biz XXI asrda Yevropa mamlakatlarining XVII–XVIII asrlardagi, XVIII–XIX asrlarda Rossiya imperiyasida kuzatilgani kabi, landshaft-arxitekturasi, bog'-park san'ati va muhit dizayni rivojlanishining yangi bosqichining shohidi bo'lamiz. O'tgan tarixiy davrlarda bebaho bog'-park san'ati yodgorliklarining "buyurtmachisi" va keyin egalari badavlat xonadon sohiblari bo'lgan. Zamonaviy sharoitlarda bog'-park ansamblining "buyurtmachisi" va egasi tashkilotlar, yuridik va jismoniy shaxslar bo'lmog'i lozim. Arxitekturaviy peyzaj asarlari soni ham, albatta, munosib ravishda o'sadi. Nozik did bilan yaratilgan badiiy arxitekturaviy-landshaft eng ko'p tarqalgan "foydalanish predmeti"ga aylanishi lozim. Ishonch bilan aytish mumkinki, XXI asr butun dunyo bog'-park san'ati rivojlanishining "oltin asri"ga aylandi. Arxitekturaviy-landshaftloyihalashning tipologik obyektlari quyidagilardan iborat:

- maxsus qo'riqlanadigan landshaft hududlari (tabiiy va madaniy-tarixiy);
- maxsus qiymatga ega bo'lgan landshaft obyektlari tizimi (regional daraja – mamlakat, davlat va boshqa hududlar);
- qo'riqxonalar;
- tabiiy (milliy) parklar va bog'lar;
- madaniy-tarixiy zonalar (memoriallar, tarix va arxitektura, bog'-park san'ati va boshqa yodgorliklari): tabiiy muhitda va urbanizatsiyalashgan muhitda tabiiy yodgorliklarni qo'riqlash zonolari;
- aholi joylari, markazlarning ochiq hududlari, sanoat komplekslari hududlardagi suv va ko'kalamzorlar tizimlari;
- turar-joy muhitidagi yashil himoya zonolari – parklar;

- bog‘-o‘rmon parklari;
- sport-sog‘lomlashtirish zonalari;
- sanoat hududlari komplekslari va aholi yashash joylari orasidagi rekreatsion obyektlar;
- dam olish va turizm obyektlari tizimi (regional darajada – davlat, mamlakat va boshqalar);
- qisqa dam olish zonalari;
- uzoq muddatli damolish zonalari;
- sanitar-kurort zonalari, turistik trassasida xo‘jalik ahamiyatidagi turli obyektlar;
- suv- qo‘riqlash zonalari;
- kommunikatsion landshaft koridorlari;
- mellioratsiya va foydali qazilmalar zonalari;
- qishloq xo‘jaligi hududlari.

Shaharsozlikning rivojlanishi tarixi davomida shahar rejayivi strukturasi haqiqiy tabiat maydonlarini qo‘shish haqidagi turli-tuman g‘oyalar peshkash qilinib kelingan. Ularning ba‘zilari bizning davrda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotgani yo‘q. Mutaxassislar bu masalalarni bir-biridan prinsipial ravishda farqlovchi uch asosiy davrni ajratishadi. Ularning birinchisi shaharlar paydo bo‘lgan davrdan boshlab, XIX asrda tugadi. Yashil o‘simliklar tizimi to‘g‘ri geometrik (doira, markazlashgan va boshqa) shakllarga ega bo‘lgan (J.Perre, G.Sharpa, Sh.Fure). Shaharlar atrof-muhiti hisobga olinmagan holda rivojlangan. Ikkinchi davr yirik sanoat markazlari va aglomeratsiyalarning paydo bo‘lishi (XIX asr oxiri XX asr boshi) bilan bog‘liq. Shaharlarning yangi arxitekturaviy-rejayivi echimlari yashil belbog‘, yashil burchak, diametr va boshqalar (T. Fritsh, E. Govard, R. Envin, S. Shestakov, I.Leonidov, Le Korbyuze, P. Aberkrombi va boshqalar sxemalari) ko‘rinishidagi yashil hududlar tizimini ishlab chiqishni talab qilar edi. Bu davrda qurilgan va ko‘kalamzorlashtirilgan hududlarning optimal nisbatini izlashgan. Ko‘kalamzorlarning sanitar-gigiyenik, estetik, rekreatsion roliga e‘tibor qaratilgan. Shaharlarni rivojlantirish bosh rejasi sxemasida shahar oldi yashil massifyvlarni qo‘shish boshlandi. Uchinchi davr (XX asrning ikkinchi yari) avvalgi davrga xos bo‘lgan shahar va

uning yonboshidagi hududlarni kompleks ravishda loyihalashdan farq qildi (1-rasm).


Shaharlarda 50% mikrorayonlarda (kichik tumanlarda) 70%-gacha maydon ko'kalamzorlarga ajratiladi. Ular mikrorayon ansamblida yo mahallada alohida binolar va inshootlarni birlashtirib, hududni sug'orish, relefni mukammallashtirish, muhandisona obodonlashtirish vositalari bilan zamonaviy shaharni shakllantiradi.

Shaharlarning vertikal va gorizontal tezkor rivojlanishi mahalliy landshaftning jozibasini tez tushirib qo'yadi. Qiziqarli tabiiy obyektlar – daraxtzorlar, go'zal qirliklar, daryo va ko'l sohillari, pog'onali tepaliklar saqlansa va ular shahar ko'kalamzorlari tizimi tarkibiga, demak shaharning arxitekturaviy-rejaviy strukturasi qo'shilsa, shahar muhitini shakllantirishda muhim rol o'ynashi mumkin.


Landshaftning go'zalligi, ranglarining vaqtga bog'liq ravishda turli-tumanligi, gullarning xushbo'y hidi, barglarning shitirlashi insonning ruhiy va jismoniy holati, uning kayfiyati va nerv tizimiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, shaharda insonning yashashi uchun qulay sharoitlar yaratish imkonini beradi.

Zamonaviy shaharda o'zgaruvchan ehtiyoj va sharoitlarga moslashuvchan rejaviy strukturalarda foydalanishadi, shuning uchun shaharning ko'kalamzor hududlari tizimi doimo murakkablashib boradi, ba'zi elementlarini esa kengaytirish va to'ldirish talab qilinadi.

Katta bo'lmagan shaharda, qoida bo'yicha bitta ko'p funksiyali park va bir necha shahar bog'lari, bulvar va xiyobonlar mavjud bo'lsa, shaharning o'sishi bilan ko'kalamzor tizimlar turi, o'lchamlari va funksiyasi bilan mukammallashib boradi.



1-rasm. Shahar ko'kalamzorlar tizimining nazariy sxemalari:
 1-J.Perrening ideal shahari. Ko'kalamzorlar shahar devorlarini o'rab turadi, shahar ichida ular umuman mavjud emas (1601);
 2-Morelli "Tabiat kodeksi"dagi shahar; 3-G.Sharinining kolonial shaharining "Namunaviy" sxemasi. Ixcham shahar atrofida jamoa parklari, bog'lar va fermalar belbog'lari yaratishgan (1744);
 4-Sh. Furening ko'kalamzorlarni halqali joylashtirish sxemasi (1820); 5-E.Kabening birinchi utopik (xayoliy) sxemasidagi "Yashil-suvli diametr"i (1840).



2-rasm. XIX asr oxiridan hozirgi davrgacha shaharlar ko'kalamzorlari tizimi sxemasi: 1- Soria-i-Mataning chiziqli shahri. Ko'kalamzorlar (qishloq xo'jaligi, dam olish joylari) uzunchoq tasmasimon magistral bo'ylab joylashgan qurilmalar qatorida kuzatiladi (1884); 2-shaharoldi hududlarining parklar (shahar markaziga yaqin) va xo'jalik (sanoat korxonalari) sektorlariga differensiyalashuvi (T.Fritsh, 1895); 3,4-yirik shahar va unga yo'ldosh shaharlar orasidagi yashil tasmaning joylashuvi. Shahar-

bog' (E. Govard, 1898–1902); 5-shahar rejasida yashil bo'lak va halqaning teng joylashuvi (E. Enar, 1904); 6-yashil burchaklarni tashqi yashil belbog' bilan bog'lash (R. Ebeyrshtadt, 1910); 7- ko'kalamzorlarning ketma-ketligi tizimi (R. Envin, 1922); 8-I. Leonidovning chiziqli shahri-o'simliklardan iborat tasma turar-joylarini sanoat va xo'jalik hududlaridan ajratadi (1930); 9- ko'kalamzorlar chiziqli sxemasining ko'p pog'onali xizmat ko'rsatish sxemasi bilan bog'liqligi (N. Baranov, 1950); 10-biotexnik shahar (P. Soleri, 1960); 11-shaharning nurli rivojlanishi (R. Xillebrext, 1961); 12-tezyurar yo'llar shahri (I. Gruza, 1972).

Shaharni ko'kalamzorlashtirishda qo'llaniladigan tizimlarning turlari quyidagi aniq shaharsozlik sharoitlariga bog'liq: guruhli joylashuv tizimidagi shaharning o'rni; xalq xo'jaligi sohasi; hududni zonalarga bo'lishning o'lchamlari va qabul qilingan sxemasi; jamoat markazi, turar-joylar, sanoatning joylashuvi hududning arxitekturaviy-rejaviy yechimi; transport magistrallari sxemasi; shahar ko'kalamzor hududlari va uning yashil kamarlari, rivojlanish perspektivasi bilan yagona yashil hududlar tizimini tashkil etish imkoniyatlari. Tabiiy-iqlimiy, sanitar-gigiyenik, landshaft ekologik, fizik-geografik va ba'zi boshqa tamoyillarga muhim o'rin ajratiladi.


Shahar ko'kalamzorlari rivojlanishini shakllantirishga mazkur tumanning tabiiy xususiyatlari: iqlim, relef, mavjud o'simliklar, tuproq, suvhavzalarining mavjudligi, geologik va gidrogeologik sharoitlar ta'sir ko'rsatadi. Iqlimiy tavsifnomalarga radiatsiya, harorat, shamol rejimi, yog'ingarchiliklar miqdori, shamol tezligi va yo'nalishi birinchi darajali ahamiyatga ega. Ko'kalamzorlashtirishga turli tamoyillarining ta'sir darajasi har bir aniq holatda o'zgarib turadi. Bunda shahar mavjud holatining kompleks baholashga alohida rol ajratiladi.

I BOB. LANDSHAFT REJALASHTIRISHDA TABIIY SHAROITLAR VA ANTROPOGEN OMILLAR


Tabiiy sharoitlar va omillar. Landshaft tashkillashtirishda iqlimni hisobga olish. Issiq iqlimiy sharoitlarda fazoviy landshaft hududini tashkillashtirishda antropogen omillar.

Ko'kalamzorlar kompozitsiyalari masalalari ularni shakllantirish uslublari bilan uzviy bog'liqdir. Bog'-park va boshqa yashil obyektlarni mavjudligi davrida davom etuvchi bu jarayon shundan darak beradiki, o'simliklar doimo rivojlanish holatida bo'ladi. Yashil obyekt tashqi ko'rinishi ham mos ravishda o'zgarib turadi (2-rasm).

Daraxt va butalarni doimiy ravishda kuzash, gulli parterlarni yaxshilab parvarishlash o'simliklarning uzoq vaqt davomida muntazamligini ta'minlaydi. Aks holatda o'simliklar o'sish davomida o'ziga xos bo'lgan tabiiy shaklni olaveradi.



Peyzajlarni davriy ochilishi usuli.




2-rasm. Xiyobonlar uzunligining inson ko'ziga: a) uzun va b) qisqa ko'rinishi.

Tabiiy landshaft ko'rinishidagi – o'rmon, maysazor va boshqalarning bog'-park landshaftlarida shakllanish jarayoni boshqacha kechadi. Ularni yaratishda bog'-park qurilishining asosiy maqsadi – o'simliklar yoki aniq turdagi ekinlarni to'la va uyg'un rivojlantirishdan iborat. Mazkur holatda bog'bonning (yoki park quruvchisining) intilishlari o'simliklarning tabiiy rivojlanishi bilan qarama-qarshi bo'lmaydi, aksincha, o'tqaziladigan turli agrotexnik tadbirlar natijasida o'simliklarning o'sishi tezlashadi. O'simliklar shaklining o'zgarishi parkning o'ylab chiqilgan obrazini olishini tezlashtirishi lozim.

O'simliklar rivojlanishining har bir bosqichida ularning badiiy sifatleri landshaftni bevosita shakllantiruvchi park quruvchisining mahoratiga yuksak darajada bog'liqdir. Talab qilingan sifatlarga ega bo'lishiga qadar yashil obyekt rivojlanish jarayonidabir-biridan xo'jalik, sanitar-gigiyenik, estetik jihatlardan farq etuvchi bosqichlarni o'tkazadi. Har bir bosqichning davomiyligi ma'lum navning o'sishi sharoitlariga bog'liqdir. *Birinchi bosqich* – “navnihollik” 10 yil, *ikkinchi bosqich* – “o'sish” 10 dan 20 yilgacha, *uchinchi bosqich* – “navqironlik” 20 dan 30 yilgacha, *to'rtinchi bosqich* – “etuklik” 30 dan 40 yilgacha davom etadi. Bog'-parklarda yaxshi yo'lga qo'yilgan parvarishlash sharoitlarida bu bosqichlarning davomiyligi ancha qisqarsada, ko'chatning to'la rivojlanishi uchun o'n yilliklar kerak bo'ladi. Oq qayinning “o'rta

yoshli” yoki “etuk” bosqichiga etishi uchun 15–25 yil, sosna uchun 30–40 yil, dub uchun 50–60 yil kerak. *Bog’-park quruvchisi uchun ko’chatlarning boshlang’ich o’sish davridagi shakllanishi ayniqsa, muhimdir.* Bog’ va parklar rivojlanishi 100 yillarga mo’ljallanib hisoblansada, ularning qurilishi bugungi kun talab va ehtiyojlarini qondirishi lozim. Shuning uchun ham park quruvchisi ko’pincha o’zining ixtiyorida bo’lgan uncha ta’sirchan bo’lmagan yosh ko’chatlardan foydalanib, boshlang’ich davri davomiyligini qisqartiradi. Yirik daraxt va butalarni o’tqazish; rivojlanishining birinchi bosqichida tez o’suvchi ko’chatlardan daraxtzor yaratish; ko’chatlarni tig’iz o’tqazish; hududni tez bezovchi tik o’suvchi daraxtlarni ko’paytirish; tezkor dekorativ samara beruvchi buta va o’tli o’simliklardan keng foydalanish—asosiy tezkor bog’ yaratish tadbirlari hisoblanadi (3-rasm).



3-rasm. O’simliklar guruhlarining turli o’sish davrlaridagi tashqi ko’rinishining rivojlanish dinamikasi:

A-birinchi bosqich. Daraxtlar 10 yoshda. Daraxtlar guruhining tezkor rivojlanishi maqsadida ularni tig'iz (1 gektarda 1500 ko'chat)ekish; B- ikkinchi bosqich. Guruhning 20 yildan keyingi ko'rinishi. Daraxtlar sonini asta-sekin kamaytirish natijasida qolgan 50–60 %i uchun qulay rivojlanish sharoitlari yaratilgan; V-uchinchi bosqich. Guruhning 50 yildan keyingi ko'rinishi. Daraxt navlari individual xususiyatlarining ko'rinishi. O'simliklar guruhining tarkibi quyidagicha: 1-oq qayin, 2-archa, 3-klen, 4-tol, G-to'rtinchi bosqich. Guruhning 90 yildan keyingi ko'rinishi. Asosiy bargli navlar eng baland bo'yiga ega bo'lgan. Archaning o'sishi davom etadi; D-beshinchi bosqich. Guruhning 120 yildan keyingi ko'rinishi. Dekorativ ko'rinishini yo'qotgan bargli navlar kesib tashlangandan keyin guruhni perimetr bo'ylab, yorug'likni yoqtiruvchi o'simliklar bilan bezash. Archa dominanta holatini egallaydi; E-oltinchi bosqich. Guruhning 150 yildan keyingi ko'rinishi. Bu davrga kelib, shoxlari egiluvchan shaklga ega bo'lgan qayinlar shakllangan guruhlarga dekorativ xususiyatlar bag'ishlaydi.

O'simliklarni peyzajli tashkillashtirishning an'anaviy uslublari zamonaviy bog' va parklarni yaratishda keng qo'llanishi mumkin. Ammo bog'-park qurilishi va texnikasining rivojlanishi, ko'kalamzorlashtirishning katta ko'lamlari va ishlarining tezlashtirilgani, umumiy dam olish doylaridan foydalanish sharoitlarining o'zgargani, kompozitsion usullarni tanlashga ta'sir ko'rsatadi. Masalan, yirik massiv va maydonlarga ega bo'lgan *erkin peyzaj rejali* parklar ishlarini mexanizatsiyalashni yengillashtiradi. Zich o'suvchi daraxtzor massivlar (ular yuqori rekreatsion og'irliklarga yaxshi qarshilik ko'rsata oladi, tez bo'y cho'zadi) va yirik o'lchamli daraxtlar va daraxt-soliterlarga ega toza va keng gazon maydonlarining kontrastiga asoslangan kontrast kompozitsion uslublari qabul qilish oldindan aniqlanadi. Oddiy geometrik shakllar guruhi ko'rinishidagi *muntazam ekish* ham qurish va parvarishlashda murakkab kichik qismlarga bo'lingan rejaviy echimga qaraganda mexanizatsiyalash talablariga ko'proq javob beradi. Agar yirik va egri chiziqli maydonchalarni yaishil "tirik devorlar" o'rab turgan

bo'lsa, ularni bog'-parkda xizmat ko'rsatadigan mashinalariga moslashtirib loyihalash kerak, masalan, maydon burchaklari aylanasi radiusi 5–8 m dan kam bo'lmasligi kerak. Yashil to'siqlarni yo'laklar bo'ylab va ularga parallel qilib joylashtirish kerak. Yashil to'siqlarga daraxtlar va yoritish tayanchlarini qo'shmaslik kerak. Bu qimmat qo'l mehnatini keskin kamaytirishga olib keladi.

Shaharsozlik amaliyotida ko'pincha bog' va parklarni o'rmonsiz, og'ir tuproq va iqlimiy sharoitlardagi joylarda yaratish talab qilinadi (Qozoqiston, O'rta Osiyo respublikalari, Ozarboyjon yarim cho'l tumanlari va boshqalar). Bu joylarning kompozitsion yechimiga sun'iy sug'orish usullari, ko'chat o'tqazishda maxsus agrotexnik usullari, radiatsiyadan himoyalash tadbirlari kabi qo'shimcha kompleks tadbirlarni o'tqazish ta'sir ko'rsatadi. Umumiy ko'kalamzorlashtirish uchun daraxtlar, butalar va lianalarining suvsizlikka, yer osti suvlarining minerallanganligiga chidamli turlarini tanlashadi. Noqulay sharoitlarda zarur bo'lganida *transheya* – *drenajli* uslubidan foydalanib, mahalliy tuproqni hosildoriga almashtirish amalga oshiradi. Bunday uslubning qo'llanilishi tabiiyki, kelajak parklari, bulvarlari, hovlilar va sohil oldi ko'kalamzorlari kompozitsiyasining xususiyatlarini belgilaydi: ancha muntazam reja, ko'cha, parklar, ariq bo'ylarida, dam olish maydonchalar atroflari bo'ylab sersoya daraxtlarning qatorlab o'tqazilishi.

Boku shahrida sug'orish jo'yaklari tortilgan daraxtlar tagidagi bo'sh yerlarni ko'rsatmaslik uchun maxsus yashil bordyurlar o'rnatishadi va butalar ekishadi, yo'laklar bo'yidagi daraxtlar guruhi shoxalari bir-biriga egilib, yo'lakning sersoyaligini ta'minlaydi va kuchli shamollarga chidamli bo'ladi. Ashxobodda katta maydonli gazonlarni o'rnatishning imkoni yo'qligi uchun yeryopar o'simliklar (Iyuserna)dan va chirmashib o'suvchi (besh bargli tok)lardan foydalanishadi. Park yaratilishining birinchi yillarida piyoda xiyobon (alleya)larda soyani tashkil etish uchun sun'iy moslamalar (tent, ayvon, trelyaj, voish) o'rnatib, lianalar ekishadi.

Park, bog' va o'rmon bog'larida birinchi navbatda inson va tabiiy muhit aloqariga e'tibor beriladi. Asosiy yaratilayotgan kelajak

shaharlari *tabiiy muhit bilan qarama-qarshilikda* bo'lasligi, aksincha, qo'shib ketishi lozim. Shahar va uning atrofidagi chegaralar o'z-o'zidan qat'iyligi va ahamiyatini sekin-asta yo'qotib borayapti. Shaharlar rivojlanishi va aholi joylashuvi tizimida qurilmalar va ochiq yashil muhitlarning qo'shib ketishi asosiy tamoyillardan biriga aylanmoqda. Yirik shaharlar o'zining tarkibida katta o'rmon massivlari, keng suv havzalari, yuz gektarlardan tashkil topgan parklarga ega. Tabiiy landshaftni asrash, kerak bo'lganda uning bor boyligini qayta yaratish lozim. Shaharliklarning tabiatga bo'lgan ehtiyojini faqat shahar tashqarisiga chiqishi bilan emas, balki ularning turar-joylari, ish va o'qish joylarida sharoitlar yaratish bilan qondirish mumkin. Ammo shaharlarning rivojlanish sharoitlari, ularning landshafti tavsifnomasi va shahar aholisi turli guruhlarining dam olish turi va joyiga bo'lgan ehtiyoji nihoyat darajada xilma-xildir. Bu xilma-xillik aholi joylashuvi tizimlari, turli tabiiy-iqlimiy sharoitlarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Parklar va boshqa rekreatsion obyektlarni loyihalashni boshlayotgan landshaft arxitektori qanday ijtimoiy-demografik, shaharsozlik va ekologik omillarga e'tiborini qaratishi lozim? Landshaftni loyihalashning asosiy maqsadi *inson uchun funksional, estetik ekologik xususiyatlarga ega bo'lgan qulay fazoviy muhit yaratishdan iborat*. Uning asosini u yoki bu tabiiy landshaftlarni maqsadli o'zgartirish tashkil etadi. Shuning uchun ularni aniqlash, sinflarga bo'lish, strukturasi tanlash masalalari arxitektura uchun nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ega.

Insonning yashash muhitini aqli ravishda mukammallashtirishda landshaftning biron-bir komponenti (tuproq, o'simlik, suv, havo, relief, geologik asos)ga ta'sir ko'rsatish kerak bo'lsa, uning boshq tarkibiy qismlari qaysi yo'nalishda o'zgarishini avvaldan aniq tasavvur etish lozim. Landshaft holatiga faqat peyzaj qiymati nuqtai nazaridan baholash yetarli emas, joyining fizik-geografik strukturasi ham tadqiq etish kerak bo'ladi. Bu strukturaning ahamiyati arxitektor uchun ko'p holatlarda tabiiy – iqlimiy ma'lumotlardan kam emas, u ko'pincha obyektни joylashtirish, uning mazmuni, tashqi ko'rinishi rivojlanish sharoitlari qonuniyatlarini belgilaydi. Shuning uchun biz asosiy landshaft tushunchalari ma'nosini anglashimiz lozim.

“Landshaft” tushunchasi tabiiy chegaralangan va aniq tashqi ko‘rinish tavsifnomasiga ega bo‘lgan; geologik tuzilish, relef, iqlim va maxsus gidrogeologik sharoitlar, tuproq va biotsenozlar nisbatiga ega bo‘lgan ma’lum joyni bildiradi.

Biotsenoz – aniq quruq joy uchastkasi va suv havzasida joylashgan o‘simliklar, hayvonlar va mikroorganizmlar turkumidir. Biotsenoz – bu *biogeotsenozning*-tarkibiy qismlari moddalar va energiyalar almashinishi bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan bir xil tabiiy sharoitdagi yer yuzasi uchastkalarining barcha jonli va jonsiz komponentlarining kompleksidir. Biotsenoz va biogeotsenoz tushunchalari ekologiyaning – *organizmlar* (o‘simliklar, hayvonlar hamda biologik mavjudot hisoblanish odamning) va *ularning yashash muhiti orasidagi o‘zaro munosabat qonuniyatlari haqidagi fanning* asosini tashkil etadi. Ekologiyaning xususiyati shunday iboratki, u barcha predmetlar turkumini shu turkumdagi asosiy obyekt nuqtai nazaridan ko‘rib chiqadi, masalan: *o‘simliklarni tashqi muhit bilan (o‘simliklar ekologiyasi); shahar va uni o‘rab turgan tabiat (urboekologiya); jamiyat va tabiat (ijtimoiy ekologiya); tabiatning insonga, uning turar-joyiga va boshqalarga munosabatlari.*

Tabiiy landshaftlarni kichik tabiiy-hududiy komplekslarga bo‘lish qabul qilingan. Ular orasida relef turining bir xilligi yoki geologik kelib chiqishi umumiy tavsifnomalarga ega bo‘lgan joylar bo‘lishi mumkin. Masalan, qirlik landshaftni tarkibida yirik, o‘rta va kichik tepaliklar uchraydi. Daryo bo‘yida sohil bo‘yi va sohildan balandroqda joylashgan qismlar bo‘ladi. Landshaft muhitlari asosan relef va mikrorelef, tuproq turi, o‘simliklar shakllari bilan aniqlanuvchi kichik landshaft uchastkalaridan tarkib topishi mumkin. Masalan, maysazorlar, daraxtzorlar, chuqurlik yoki balandlik landshaftlari va boshqalar. Ularning eng kichigi fatsiyadaraxtzor, tepalik, nam idish shaklidagi cho‘l pastligi hisoblanadi.

Bugungi kunda inson qo‘li tegmagan tabiiy-landshaft deyarli qolmagan desa ham bo‘ladi. Amaliyotda bu *antropogen* degan tushunchaga teskaridir. Ammo ba’zida inson umuman o‘zgartirmagan landshaft, ham uchraydi (masalan, tog‘ daryosining sohillari, shahar oldi zonasidagi yirik o‘rmon massivlari).

Antropogen landshaft shunisi bilan farqlanadiki, uning shakllanishida insonning xo‘jalik faoliyati hal qiluvchi rol o‘ynagan, masalan, qishloq xo‘jaligi erlari, shahar qurilmalari shu jumladandir.

Antropogen landshaftning muhim ko‘rinishi—bu madaniy landshaftdir. Madaniy landshaft aniq maqsad asosida inson uchun funksional va estetik xususiyatlarga ega bo‘lgan qulay sharoitlar yaratish demakdir.

Madaniy landshaftlar ichida shaharsozlik va landshaft loyihalash uchun shahar landshafti muhim ahamiyatga ega. U nafaqat tabiiy, balki sun‘iy komponentlarning murakkab o‘zaro bog‘liqligi bilan tavsiflanadi. Bu turar-joylar, jamoat va sanoat binolari, xo‘jalik, muhandislik, transport, energetik inshootlar, ko‘chalar va maydonlar, hovlilar, bog‘ va parklarning obodonlashtirish elementlaridir. Har bir shahar landshafti o‘zining o‘lchamlari, chegaralariga ega bo‘lsada, yopiq voqelik shaklida emas, balki shaharlar aglomeratsiyasi, o‘zaro aloqadagi joylashuv, region kabi yuksak tartibdagi landshaftning tarkibiy qismi, atrof-muhitning bir qismi sifatida rivojlanadi. Shu bilan birga, shahar landshafti bir qator tarkibiy qismlardan iborat: yashash hududlari, sanoat tumanlari, kurort yoki rekreatsion zonalar va boshqalar. Asosiy tabiiy va antropogen landshaftlarning o‘zaro bog‘liq birligi muhim rolga ega. Mana shu birlikgina shahar aholisi uchun yaxshi ekologik muhitni yaratishi mumkin. Har bir shaharda joyning reliefi, suv havzalarining mavjudligi, tuproq va o‘simliklarning xarakteriga bog‘liq ravishda bir necha lokal tuman va kichik tumanlarga bo‘lish mumkin.


Tabiiy landshaftni o‘zgartirishning xarakteri va darajasi, turar-joylarning ko‘p qavatligi yoki kamqavatligi, ko‘cha va yo‘laklarning zichligi, shahar qurilmalariga park, o‘rmon parki, hovuzlar kabi yirik ochiq muhitlarni kiritish, tepaliklar yoki ularning mavjud emasligi—bularning barchasi shahar landshaftining u yoki bu ko‘rinishini va uning fazoviy strukturasi aniqlashtiradi.

Shahar landshaftining rivojlanishi tabiiy landshaftning rivojlanish jarayonlaridan sun‘iy va antropogen omillarning yuqori ahamitga ega bo‘lganligi bilan farq qiladi (4-rasm). Birlamchi tabiiy asosga, iqimiy va boshqa tabiiy sharoitlarga albatta bog‘liq bo‘lgan

shahar landshafti insonning maqsadli faoliyati mahsuli, texnogen aralashuvning natijasi ham hisoblanadi. U *tirik tabiat, muxandisona ijodiyot va arxitekturaning uyg'un birligiga asoslangan shaharsozlik va arxitekturaviy-landshaft san'ati asaridir. Shahar landshafti* aholining jamoat, madaniy, funksional-maishiy talablariga javob berishi, ularning biologik ehtiyojlarini qondirishi lozim.

Landshaftni loyihalashning nazariyasi va amaliyotida shahar tashqarisidagi landshaftlar haqida ham tasavvurga ega bo'lish muhimdir.

Shaharni o'rab turgan landshaftlar foydalanishi bo'yicha qishloq xo'jaligi (dalalar, mevali bog'lar va boshqalar), o'rmon (tabiiy o'rmon massivlari, o'rmon bog'lari yoki ko'chatlar), maysazorlar, "texnogen"(kommunal-xo'jalik vazifasidagi, suv omborlari, foydali qazilmalar joylari, axlat tashlanadgan joylar, tashqi transport hududlari) kabi sinflarga bo'linadi.



4-rasm. Shahar landshafti sun'iy elementlari yashil hududlarning mikroiklimiy va sanitar-gigiyenik tavsifnomalariga

ta'siri: a-ko'p qavatli binolarning soya beruvchi samarasini hisobga olish (Rossiyaning o'rta Yevropa qismidagi sharoitida); b-soya berishning imkoni yo'q; v-obyektlarning soya tushurish davrlari; 1-ertalabgi soya; 2-kechki soya; 4- "ertalabgi" obyektlar; 4- "kechgi" obyektlar; 5- obyektlar.

Hozirgi paytda yaraydigan hududlarning qariyb hammasi o'zlashtirilgan, landshaftning o'ziga xos sun'iy va tabiiy nisbatlariga ega va landshaft loyihalashning obyektlari sifatida ko'rib chiqilishi mumkin. Ular orasida aholining jamoat rekreatsiyasiga birinchi o'rin ajratiladi.

Eng avvalo, rekreatsion zaxiralar tushunchasining ma'nosini ko'rib chiqamiz. Bu *dam olish, turizm va sanitar-kurort davolanish uchun foydalanib bo'ladigan tabiiy va antropogen landshaftlarning obyektlari va hududlari: qulay cho'milish joylari, toza suv havzalari, quruq o'rmonlar, maysazor va daraxtzorlardir.* Ular odatda, yuqori estetik va mikroiklimiy qiymatlari bilan ajralib turadi, ba'zida tarkibida madaniy-tarixiy, arxitekturaviy osori atiqalar, maxsus davolash funksiyalar ham mavjud bo'ladi. Rekreatsion zaxiralar qatoriga dam olishning material-texnik vositalari (yo'llar, turistik bazalar, muhandislik kommunikatsiyalari, ovqatlanish obyektlari va boshqalar). Rekreatsion landshaft – bu rekreatsion faoliyat uchun yaratilgan va o'zgartirilgan tabiiy landshaftdir. Masalan, o'rmon massivi asosida yo'llar, suv havzalari va boshqalar bilan obodonlashtirilgan dam olish zonasi – o'rmon parki shakllantiriladi. Bu yerda ekologik muvozanatni saqlash va yaratish uchun kerak bo'lgan rekreatsion og'irlik va tabiiy kompleks ustuvorligining mos kelishini yoddan chiqarmaslik lozim. Rekreatsion og'irlik–bu odatda, 1 ga joy uchun aniqlanadigan dam oluvchilarning vaqt birligidagi hudud birligiga mos keluvchi miqdoridir.

Tabiiy kompleksning ustuvorligi – bu uning aniq bir vaqtgacha, qayta tiklanish qobiliyatini yo'qotganigacha, rekreatsion og'irliklarga bardosh bera olishidir. Masalan, agar shaharoldi 1 ga maydonga og'irlik 8 kishidan ko'p bo'lsa, biotsenoz holatining yomonlashuvi, tuproqning zichlashuvi, yosh ko'chatlarning


halokatga uchrashi, faunaning yo‘qolishi, estetik ko‘rinishning soddalashuvi va boshqalarga olib keladi. Tabiiy komplekslarning ustuvorligiga daraxt va butalarning navlari, tuproq va gidrogeologik sharoitlar, joyning qiyaligi va boshqalar ta‘sir ko‘rsatadi. 40–50 yoshdagi qayin va 80 yosh dublardan iborat daraxtzor 9 odam/ga rekreatsion og‘irlikni ko‘tara oladi. Sosna va yosh archalar esa 2 odam/ga og‘irlikka dosh beradi.

Shahar va shahar aglomeratsiyalarining tez o‘shishi, atrofi hududlarining o‘zlashtirilishi sharoitlarida tabiatni asrashning turli shakllari muhim ahamiyat kasb etadi. Qo‘riqxonalar – landshaftlar ushbu shakllarning biri hisoblanadi. Quyidagilar qo‘riqxonalar-landshaft obyektlari hisoblanadi: qo‘riqxonalarda (ilmiy maqsadlarda qishloq xo‘jaligi faoliyati sohasidan ajratib olingan va qonun asosida qat‘iy qo‘riqlanadigan tabiiy muhitlar); buyurtma joylar (bir yoki bir necha ekologik tarkibiy qismlar, u yoki bu tirik mavjudotlarning biogeotsenozlarini asrash maqsadida xo‘jalik faoliyatining alohida turlari va shakllari vaqtincha taqiqlangan uchastkalar hududlari); *milliy bog‘lar* (tabiatni asrash va sayyohlik uchun mo‘ljallangan ilmiy-estetik nuqtai nazardan qiymatga ega keng hududlar); **alohida tabiat yodgorliklari va landshaftlar** (sharshara, ekzotik daraxtlar guruhlar, qoyalar, eski turar-joylar, tarixiy shaxslar va sanalarga atalgan landshaftlar) va *xo‘jalik maqsadlarida foydalanshi chegaralangan rekreatsion landshaftlar*.

Ammo qo‘riqlanadigan landshaftlarning ko‘pligi qolgan boshqa landshaftlar qo‘riqlanmaydi degani emas. Ekolog olimlar va shaharsozlar bugungi kunda shunday xulosaga kelishganki, barcha landshaftlar qo‘riqlanishi lozim, faqatgina insonning tabiatni asrash va tabiatni o‘zgartirishi faoliyati nisbati o‘zgarishi mumkin.

Asosli ravishda aytish mumkinki, landshaft arxitekturasi ikki yo‘nalishda rivojlanadi. Birinchisi *ekologik uslubni qo‘llashdan iborat*. Sun‘iy tarkibiy qismlar faqatgina to‘ldiruvchi sifatida, tabiiy sharoitlar saqlanishi lozim bo‘lgan yirik park va o‘rmon parklarini loyihalash va yaratishda birinchi uslub qo‘llaniladi. Ikkinchi yo‘nalish – *sun‘iy landshaftni yaratish* demakdir. Bu yo‘nalish shahar muhitida, tabiiy landshaft shakllari kompozitsiyasiga asoslanish imkoniyati bo‘lmagan sharoitlarda, sport va turli maxsus dam olish

joylarini tashkil etishda kuzatiladi. Ushbu ikkinchi yo‘nalish buzilgan erlarni rekultivatsiya qilishda, shahar magistrallari va qurilmalari “kesib qo‘ygan” joylarda sport parklari va gidroparklar, bog‘ va xiyobonlar yaratishda, binolar tomida bog‘ yaratishda keng qo‘llaniladi. Ammo shuni ta’kidlash lozimki, bir tomondan eng “peyzajli” park ham inson faoliyatining mahsuli bo‘lib, boshqa tomondan “muntazam” rejali bog‘ va parkda o‘zgartirilgan ko‘rinishda bo‘lsa ham, tirik tabiatning elementlari mavjud bo‘ladi.



5-rasm. Landshaftni loyihalashda demografik omillar.

Bog' va parklarga keluvchilarning sutkali ritmini hisobga olish. Parkning kunduzgi va kechki paytda dam oluvchilarga xizmat ko'rsatish obyektlari va funksional zonalarining transformatsiyasi: a) kunduzgi paytda madaniyat va istirohat bog'i markaziy zonasi. Dam oluvchilar uchun kunduzgi paytda parkning erkin tabiiy elementlari (daraxtzorlar, maysazorlar, hovuzlar va boshqalar) diqqatni jalb etadi. Tashrif buyuruvchilarning ko'pchiligini bolalar va katta yoshlilar tashkil etadi. Bolalar o'yin maydonchalari, jihozlarning prokat punktlari, kutubxona, o'yingohlar maksimal bosimda ishlaydi;

b) kechki paytda madaniyat va istirohat bog'ining markaziy qismi. Kechki paytda dam oluvchilarning kontingenti (tarkibi) o'zgarishi sababli "tortish markazi" ko'ngilochar zonalar, restoranlar, kafe, klublar hisoblanadi. Zamonaviy madaniyat va istirohat bog'larida o'zgaruvchan ish rejimiga ega bo'lgan obyektlarni joylashtirishi lozim. Park hududining "kechki" zonasi obyektlari kompakt ravishda joylashtiriladi; 1-faqat kunduzgi ishlaydigan obyektlar (bolalar o'yin maydonlari va attraksionlar, plyajlar, solyariylar); 2-faqat kechqurun ishlaydigan obyektlar (konsert zali, raqsga tushish ayvoni); 3- ham kunduzgi va kechqurun ishlaydigan obyektlar (attraksionlarning bir qismi, qayiq to'xtash stansiyasi, kafe, kutubxona, ko'rgazma va boshqalar); 4-ish rejimini o'zgartirib turadigan obyektlar (kafe, restoranlar, lektoriy-kinoteatr, o'yin maydoni-raqs tushish maydoni va boshqalar).

Landshaftni shakllantirishda relef, suv va suv manbalarining roli

Landshaft (tabiiy)-asosini relef, tog' jinslari, iqlim, yer osti suvlari, tuproq, hayvonot va o'simlik dunyosining tabiiy voqelikning o'zaro aloqasini tashkil etuvchi geografiyaning fundamental tushunchasi tashkil etadi. Geografiyada landshaftning quyidagi o'lchov birliklari mavjud-faksiyalar, muhitli va geografik o'zaro bog'liq joylar. Ammo landshaftga geografik nuqtai nazardan qarash ko'pincha qishloq xo'jaligi maqsadlarida foydalanishga to'g'ri keladi.

Shaharsozlik va landshaft arxitekturasiga tegishli masalalarda esa bir vaqtning o'zida funksional, strukturaviy va kompozitsion talablarni hisobga olish kerak. Relefnings landshaft va shaharsozlikdagi rolini aniqlashtirish uchun biz besh tipologik o'lchamlardan iborat taksonomik tizimga ajratdik:

1. Landshaftning turini iqlimiy tavsifnomalar bo'yicha sinflarga bo'lish;

2. Turlar osti-o'simliklarni zonalarga bo'lishni hisobga olish (tur chegaralarida);

3. Landshaftning sinfi-relef bo'yicha sinflarga bo'lish balandliklar gipsometriyasi;

4. Sinf osti – nisbatan kam ahamiyatga ega bo'lgan joy relefnings tavsifnomasi bo'yicha: tekis landshaftlar uchun-pastlik va balandlik landshaftlari; tog'lik joylar uchun –past, o'rta va baland tog' landshaftlari;

5. Landshaftning ko'rinishi –bu ham relefga nisbatan ammo genesis, struktura va morfologiya bo'yicha batafsil ishlatgan.

Ko'rinib turibdiki, beshta tipologik o'lchamning uchtasida relef hisobga olinadi, ammo shaharsozlikda: 4) sinf osti va 5) landshaftning ko'rinishi ahamiyatliroqdir. Ularda relefga asosiy o'rin ajratilgan. Relefnings asosiy roli uning boshqa landshaft komponentlariga nisbatan doimiyligi, hudud mikroiqlimiga ta'siri, ko'rinishini, rangi va shaklini uzoq vaqt davomida saqlanishi, shuningdek o'zining “karkasi”ga suv va o'simliklar qo'shishi bilan aniqlanadi. Muhit nisbatida ko'kalamzorlar (daraxtlar, butalar)ni “relefnings fakturasi” sifatida, akvatoriylarni esa – “tekis” relef deb qabul qilish kerak.

Shaharsozlik loyihalashtirishda ikki asosiy yo'nalish mavjud-rejalashtirish (ilgari me'yoriy hujjatlarda “loyihalash” deb ataladigan to'g'riroq tushuncha ishlatilar edi) va qurilish. Har ikkala yo'nalishda ham tarkibiga relef mavjud bo'lgan landshaft tarkibiy qism hisoblanadi.

Birinchi yo'nalish (rejalashtirish) olti ko'rinishni qamrab oladi: (mamlakat hududida aholi joylashuvi va bosh sxemasidan loyihalagacha) va yirik landshaft arxitekturasini obyektlarini (tabiiy parklar, qo'riqxonalar, sayyohlik zonalari, umumiy dam olish,

bog‘dorchilik jamiyati hududlari; suv bosish, zilzila, loy ko‘chishi, erroziya va boshqalar natijasida buzilgan hududlar) rivojlantirish masalalari, kartografik, Yer kodeksi bilan birgalikdagi yer, o‘rmon yaratish materiallari integratsiyasi masalalari.

Shaharsozlik loyihalashi (qurilishi) ikkinchi yo‘nalishi uch xil loyihalardan iborat bo‘lib, landshaft tashkillashtirishning vertikal rejalashtirish, muhandislik tayyorgarlik, obodonlashtirish, ko‘kalamzorlashtirish kabi masalalarni qamrab oladi.

Har ikkala yo‘nalish ham landshaft masalalari bilan shug‘ullanadi, ammo landshaft va uning asosiy elementi-relefning tahlilini ta‘minlovchi yagona uslub mavjud emas. “Relief haqiqiy landshaftning asosi, uning qovurg‘asi” degan xulosaga asoslanib, shuningdek, relefning shakli, uning kontrastligi, boshqa fizikaviy tavsifnomalari landshaftning boshqa tarkibiy qismlari kabi, kompozitsiyaga, muhitning babeiy va estetik yechimlariga ta‘sir etishiga asoslanib, relef shaharsozlik yechimlarining asosi deb qabul qilish mumkin. Shu munosabat bilan aytish mumkinki relefning fizikaviy tavsifnomasi, asosiy shaharsozlik muammolari va landshaft arxitekturasi obyektlari shakllanishi darajalari orasida prinsipial aloqalar mavjud. Shaharsozlik rejalashtirish va qurilishning barcha bosqichlaridagi funksional masala – joy tanlash va zonalarni tashkil etishda relefning roli yaxshi o‘rganilgan. Bu birinchidan, hududning mustahkamligi, demak, loy ko‘chishlari, selning mavjud emasligi va buzilgan hududlar – karyer va shaxta muhitlarini park uchun foydalanmaslik demakdir. Ikkinchidan, sanitar-gigiyenik masalalarni yechish: relef shaklining issiqlikning tarqalishi, yog‘ingarchilik, shamol, tuproq va gidrogeologik sharoitlar, shovqin, chang, hududning gazlanganlik darajasini pasaytirishga ta‘siri. Uchinchidan, relef landshaftning boshqa elementlari qatori ijtimoiy masalalar (madaniy-maishiy, rekreatsion soha)ga ta‘sir ko‘rsatadi. Landshaft loyihalash chegaralarida funksional masalalarni yechishda obodonlashtirish vositalarini qo‘llash yetarlidir.

Hudud strukturasi o‘zgartirishda relef roli ikki sohada ko‘rinadi – funksional va strukturaviy. Joylashuvning shakliga, hududning rejaviy strukturasi bo‘linishiga, yo‘l-ko‘cha sxemasi

tavsifnomasiga reliefning strukturasi, uning vertikal va gorizontal bo‘linishi ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, Moskva shahri rejasi rivojlanishi tarixi tabiiy muhit o‘qlarining (Moskva, Yauzi, Neglingi daryolari vohalari) yo‘llarning radial sxemasiga ta’siridan dalolat beradi. Bu shahar rejasini tashkillashtirishning yuqori landshaft-rejaviy darajasidir.

Reliefning shaharsozlik obyektlari kompozitsiyasidagi roli tabiiy muhitning ritmik, masshtab qonuniyatlarini qo‘llashdan iborat. Shaharlarning individual ko‘rinishini yaratishda birinchi navbatda arxitekturaviy-fazoviy kompozitsiya va tabiiy muhit elementlaridaryo sohillari shakllari, relief aksenlarining aloqasi muhim ahamiyatga ega. Qurilishlarni loyihalash bosqichida reliefning kompozitsion ahamiyati oshadi. Agar landshaft arxitekturasini tashkillashtirishning funksional darajasida hudud elementlari (zinapoya, pandus, tayanch devorlar) va reliefni pog‘onalarga bo‘lish vertikal tekislash talablariga bo‘ysunsa, kompozitsiyada relief shaklini badeiy shakllantirish-geoplastika keng qo‘llaniladi. Bu fazoviy-landshaft kompozitsiyasi darajasidir.

Reliefga qo‘yilgan talablarning sanab o‘tilgan uch shakli (funksional, strukturaviy va kompozitsion) real loyihalashda turli aniqlikda hisobga olinadi. Funksional tashkillashtirishning talab va me’yorlari ishlab chiqilgan bo‘lsada strukturaviy-rejaviy masalalarni yechishda hozirgacha faqat funksional-texnologik talablarni hisobga olishadi. Shaharsozlik kompozitsiyasi esa intuitiv ijodiy yondashuvga assolanadi.



Reliefning strukturaviy va kompozitsion xususiyatlarini hisobga olish nazariyotida uning o‘lchamlariga ko‘proq ahamiyat berishadi, bu – relief shakllarining fizikaviy tavsifnomasi va shaharsozlik o‘lchov birliklarini (funksional, strukturaviy, transport va boshqalar) taqqoslash demakdir. Ushbu parametrlar bilan ishlashda modullashtirish uslubi tanlanadi. Modullashtirish uslubida muhit xususiyatlari: relief shaklining yo‘nalishi–rejaviy o‘qlarda; releef modulining o‘lcham kompozitsiyalarining ierarxik o‘sishi; shaharning individual obrazini yaratishda tabiiy modulning ritmik, masshtabli va aksentli tarkibiy qismlarini hisobga olish bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

Xulosada ta’kidlash mumkinki, oxirgi o‘n yillarda shaharsozlik loyihalashida transport, muhandislik hisob-kitoblari, hududni funksional zonalashtirishning texnik va ijtimoiy masalalarni algoritimli yechish joriy qilindi. Shuning kartografik ma’lumotlarni vertikal tekislash loyahasini hisoblash va bosh reja loyahasini bajarishda GIS- texnologiyalardan foydalanishadi. Ammo tabiiy landshaftning strukturaviy va kompozitsion xususiyatlaridan foydalanishga, afsuski, yo intuitiv yondashiladi yoki umuman hisobga olinmaydi. Kun tartibida relief strukturasi morfologik tahlilini avtomatlashtirish algoritmi va natijalarni shaharsozlik jarayonining barcha bosqichlarida foydalanish turibti.

Relief kompozitsiyasi bir necha bosqichlarda kshrib chiqilishi kerak:

- regional (yirik hududlar releafining umumiy xarakteristikasi);
- shaharsozlik (aholi yashash joylarining rejaviy strukturasi);
- landshaftni batafsil loyihalash (yer yuzasi arxitekturasini shakllantirish).

Geoplastika –aniq estetik sifatlarga erishish uchun relief shaklini sun’iy o‘zgartirish demakdir. Tepaliklar turar-joy qurilmalari va parklarda katta bo‘lmagan yopiq muhitlar tashkil etib, shovqin va shamoldan himoyalovchi o‘ziga xos ekranlarni tashkil etadi va yaxshi iqlim paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Pog‘onalashtirilgan pastliklar katta bo‘lmagan xalq ijodiyoti, yoki sport o‘yinlari uchun amfiteatrga aylantirilishi mumkin. Ko‘priklar, zinapoyalar, panellar bilan bog‘langan “epaliklar” guruhi qiziqarli o‘yin holatlarini tashkil etadi. Bu holatlar – ko‘rish nuqtalarining ko‘pligi, ta’sirchan bo‘lmagan inshootlarni niqoblash, nur va soyaning o‘yinidan iborat (6-rasm).




6-rasm. Park kompozitsiyasida reliefning tabiiy shakllaridan foydalanish. Kompozitsiyaning zinapoyaviy xarakteri, tepadagi keng va ochiq perspektivadan nisbatan chegaralangan pastki qismlarga o'tish, balandlik va pastliklar, zinapoyalar, tayanch devorlar va boshqalardan foydalanish: 1-eng faol vizual nuqtalar; 2-baland-roqda joylashgan nuqtalardan qabul qilinadigan qiyaliklar; 3-terrasalar.

Relief shaklini sinflarga bo'lish. Tashqi ko'rinishga assolangan 1-guruh. Tekislik-balandliklarning yaqin nuqtalari bir-biridan juda kam farq qiladi 2-guruh. O'zaro kesishuvchan yoki qismlarga bo'lingan joylar.

Balandliklarning masshtabi bo'yicha: tog'li va tepalik joylar. O'zaro kesishuvchan joylar elementlar: ijobiy (tepalik) va manfiy (chuqurlik) shakllar majmuasidan tashkil topgan. Ijobiyolari: tog', qoya, tog' tizmasi yo zanjiri; tepalik, zinapoyalardan iborat bo'lsa, manfiylari: vodiylar, kovlangan joylar, chuqurliklar, pastliklardan tashkil topadi.

Loyihachining vazifasi – relief shaklini saqlash yoki “kuchaytirish”dan iborat. Relief shakllarini-mo‘jaz me‘yoriy shakllar, pavilonlar, alohida yoki o‘simliklar guruhini o‘tqazish bilan bo‘rttirib ko‘rsatish mumkin (7-rasm).

Qiyalikda joylashgan parkning asoiy xususiyati uning kompozitsiyasining frontalligidadir. Qiya tekislik barcha vizual kommunikatsiyalar tizimini tashkil etib, uni oldindan aniqlaydi – inson ko‘zi tepalikdan paslikga qarab intiladi. Tomoshabin pastda turgan bo‘lsa, uning ko‘zi birinchidan teaga, bir gorizontal tekislikdan ikkinchisiga, qoyaga qarab intiladi. Park ko‘rinishining bunday ketma-ketlikda ochilishi bir asosiy simmetrik o‘q bo‘ylab joylashgan suratlar qatoriga o‘xshatish mumkin.



7-rasm. Tog‘ parklari. Kompozitsiyaning spiralsimon davriy rivojlanishi, parkni o‘rab turgan tashqi muhitga panoramaning sekin-astalik bilan ochilib borishi, tog‘ qoyasining, balandlikning o‘ziga xos kulminatsion roli: a–i ko‘tarilish me‘yoriga bog‘liq ko‘rinishlarning ketma-ket ochilishi; 2-spiralsimon xiyobon; 3-ko‘rinishlarning davriy aylanishi; 4-kompozitsiyaning kulminatsion nuqtasi, tog‘ qoyasi; 5-sirg‘aluvchan tushish joyi.


Bunday parklarning o'ziga xos kompozitsion vazifasi qiyalikning fazoviy strukturasi ko'rsatishga asoslangan. Reliefning nisbatan tekis zinalari vositasida tepalikka ko'tarilish terrasalar tizimini shakllantirishiga olib keladi. Bunda aniq "sinish"lar, tekis elementlardan qiyasiga o'tish asosiy rol o'ynaydi. Aynan shu kesilgan qismlar chegarasi (brovki) dan pastga ko'rinish ochiladi, siluet chiziqlari shakllanadi. Tepalikning qavat-qavat tekis pog'onalarga bo'lingani, pastdan qaragan kishiga frontal tekislik shaklida ko'rinib, pog'onalar ko'zga tashlanmaydi. Landshaft arxitektoriining maqsadi – reliefning bu pog'onali, ritmik strukturasi arxitekturaviy-landshaft vositalari yordamida ko'rsatishdan iborat.

Ikkinchi xususiyat shundan iboratki, parkning asosiy inshootlari va ba'zi holatlarda sport maydonchalari aynan shu pog'onalarda joylashgan bo'ladi. Bu holatlarda landshaft toshdan tuzilgan tayanch devorlari, dekorativ basketlar, pergolalar, o'ralgan yashil "kabnet"lar va labirintlar bilan boyitiladi.

Samarqand shahrining shimoliy chekkasida joylashgan Cho'pon-ota park-kurort shaharchasining loyihasida terrasalar, ko'rish alleyalari va maydonchalarining murakkab tizimi Zarafshon darayosiga qaratilgan. Bu yerda tabiiy tosh qiyaliklar o'z holatida saqlanib, alohida inshootlar, masalan, o'yingohlar, raqs maydonchalari, bolalar shaharchasi va ularni o'rab turgan maydonchalar reliefning "zina"larida joylashtirilgan. "Guldasta" kabi o'tqazilgan daraxtlar soyani ta'minlaydi, shu bilan birga daryo vohasi va parkning asosiy panoramasini to'smaydi. Eng baland qismda balandligi 100 m bo'lgan tomosha minorasi qurilgan (8-rasm).

Reliefning manfiy deb nomlanadigan shakllari-jarliklar, tor va qirli daryo vohalari va boshqalar – yuqorida ko'rib chiqilgan uslublardan farq qiluvchi boshqa bog'-park kompozitsiyasining umuman boshqacha uslublaridan foydalanishni talab qiladi. Bunday uchastkalar loyiha mualliflari tomonidan sun'iy ko'l va chang'ida uchish qiyaligini yaratish uchun foydalanilgan. Cho'pon-ota vohasida yoki kanonida joylashgan park-kurort kompozitsiyasining aniqlovchi omili – to'rt tomondan o'rab turgan tepaliklar va


chuqrlkning ko‘ngilochar obyektlar, sharsharalar va akvoparkli sun‘iy ko‘lcha aylantirilgan to‘lqinsimon gorizontalk tekislikdir. Bu holatda butun park kompozitsiyasini o‘ziga bo‘ysindiruvchi bo‘ylama fazoviy o‘q mavjuddir. Bu o‘q bo‘ylab odatda, asosiy xiyobonlar, parkning asosiy inshootlari, katta maydonchalar joylashadi. Parkning yagona o‘qi bo‘ylab o‘zgaradigan taassurotlar juda qiziqarlidir (9–10-rasmlar).



8-rasm. Samarqanddagi Cho‘pon-ota “Aqli kurort shahri” rekonstruksiyasi. Bu yerda tabiiy tosh qiyaliklar; yashash, madaniy-xordiq chiqarish, chang‘ida uchish va akvapark, plyaj kabi alohida zonalar va ularni o‘rab turgan maydonchalar relfning “pog‘onalari”da qurilgan (Raximov K.D., Lojchenko A.).

Kontrastning rolini ham hisobga olish kerak. Agar biz katta bo‘lmagan tepalik yoki kichik tog‘ning ko‘rinishi samarasini oshirmoqchi bo‘lsak, ko‘rayotgan odamni tekis yo‘ldan yo‘naltirish, yoki tekis joy fonida qarash va undan ham yaxshirog‘i aniq bo‘linishlarga ega bo‘lgan ko‘p qatlamli peyzaj fonida qaratish kerak (11-rasm). Kompozitsiyaga mikrorelfni qo‘shish natijasida balandlik o‘lchamlarining tebranishi amplitudasi quyidagicha bo‘ladi: umumiy darajadan baladda joylashgan narsalar balandroq

va pastda joylashgani undanda pastroq ko‘rinishi lozim. Bu qarama-qarshiliklar bir-biriga nisbatan yaqin joylashganida yutuqli holatga erishish mumkin. Tomoshabin nigohini parkning asosiy ko‘rinishlarida kontrast aniq his etiladigan nuqtalarga qaratish lozim.



7




8




9-rasm. Mikrorelef shakllari foydalanilgan parklar. Balandlik o‘lchamlarining tebranishi amplitudasini kuchaytirish usullari, eng baland nuqtalarda arxitekturaviy inshootlarni joylashtirish yoki daraxtlar ekish, sun‘iy balandliklar yaratish, chuqurlik va pastliklarni bo‘rttirib ko‘rsatish: 1-kompozitsiya rivoji boshlanishi; 2-kompozitsiyaning uzoqdan qarashga mo‘ljallangan zonalar; 3-siluet; 4-kompozitsiya rivojining boshlanishi; 5-ritmik

takrorlanadigan ko‘rish nuqtalari; 6-ko‘rish nuriga egilgan aniq rejali tekisliklar ritmi; 7- kichik tog‘ yoki tepalik atrof-muhit bilan bog‘langan kompozitsiyani belgilaydi; 8-idishsimon pastlik kompozitsiyaning yopiqligi va o‘ralganligini bildiradi.



10-rasm. Tog‘ yonbag‘irlarida joylashgan parklar. Sohil bo‘ylari, muhitni alohida yoaiq landshaft “basseynlariga” bo‘linishining vizual tasirini belgilovchi, kompozitsiyaning kesib o‘tuvchi bo‘ylama o‘qi: 1- kompozitsion o‘q; 2-markaziy zona; 3-faol vizual ochilishning yonbosh zonalari.

Park shaharining kompozitsiyasini tuzishda relefning tabiiy arxitektonikasini ko'rsatish kerak bo'lsada, qoida bo'yicha asosiy kuchni avvalgi holatni boyitishga – jarlikning keskinligi yumshatish, uning maydonini kengaytirish, ko'kalamzorlashtirish, sug'orish va boshqalarga qaratish kerak bo'ladi.



11-rasm. Jarlik hududlaridagi parklar. Yopiq kompozitsiyalarning ko'pligi, jarlikga "tushiruvchi" fazoviy o'qni aniqlash va ochiq muhitga chiqish samarasiga erishish, sharsharali kichik pog'onali hovuzlarni tashkil etish, baland ko'rish nuqtalarini

yaratish: 1- kompozitsion tugunlar; 2- kompozitsiyaning asosiy o‘qi; 3- kompozitsiyaning ikkinchi darajali o‘qlari; 4- chekkalar va ko‘rish nuqtalari; 5- jarlikning ichi; 6- jarlikning qiyaligi; 7- jarlik tepasi.

Parkning bevosita jarlik chegarasida joylashgan joylariga aniq yopiq muhitlar xosdir. Relief shaklining bu xususiyati muhitning o‘ralganligi va “mahkamligini” kompozitsion nuqtai nazardan ta‘minlaydi. Ammo ba’zida teskari masala— *juda yopiq va bo‘lingan muhitlarga ochiqroq xususiyat bag‘ishlash masalasini yechish talab qilinadi.* Bunga tepalikdan pastga intilayotgan yo‘llar tizimi, yo‘lak va zinapoyalarni jarlikdan chiqish yagona “oqimiga” qo‘shish orqali erishiladi. Bu holatlarda ko‘kalamzorlarning yetakchi ko‘rinishigazon va butalar bo‘lib, baland bo‘yli o‘simliklar faqat ba’zi joyda peyzajning rang-barangligi uchun ekiladi. Arxitekturaviy inshootlarni tepaliklarning chekkasida va jarlikdan chiqish joylarida o‘rnatish maqsadga muvofiqdir.

Shunday qilib, reliefnı o‘zgartirisho‘ning uch holatini ajratish mumkin:

– reliefnıng tabiatda uchraydigan shakllarini qayta yaratish (yoki imitatsiya);

– hududning alohida uchastkalarida geometrik shakllarnı (piramida, val va boshqalar) yaratish;

– reliefnıng funksional shakllari-shovqindan himoyalovchi Brustverlar, dambalar, val, chang‘ida uchish tepaliklarini yaratish.

Loyihalananayotgan relief atrofıdagi landshaftga qarshi bo‘lmasligi, uning shakllari atrof-muhit bilan uyg‘un bo‘lishi lozim. Mikroiqlimni shakllantirish maqsadida yaratilgan sun‘iy tepaliklar hududni yoqimsiz shamollar va yelvizaklardan asraydi; janubiy qiyaliklar—dam olish maydonchalari va mos keluvchi o‘simliklarnı etishtirish uchun juda qulaydir.

Ko‘kalamzorlashtirilgan hududni vertikal tekislash – bu reliefnı landshaft-rejaviy yechimlarning qoida va talablariga muvofiq o‘zgartirishga yo‘naltirilgan tadbirlar kompleksidan iborat. Vertikal tekislashning asosiy masalalari:

– yer usti qoldiq suvlari (yomg‘ir, suv toshqini, erigan qor)ni maxsus o‘rnatilgan inshootlar yordamida oqizishni ta‘minlash;

– piyodalar va transport qulay harakati sharoitlarini yo‘lalar, alleyalarda, dam olish va o‘yin maydonida yaratish;

– relefning ta‘sirchan plastik shakllarini yaratish, maxsus inshootlar o‘rnatish yordamida mavjud relefni maksimal moslashtirish;

– qimmatbaho o‘simliklarni o‘stirish uchun qulay sharoitlar yaratish, tuproq eroziyasiga yo‘l qo‘ymaslik.

– maxsus inshootlar yordamida qiyaliklar, suv havzalarining keskin tushgan sohillarini mustahkamlash;

– kesilgan joylarda zinapoyalar, tayanch devorlar va boshqalarni o‘rnatish.


Geoplastika – zamonaviy landshaft arxitekturasieng eng istiqbolli yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, arxitekturaviy-badeiy maqsadlarni ko‘zlaydigan vertikal tekislashning bir turidir. Sun‘iy releflar – tepaliklar, terrasalar, tuproq uyumlari, amfiteatrlar va boshqalarni yaratish qadim zamonlardan ma‘lum bo‘lib, bizning zamonamizda texnikaning imkoniyatlari juda kengayib ketganidan, relefni shakllantirish umumiy bog‘-park yaratishda doimiy qo‘llanilyapti. Zamonaviy texnika yordamida amaliyotda xohlangan relefni yaratish mumkin. Bu arxitektordan maxsus javobgarlikni talab qiladi va biron-bir yechimga kelishi uning bilimi, didi, aniq ijodiy pozitsiyasiga bog‘liq. Kompozitsiya masalalari bu yerda ekologiya, iqtisodiyot, agrotexnika bilan bog‘liq bo‘lib, muhim ilmiy tadqiqotlar va tajriba-eksperiment ishlarni o‘tkazishni talab etadi.



12-rasm. Tosh kareri o‘rnida yaratilgan tog‘ parki: a-umumiy ko‘rinish; b-amfiteatr qirgimi; v-asosiy kirish qismining qirgimi.

Bog‘ va parklarda sun‘iy relefni shakllantirish ishlari foydalanish va yoki faqat estetik zavq olish maqsadlarida amalga oshishi mumkin. Birinchi maqsad bo‘yicha, masalan, shovqindan himoyalovchi brustverlar, chang‘ida uchish joylari yaratiladi. Relefni modellashtirish faqat badiiy maqsadda, masalan tekis relefda landshaftning ta’sirchalligini oshirishda, tuproq uyumi – pedestalni

yaratishda, istalmagan perspektivani yopishda, parter chuqurligini vizual “ramka”sini yaratishda, haykali relefni shakllantirishda qo‘llanishi ham mumkin (12–13 -rasmlar).



13-rasm. Parklarni tashkillashtirishda buzilgan landshaftlarni qayta yaratish usullari: I–park landshaftiga terrakoniklarni kiritish: 1-balandlikning keskin konturlarini yumshatib tabiiy shakliga yaqinlashtirish; 2-tepalik hajmini “bo‘luvchi” tanlangan ko‘kalamzorlashtirish, II–tizmasimon tepaliklar shakllarini yumshatish va ko‘kalamzorlashtirish; III–terrasalarga plastik ishlov

berish va ko'kalamzorlashtirish; IV–karer shakllaridan quyidagi parklar yaratishda foydalanish: 1-“o‘yin” landshafti; 2-“sahnali” dekorativ hovuzlar; V–(a)-terrasa shaklidagi, (b)- langarsimon balandliklar relefiga plastik ishlov berish va obodonlashtirish: 1- tabiiy shakllarga o‘xshatish; 2- muntazam, geometrik shakllar uslubini yaratish (stilizatsiya); VI–tepalik ostidagi hududdan foydalanish: 1-tepalikni umuman buzib tashlash; 2-tepalikni qisman buzish; 3-tabiiy tepaliklar guruhiga qo‘shish; VII–kanal transheyasi chuqurligining bo‘ylama profilini shakllantrish: 1-keyinchalik rekreatsion maqsadni hisobga olinmagani, 2-suv bo‘yicha tushish va cho‘milishning qulayligi, ko‘kalamzorlashtirish va boshqalar; VIII–chuqurliklar va cho‘kkan joylarni yuqotish: 1-butunlay ko‘mish; 2-kanallarni qoldirib, qisman ko‘mish; 3- relefni ko‘chirish (transformatsiya); IX–park kompozitsiyasida relefning buzilgan manfiy shakllaridan foydalanish; 1-chuqurliklarni butunlay yo‘qotish; 2-karerni suv havzasiga aylantirish; 3-amfiteatrni o‘rnatish.

Suv va suv moslamalari tabiiy muhitning muhim tarkibiy qismidir. Suv havo haroratini pasaytiradi, namligini oshiradi va mikroiqlimga kerakli ta’sir ko‘rsatadi. Suv havzalari manbalar bilan ta’minlanganlik tarkibiga ko‘ra oquvchan, turg‘un va sekin oquvchan bo‘lishi mumkin. Jarlik va chuqurlik joylardagi, shuningdek tekis joyda kovlangan suv havzalari turg‘un, oqmaydigan bo‘ladi. Suv havzalari yomg‘ir, qor, muzlik, yer osti suvlari bilan ta’minlanishi mumkin. Daryo suvlari bilan ta’minlanishi aralash uslubda amalga oshadi.

Landshaft loyihalashda suvdan foydalanishning bir necha darajasi mavjud. Landshaft dizaynida suv utilitar (foydalaniladigan) va dekorativ moslamalarda ishlatiladi. Utilitar tez-tez foydalaniladigan moslamalarga suv ichish favvorolari, hududlar, chuqur bo‘lmagan basseynlar, baliq tutish hovuzlari, kanallarni sanab o‘tish mumkin. Hajmiy haykali dekorativ favvoralar, devor oldi favvoralar, suv oynalari, kaskadlar, sharsharalar, dekorativ moslamalar hisoblanadi.

Suvdan foydalanishning rang-barang shakllari loyihachiga yuqorida sanab o'tilgan sifatlarni ko'rsatish maqsadida boy estetik vositalardan foydalanish imkonini beradi, vaholanki suvni utilitar maqsadda foydalanishi, bir vaqtning o'zida uning dekorativ xususiyatlarini ham inkor etmaydi.

Suv ichish favvorachalari kichik me'moriy shakl sifatida bajarilishi mumkin. Uning barcha elementlari: oquvchi sharshara, suvni qabul qiluvchi "idish" va boshqalar haykallar maqomida bajariladi.

Hozirgi paytda umumshahar ansambllarida, xususan, shahar markazining jamoat inshootlari kompleksida suv moslamalarining ahamiyati oz emas.

Ko'kalamzorlashtirilayotgan uchastkada landshaft dizaynida foydalanilayotgan o'simliklarning tarkibi *dekorativ ko'rinishini ko'pincha tabiiy omillar-iqlim, tuproq va relief belgilaydi. Muhitni dekorativ bezashini yaratayotganda relief muhim tarkibiy qism vazifasini bajaradi* va bog' o'simliklari kompozitsiyasini, arxitekturaviy va bog' elementlari joylashuvini yuqori darajada belgilaydi.

Har qanday ko'kalamzorlashtiriladigan muhitda dekorativ o'simliklarni, arxitekturaviy elementlar kabi, landshaft dizayni kompozitsiyasida shunday qo'shish kerakki, reliefning imkoniyatlaridan foydalanib, atrof-muhitning xususiyatlarini to'ldirish va boyitish mumkin bo'lsin. Joyning qismlarga ajratib kesilishi o'simliklarning kompozitsion joylashuvi va loyihalash uslublariga ta'sir ko'rsatib, ko'kalamzorlashtirilayotgan bog' muhitida katta rang-baranglik yaratish imkonini beradi.

Reliefning barcha shakllari odatda tuproqning turlariga bog'liq bo'ladi, chunki atrof-muhitning har bir sharoiti o'simlikning o'sish xarakterini belgilaydi. Shuning uchun landshaft dizayni kompozitsiyalari uchun dekorativ daraxt va butalarni tanlayotganda ularning uzoq yashashi va o'zining dekorativ sifatlarini kengroq namoyon etishi uchun qulayroq ekologik sharoitlarda joylashtirish lozim.

Ba'zi holatlarda yashil kompozitsiyalarda o'sib ketish joyi mos kelmaydigan daraxt navlarini tanlashadi. Masalan, *balandliklar yoki*

keskin qiyaliklarda – majnuntollarni, quruqlik joylarda – pixta va oddiy yasenni, qumlik va quvvatsiz tuproqlarda –lipa va dublarni ekishadi. Bu holatlarda hududni tashkillashtirish g‘oyasi qanchalik yaxshi bo‘lmasin, ijodiy dekorativ samaraga erishib bo‘lmaydi. Masalan, quvvatsiz tuproqlarda dub past bo‘yli bo‘lib qoladi, pixta esa quruq tuproqlarda juda oriq daraxtga aylanadi. Ammo ular o‘ziga mos relefda gurkirab o‘sishi va dekorativ xususiyatlarini namoyon etishi mumkin.

Hududni ko‘kalamzorlashtirish xarakteri joyning ekspozitsiyasiga ham bog‘liq: shimoliy yoki janubiy qiyalik, juda yorug‘ joylar, himoyalangan yoki ochiq, quruq yoki nam tuproqli va boshqalar. Qir va adirli joylarda albatta, relefning xarakteriga e’tibor berish kerak, chunki u iqlimiy va tuproq sharoitlarini aniqlovchi va taqsimlovchi omil hisoblanadi. Tekis tumanlarni asosan, bargli va turli mahalliy ignabargli o‘simliklardan shakllantirishadi. Tog‘li joylarda esa, tog‘ sharoitiga yaxshi moslashgan ignabargli va bargli daraxt va buta navlaridan foydalanishadi (qayin, buk, yavor, oddiy yasen va boshqalar).

Tepaliklar hududlarida kompozitsiyasida *relefga urg‘u berish uchun imkon qadar cho‘zinchoq siluettlardan foydalanishadi* va maxsus o‘simlik hamda arxitekturaviy elementlarni tanlab, dominanta xarakterini yaratishadi. Katta qiyalikka ega bo‘lgan joylarni pog‘onalarga bo‘lishadi, qoyali uchastkalar va amfiteatr qurishadi. Tepaliklarga boy bo‘lgan joylar butun ko‘kalamzor hudud kompozitsiyasida, yo‘llar tizimini o‘rnatishda, vertikal tekislashda, o‘simliklar va arxitekturaviy elementlarni joylashtirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Tepaliklarda o‘simliklarning mos keluvchi guruhlarini yaratishda *keskin va keraksiz kontrastlar va haddan ziyod samaralardan voz kyechish maqsadida landshaftni chuqur o‘rganish talab etiladi.* Tekislik joylarda ham o‘simliklarni rejalashtirish va fazoviy tashkil etish ham, ayniqsa, turli-tuman o‘simlik siluettlarini yaratishda, ancha qiyin masala hisoblanadi. Landshaft dizayneri hatto kichik joylarni ham, turli balandlik va xarakterga ega o‘simliklar yordamida vertikal munosabatda dinamika va rangbaranglikni yaratish uchun, e’tiborsiz qolmasligi kerak.

Tekis joylarda o‘simliklarning dinamik siluetini yaratish uchun, kichikroq balandlik bo‘lsa ham unda eng baland va rangi bo‘yicha yorqin o‘simlikni, pastroq joylarda esa bo‘yi nisbatan past bo‘lgan daraxt va butalarni o‘tqazish lozim. Landshaft dizaynida ochiq muhitlarda katta bo‘lmagan massiv va guruhlarini yaratish uchun baland bo‘yli va past bo‘yli daraxt navlarini birga moslashtirib ishlatish kerak.

Nazorat savollari:

1. *“Kelajak shaharlari”ni yaratishda landschaft arxitektori tabiiy muhit va atrof tabiatining qanday aloqasini hisobga olish lozim?*

2. *Shahar landschaftini loyihalashda nimalarga e‘tibor berish lozim va u qanday talablarga javob berishi kerak?*

3. *Landschaft arxitekturasini shakllantirishda ekologiya tushunchasining asosiy ma‘nosi nimalardan iborat?*

4. *Biotsenoz va biogeotsenoz tushunchalarining ma‘nosini tushuntiring.*

5. *Tabiiy omillarni maqsadli o‘zgartirishda landschaft loyihalashning asosiy maqsadi nimadan iborat?*

6. *Rekreatsion zaxira tushunchasini izohlab bering.*

7. *Landschaft va shaharsozlikda relefnings rolini aniqlashtirish uchun qanday tizimdan foydalanishadi?*

8. *Landschaft loyihalashning funksional masalalarini yechishda relefnings roli qanday?*

9. *Relief kompozitsiyasi qanday darajalarda ko‘rib chiqilishi kerak?*

10. *Ma‘lum estetik sifatlariga erishishda relief shakllarini sun‘iy o‘zgartirish tushunchalarini tushuntiring.*

11. *Tepaliklar va tog‘li joylarda landschaft obyektlarini loyihalashda loyihachining asosiy vazifasi nimadan iborat?*

12. *Samarqand shahrining shimoliy chekkasidagi Cho‘ponotada park-kurort shaharchasini loyihalashda landschaft talablarining qaysi xususiyatlari hisobga olingan?*

13. *Tepaliklar va tog‘li joylarda yopiq va bo‘lingan muhitlarga ochiq xarakterni qanday yaratish mumkin?*

14. *Relefning qaysi uch holatini bilasiz?*
15. *Ko'kalamzorlashtiriladigan hududning vertikal tekislash tushunchasini izohlab bering.*
16. *Landshaftni shakllantirishda suv va suv manbalarining roli qanday?*
17. *Ko'kalamzor uchastkalar landshaft dizayni o'simliklarning tarkibi va landshaft obyektlarining dekorativ ko'rinishining xarakterini qanday omillar belgilaydi?*
18. *Atrof-muhitning sharoitlariga bog'liq bo'lgan o'simliklarning landshaft loyihalashdagi xarakterini nima belgilayli?*
19. *Qir va adirli hududlarni kompozitsion tashkillashtirishda qanday siluettlardan foydalanishadi va ular nima uchun kerak?*
20. *Bog' ijodkorining landshaft arxitekturasi obyektlarini shakllantirishning boshlang'ich bosqichidagi vazifalari nimalardan iborat?*
21. *Tuproq-iqlimiy sharoitlari noqulay bo'lgan joylarda park qurilishining qanday uslublari ishlatiladi?*

II BOB. MADANIY LANDSHAFLAR, REKRATSION MUHITLAR, SANOAT VA JAMOAT BINOLARI HUDUDLARI LANDSHAFTLARINING TIPOLOGIYASI

Madaniy landshaftlarning turlari, rekreatsion muhitlar va ularning joylashishi, sanoat va jamoat binolari hududlari landshaftlari arxitekturasidagi uslublar, ijodiy yo‘nalishlar va rivojlanish shakllari.

Shahar hududida ishlab chiqarish va sanoat korxonalarining hududlarini ko‘kalamzorlashtirishda korxonalar jamoasining samarali mehnat qilishi va tanaffus paytlari ochiq havoda dam olishlari uchun hamda atrofdagi hududlarni shovqin-suron va havoga zararli moddalarni chiqarishdan saqlash choralarini ko‘rish zarur. Korxonalar hududini ko‘kalamzorlashtirish ishlari ishlab chiqarish sexlari va maydonlarini tashkillashtirish, ularni hududlari funksional zonalashtirish va ishlab chiqarish texnologiyasining talablari, har bir zonaning arxitekturaviy va sanitariya-gigiyenik talablari asosida amalga oshirilishi zarur. Masalan, korxonaning ma‘muriy, ishlab chiqarish, yordamchi maishiy zonalarini o‘z xususiyatiga egaki, hudud landshaftini shakllantirishda ularni e‘tiborga olish zarur. Korxonalar hududini uning har bir zonasi xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ko‘kalamzorlashtirish va obodonlashtirish korxonalar ishchilarining kayfiyatini, mehnat samaradorligini oshirish, sog‘ligini mustahkamlashdan tashqari korxonalar hududining me‘moriy-manzaraviy va landshaft yechimini, uning landshaft dizaynini yaratishning samarali shakllarini izlab topish imkonini beradi.

Bunda, ayniqsa, korxonaning ma‘muriy va maishiy umumkorxonaviy hamda ishlab chiqarish sexlari zonalarining hududlarini ko‘kalamzorlashtirish katta badiiy mahorat talab qiladi. Bu qismlarda guruhlab ekilgan daraxt va butalar, parter gulzorlar va maysalar, dam olish va hordiq chiqarish uchun voishlar, soya-salqin o‘tirgichlar, bog‘-park mebellari, pergola va trelyajlar, favvara va dekorativ hovuzchalar tashkil qilish va yorqin rangli mevali daraxtlar ham bo‘lishligi maqsadga muvofiqdir. Biroq daraxt va

butalarning aksariyati manzaraviy bo'lishligi, ular regulyar (muntazam) tartibda ekilgani ma'quldir.

Ishlab chiqarish korxonasi, zavod yoki fabrikaning ichki transport yo'llari bo'ylab hamda mexanizmlar – omborxonasi zonasi maydonlarining chetlari va ishchilar ko'p harakatlanuvchi asosiy xiyobonlar bo'ylab keng shox-shabbali, baland dov-daraxtlarning ekilishi maqsadga muvofiq. Ishlab chiqarish sexlarining janub va g'arb taraflarga qaragan fasadlari bo'ylab ham quyuq quyosh nuridan himoyalaniish maqsadida keng shox-shabbali dov daraxtlar ekilgani ma'quldir. Issiq texnologiyali ishlab chiqarish sexlari atroflarida ham to'q soya beruvchi, tanasi baland dov-daraxtlar ekilgani yaxshi. Bunday sexlar atrofida tanaffus choqlarida dam olishni tashkil qilish maqsadida suv purkovchi va tizginli suv qurilmalarini o'rnatish katta samara berishi muqarrar. Sex orasidagi imorati yo'q maydonlarda atrof-hududlarda sanitariya himoya yashil zonasini shakllantirish uchun ko'p qatorli, tig'is, iloji boricha baland, keng shox-shabbali daraxtlar tanlanadi. Himoya zonasining ichki tarafidan tig'is bargli butalar ekiladi.

Ishlab chiqarish korxonalarini ko'kalamzorlashtirishda chang, gaz va sho'rlanishga chidamli o'simliklarni tanlashni, mazkur korxonaning atrof muhitni ifloslantirish xususiyati va darajasini ham e'tiborga olgan holda landshaft tashkillashtirishni amalga oshirish zarur.

Zamonaviy *qishloq* aholi punktlari hududlari, ayniqsa, mustaqillik yillarida qurilayotgan qishloq binolari, xususan, ma'muriy, madaniy-maishiy, savdo va turar-joy massivlari hududining landshaft yechimlari va dizaynini, ularni ko'kalamzorlashtirish va obodonlashtirish usullari shaharlarnikidan katta farq qilmasligi kerak. Agar qishloq aholisining turmush sharoiti va hayot faoliyatini shaharliklar darajasiga yaqinlashtirish va tenglashtirish borasidagi bugungi kun talablarini e'tiborga olsak, bu masala yanada oydinlashadi. *Qishloq ishlab chiqarish zonalari* (qorakulchilik fermalari, qishloq xo'jalik mahsulotlariga boshlang'ich ishlov berish va qayta ishlash korxonalari, tuzatish-mexanika ustaxonalari, issiqxonalar va bug'xonalar, qurilish, transport va xo'jalik korxonalari) hududlarini arxitektorlar aholi yashaydigan turar-joy

massivlari va yangi mahallalardan uzoqlashtirish va chetlashtirish tadbir-choralarini ko‘rishlari zarur. Bunday zonalarini ko‘kalamzorlashtirish va obodonlashtirish, ularning landshaft echimlari shaxar landshaftidan past darajada bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik zarur. Chunki yaxshi ko‘kalamzorlashtirilgan ozoda va ko‘rkam mehnat sharoitini yaratish, hayotda tartib va orastalikni ta‘minlashi zarur (2.1– 2.2-rasmlar).



2.1-rasm. Qishloq ishlab chiqarish va qayta ishlash korxonalari muhitini landshaft yechimi.


Ishlab chiqarish va yashash (seliteb) hududlari orasida eni 25–50 metrlik yashil himoya zonasini shakllantirish kerak. Ishlab chiqarish zonasida, shuningdek, ichki himoyalani ko‘kalamzorlari yaratilishi kerakki, ular maydonlarni bir-biridan ajratishi, harakatni to‘shishi, shamol va quyosh radiatsiyasidan saqlashi ayni paytda, manzaraviy estetik funksiyalarni ham bajarishlari zarur. Ishlab chiqarish zonasi hududida ekilayotgan o‘simliklarning turlari va navlari binolar va korxonalar xususiyatlaridan va ekologik landshaft tamoyillari talablaridan kelib chiqib tanlanadi. Bunday zonalar ko‘kalamzorlashtirishda maysazor ekinlaridan foydalaniladi va ular orqali zonalar ajratish lozim.



2.2-rasm. *Ishlab chiqarish va yashash (seliteb) hududlari orasida eni 25–50 metrlik yashil himoya zonasini ko‘rinishi va uzanalar ajratish uslubi.*

Barcha yo‘llar, ariqlar bo‘ylari, imoratlar atrofi va zonalar ishlab chiqarish xususiyatidan kelib chiqib ko‘kalamzorlashtiriladi. Masalan, qorako‘lchilik fermalarida, odatda, mollar teginmaydigan daraxtlar (mojjevelnik, qora yong‘oq, buzina, kumush, lox va shu kabilar) ni ekib mollarning erkin yurish maydonchalarini soya bilan

ta'minlash talab etiladi. Mollarni haydash va o'tkazish yo'llarining chetlariga tikonli butalar (masalan, boyarishnik, shipovnik, lox kabilarni) ekish zarur.



2.3-rasm. Qishloq ishlab chiqarish kompleksining umumiy ko'rinislari.

Barcha binolarning janub taraflarini daraxtlar yordamida quyosh nuridan himoyalash zarur. Kuchli shamollar esadigan taraflardan esa

shamolga qarshi ixota daraxtlari ekilishi kerak. Ekilishga tanlangan daraxtlar ichiga fitonsidli va tashqi havoning sanitariya-gigiyenik xususiyatini oshiruvchi xushbo‘y navlar ham kiritilishi kerak (2.3-rasm).

Ishlab chiqarish zonasining barcha obyektlarida ishchilar va ularga xizmat qiluvchilar uchun qulay shart-sharoitlar yaratilishi zarur. Masalan, ko‘kalamzorlashtirilgan sport o‘yinlari maydonlari, madaniy-ommaviy tadbirlar maydoni, tinch dam olish, ochiq havoda soyada ovqatlanish joyi va hokazo. Bunday joylarda soliter kompozitsiyalar, gullovchi butalar, mevali navlar, gulzorlarni shakllantirish zarur. Sport maydonlari, dush, yuvinish qurilmalari atroflarini yashil to‘siqlar bilan chegaralash maqsadga muvofiqdir (2.4–2.5-rasmlar).



2.4-rasm. Qishloq ishlab chiqarish kompleksi alohida qismlarining landshaft yechimi.



2.5-rasm. Zamonaviy qishloq aholi punktlari hududlarida ishlab chiqarish korxonasining infrastrukturasini va atrof-muhitining landshaft yechimi.

Memorial parklar, bolalar bog‘chalari va yashilar hududlarining landshaft arxitekturasini

Memorial parklar xalq uchun xotira bo‘lib qolgan buyuk tarixiy hodisalar sharafiga quriladi, o‘zining monumental, tantanali xususiyati bilan boshqa maxsus parklardan ajralib turadi. Bu yerda bog‘-park kompozitsiyasining barcha vositalari yodgorlikning g‘oyasi va mazmunini ochib berishga yo‘naltirilishi lozim. Bunday parklar tashqi ko‘rinishiga xos xususiyatlar—bu monumental vositalardan keng foydalanish, aniq o‘ylangan harakat grafigi, o‘simliklarni asosan muntazam tartibda joylashtirishdir. Barcha xizmat ko‘rsatish vazifalarini markaziy hududdan tashqarida loyihalash lozim. Bu yerda memorialning tantanali tinchligini buzadigan kiosklar, ichimlik avtomatlari, transport aloqalari bo‘lmasligi kerak (2.6-rasm).



2.6-rasm. Berlingdagi memorial Trentov parki: 1-kirish maydonlari; 2-Ona Vatan monumnti; 3-“Xoloskor jangchi” haykali.

Memorial parklar O‘zbekistonda istiqlol yillarigacha shakllantirilmagan edi. Mustaqillik sharofati tufayli o‘zbek xalqining buyuk siymolari va tarixiy milliy qahramonlari xotirasiga atab memorial bog‘-xiyobonlar tashkil etildi. Bularga deyarli barcha viloyatlar va tumanlar markazlarida tashkil etilgan “Xotira va qadriyat xiyobonlari”ni va ular atrofidagi bog‘larni, Toshkentda Respublikamiz Prezidentining maxsus farmoyishi bilan shakllantirilgan “Shaxidlar xiyoboni” memorial kompleksini, Amir Temur bog‘-xiyobonini va Mustaqillik maydonidagi “Baxtli ona” monumnti, Farg‘onada Al-Farg‘oniy, Xorazmda Beruniy, Urgenchda Jaloliddin Manguberdi memorial bog‘-parklarini kiritishimiz mumkin (2.7, 2.8, 2.9, 2.10-rasmlar). Bularning deyarli barchasida nafaqat bog‘ va xiyobonlar, memorial monumntlar, balki, muzeylar ham tashkil etilgan.

Ana shu bunyodkorlik ishlarida jahon landshaft arxitekturasi va bog‘-park san‘atining badiiy estetik vositalariga amal qilish va O‘rta Osiyoga xos milliy bog‘-istirohatchilik san‘atining merosiy uslublarini qayta tiklash masalalariga keng e‘tibor berilgan. Bunyod

etilgan me'moriy inshootlar, memoriallar va muzeylar, bog'xiyobonlarning aksariyati muntazam simmetrik rejada ishlanib, ularning hududi ochiq va yopiq yashil maydonlar, ulardagi favvoralar, sharsharalar, gulzorlar, xiyobonlar va yo'laklar hamda mo'jaz me'moriy shakllar buyuk allomalarning timsoli ifoda etilgan ramziy majmualardan iborat bo'ldi. Bu memorial bog'xiyobonlarning har biri o'zlarining rejaviy markazi va hajm-fazoviy yechimidagi kulminatsiyaviy kompozitsiyalariga ega bo'lganlari holda, ularda qo'llanilgan me'moriy yechim, yashil dunyo va arxitekturaviy qurilish materiallari orasidagi o'zaro uyg'unlik samarasi ushbu majmualarga tarovat bag'ishlaydi. Bu memorial majmualarning hududi nisbatan katta bo'lmay 2 gektardan to 5 gektargacha maydonni tashkil etadi.



2.7-rasm. “Baxtli Ona” monumenti. Toshkent.



2.8-rasm. “Shaxidlar xiyoboni”. Toshkent.



2.9-rasm. Al-Fargʻoniy memorial bog‘-parki. Fargʻona.



2.10-rasm. Jaloliddin Manguberdi memorial bog‘-parki. Urgench.

Ayniqsa, keyingi mustaqillik yillarida O‘zbekiston landshaft arxitekturasi va bog‘-park san‘atining rivoji uchun yaxshi imkoniyatlar yaratilgan. Yangidan qurilgan va qayta tiklangan ko‘rkam jamoa binolari va ansambllari egallagan hududlar, ayniqsa, ularning bosh tarzlari qoshidagi me‘moriy muhit ushbu binolar vazifalariga moslashtirilgan holda mo‘jaz bog‘larga aylantirildi. Quyosh nurida yarqiragan suv yuzalarini yaratuvchi favvoralar, pog‘onali bir-biridan go‘zal shalolalar, yam-yashil gilam maysazorlar, ular uzra yastangan gilam nusxa gulzorlar, guldor butalar, mo‘jaz me‘moriy shakllar, did bilan ishlangan o‘rindiqlar, tekis va jozibador, nafis to‘shamalar shular jumlasidandir.

Memorial bog‘-parklar va xiyobonlarni loyihalashda asosiy e‘tibor memorial inshoot kompozitsiyasiga, uning egallagan o‘rni va joylashuviga, unga boriladigan bosh xiyobon va uning tugallanish kompozitsiyasiga, memorial inshootga fon vazifasini o‘taydigan

atrof muhitning manzarali ko‘kalamlashtirilishiga qaratilishi kerak. Memorial park ichidagi asosiy yo‘l–bosh xiyobon memorial inshoot uchun poki-poyandoz vazifasini bajarishi zarur. Bu yerdagi gulzorlar va maysazorlar, qatorlab ekilgan daraxt va butalar kompozitsiyasi faqat bitta maqsadga, u ham bo‘lsa memorial inshoot va kompleks mazmuni, moddiy-ma’rifiy roli va o‘rnini haqqoniy va salobatli tarzda ko‘rsatishga xizmat qilishi kerak. Memorial bog‘larda o‘simliklarga qirtishlab sun’iy shakl berish maqsadga muvofiq emas. Ularning o‘rniga yakka tartibda (soliter kompozitsiyasida) ekilgan manzarali dov-daraxtlarning bo‘lishligi yaxshidir.

Memorial parklarga ko‘proq muntazam rejaviy uslub va tekis hududlar xosdir. Biroq ular terrasasimon, ya’ni pog‘onali tarzda shakllantirilgan hududlarda ham ishlanishi mumkin. Asosiy xiyobonlarga ekiladigan daraxtlar tantanavor shaklda, ya’ni konus, piramida, ustunsimon ko‘rinishlarga ega, qolgan yo‘laklarda esa majnuntol shaklida, gulzorlar asosan, oq, sariq va qizil ranglarda bo‘lishligi maqsadga muvofiqdir.

Bolalar bog‘chalarining hududi funksiyasiga ko‘ra, odatda, bolalar zonasi guruhlar maydonlari, sport maydonchalari zonasi, xo‘jalik va manzarali ko‘kalamzorlar zonasiga bo‘linadi (2.11–2.12-rasmlar).



2.11-rasm. Bolalar bog‘chasi hududidagi xo‘jalik zonasi maydonining ko‘rinishi.





2.12-rasm. Bolalar bog'chalari hududidagi bolalar o'yingohi zonalari.



2.13-rasm. Bolalar bog'chalari hududidagi sport maydonchalari zonasi.

Bolalar bog'chalari muassasalarining hududlarini atrofidagi ko'cha va hududlardan qatorlab tig'is ekilgan, eni 5–6 metr bo'lgan daraxt va butalar bilan ajratish kerak. Bu bog'cha hududini tashqi shovqin va chang to'zonlardan saqlash imkonini beradi va tashqi muhitdan holilashtiradi. Bog'cha binosi hududining ichki qismidagi ko'kalamzorlar mazkur hudud muhitini sog'lomlashtirish va hududdan qulay foydalanish imkoniyatini yaratishi kerak (2.14-rasm).



2.14-rasm. Bolalar bog'chalari atrofidagi hududlarda o'simliklar, daraxt va butalardan shakllangan tabiiy manzaraviy landshaft kompozitsiyasi.

Bolalar bog'chalarida eng avvalo, fitonsidga boy quyuq soya beruvchi o'rta kattalikdagi daraxtlar, masalan dala klyoni, yapon saforasi, virgin mojjevelnigi, tuya, bagryanik, lipa hamda chiroyli va uzoq gullab turuvchi tikoni va zahari yo'q butalar, ko'p yillik yorqin va xushbo'y gullarni ekish maqsadga muvofiqdir.

Bog'chalar hududidagi bolalar guruhlari va umumiy foydalanuvchi maydonlarni soya qilish maqsadida usti va yon tomonlari yovvoyi tok, puerariya, klematis, tekoma va boshqa chirmashib o'suvchi o'simliklar bilan qoplangan trelyaj va pergolalarni qo'llash ma'quldir.

Bolalar guruhlarining maydonchalari bir-biridan butalardan ekilgan yashil to'siqlar bilan ajratilishi kerak. Yashil to'siqlarga qirtishlash usulida geometrik shakllar ham berilishi mumkin.

Bolalar bog'chalaridagi gulzorlar, asosan, binoga kirish oldida, ota-onalar kutadigan joyda va bino atroflarida bo'lishi mumkin. Gulzorlar bir, ikki va ko'p yillik gullar va gullovchi butalardan shakllantirilib, ular o'zining chiroyli va qizg'in gullashi, gullarining yorqin ranglari yoqimli hidi bilan ajralib turishi zarur. Bir yillik gullardan salviya, barxatsilar, petunya, astra, kalendula, xushbo'y tabaklarni qo'llash mumkin. Ikki yillik gullar ichida viola, margaritka, nezabutkalarga ko'proq o'rin berilishi zarur. Ko'p yillik gullarni maysazorlar fondida manzarali butalar bilan birga ekish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun akvilegiya, liliya, delfinium, iris, pion, floks, ko'p yillik astralar tanlanadi. Trelyaj va pergolalar uchun tirmashib o'suvchi lianlar-klematis, jimolost, kaprifollarni, tik ko'kalamzorlashtirish va devorlarga soya berish maqsadida beshbargli devichiy vinograd, tekomalalar, drevogubetslarni qo'llash mumkin (2.15-rasm).

Bolalar bog'chasi hududining landshaft yechimi, dekorativ daraxtlar, butalar, gulzorlar va maysazorlar bilan qoplangan.

Bolalar guruhlarining maydonchalari atrofiga va ularga yaqin joylarga mevali daraxtlar ekish maqsadga muvofiq emas. Chunki bolalar ularni pishmasdan, chang holda uzib olishlari va payhon qilish mumkin. Mevali daraxtlarni alohida joylarga, jo'ya olib qatorlab ekish mumkin. Daraxtlar va butalar ekiladigan joylar, gulzorlarning atrofi va bolalar maydonchalari va dam olish joylari maysazor bilan qoplanishi zarur (2.16-rasm).



2.15-rasm *Umumta'lim maktablari, kollejlari va litseylar hududlarining landshaft arxitekturasi.*

Maktab hududlarini to'g'ri va qulay funksional zonalarga bo'lib tashkil qilish landshaft obodonlashtirish va ko'klamzorlashtirishda muhim sanitariya-gigiyenik va o'quv-tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Aynan shu maqsadda maktab hududining yarmidan ko'p qismi (55–60%) ko'klamzorlashtirilishi zarur (2.16-rasm).



a)

b)



2.16-rasm. Zamonaviy maktab binosi hududining landshaft yechimi: a–tarhdagi ko‘rinishi; b–aksonometriyasi.

Tanlanadigan o‘simliklar assortimenti nafaqat manzaraviy estetik va biologik talablarga, balki turli xil daraxt va butalardan hamda o‘quvchilarga O‘zbekiston florasini tanishtirish imkoniyatlariga ham ega bo‘lishi kerak. Buning uchun yirik maktablar qoshida o‘quv-tajribaviy biologiya va dendrologiya bog‘chalarini, o‘rta va kichik maktablar hududida mevali bog‘ va polizlar tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir. Bunday hududlarda o‘quvchi-yoshlar manzarali va qishloq xo‘jalik ekinlarini ekish va o‘stirish tajribalariga ega bo‘lishi bilan birga tabiatga mehr qo‘yish va uni ardoqlash ko‘nikmalarini ham egallaydilar.

Maktablar hududi quyidagi funksional zonalarga bo‘linishi zarur: o‘quvchilarning tannafus va darsdan keyingi vaqtlarida dam olish zonasi, jismoniy tarbiya va sport zonasi, tinch dam olish zonasi, xo‘jalik zonasi (2.17-rasm).

Maktab hududi atrofdagi ko‘chalardan bir yoki ko‘p qatorli tarzda ekilgan daraxtlar bilan ajratilgan bo‘lishi kerak. Maktabga kirib kelish yo‘llari va ichki yo‘laklar keng shox-shabbali daraxtlar

bilan ko‘kalamzorlashtirilishi zarur. Maktab binosining devorlari janub va janubiy-g‘arb kabi quyosh tushuvchi tomonlardan qator ekilgan daraxtlar bilan to‘silishi kerak. Boshqa hududlarda va maydonlarda ko‘p sonli maktab bolalarining bo‘lishi va harakatiga xalaqit bermaydigan daraxtlar ekilishi mumkin. Tinch dam olish zonasida esa daraxtlar tig‘isroq ekilishi zarur. Bu yerda chirmashuvchiosimliklar va toklar bilan o‘ralgan pergola va besedkalar o‘rnatilishi mumkin.



2.17-rasm. Maktab hududidini obodlashtirish va ko‘klamzorlashtirish sxemasi. Funktsional zonalarning ko‘rinishi: o‘quvchilarning dam olish zonas i– fasad oldida; jismoniy tarbiya va sport zonasi – orqa fasad maydonida; yuqorida aytilgan ikki zonalar o‘rtasida xo‘jalik zonalarining ko‘rinishi.

Maktab hududidagi dam olish va sport zonasini ko‘kalamzorlashtirish uchun quyuq soya beruvchi eniga keng o‘sovchi, shoxshabbasi va bargi tig‘is daraxtlar tanlanadi. Darsxonalarining

derezalari oldini to'sib qo'ymaslik uchun daraxtlar va baland butalarni binodan muayyan masofaga ekish kerak. Daraxtlar oralig'i 5–10 m, butalar orasi 3–5 m bo'lishi kerak. Butalarni maysa ustuda alohida yoki guruhlab ekish zarur. Baland bo'yli butalarni (siren, jimolost, kalina, buldanej) maktab uchastkasi chegaralariga yaqin, o'rta va past butalarni (veygela, forzitsiya, grebenshik, spireya) binolarga yaqin ekish tavsiya etiladi (2.18-rasm).



2.18-rasm. Maktab hududidagi dam olish va sport zonalarini ko'kamlashtirishda quyuq soya beruvchi, butalarni maysa ustuda alohida yoki guruhlab ekish kompozitsiyasi.

Maktabning old qismi va kirish joylaridagi hududlarni xvoy tipidagi daraxtlar (virgin mojjevelnigi, sharq biotasi, ko‘k archa, magoniya) bezaydi. Maktab hududiga tikonli butalar (boyarishnik, borbaris), mevasi va barglari zaharli bo‘lgan o‘simliklar (dafna yoki volche liko, jimolostning ayrim turlari, sumaxlar)ni ekish man etiladi.

Gulzorlarni, asosan, ko‘p yillik o‘simliklardan shakllantirish tavsiya etiladi. Maktab hududidagi dam olish zonasida miksborder gulzorlarini shakllantirish maqsadga muvofiqdir. Uning tarkibidagi turli o‘simliklar yil davomida uzluksiz gullab yaxshi manzara berishi muqarrardir. Ikki yillik va bir yillik o‘tli o‘simliklar va gullarni maktab binosi fasadi oldidagi klumbalar va rabatkalarni shakllantirishda foydalanish mumkin. Maktab hududida bir yillik gullar tuxumi yoki maysazorlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri gulzor tuprog‘iga ekiladi. Shunda uning yoppasiga gullashi maktabdagi o‘qishning boshlanish davriga to‘g‘ri keladi (2.19-rasm).



2.19-rasm. Maktab hududini ko‘kalamzorlashtirish maketi. Fasad old qismi va kirish joyi hududlarining landshaft yechimi, xvoy tipidagi daraxtlardan va maysalardan shakllangan kompozitsiya.

Oliy o‘quv yurtlari hududlarining landshaft arxitekturasi

Oliy o‘quv yurti (OO‘YU), institut yoki universitet kompleksi– bu shahar muhitining asosiy elementlaridan biri hisoblanib, shaharning ko‘kalamzorlar tizimini ishlab chiqish, uni tashkil qilish va shahar bosh rejasini yechishda alohida yondashuv va munosabatni talab qiladi.

Oliy o‘quv yurtlarining hududini funksional va shaharsozlik, me‘moriy-landshaft nuqtai nazaridan tashkil qilishning asosi bu uning hududini to‘g‘ri va maqsadga muvofiq zonalashtirishdir (2.20-rasm).



2.20-rasm. Oliy o‘quv yurti funksional zonalarining ko‘rinishi: talabalarning tannafus va darsdan keyingi vaqtlarida dam olish zonasi – fasad oldida; jismoniy tarbiya va sport zonasi – orqa fasad maydonida; yuqorida aytilgan ikki zona o‘rtasida tinch dam olish zonasi, uning orqa tomonida esa xo‘jalik zonasi joylashgan.

Odatda, oliy o'quv yurti hududini zonalashtirish uning ta'lim yo'nalishlari, soni va mutaxassisliklaridan kelib chiqib, umumiy holatda bo'lishligi shart deb belgilanadi:

1. O'quv zonasi.
2. Ilmiy-tadqiqot ishlari zonasi.
3. Yashash zonasi.
4. Umumiy ovqatlanish va maishiy xizmat ko'rsatish zonasi.
5. Sport zonasi.
6. Xo'jalik zonasi.

Institut o'quv zonasini informatsion-axborot markazi va ilmiy-tadqiqot bo'linmalari bilan, yashash zonasini u bilan uzviy boglangan savdo muassasalari, umumiy ovqatlanish va maishiy xizmat ko'rsatish shaxobchalari bilan, sport zonasi va xo'jalik zonalari esa bir-biriga yaqin umumiy bir hududga joylashtirish oliy o'quv yurtiga ajratilgan hududdan foydalanishning eng to'g'ri yo'llaridan biri hisoblanadi.

Biror-bir OO'YUning me'moriy-rejaviy yechimi va hududining landshaft tashkillashtirilishiga nafaqat uning ta'lim yo'nalishlari soni, turlari, ular uchun yaratilgan o'quv korpuslari, o'quv laboratoriyalari va boshqa funksional zonalari, balki mahalliy tabiiy-qlim sharoitlar, OO'YU hududining relef tuzilishi, bu hududdagi mavjud tabiiy suv hafvzalari va o'simliklar tarkibi ham ta'sir ko'rsatadi.

OO'YU hududida yaratiladigan ochiq muhitlar arxitekturasi talabalar va professor-o'qituvchilarning ta'lim-tarbiya, madaniy-ma'rifiy va ilmiy-tadqiqot ishlari, ularning dam olish va jismoniy tarbiya-sport bilan to'laqonli shug'ullanishlari uchun eng qulay shart-sharoitlarni yaratish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak. OO'Yularning loyihalariga qo'yiladigan asosiy talablardan biri—bu OO'YU imoratlari va inshootlarining qurilishini hududda ulardan qulay foydalanishni, o'quv jarayoni va tejamkorlik-iqtisodiy talablarini e'tiborga olgan holda iloji boricha ixcham joylashtirishdir (2.21–2.22-rasmlar).



2.21-rasm. O‘zbekiston iqlimiga moslashtirilgan ochiq muhitlar arxitekturasi. Talabalar va professor-o‘qituvchilarning dam olish va jismoniy tarbiya bilan to‘laqonli shug‘ullanishlari uchun OO‘YU hududida yaratiladigan eng qulay shart-sharoitlar.

Baland qavatlik o‘quv korpuslarida talabalarning yuqoriga va pastga harakatlanishini darslar oralig‘idagi tanaffuslarning qisqaligi va harakatlanish oqimlarining jadalligi tufayli yechish ancha qiyin va tashvishlidir. Shuning uchun ham O‘zbekiston sharoitida o‘quv korpuslarini uch-to‘rt qavatdan oshirmaslik va ular orasidagi bog‘lanishlarni fitodizayn elementlari bilan bezatilgan ochiq o‘tish gallereyalari va yashil shiyponlar orqali tashkil qilish maqsadga muvofiqdir. Bunday yechim OO‘YU imoratlari va korpuslarini uning hududdagi yashil maydonlar, ko‘kalamzorlar bilan uyg‘un bog‘lash imkonini beradi. Shu jihatdan o‘quv korpuslarida ichki hovlilar va qishki bog‘larning bo‘lishligi ham maqsadga muvofiqdir.



2.22-rasm. O‘zbekiston sharoitida o‘quv korpuslari uch-to‘rt qavatdan iborat bo‘lgan, ular orasidagi bog‘lanishlar fitodizayn elementlari bilan bezatilgan ochiq o‘tish gallereyalari va yashil shiyponlar orqali tashkil etilgan arxitekturaviy kompozitsiya.

2.23-rasmda keltirilgan OO‘YUning orqa fasadi muhiti va maydonining ko‘rinishi.

Binolar alohida guruhlarining proporsiyalari, ularning plastik va hajmiy-fazoviy yechimlari, imoratlarning OO‘YU hududida joylashishi bo‘yicha fazoviy ichki me‘moriy kompozitsiyalari, hududdagi ochiq va yopiq yashil maydonlar nisbati, ko‘kalamzor ichki hovlilardan keng foydalanish va mo‘jaz me‘moriy shakllar, landshaft dizayni elementlari OO‘YU ansambliga o‘ziga xos me‘moriy yaxlitlik, butunlik va go‘zallik baxshida etishi va ta‘minlashi zarur (2.24-rasm).

OO‘YU kompleksini to‘g‘ri loyihalashning muhim vazifalaridan biri – bu OO‘YU hududida piyodalar harakatini to‘g‘ri tashkillashtirishdi. Hududda joyi to‘g‘ri topilmagan, ko‘kalamzorlashtirilmagan va obodonlashtirilmagan, OO‘Yuning barcha funksional zonalarini bir-biriga qulay bog‘lamagan va, ayni paytda, talabalar muloqotini va soya-salqin muhitni ta‘minlamagan soyali markaziy bosh xiyobonsiz talabalar va ustozlar harakatini tashkil qilish mumkin emas. Ana shu nuqtai nazardan bunday

obodonlashgan bosh xiyobon va soyali yashil eksplanadaning bo‘lishligi va uning OO‘YU hududida to‘g‘ri joylashtirilishi piyodalar harakatini qulay ta‘minlashning birlamchi shartidir (2.23-rasm).



2.23-rasm. *Barcha funksional zonalari bir-biriga qulay bog‘langan, talabalar va ustozlarga soya-salqin muhit ta‘minlangan, piyodalar harakatiga qulay OO‘YUning arxitekturaviy landshaft yechimi.*

Mavjud loyihalash me‘yorlariga ko‘ra OO‘YUlardagi o‘quv zonasining ko‘kalamzorlari maydonini OO‘YUning profili va talabalar kontingentiga bog‘liq holda belgilash ko‘zda tutilgan. Har 1000 talabaga universitetlar uchun 5,5–7,5 ga, texnik OO‘YUlarida 6–8 ga, qishloq xo‘jalik OO‘YUlarida 7–8 ga, tibbiyot, pedagogika, yuridik va boshqa OO‘YUlar uchun 3–4 ga belgilangan.

Shaharlar aholisining o‘sishi, shahar hududining yetishmasligi, ko‘p qavatli binolarning qurilish munosabati bilan bu me‘yorlar hajmini kamaytirishga ruxsat beriladi, biroq 10% dan ko‘piga emas.

Sport zonaları uchun har ming talabaga 2 gektar joy ajratiladi. Ushbu zonani o'quv va yashash zonasiga qo'shni joylashtirish talab yetiladi.

OO'YUda tashkil etilishi mumkin bo'lgan o'quv poligonlari, tajriba uchastkalari, botanik bog'lar va shu kabilar uchun qo'shimcha tarzda joy va hududlar ajratilishi zarur. Bunday hududlar OO'YUga yaqin yoki shahar tashqarasidan joy egallash mumkin.

OO'YUlarini landshaft tashkillashtirish uchun manzarali relefli hududlar, yashil o'simliklarga boy, suv havzalariga yaqin, o'rmonzorli yoki yozu-qishda ochiq havoda fizkultura va sport mashg'ulotlarini o'tkazish mumkin bo'lgan yashil massivli parklar eng maqbul hududlar hisoblanadi.

Ko'kalamzorlashtirilgan maydonlar OO'YU umumiy hududining 40% dan kam bo'lmasligi lozim. Agar OO'YU hududi o'rmonzorlar va bog' massivlariga yaqin yoki qo'shni joylashgan bo'lsa uning ko'kalamzorlar maydonini 30 % gacha qisqartirishga ruxsat beriladi.

Ko'kalamzorlar rekreatsion funksiyalar bilan birgalikda OO'YU kompleksining me'moriy-landshaft kompozitsiyasini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi va OO'YU bosh rejasining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. OO'YUning barcha funksional zonalarida va ularni o'zaro bog'lovchi piyoda yo'llar bo'ylab yashil massivlar, daraxt va butalardan ishlangan guruhlar, soliterlar va gulzorlar tashkil etish ko'zda tutilishi lozim.



2.24-rasm. *Magistral ko‘chalar, tezyurar yo‘llar muhitida o‘quv binolarini, talabga muvofiq joylashtirish, piyodalar yo‘llari va xiyobonlarni transport harakatlari bilan qo‘shilib ketmasligi ta‘minlash shaharsozlik-landshaft usuli.*

OO‘YU hududi yonida magistral ko‘chalar yoki tezyurar yo‘llar o‘tgan bo‘lsa, o‘quv binolarini ulardan kamida 50 m ichkariga qurish talab etiladi. OO‘Yuning ichki yo‘llari va xiyobonlarida piyodalar va transport harakatlari qo‘shilib ketmasligi zarur. OO‘YU hududidagi binolarning bir-biridan uzoqligi 1000 m dan, ya‘ni piyodalar yuruvi masofasidan oshib ketmasligi lozim (2.25-rasm).





2.25-rasm. OO‘YUning ichki piyodalar yo‘llari va xiyobonlarining landshaft yechimlari.

Daraxt va butalardan tuzilgan landshaft kompozitsiyalari

Ma’lumki, landshaft arxitekturasi amaliyotida asosan manzarali o‘simliklardan foydalaniladi. Ularga daraxtlar, butalar, lianlar, gullar, o‘tli va yeryopar o‘simliklar kiradi.

Daraxtlar 3 qismdan: ildizlari, yerdan o‘sib chiqqan yagona tanasi (stvoli) va yuqoridagi asosiy qismi – bargli shox-shabbalaridan iborat bo‘ladi. Butalarda esa daraxtlarnikidek yagona tana bo‘lmaydi, ular asosan, 2 qismdan: yerostidagi ildizlari va yerdan o‘sib chiqqan ko‘p sonli ingichka tanalari va ularga birikkan bargli shox-shabbalardan iborat. Daraxtlar butalarga nisbatan baland o‘sadi, uzoq yashaydi va mustahkam bo‘ladi. Biroq daraxtlar va butalar o‘rtasiga aniq chegara qo‘yish qiyin, chunki ayrim butalar, masalan, safora yoki padub xuddi pastxam daraxtlar kabi o‘ssa, ayrim daraxtlarning bo‘yi baland butalarniki kabidir.

Barcha daraxt va butalar ko‘p yillik o‘simlik hisoblanib, doim yashil va bargi tushuvchi guruhlarga bo‘linadi. Doim yashil daraxt va butalar ham o‘z navbatida xvoy tipidagilarga va bargi yaproqlilarga bo‘linadi. Xvoy tipidagilar doim igna bargli bo‘ladi va gullash davrida gul o‘rniga g‘udda solishi bilan bargi yaproqli daraxt va butalardan ajralib turadi.

O‘zbekistonda o‘sadigan xvoy tipidagi ignabargli daraxtlarga sharq biotasi, tikonli archa, ko‘k archa, arizon sarvi, oddiy botqoq

sarvi, virgin archasi, zarafshon archasi, qrim qarag'ayi, oddiy qarag'ay, eldor qarag'ayi, qora avstriya qarag'aylari kirsas, doim yashil bargi yaproqli manzarali daraxtlarga magnoliya va ginkgolarni kiritish mumkin.

O'zbekistonda o'sadigan *doim yashil butalarga* kazax archasi, turkiston archasi, yapon normushugi, doim yashil shamshod va daraxtsimon g'arb tuyalarini kiritish mumkin. Bargi tushuvchi manzarali daraxt va butalarning soni juda ko'p va xilma-xildir.

Daraxt va butalarning asosiy biologik xususiyatlariga ularning balandligi, tashqi ko'rinishi, shakli va rangi, shox-shabbdalarining tig'izligi, gullash davri, gullarining rangi, suvsizlikka chidamliligi, yashovchanlik davri kabi belgilar kiradi.

Navqiron daraxtlar balandligiga qarab 1, 2 va 3-kattalikdagi daraxtlarga bo'linadi:

1-kattalikdagi daraxtlar balandligi 20 m va undan yuqori. Ularga odatda, tikonli archa, oddiy qarag'ay, qrim qarag'ayi, oq majnuntol, oq terak, chinor, bandli eman, qirra bargli zarang, oddiy shumtol, katta bargli jo'ka va boshqalar kiradi;

2-kattalikdagi daraxtlar bo'yi 10 dan 20 m gacha bo'ladi: yeldor qarag'ayi, dala zarangi, qora qarag'ay, soxta kashtan, g'arb tuyasi, amerika shumtoli va boshqalar ana shunday daraxtlarga misoldir;

3-kattalikdagi daraxtlar bo'yi 5 dan 10 m gacha. Ularga Kanada qora qarag'ayi, lenkoran akas, Ginnal zarangi, arg'uvon, majnuntol, do'lana, yapon soforasi, oddiy qora qarag'ay va boshqalar kiradi.

Bo'yi 5 m dan past daraxtlarni manzaraviy xususiyatlariga ko'ra balandligi 0,5 m dan 5 m gacha bo'lgan butalar guruhiga kirish mumkin.

Butalarni esa balandligiga ko'ra uch guruhga bo'lish mumkin:

– baland butalar (2–5 m): oddiy archa, oddiy kalina, oddiy siren, butasimon amorfa, sharq biotasi, sariq akas, gordovina va boshqalar;

– o'rta bo'yli butalar (1–2 m): manzarali sallagul, biryuchina, nastarin, normushk, Ven–Gutta tobulg'isi va boshqalar;

– pakana butalar (0,5–1 m): kazax qora qarag'ayi, magoniya, bumalda spireyasi, yapon tobulg'usi, yapon behisi, deysiya, qormevachi va boshqalar.

Daraxtlar ichida quyoshni yoqtiruvchi, ya'ni soya joyda yaxshi o'smaydigan (qayin, eman, shumtol bargli zarang, shumtol, terak, oddiy qarag'ay, qora qandag'och va boshqalar) va soyada o'sadigan, ya'ni soyaga chidamli turlari (soxta kashtan, tatar qarag'ayi, jo'ka, chinor, do'lana, shilvi, bodrezak va boshqalar) ham mavjud.

Manzaraviy samaraga erishishning tezkor usuli – bu loyihalananayotgan hududga tez o'suvchi daraxtlar va butalarni ekishdir. Evkalipt, qora terak, mirzaterak, Kanada teragi, balzam teragi, osina, ayland, tikon daraxti, qayrag'och, shumtol bargli zarang, oq majnuntol, yashil shumtol, oddiy qarag'ay, oq akas, biryuchina, marjon daraxt, jasmin, shilvi, jiyda, tillorang qarag'ay va boshqalar ana shunday tez o'suvchi o'simliklardir. Yerning qiyali joylarida tuproqni mustahkam saqlashga yordam beruvchi, ildizi keng va tarqalib o'suvchi o'simliklar borki, ularga dala zarangi, tatar zarangi, sariq akas, oddiy o'rmon yong'og'i, irg'ay, do'lana, bargi ingichka jiyda, tikon daraxt va boshqalar kiradi.

O'zbekiston sharoitida daraxt va butalarning namlik (suv)ga bo'lgan ehtiyojini hisobga olish katta ahamiyatga egadir. Bu jihatdan ularni 3 guruhga bo'lish mumkin:

1) namlikka talabchan o'simliklar (botqoq sarvi, tollar, lapina, turanga teragi, qora qandag'och va bosh.);

2) namlikka talabchanligi o'rtacha o'simliklar (amur baxmal daraxti, mo'ynali qayin, silmoq qayrag'och, yavor zarangi, qirra bargli zarang, mayda bargli jo'ka, magnoliya, oddiy shumtol, tikonli qarag'ay, kumush archa, rizavor zarnob);

3) namlikka kam talabchan o'simliklar (yapon behisi, ayland, qayrag'och, oq akas, amorfa, oddiy biryuchina, do'lana, tikon daraxt, biota, tikonli qora qarag'ay, virgin archasi, kazax archasi, qrim qarag'ayi, oddiy qarag'ay).

Sho'rxok tuproqlarga chidamli daraxt va butalar borki, ularni bilish ham foydadan holi emas. Solyankalar, chingil, yulg'un, saksovul, sovundaraxti kabi o'simliklar xlorli, sho'r tuproqda o'sa olish qobiliyatiga ega.

Shumtol, jo'ka, ulug'vor dafna, yevropa zaytuni kabilar hatto izvestli tuproqqa talabchan daraxtsimonlardir. Aylant (xitoy shumtoli) esa neft bilan ifloslangan tuproqda ham o'sa oladi. Shunday ekan, o'simliklarni o'tkazishda tuproqni yaxshilash imkoni

bo'lmasa, eng to'g'ri yo'l bu shu tuproqqa mos keluvchi o'simlikni tanlashdir.

Sho'rxoq tuproqlarda o'suvchi daraxt va butalarga yuqorida ko'rsatilgandek shumtol, jo'ka, ulug'vor dafna, yevropa zaytuni, xitoy shumtoli kabilar kiradi.

Ma'lumki, daraxt va butalar hududlarni tashqi ekologik ta'sirlardan himoyalash vazifasini ham bajaradi:

– Shovqindan himoyalaniş uchun qirra bargli zarang, oddiy qayrag'och, mayda bargli jo'ka, oddiy qora qarag'ay, sibir tilag'ochi, tatar uchqati, sariq akas, sibir boyarishniklarini;

– Gazlardan himoyalaniş uchun pensilvan zarangi, o'rmon yong'og'i, soxta kashtan, manchjur kashtani, tikon daraxt, qora va kulrang terak, kanada teragi, oq akas, saur archa, oq tut, virgin archasi, kazax archasi, oddiy biryuchina, jo'ka va boshqalarni;

– Changlardan himoyalaniş uchun qayrag'och, oq majnuntol, soxta kashtan, kulrang zarang, tatar va dala zaranglari, kanada teragi, Bolle teragi, oq tut, yashil va oddiy shumtol, sariq akas, oddiy biryuchina, bargi ingichka jiyda, Van-Gutta tobulg'ilarini tanlash tavsiya etiladi;

– Shamolni to'sish va hududni soyalashtirish maqsadida esa shox-shabbalari tig'iz o'suvchi oddiy eman, soxta kashtan, qirra bargli va dala zaranglari, oddiy qarag'ay, bandli eman, tikon daraxt, magnoliya, maydabargli jo'ka va boshqalarni tanlash tavsiya etiladi.

O'simliklarni guruhlab ekish uchun tanlashda ularning me'moriy-badiiy xususiyatlariga: balandligi, tashqi shakli-shamoyili, rangi, barglarining xususiyatlariga, ayniqsa, guruhdagi daraxtlarning bo'yi va tashqi ko'rinishlarining o'zaro kontrast yoki nyuans munosabatlarda bo'lishligiga asosiy e'tiborni qaratish zarurdir.

Guruhlarni shakllantirishda guruh tarkibiga tanlanayotgan o'simliklarning o'suvchanligi va yashovchanligini hisobga olish zarur, ya'ni daraxtlarning tez o'suvchi xillarini sekin o'suvchilar yoniga va quyoshni yoqtiruvchilarni soya beruvchi daraxtlar ostiga ekmaslik lozim.

Daraxt va butalarni loyiha ishlarida qo'llash, ulardan yashil kompozitsiyalar tuzish va ekish uchun tanlash, ularning dekorativ sifatlarini o'rganish va bilish katta ahamiyatga egadir. Ana shunday

xususiyatlardan biri ularning tabiiy shakli-shamoili va shox-barglarining tig'isligidir.

Daraxt va butalarning tabiiy shakllari. Manzarali daraxtlarni tabiiy ko'rishga ko'ra umumiy tarzda ikki guruhga bo'lish mumkin: geometrik shaklli va no geometrik shaklli daraxtlar. Birinchi guruhga ko'rinishi piramidasimon, ustunsimon (savizsimon), tuxumsimon, sharsimon, oval va sfera shaklidagi daraxtlar kirs, ikkinchisiga–yonlariga tara qaylagan, majnunsimon, soyabonsimon, chodirsimon, ikkitanalik va sochilib o'suvchi daraxtlar kiradi (2.26-rasm).


Butalar ham tabiiy ko'rishiga ko'ra quyidagicha shakllarga ega: cho'zinchoq oval (spireya), sharsimon (Tunberg zirki), oval (atirgullar), yonlariga sochilgan (kazax archasi), yonlariga tekis tarqalgan (tekis irg'ay), konussimon (g'arb tuyasi).

Daraxt va butalarning shakllari fasllarga va ularning yoshiga qarab o'zgarib turadi. Ularga formovka, ya'ni shox-shabbalarini qirtishlash yo'li bilan turli xil sun'iy shakllar ham berish mumkin. Biroq barcha daraxt va butalarni o'rta yoshidagi tabiiy shaklu-shamoyillariga qarab quyidagi bir-biridan farq qiluvchi shakliy ko'inishlarga bo'lish mumkin (185-rasm):

1) yoyilgan (tara qaylagan): daraxtlardan– qayrag'och, eman, bandli eman, tol, oq terak; butalardan–oq tut va boshqalar;

2) piramidasimon (konussimon, ustunsimon): daraxtlardan – piramidasimon eman, qirra bargli zarang, piramidasimon terak; butalardan–g'arb tuyasi, biota va boshqalar;

3) ovalsimon (ellipssimon) va uning variantlari: daraxtlardan–soxta kashtan, zarang va boshqalar;



2.26-rasm. Daraxtsimonlarning tabiiy ko‘rinishlari:

1 – yoyilgan shakli; 2 – piramidasimon; 3 – oval; 4 – tuxumsimon;
5 – soyabon; 6 – sharsimon; 7 – majnuntol; 8 – yostiqsimon 9 – yer
bag‘rlab; 10 – chirmoviq.

4) tuxumsimon daraxtlardan – tuxumsimon jo‘ka, veymutov qarag‘ayi;

- 5) teskari tuxumsimon – siriya bo‘ri tarog‘i daraxti;
- 6) soyabonsimon daraxtlardan – xitoy shumtoli, albitsiya, italiya qarag‘ayi; butalardan – Van Guta tobulg‘isi;
- 7) sharsimon (tanali va butali turlari mavjud) daraxtlardan – qayrag‘och, sofora, sibir olmasi; butalardan–bodrezak, normushk, nastarin va va boshqalar;
- 8) egik, ya‘ni majnun shakli: egik qayin, bobil majnuntoli va oq tol daraxtlari;
- 9) tirmashgan va chirmashgan ko‘rinishli: uzum, shilvi, pechakgul, tekoma va boshqalar;
- 10) yer bag‘irlab yozilib o‘suvschilar: kazax qora qarag‘ayi, irg‘ay butalari;
- 11) yostiqsimon: Lavson kiparisovigi, mikrobiyota, yostiqsimon irg‘ay.

Ayrim daraxtlarning, masalan, bandli emanning har xil: piramidasimon, sharsimon va egik shakli ko‘rinishlari mavjud.

Bog‘-park yashil kompozitsiyalarini yaratishda o‘simliklarning tabiiy shakllari va balandligidan tashqari shoxlari va barglarining tig‘isligi, barglarning katta-kichikligi, naqsh va rangi ham muhim ahamiyat kasb etadi (2.27–2.28-rasmlar).

Shox-shabbalarining tig‘isligi, ya‘ni massivligi bo‘yicha daraxt va butalar tig‘is, o‘rtacha tig‘is yoki tig‘is emas (siyrak) ko‘rinishlarga ega bo‘ladi. Tig‘is ko‘rinishli daraxtsimon o‘simliklar me‘moriy imoratlar, haykallar va gullovchi butalarga yaxshi manzarali fon rolini bajaradi, kuchli shamollar va chang-to‘zonlardan himoyalaniish, soya-salqin muhitlar yaratishda asqotadi. Tig‘iz shoxli daraxtlarga qayrag‘och, soxta kashtan, qirra bargli zarang; o‘rtacha tig‘islilarga xitoy shumtoli, amur baxmal daraxti, oq majnuntol, bobil majnuntoli, kumush zarang, livan kedri, yunon yong‘og‘i; siyrak daraxtlarga oq akas, albtsiya, amorfa, tikon daraxt, drok, yapon saforasi, oddiy shumtollar kiradi.



o'rmon emani



qora terak



**piramidasimon
eman**



**Turkiston
teragi**



jo'ka



shumtol



qayin



zarang



bunduk



qayrag'och

2.27-rasm. Yaproq bargli daraxtlarning tabiiy shakllari.

Daraxtsimon o'simliklar barglarining dekorativ sifatlarini (bargining shakli, katta-kichikligi, rangi, rangining fasllardagi o'zgari va shoxlardagi joylashishini) bilish ham ulardan foydalanish va ko'kalamzorlashtirishda samarali qo'llash uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, alohida ekiluvchi yashil kompozitsiyalar-soliterlar uchun o'simliklar tanlashda daraxtlar va butalarning dekorativ sifatlarini bilish asosiy vazifalardan biridir.

Daraxt va butalar barglarining tuzilishi sodda va murakkab, ular ham o'z navbatida ulkan, yirik, o'rtacha, kichik va mayda barglilarga bo'linadi. Ulkan barglilarga katalpa, xitoy shumtoli, bunduk, magoniya va boshqalar kirsar, yirik barglilarga zarang, jo'ka, qora yong'oq, kulrang va yunon yong'oqlari, oddiy shumtol, albitsiya, soxta kashtanlar, mayda barglilarga spireya, buksus, yulg'un, ispan droki, mayda bargli yapon normushki va boshqalar kiradi.



2.28-rasm. Xvoy tipidagi doim yashil daraxtlarning manzaraviy ko‘rinishlari.

Bundan tashqari barglarning yaltiroq yoki fakturali (shershaviy) bo'lishligini ham bilish maqsadga muvofiqdir. Masalan, magnoliya, shamshod, nok, yunon yong'og'i va boshqalarning bargi yaltiroq bo'lsa, qayrag'och turlarining barglari fakturalidir.

Ko'kalamzorlashtirishda qo'llaniladigan daraxtsimon o'simliklarni tanlashda ularning barglaridan tashqari gullarining manzaraviy sifatlariga e'tibor berish ham muhim ahamiyatga ega. Daraxtlardan magnoliya, soxta kashtan, akas, butalardan yapon ayvasi, atirgullar, nastarin, forzitsiya va boshqalar o'ta chiroyli va samarali gullash qobiliyatiga ega.

Gullarining rangiga qarab daraxt va butalarni quyidagi guruhlariga bo'lish mumkin:

a) turlicha tonga ega bo'lgan oqchil rangli gullilar: nok, deysiya, katalpa, soxta kashtan, lomonos, magnoliya, gulli shumtol, bodrezagi va boshqalar;

b) sariq va qizg'ish-sariq rangli gullilar: zirk, drok, zveroboy, jo'ka, magnoliya, sovun daraxti, sariq atirgul va boshqalar;

v) qizil, alvon va to'qqizil rangli gullilar: o'rik, yapon behisi, do'lana, pakana bodomva boshqalar;

g) havorang, ko'kish yoki binafsha rangli gullilar: buddleya, xitoy pechakguli, siriya bo'ri tarog'i, Jakman lomonosi, pyurerariya va boshqalar;

d) yashil rangli gullilar: bunduk, tikon daraxt, ayland va boshqalar.

Daraxtsimon o'simliklarning gullash vaqti va gullab turish davrini bilish ham ularni maqsadga muvofiq tarzda tanlash va qo'llashga katta yordam beradi: erta bahordan fevralning oxiri-martgacha forzitsiya, Kanada arg'uvoni; bahorda (aprel – may) – atirgullilar; yozda (iyun–avgust) – albisiya, yaltiroq biryuchina, bo'ri taroq, katalpa, gortenziya, sofora va boshqalar; kuzda (sentyabr – noyabr) – atirgul, gulli nastarin tobulg'isi, bo'r taroq; qishda – kameliya, zimatsvet.

Bir oydan ko'p gullaydigan daraxtsimon o'simliklarga: egik gortenziya – 1, 5–2; bog' gortenziyasi – 1; hind ligustri – 2; yapon kameliyasi – 6; atirgul – 4–5; o'rta muddatda gullaydiganlarga:


yapon behisi 0,5–1 oy, daraxtsimon gortenziya – 1 oygacha, uzun shoxli raketnik – 3–4 hafta, ko‘p gulli atirgul – 3 haftagacha.

Ko‘kalamzorlashtirishda u yoki bu turdan foydalanish uchun ularning ijobiy imkoniyatlaridan tashqari ularga xos bo‘lgan salbiy holatlarni ham bilish zarur. Bularga o‘simliklarning hududni o‘z mevalari bilan ifloslashi (terak, majnuntut), ignalari yoki barglari bilan ifloslashi (chinor, tikon daraxt, yukka) hamda mevasi va barglarining zaharli bo‘lishi (kazax archasi) kiradi. Ushbu turlarni bolalar bog‘chalari, maktablar va bolalar parklariga ekish man etiladi.

O‘simliklarni tanlash tamoyillari. Aksari shahar va qishloqlarni ko‘kalamzorlashtirish amaliyotiga xos bo‘lgan asosiy kamchilik–bu ekilayotgan o‘simliklarni tanlashda o‘rnatilgan umumiy tartib-tizim va tamoyillarga rioya qilmaslikdir. Ayrim hollarda tamoman bir xildagi yoki bir nechta o‘simliklar tartibsiz, ularning ekolo-biologik xususiyatlari va manzaraviy sifatlari e‘tiborga olinmasdan tartibsiz tarzda ekilmoqda, bu ko‘kalamlashtirish ishlari sifatining pasayib ketishiga sabab bo‘lmoqda. Shunday ekan, har qanday yashil muhitni shakllantirish eng avvalo, mazkur muhitning funksiyasiga, uning qaerda va hududda qanday joylashganiga, mahalliy tabiiy iqlim sharoitlaridan kelib chiqqan holda mazkur muhitga ekiladigan o‘simliklar (daraxtlar, butalar, gullar va boshqalar) tarkibining qanday tanlanishiga bog‘liqdir (2.29-rasm).

Ekiladigan o‘simliklarning barcha imkoniyatlaridan to‘liq va samarali foydalanish uchun ularni tanlashda quyidagicha asosiy tamoyillarga rioya qilinishi zarur:

– tanlanayotgan o‘simliklarning ko‘kalamlashtirilayotgan ochiq muhit–maskanning funksiyaviy maqsadlariga mos kelishi. Masalan, magistral ko‘chaning trotuar qismiga ekiladigan o‘simliklar eng avvalo trotuar bo‘ylab soya-salqin hosil qiluvchi va jozibali manzara berishi shart. Ayni paytda ular avtomobillardan chiqayotgan gazlarga, chang va shovqinga chidamli bo‘lishi ham zarur. Demak, trotuar uchun tashqi ko‘rinishi keng, yaproqli va shoxlari tig‘iz joylashgan, gaz, chang va shovqinga chidamli daraxtlar tanlanishi shart;



2.29-rasm. Yaproqli daraxtlarning manzaraviy ko‘rinishlari.

– biron-bir monument yoki memorial yodgorlik atrofidagi skverni ko‘kalamzorlashtirish uchun esa aksincha, asosiy yashil material bo‘lib, parter tipidagi manzarali maysa yoki gul o‘simliklari ayrim pastqam butalar bilan qo‘shib tanlanishi mumkin;

– o‘simliklar ekologik xususiyatlarining ular ekiladigan muhit sharoitlariga mos kelishi. O‘tkaziladigan joyda oldindan mavjud bo‘lgan dekorativ daraxtlarga (agar ular qoldirilsa) yangi tanlanadigan o‘simliklarning mos kelishi yoki tanlanayotgan daraxt va butalarning bir-biriga o‘zaro biologik hamjihatligi, ya’ni biri ikkinchisining o‘shiga zarar etkazmaslik masalalari qarab chiqilishi shart.

Tanlanayotgan o‘simlik (daraxt yoki butalar)ning mazkur hudud tabiiy-iqlim sharoitlariga mos kelish yoki kelmasligi e’tiborga olinishi zarur.

Arxitektorlar landshaft obyektleri va ko‘kalamzorlarni loyihalashda bu obyektlarning vazifasi va muayyan tabiiy-iqlim sharoitlaridan kelib chiqib, ko‘kalamzorlarni shakllantirish uchun qanday daraxt va butalarni va ulardan qanchasini tanlash, ularni loyihalananayotgan obyektning qaeriga va qanday usulda ekish, ya’ni ularni ekishda qanday rejaviy landshaft uslubi va kompozitsiyasini tanlash zarurligini bilishi va loyihalashi zarur.

Ta’kidlash zarurki, landshaft arxitektorlari ko‘kalamzorlarni shakllantirishda nafaqat alohida daraxt va butalardan, balki ularning turli xil turkumlaridan ham foydalanadilar. Daraxt va butalarni o‘zaro turkumlash, ulardan turli-tuman manzaraviy kompozitsiyalar yaratishning o‘ziga xos qonun-qoidalari mavjud bo‘lib, ular ilmufanda manzaraviy yashil kompozitsiyalar deb ataladi.

O‘simliklardan tuzilgan bunday kompozitsiyalar turlariga quyidagilar kiradi:

- soliterlar;
- daraxtlar, butalar va ularni turkumlashdan tuzilgan manzaraviy guruhlar;
- yashil devorlar;
- tirik yashil to‘siqlar;
- yashil bordyurlar;
- daraxt va butalarni kuzab ishlangan sun’iy yashil shakllar;


- chirmashib va tirmashib o‘sovchi yashil shakllar;
- gidroponik “karlik” o‘simliklar.

Endi ushbu kompozitsiyalarning mazmun va mohiyatiga, ularni shakllantirishning qoida va qonunlariga qisqacha to‘xtab o‘tamiz.

Soliterlar – bu yakka tartibda ekilgan va alohida noyob, o‘zining manzarasi, tanasining shaklu-shamoyili, gullari, o‘lchamlari bilan ajralib turuvchi, xushbichim go‘zal daraxt va butalardir (2.30-rasm). Ularga qo‘yilgan talablar – o‘ta manzarali va xushbichim bo‘lishi, atrof-muhitdan qaralganda yaxshi ko‘rinib turishi. Soliter kompozitsiyalarini qo‘llash daraxt va butalarning go‘zalligini alohida namoyish etish, landshaft kompozitsiyalariga favqulotda urg‘u berish, ularni o‘zga turlardan ajratish, muhitga tantanavorlik kiritish kabi ehtiyojlardan kelib chiqqan. O‘zbekistonda qadimdan choyxonalar va boshqa dam olish maskanlari hududida ana shunday alohida yakkaxon daraxtlar ekilib, ularga piramidasimon tol, ulkan chinor, sharsimon qayrag‘ochlar, majnuntollar kirgan. Hozirgi vaqtda soliter kompozitsiyalari uchun kumush archa, Qrim qarag‘ayi, lenkoran akatsiyasi, lola daraxti, magnoliya, ustunsimon tuya daraxti, majnuntut, sharsimon akatsiya, kashtan, chatiy va piramidasimon dub qo‘llanilmoqda.

Daraxtlardan tuzilgan guruhlar kompozitsiyasi. Boshqa kompozitsiyalardan alohida ekiladigan, tarkibi 2–3 tadan to o‘nlab daraxtlargacha bir xil daraxtlar turkumidan iborat bo‘lgan (toza guruhlar) yoki tarkibi har xil daraxtlardan tuzilgan (aralash guruhlar), maydoni bir necha o‘n kvadrat metrdan to 0,25 gektargacha bo‘lgan daraxtlar turkumidan iborat yashil kompozitsiya.

Daraxtlardan tuzilgan toza yoki aralash guruhlar kompozitsiyasi parklarda, skverlar, bog‘lar, mahalla ichi ko‘kalamzorlarida, bulvarlarda, davolash va dam olish muassasalari, madaniy va ma‘muriy binolar hududlarida yetakchi o‘rinni egallaydi. Daraxtlarning guruhdagi tig‘isligi ularning biologik xususiyatlariga yorug‘likni yoqtirishi, soyaga chidamliligi, o‘lchamlari, tuproq va namlikka munosabatiga bog‘liq bo‘lib, guruhdagi daraxtlar oralig‘i 3 metrdan 12 metrgacha, daraxtlarning tur va navlari esa me‘moriy-badiiy va manzaraviy talablar asosida shakllantiriladi.



2.30-rasm. Soliter, ya'ni yakkaxon kompozitsiyaga amaliyotdan misollar.

Guruhlarni shakllantirishda jozibali ko‘rinishi va shakllarga ega bo‘lgan, tarkibida bargi tushuvchi va xvoy tipidagi daraxtlar va ko‘rkam gullovchi butalar mavjud bo‘lgan manzarali aralash guruhlar kompozitsiyasidan keng foydalanish zarur. Murakkab tarkibli bunday guruhlar, odatda, ko‘p yarusli bo‘lib, ularda qo‘llanilgan daraxtlar o‘zining shakli-shamoyili, tusi va balandligi bilan boshqa kompozitsiyalardan ajralib turadi. Bu sifat bunday guruhlarning jozibadorligi va manzaraviyligini oshiradi. O‘zbekiston “Botanika bog‘i” (Toshkent shahri)da olib borilayotgan ishlar, xususan, ekzotik o‘simliklarni O‘zbekiston sharoiti va iqlimiga

moslashtirish, introduksiyalash ishlarining yutuqlari landshaft arxitektorlari ixtiyoriga bu sohadagi ijodiyot uchun katta imkoniyatlar beradi. Ana shu imkoniyatdan unumli foydalanishimiz uchun biz arxitektorlar dendrologiya fanini, landshaft guruhleri va kompozitsiyalarini, ularni yaratishda qo'llaniladigan me'moriy-badiiy va landshaft vositalardan unumli foydalana bilishimiz kerak.

Manzarali landshaft guruhlarini yaratishda daraxtlarning o'lchamlari, shoxlarining tig'isligi, bargi va fazoviy tuzilishi, ularning davriy rivojlanishidagi xususiyatlari: barglanish va bargsizlanish vaqtini, gullash davrini, kuz davrida qanday tusga kirishini e'tiborga olish zarur. Xullas guruhdagi daraxtlarning o'zaro uyg'unligiga, kompozitsiyaning yaxlitligini ta'minlashga, rangsizlik, bir xillikdan qochishga, jozibadorlik va yaqqolikka erishish zarur. Guruhning manzaradorligini oshirish uchun baland daraxtlarni bo'yi kichikroq daraxtlar ketidan joylashtirish, barglari tig'is va tim yashil xvoy daraxtlarini esa och yashil bargli daraxtlar orqasidan, gullari kamroq daraxtlarni yorqin gullovchilar ortidan joylashtirishga harakat qilmoq kerak. Shox-shabballari tig'is va barglari yirik daraxtlarni bir-biridan uzoqroq va aksincha, shoxlari siyrak, barglari kichiklarini o'zaro yaqin ekish zarur. Piramida-simon va konussimon daraxtlarni ularga shakli jihatidan kontrast bo'lgan sharsimon yoki zontik ko'rinishidagi daraxtlar yoniga ekish maqsadga muvofiqdir. Butalarni daraxt guruhleri atrofiga aylana yoki yarim aylana tarzida ko'rinadigan tomondan ekish zarur. Ular daraxtlar tanasini yopib, guruhni tig'is va yaxlit ko'rinishga, uning manzaradorligini oshirishga, rang va shakllar uyg'unligini ta'minlashga yordam beradi.

Bog'-parklar landshaft kompozitsiyalarida faqat butalardan tuzilgan alohida guruhlar ham qo'llaniladi. Ular ham daraxtlar guruhiga o'xshab tarkibi bo'yicha toza va aralash bo'lishi mumkin. Butalardan tuzilgan guruhlarini daraxt guruhleri orasidagi bo'sh joylarga, qurilgan bino burchlari, ko'chalar chetlari, bulvarlar, bog'-parklardagi yo'llar chetiga joylashtirish mumkin. Yirik va mayda bargli butalarni och yashil, to'q yashil qoramtir, tig'is va siyrak shoxli butalar bilan yilning turli fasllarida turlicha gullovchi, kuz faslidagi barglariga yangi rang beruvchi butalar bilan guruhlashda

xuddi daraxt guruhlarini tuzish va shakllantirishdagi qoida va uslublar, me'moriy-badiiy va landshaft vositalaridan foydalanish zarur. Butalarni ekishda buta oraliqlari ularning o'lchamlari va shakliga bog'liq holda 1 metrdan to 3 metrgacha olinadi.

O'zbekiston sharoitida uzoq muddat (fevraldan to noyabrgacha) gullab turuvchi butalardan tuzilgan guruhlarini yaratish mumkin. Buning uchun forzitsiya, bagryanik, bodom, yapon behisi, magoniya, spireya, deysiya, jasmin, boyarshnik, siren, buldenej kalinasi, drok, veygelya, barbaris, buryuchina, svidinya, buzina, gartenziya, prutnyak, siriy a tirguli, gibiskus, chelepsis, budleya, sumoxlardan foydalaniladi.

Atirgullar butalarning alohida turlarini tashkil qilib, ulardan park atirgullari, poliantovik atirgullar, o'ralib o'suvchi atirgullar (pletistie), chaynogibrid atirgullarini bog' va parklarning eng manzarali elementlari sifatida soliterlar yoki guruhlar tarzida hamda ulardan alohida guruhlar-atirgulzor (rozariya)lar tashkil etishda foydalaniladi.

Daraxt va butalardan tuzilgan murakkab guruhlarning ko'p sonli aralashmasi yashil massivlar kompozitsiyasini tashkil qiladi. Ularni yaratish uchun joy hududining tabiiy geografik va iqlimiy sharoitlarini chuqur o'rganish va eng muhimi mahalliy sharoitlarga moslashgan daraxt navlarini qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Qo'llanilayotgan daraxtlarning navlari va turlari iloji boricha keng sonli va mahalliy sharoitlarga moslashgan bo'lishi shart. Aralash guruhlar uzoq yashovchan, himoya funksiyasi yuqori va iqlimni yaxshilash, havoni sog'lomlashtirish xususiyatiga ega. Ularning badiiy landshaft, ya'ni jozibadorlik jihatlari ham yuqori. Biroq ular tarkibidagi daraxtlarning bosh (asosiy) va yondosh (to'ldiruvchi) turlarini ajrata bilish va qo'llash zarur.

Bosh (asosiy) nav (tur)lar – bu eng foydali va jozibador, ekiladigan o'simliklarga qo'yiladigan barcha talablarga, shu jumladan mahalliy sharoitlarga ham javob bera oladigan navlardan iborat bo'lib, ular guruhdagi daraxt va butalarning 50–60% idan kam bo'lmasligi kerak. O'zbekistonda qo'llaniladigan bosh, ya'ni asosiy daraxt turlariga ekiladigan tuman va mintaqalarga bog'liq holda dub chereshchatiy, qrim qarag'ayi, soxta kashtan, yasen

obiknovenniy, yapon saforasi, virjin mojevelnigi, katalpa velichestvennayalar kirsra, to‘ldiruvchi turlarigi–teraklar, majnuntol, sovun daraxti, dala klyoni, aylantlar kiradi. Hozirda bosh navlar qatorini kengaytirish maqsadida ularga Kanada bundugi, lola daraxti, beryoza, lipa, klyon yavorlarni kiritish, to‘ldiruvchi navlarga esa lenkoran akatsiyasi, boyarishnik va boshqalarni kiritish urfga kirgan.

Yashil massivlar va yirik guruhlarning chetlariga ekish va ko‘zga tashlanadigan joylarga chiroyli yashil manzaralar hosil qilish uchun majnun tut, sharsimon va piramidasiimon akatsiya, Pissarda slivasini tavsiya etish mumkin. Daraxtlar oldi va atroflariga go‘zal gullvochi butalar ekib yashil massivlar manzarasining sifatini oshirish mumkin.

Qatorlar kompozitsiyasi–ko‘chalar, yo‘llar bo‘ylab ariqlar, kanallar sohillariga park va skverlardagi bulvarlar va xiyobonlarga ekiladigan, ko‘kalamzor hududlar chegaralari bo‘ylab bir qator va ko‘p qator ixota daraxtlarini, sanoat korxonalarini, qoramollar fermalari, mexanizatsiya bazalari, turar joylar qurilishi oraliqlaridagi sanitariya-himoya ko‘kalamzorlarini shakllantirishda qo‘llaniladigan manzarali landshaft kompozitsiyasidir (2.31–2.32-rasmlar).



2.31-rasm. Daraxtlardan tuzilgan qatorlar kompozitsiyasi.



2.32-rasm. Daraxtlar oldi va atroflariga go‘zal gullovchi butalardan tuzilgan guruhlar kompozitsiyasi.

Mazkur kompozitsiya O‘zbekistonda azaldan keng tarqalgan. O‘rta Osiyo bog‘-park san‘atidagi an’anaviy “Chorbog‘” uslubida ham daraxtlar aynan ana shu qatorlar kompozitsiyasida ariqlar, hovuzlar, xiyobonlar atrofiga ekilgan. Yog‘ingarchilik va suv kamchil, issiq va quruq iqlim sharoitida qatorlar kompozitsiyasining roli kattadir.

O‘simliklarni qatorlab ekishning ham o‘ziga xos qonun va qoidalari mavjud. Qatorlar bir, ikki va ko‘p qatorli hamda xiyobon turlariga bo‘linadi. Qatorlab ekish kompozitsiyasidan foydalanib tirik yashil devorlar, yashil to‘siqlar, yashil bordyurlarni shakllantirish mumkin. Qatorlar daraxt va butalardan ishlanishi mumkin. Qatordagi daraxtlar yoki butalar navi bir xil bo‘lishi shart.

Qatorlar kompozitsiyasi uchun tanlangan daraxt yoki butalarning bo‘yi va ko‘rinishi bir xil shaklda va yoshda, ularning qatordagi oraliq‘i ham bir xil masofada bo‘lishi shart. Qisqasi har bir qator metrik ritm qonuniyatlariga asoslanishi zarur, ya‘ni bir navdagi o‘simlik bir xildagi masofalarga ekilishi kerak. Qatorlarning kompozitsiyasi va tuzilishi transport yo‘llari va ko‘chalarning kesishuvi yoki razvyazkalarda, ko‘chalarning rejasi va binolar qurilishining o‘zgarishiga qarab o‘zgarishi mumkin (2.33, 2.34, 2.35-rasmlar).

O‘zbekiston aholi punktlarida ko‘chalar bo‘ylab ekilgan qatorlar uchun quyuq soya beruvchi keng shox-shabbali dov-daraxtlar: dub,

soxta kashtan, yasen, yapon saforasi kabi daraxtlar tanlanadiki, ular nafaqat ko‘chalar va xiyobonlarga, balki binolar tarzlariga ham soya beradi.

O‘zbekiston ko‘chalari va xiyobonlarini ko‘kalamzorlashtirishda Yevropa ko‘chalaridagi kabi uslub, ya’ni to‘g‘ri shaklli (piramida, ustun, konus) ko‘rinishidagi va ko‘chalar ustuni yopmaydigan daraxtlar emas, balki usti yopiq xiyobonlar va ko‘chalarni shakllantiruvchi soyakor daraxtlarni qo‘llash tavsiya etiladi.

Yashil qatorlar kompozitsiyasiga qo‘yiladigan yuqoridagi talablar aholi punktlari oralig‘idagi yo‘llarga, ariqlar va kanallar bo‘ylab ekiladigan daraxtlarga ham taalluqlidir.

Yo‘llar, ko‘chalar, parklar va bulvarlar bo‘ylab ikki tomonlama qatorlab ekilgan daraxtlar kompozitsiyasini xiyobon deb atashadi.

Xiyobonlar ochiq va yopiq ko‘rinishlarda bo‘ladi. Ochiq xiyobonlar, odatda piramida, konus va ustunsimon shakllarga ega, yo‘l ustini yopmaydigan va quyuq soya berolmaydigan daraxtlar bilan shakllantiriladi. Bunday xiyobonlar bilan ufqning sharq-g‘arb, shimoliy g‘arb-janubiy sharq yo‘nalishlari bo‘ylab joylashgan yo‘llar va yo‘laklarni shakllantirsa bo‘ladi. Chunki bunday orientatsiyali xiyobonlarda quyuq soya talab etilmaydi.

Yopiq xiyobonlarga esa, aksincha, yo‘lak yoki yo‘l ustini shox-shabbalari bilan to‘liq qoplab olgan va quyuq soya beruvchi dov-daraxtlar ekiladi.

Birinchi ko‘rinishdagi, ya’ni ochiq xiyobonlar uchun piramidasimon tol va dub daraxtlari, konussimon va ustinsimon shaklli xvoy daraxtlari: mojjevelniklar, tuyalar, biotalar, sosnalar yoki uncha katta bo‘lmagan, tana tuzilishi tig‘is daraxtlar – sharsimon va majnun akatsiya, majnuntut, soyabonlilar – lenkoran akatsiyasi, Kanada bagryanigi kabi daraxtlar tanlanadi.

Yopiq ko‘rinishdagi xiyobonlar uchun esa shox-shabbalari atroflariga taralgan tig‘is, baland bo‘yli, yo‘l ustida 10–12 metr balandlikda yashil ravoq hosil qiluvchi: dub, yasen, safora, yunon va qora yong‘oq, soxta kashtan kabi dov-daraxtlar tanlanadi.

Yashil qatorlar kompozitsiyasining xillariga yana manzarali devorlar, tirik to‘siqlar va yashil bordyurlar him kiradi. Bu xildagi

yashil kompozitsiyalarning vazifasi ularning nomlaridan ham ma'lum, ya'ni asosan, to'siqlar vazifasini bajaradi. Ular yo'llar polotnosini ajratish, transport va piyodalar harakati polosalarini bir-biridan chegaralash, yashil bosketlar o'rnatish, ya'ni maxsus maydonlar (bolalar, raqs, sport, dam olish maydonchalarini) kuzalgan yashil devorlar bilan to'sish, gulzorlar chetiga manzaraviy xoshiyalar ishlash, mo'jaz me'moriy shakllar va bog'-park haykallari uchun yashil fon yaratish kabi vazifalar uchun ham qo'llaniladi.

Yashil to'siqlar, odatda, butun, ya'ni yaxlit ko'rinishda, orasidan o'tib bo'lmaydigan holatda ekilishi kerak. Shu maqsadda tirik yashil to'siqlar uchun butalarni 2–3 qator qilib, qatorlar orasini 0,4–0,5 m, qatordagi butalar orasini esa 0,2–0,5 m qilib ekish kerak.

Yashil to'siqlar shakl berilib kuzalgan yoki erkin holatda o'sishi mumkin. Erkin o'suvchi yashil to'siqlar uchun, odatda, sekin o'suvchi va ko'rkam gullovchi butalar masalan, Vangutta spireyi va barbaris kabilar tanlanishi mumkin.

O'zbekistonda xonakilashtirilgan bryuchinadan sun'iy shakllar berilib kuzalgan yashil izgorodlar keng tarqalgan. Amalda ularga istalgan shaklni berish mumkin – parallelopiped, oval, trapetsiya, shar va hokazo geometrik shakllar. Shakllantiriladigan yashil tirik to'siqlar uchun daraxtlardan: chinor, majnuntut, qayrag'och, olcha, qizil bargli Pissarda slivasi, grab; xvoy tipidagi daraxtlardan: tuyalar, turli xil mojjevelniklar; ignali daraxtlardan – boyarishniklar, gledichiya, makklyura, yovvoyi olmalar; butalardan – svidina (kornus), bryuchina, jimolist, yapon ayvasi, tamariks; ignali butalardan – ingikabargli lox, Tunberg barbarisi (to'q-qizil bargli), poliantoviy atirgullar, sariq akatsiya, tyorn, shipovnik; doimiy yashil butalardan – shamshod, yapon bereskleti, magoniyani tanlash mumkin.

Tirik yashil to'siqlar balandligi bo'yicha: baland – 3 metrgacha, o'rta – 2 metrgacha, pastqam – 1 metrgacha va yashil bordyurlar ko'rinishida – 0,5–0,7 metrgacha bo'ladi.

Yashil to'siqlar tarkibiga ko'ra bir, ikki va ko'p xildagi o'simliklardan shakllantirilib, tuzilishiga ko'ra bir xil balandlikda (tekis) yoki turli balandlikda, ya'ni pog'onali ko'rinishda ishlanishi

mumkin. Pog'onali yashil to'siqlar uchun bir necha xil butalar qo'llaniladiki, ular balandligi va rangi bo'yicha bir-biridan farq qiladi.

Tekis yashil to'siqlar ustida o'simlikni kuzash yo'li bilan turli shakldagi ritmik joylashgan yashil manzaraviy hajmlar yaratish imkoniyati mavjud.

Shuni ham ta'kidlash zarurki, yashil to'siqlarni istalgan joyda va maqsadda emas, balki funksional va estetik jihatlardan zarur bo'lgan joylardagina qo'llash maqsadga muvofiq. O'zbekistonning ko'pgina aholi punktlari, ayniqsa, qishloq, tuman markazlarida yashil to'siq (izgorod)larni qo'llashni go'yoki shart bo'lgan qonun "shtamp" shaklida tushunilib kelinmoqda: istalgan maydon yoki bino oldidagi parterlar chegarasi, gulzorlar atrofiga biryuchinadan yashil hoshiya (to'siqlar) ishlangan. Vaqt o'tishi bilan ular o'sib atrof-chet manzarasini yoki yo'laklarni yopib qo'ygan, yovvoyoi tabiiy muhit manzarasi vujudga kelgan. Yashil to'siqlarni vaqtida kuzab, ularning baland va yonlariga o'sib ketishiga yo'l qo'ymaslik kerak. Bog'-parklardagi yashil dekorativ devorlar bundan mustasno, albatta.



2.33-rasm. Qatorlar kompozitsiyasi.



2.34-rasm. Qatorlar kompozitsiyasi.



2.35-rasm. Qatorlar kompozitsiyasi uchun tanlangan daraxt yoki butalarning bo‘yi va ko‘rinishi bir xil shaklda va yoshda, qatordagi oralig‘i ham bir xil bo‘lishligi zarur (yashil manzaraviy devorlar).

Chirmashib va tirmashib o'suvchi o'simliklar—"liana"lardan foydalanish ham O'zbekistonda yaxshi yo'lga qo'yilgan. Biroq ularni qishloq aholi punktlarini ko'kalamzorlashtirishda qo'llash hozirda keng tus olmagan. Masalan, bunday o'simliklarni bolalar bog'chalarida, xususiy hovlilarda, maktablarda, bog'-parklarda, jamoat binolari hovlilarida qo'llash foydadan holi emas. Bunday o'simliklar qatoriga O'zbekistonda amur toki, yapon toki, beshbargli devichiy vinograd, xitoy glitsiniyasi, yapon jimolisti, jimolist kaprifol, klematis, plyush, tekoma va boshqalar kiradi.

Tekis maysazorlar ustida turli shakladagi qalinroq sim yoki yog'och tirgaklarga chirmashib o'suvchi atirgullar, jakman klematisi, jimolist-kaprifollar manzarasi kishiga zavq bag'ishlaydi. Daraxtlar ostidagi soyalik joylarda plyushdan maysa, quyosh nuri tushadigan maydonlarda esa puerariya, Vixurayan atirguli, amur toki, klematisdan ekib dekorativ maysazorlar hosil qilish mumkin. Binolar devorlarini yashil o'simliklar bilan bezashda, panjarali to'siqlarni, yopiq xiyobonlar, shiypon va ishkomlarni ko'kalamzorlashtirishda tirmashib va chirmashib o'suvchi lianlarning roli katta.

O'zbekistonda dam olish o'rinlari va maydonlarini ko'kalamzorlashtirishda, ishkom, voish, soyabonlarni yaratishda madaniy tokning o'rnini beqiyos. Umuman ustakor bog'bonlarning bu sohadagi fantaziyalari cheksiz. Bu maqsadda ular yovvoyi toklar, vinogradovniklar, tekoma (kampsis), chirmashuvchi atirgullar, puerariya, glitsiniyalardan keng foydalanishdi (2.36, 2.37, 2.38-rasmlar).



2.36-rasm. Chirmashib va tirmashib o'suvchi o'simliklar kompozitsiyasidan soyabon va hovliga kirishda voish sifatda foydalanish.

1.



2.



2.37-rasm. Chirmashib o'suvchi o'simliklarni amaliyotda qo'llash uslublari (1,2).



2.38-rasm. Chirmashib va tirmashib o'suvchi o'simliklardan turar joy fasadlarini bezatishda foydalanish.

Nazorat savollari:

1. Sanoat binolari hududlari qanday ko'kalamzorlashtiriladi?
2. Bolalar bog'chalari qanday ko'kalamzorlashtiriladi?
3. Maktab hududini ko'kalamzorlashtirish yechimlari haqida aytib bering.
4. Oliy o'quv yurtlari hududi qanday ko'kalamzorlashtiriladi?
5. Oliy o'quv yurtlari qanday zonalardan iborat bo'ladi?
6. Daraxt va butalar guliga qarab qanday guruhlarga bo'linadi?

III BOB. OCHIQ FAZOVIIY LANDSHAFT MUHITINI SHAKLLANTIRISH, SHAHARNING TABIIY KARKASINI RIVOJLANTIRISH TAMOYILLARI, SHAHAR KO‘KALAMZORLAR TIZIMINING TASNIFI

Landshaft arxitekturasi obyektlarini klassifikatsiyalash. Yashil ko‘kalamzorlar tizimi, yashil ko‘kalamzorlarni me‘yorlash. Shahar va shaharchalarni rejalashtirish unsurlarini birlashtiruvchi ko‘kalamzorlar tizimi. Aholi yashash joylarini tashkil qilishning landshaft-rejaviiy tamoyillari va vazifalari. Ko‘kalamzorlar tizimini shakllantirishga qo‘yiladigan talablar. Ko‘kalamzorlar tizimini tashkil qilishning asosiy tamoyillari.

Arxitektura – landshaft topshiriqlarini bir tizimga olib kelish, asosiy va ikkinchi darajali unsurlarni aniqlash uchun obyektlar tipologiyasiga ega bo‘lishi kerak. Keyin ularni yechish usullari va tamoyillarini belgilab olish talab qilinadi. Tipologiyaga nafaqat unsurlar va obyektlarning boshqasiga o‘tish, balki ilmiy bilish usullari kiradi. Bunga yana yangi turdagi obyektlarning paydo bo‘lishi, ularning rivojlanish qonuniyatlarini tadqiq qilish ham kiradi. Tizimning har bir unsurini bo‘laklarga bo‘lib landshaft arxitekturasi obyektlarini sanab chiqamiz: bino va har xil inshootlar, shaharlar, qishloqlar, parklar va boshqa unsurlar.

Qayd qilib o‘tish kerakki, landshaft arxitekturasi har qanday obyektini ularning yaratish va funksional omillaridan ajratib bo‘lmaydi. Landshaft muhitining yagona me‘moriy obyekt sifatida ko‘rsatilishi landshaft tipologiyasida yangilik hisoblanadi. Landshaft muhiti bu antropogen va tabiiy landshaft tizimlarining qo‘shilishi. Biz tipologiyada landshaft obyektlarini tanlab olmaymiz, masalan, parklar, xiyobonlarni, muhitni o‘zgartirish uchun bo‘sh tizimlar yaxlitligi holatini tanlaymiz. Bunda asosiy g‘oya landshaft arxitekturasi obyekti rolini o‘ynaydi.

Landshaft arxitekturasi obyektlari unsurlari va tizimi

Ekologiya nuqtai nazaridan atrof-muhitning har bir qismi arxitektor tomonidan hisobga olinishi kerak. Landshaft arxitekturasi obyektiga bog‘liq bo‘lmagan unsurlarni ham hisobga olish kerak.

Ba'zi holatlarda ular shu sohaning bir bo'lagiga aylanishi mumkin va barcha o'zaro aloqalarni ham hisobga olish kerak. Dastlab landshaftni hududiy tadqiq qilish tipologiyaning asosi bo'lib ko'rinishi mumkin, ammo amaliyot uchun u asosiy hisoblanmaydi. Masalan, obyekt hududi shaharsozlik, iqtisodiy nuqtai nazardan kompleks o'rganiladi. U yana maxsus ko'rinishga ega bo'lgan landshaft arxitekturasi obyekt bo'lishi mumkin. Bu turistlarga xizmat qiladigan, himoya vazifasini bajaradigan landshaft sxemasini yaratish bo'lishi mumkin. Shaharni murakkab tizim deyishimiz mumkin. Bu murakkab landshaft, ijtimoiy, me'moriy tizim, masalan, shaharning suv, ko'kalamzorlashtirish unsurlari qunt bilan o'rganiladi va loyihalanaadi.

Obyektlar klassifikatsiyasi. Arxitekturada – landshaft topshiriqlarini tizimga solish, tipologiyasini ko'rsatish uchun klassifikatsiyaning ikkita darajasi mavjud: Birinchi guruh obyektlar arxitektura va shaharsozlikni o'z ichiga oladi. Landshaft topshiriqlari iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa savollar bilan bir qatorda turadi. landshaft arxitektori loyihaning hammuallifi xolos. Ikkinchi guruh obyektlarida asosiy e'tibor landshaftga qaratiladi va bunda landshaft arxitektori asosiy muallif bo'ladi va obyekt yechimi uslubini, rejasini aniqlab beradi.

Muhit unsurlari hisoblangan landshaft arxitekturasi obyektlari birligi guruhga mansubdir. Davlat, tuman, ishlab chiqarish komplekslari, aholi yashash hududlari va ularga mos loyihalar: bosh reja, umumiy va alohida sxemalar bunga kirishi mumkin. Asosiy me'moriy-landshaft topshiriqlarini shakllantiramiz: landshaft va xalq xo'jaligi kompleksining bir-biriga to'g'ri kelishini hal qilish kerak; landshaftni qayta tashkil qilish bo'yicha dastlabki qarashlarni yaxshilab o'rganish va baholash; landshaft bilan mutanosib bog'liq bino va inshootlar; ekologik talablar, muhitni saqlash, gigiyenik va estetik me'yornlarni yaxshilash hisobga olingan obyektlarni tashkil qilish.

Ko'kalamzorlashtirish tizimining asosiy unsurlari

Mavjud shaharsozlik va tabiiy sharoitlardan qat'i nazar, ko'kalamzorlashtirish tizimi muayyan shaharga mos ko'rinish hosil

qiladi. Bunda landshaft tizimi unsurlari o'zlarinikidan boshqa vazifalarni ham bajaradi.

Shahar parki – sayr qilish, dam olish uchun mo'ljallangan, inshootlari ko'p bo'lmagan yashil bog'.

Bolalar parki – o'quvchilarning tabiiy sharoitda o'ynashi, dam olishi, fizkultura bilan shug'ullanishga mo'ljallangan.

Sport parki – yashil ko'kalamzorlarda joylashgan, har xil turdagi va o'lchamdagi sport inshootlari kompleksi. Bunday parklar qisqa muddatli dam olish joylari, madaniy va maishiy obyektlarini ham o'ziga oladi.

Gidropark – o'rmon va o'tloq o'simliklariga mos, har xil shakldagi suvli, hovuzli muhit, landshaft dam olish maqsadida park kompozitsiyasi tizimi ko'rinishida tashkil qilingan, obodonlashtirilgan hudud. Hovuzlar bo'yida dam olish va suv sporti bilan shug'ullanishga mo'ljallangan inshootlar bo'ladi.

Zoopark – hayvonlarni tabiiy yashash joylariga yaqinlashtirilgan sharoitda saqlaydigan ilmiy-tadqiqot va madaniy muassasa.

Botanika bog'i – botanika, introduksiya, manzarali bog'dorchilik va aholi yashash joylarini ko'kalamzorlashtirish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlariga mo'ljallangan, ko'kalamzorlashtirilgan obyekt. Bir vaqtning o'zida shahar aholisi uchun dam olish joyi vazifasini ham bajarishi mumkin.

Dendrariy – har xil daraxt va butalarni iqlimlashtirish va introduksiyalash bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishga mo'ljallangan botanika bog'ining alohida qismi yoki shahar ko'kalamzorlashtirish tizimining maxsus hududi. Geografik, tizimli, ekologik tamoyillar bo'yicha tashkil qilinadi.

Ko'rgazmali park – ko'kalamzorlashtirilgan hududlarda joylashgan, ochiq osmon ostidagi ko'rgazmalar xiyoboni yoki ko'rgazmalar pavilonlari majmuasi. Fan-texnika, ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi, madaniyat va san'at sohalarida qo'lga kiritilgan yutuqlarni targ'ibot qilishga mo'ljallanadi. Insonning tabiat qo'ynida dam olib ma'lumot to'plashiga xizmat qiladi. Madaniyat, tomosha, dam olish bino va inshootlarini o'z ichiga oladi.

Tarixiy park – bog'-park qurilishining namunasi bo'lgan qadimiy park. Tarixiy obyekt sifatida davlat tomonidan qo'riqlanadi.

Ochiq osmon ostidagi park-muzey – yam-yashil muhitda turli-tuman kolleksiyalarni (haykal, tosh, bino va inshootlar maketi) joylashtirishga mo‘ljallangan hudud. Bir vaqtning o‘zida tashrif buyuruvchilarning tabiat qo‘ynida dam olishiga mo‘ljallanadi.

Memorial park – mahobatli me‘moriy inshootlar – muzey, panteon, haykallar guruhi, shon-sharaf minoralari va xalq tarixidagi muhim voqealarga bag‘ishlangan xotira maydonlari joylashgan hudud. Unga daraxtlar ekilgan, muntazam ko‘rinishdagi parterlar; majnuntol yoki piramida shaklidagi daraxtlar bilan bezatilgan, qardoshlik qabristonlari kiradi.

Etnografik park – turar joy, maishiy, diniy binolar, mehnat qurollari, maishiy buyumlar, ommaviy san’at namunalarni namoyish qilishga mo‘ljallanadi.

Ko‘ngil ochar park – ko‘ngil ochar qurilma va atraksionlar joylashgan ko‘kalamzorlashtirilgan hudud. Har xil yoshdagi va kategoriyadagi tashrif buyuruvchilarning dam olishi uchun sharoit yaratiladi.

Tinch dam olish va sayr parki – tabiat qo‘ynida tinch dam olish va sayr qilishga mo‘ljallanadi. Qulay shart-sharoiti va manzaraviyligi bilan ajralib turadi. Kirish joyining yaqinida uncha ko‘p bo‘lmagan inshootlar joylashadi.

O‘rmon parki – obodonlashtirilgan o‘rmon, daraxtlar qisman qirqilib yoki ekilib, park kompozitsiyasi tizimida tashkil qilinadi, o‘rmon landshaft sifati yaxshilanadi. Shahar yaqinida, tabiat qo‘ynida dam olish uchun tashkil qilinadi.

O‘tloq park – obodonlashtirilgan o‘tloq daraxt, buta va gullar bilan o‘tloq landshaftining dam olish sifati yaxshilanadi. Ommaviy dam olishni tashkil qilish uchun yaxshi baza.

Kurort parki – yoqimli tabiiy sharoitga va shifobaxsh omillarga ega hudud, aholining dam olishi va davolanishi uchun mo‘ljallanadi.

*Qo‘riqxon*a – hayvonot va o‘simliklar dunyosini, qimmatbaho landshaftni, ba’zi turdagi o‘simliklarni, tarixiy obidalarni saqlab qolish uchun tabiiy sharoit yaratilgan hudud. U davlat tomonidan muhofaza qilinadi.

Ijara bog'i (zakaznik) – ma'lum bir vaqtga foydalanish uchun olinadigan hudud. Bu vaqtda muhofaza qilinadigan obyektlarga talofat etkazilmasdan tabiiy resurslardan qisman foydalaniladi.

Milliy park – umumdavlat ahamiyatiga molik, yirik o'lchamdagi hudud, muhofaza qilinadigan tabiiy landshaftni yoki uning bir qismini o'z ichiga oladi. Tabiiy landshaftni muhofaza qilish, ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish, dam olish uchun mo'ljallanadi.

Tabiiy park – boshqa turdagi muhofaza qilinadigan parklarga nisbatan juda qattiq qo'riqlanadigan park. O'ziga xos manzaraviyligi bilan ajralib turadigan tabiiy va madaniy landshaft hududi. Dam olish, ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish uchun mo'ljallanadi.

Manzarali park – park turidan bittasi, tabiiy madaniylashtirilgan, odamlar uchun yoqimli bo'lgan muhofaza qilinadigan landshaft, asosan, dam olish maqsadida foydalaniladi.

Dengiz parki – dengiz akvatoriyasida yaratilgan milliy yoki tabiiy park yoki er usti va suv osti qismlaridan iborat parklar.

Xalq parki – davlat tomonidan muhofazaga olingan, dam olish va turizmga mo'ljallangan manzarali landshaft hududi. Xalq parklari sharqiy Yevropa davlatlarida taraqqiy etgan.

Park yo'li – sayr qilish uchun mo'ljallangan, manzarali joylarga quriladigan avtomobil yoki piyodalar yo'llari. Odatda, shahardan shahar oldi dam olish joylariga olib boradi.

Ommaviy dam olish hududi – shahar aholisining qisqa yoki uzoq muddatli dam olishiga mo'ljallangan, shahar oldi hududida joylashgan, o'ziga o'rmon, tog', akvatoriya va o'tloqlarni olgan hudud.

Shahar ko'chalaridagi ko'kalamzorlar – avtomobil yo'llari va piyodalar yo'laklari orasidagi maxsus joylarga ekilgan daraxtlar, butalar va tirik to'siqlar qatori, ajratuvchi maysali qatorlar, harakatni tartibga soluvchi yashil orollar. Piyodalar va binolarni shovqin, chang va quyosh urushidan himoya qilish uchun, ya'ni ko'chalarda va binolar ichida sanitar-gigiyenik sharoitni yaxshilash uchun mo'ljallanadi.

Piyodalar ko'chalaridagi ko'kalamzorlar – ko'cha fazoviy muhitini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Ular tabiiy

eksponatga aylanishadi, atrofida obodonlashtirishning boshqa unsurlari tashkil qilinadi.

Bulvar – sanitariya-gigiyenik va manzarali rejaviy rol bajara-digan, daraxt va butalardan tashkil topgan tasmaimon ko‘rinishga ega turar-joy va qirg‘oq bo‘yi ko‘chalarida, magistrallar yoqasida joylashgan yashil ko‘kalamzorlar. Yo‘llar tarmog‘i va qisqa muddatli dam olishni rivojlantirish, piyodalar harakati uchun mo‘ljallanadi.

Xiyobon (skver) – piyodalarning qisqa muddatli dam olishi va shahar maydonlari, ko‘chalari, jamoat va ma‘muriy binolarni, monumentlarni badiiy-manzarali bezash uchun mo‘ljallangan ko‘kalamzorlashtirilgan hudud.

Turar-joy tumani bog‘i – aholining davriy va kundalik dam olishiga mo‘ljallangan ko‘kalamzorlar tizimining asosiy unsuri. Turli-tuman madaniy hordiq chiqarish muassasalarini o‘z ichiga oladi.

Kichik tuman bog‘i – aholining har kunida dam olishga mo‘ljallanadi. Tinch dam olish, bolalar ko‘ngil ochar va o‘ynaydigan joylari, fizkultura bilan shug‘ullanadigan maydonlari bo‘lishi tavsiya qilinadi. Maktab sport maydoni bilan qo‘shish mumkin.

Turar-joy hovlisidagi ko‘kalamzorlar – turar-joylarda mikro-klimatning yaxshilanishiga bevosita ta‘sir qiladi, aholining dam olish uchun mo‘ljallanadi. Turar-joylarning pastki qavatlarini shamollatish va tabiiy yoritish uchun ko‘kalamzorlashtiriladigan hududning markazida joylashtiriladi.

Maktab, kollej, litsey, maktabgacha ta‘lim muassasalari, oliy ta‘lim muassasalari, madaniy-maishiy muassasalar, kasalxonalar, ilmiy-tadqiqot institutlari, ishlab-chiqarish korxonalari hududlari uchun yashil ko‘kalamzorlar kerak.

Qishgi bog‘ – bino ichidagi fazoviy muhit, tuvakga, konteynerga yoki erga ekilgan manzarali o‘simliklar bilan bezatiladi. Bunga yana kichkina hovuz, yo‘laklar, manzarali unsurlar, haykallar kiradi. Bino ichining chiroyli bo‘lishi va qisqa muddatli dam olish uchun mo‘ljallanadi.

Tomdagi bog' – tom ustidagi cheklangan hududda, tuproq sepilib, daraxt, buta, maysa va gullar ekilib qilingan ko'kalamzorlashtirilgan obyekt. Lavhalarga qunt bilan kompozitsion va qurilmaviy ishlov berish talab qilinadi.

Rokariy – toshli oq bog', manzarali o'simliklar rangba-rang toshlar bilan uyg'unlashib ajib bir manzara hosil qiladi.

Alpinariy – tog' landshafti va uning o'simliklari dunyosi go'zalligini o'zida aks etadigan toshli bog'.

Ko'chma bog' – uncha katta bo'lmagan, ko'kalamzorlashtirilgan ko'chma obyekt. Har xil o'lchamdagi konteyner, sopol va beton tuvaklarga o'tqazilgan gullar, butalar yordamida bezatiladi.

Modulli bog' – ma'lum bir masofada takrorlanadigan, modullarning geometrik tizimida qurilgan, gulzorlarni joylashtirish usuli. Masalan, har xil o'simliklar ekilgan (gullar, manzarali daraxtlar, butalar va maysalar) atrofida plitkalar terilgan kvadratlar.

Monobog' – qanaqadir (rozariy, georginariy, sirencharyi) o'simlik navlari yetakchilik qiladigan bog'.

Rozariy – har xil turdagi va navdagi atirgullar etishtirishga va namoyish qilishga mo'ljallangan manzarali hudud.

Atirgulli bog' – atirgul dominantlik qiladigan bog', bunday bog'larning rejasi muntazam usulda echiladi.

Parterli bog' – maysazorlar, gulzorlar va suv havzalari dominantlik qiladigan, muntazam usuldagi bog'. Daraxt va butalar gulzorning chekkasida joylashadi; o'simliklar doim kuzab turiladi, ularga shar, kub, kvadrat shakllari beriladi.

Peristil – hovuz, favvora, gulzorli ichki hovli. Atrofi ayvonli, muntazam kompozitsiyaga ega. Qadimiy Rimda peristil devorlari bog' manzaralari chizilib bezatilgan.

Choy ichish bog'i – dam olish va choy ichish marosimlarini o'tkazishga mo'ljallangan, choy ichiladigan uyga tutashgan bog'.

Yapon bog'i – bog'-park san'atining an'anaviy asari, mo'jaz hududda Yaponiya tabiati miniatyuralashtirilgan ramziy namoyish qilinadi, tashrif buyuruvchilarda Yaponiya tabiatini his qilish imkoniyati yaratadi.

To'xtovsiz gullab turadigan bog' – daraxt, buta va o'tsimon turli-tuman o'simliklar gullash vaqtiga qarab tanlanadigan va kompozitsiya qilinadigan hudud.

Qabriston – maxsus maqsadlarda ko'kalamzorlashtiriladigan obyekt. Hududni obodonlashtirish va manzaraviy shakllantirish uchun ko'kalamzordan foydalaniladi. Odatda, shahar oldi hududlarida joylashadi.

Sanitar-himoya bog'lari – turar-joylarni ishlab-chiqarish korxonalaridan ajratib turadigan maxsus hudud. Maxsus yaratilgan himoya ko'kalamzorlari tizimi ochiq hududlar, pitomniklarga mos bo'ladi. Turar-joy tumanlarini ishlab chiqarish korxonalaridan chiqqan yoqimsiz hidlardan saqlashga mo'ljallanadi.

Suvni himoya qiladigan ko'kalamzorlar – suv ombori, daryo, ko'l va hovuzlar qirg'og'iga ekiladi. Suv havzalarini ifloslanish va bug'lanishdan himoya qilish maqsadida yaratiladi.

Himoya meliorativ ko'kalamzorlar – shamol tezligini 50% – 80% kamaytirishga mo'ljallanadi. Shamoldan himoya ko'kalamzorlarning harakati daraxt va butalar zichligi, balandligi va to'siqning shamol yo'nalishiga nisbatan joylashish burchagiga bog'liq.

Ko'kalamzorlarning shamoldan himoya xususiyati samaradorligi o'simliklarning turiga bog'liq: yalpoqbargli daraxt va butalarning barglari kuzda to'kilib samaradorligi pasayadi, igna bargli daraxtlar bargini to'kmaydi va samaradorligi yil davomida saqlanib qoladi.

Quyoshdan himoya qiluvchi ko'kalamzorlar – obyektning xususiyatidan qat'iy nazar, ular qatorlab, guruhlab, xiyobonli va alohida qilib joylashtiriladi. Hududni soya qilish daraxtlarning shakli, o'lchami va zichligi, soya qilinadigan yuzaga nisbatan joylashishiga bog'liq.

Qordan himoya qiluvchi ko'kalamzorlar – ko'p mehnat va vositalar talab qilmaydigan, qordan himoya qilish turi. Daraxt va butalarning zichligi va balandligi samaradorlikka olib keluvchi muhim omil hisoblanadi.

Yong'indan himoya qiluvchi ko'kalamzorlar – bu guruhlar ko'p miqdorda namlikni o'zida saqlovchi, olovning tarqalishiga qarshilik qila oladigan daraxt va butalardan tashkil topadi.

Changdan himoya qiluvchi ko'kalamzorlar – ularni chang manbalari yaqinida yaratish maqsadga muvofiq. Ularning samaradorligi shamol va changning yo'nalishiga nisbatan joylashuvi, daraxt va butalarini tuzilishiga bog'liq. Changdan himoya qiluvchi ko'kalamzorlar quyuuq shoxli, barglari ko'p, barglari ajinsimon daraxtlarni o'z ichiga oladi.

Shovqindan himoya qiluvchi ko'kalamzorlar – shovqinni qaytaruvchi, tarqatuvchi va yutuvchi vazifasini bajaradi. Shovqinni qaytarish samaradorligi daraxt va butalarning xususiyatiga, navi, joylashuvi va iqlim sharoitiga bog'liq. Manzarali himoya (maskirovka) ko'kalamzorlari – yashirish talab qiladigan bino, inshoot va qurilmalar oldida yaratiladi.

Pitomnik, gulchilik xo'jaligi – ochiq joyda o'simliklarni ko'paytirish va yetishtirish uchun mo'ljallangan hudud.

Ko'kalamzorlar tizimining funksional tuzilishi

Yirik shaharlar ko'kalamzorlashtirilgan murakkab funksional tuzilishi bilan ajralib turadi. Ajratib turuvchi belgilari shunchalik xilma-xilki ularni tashkil qilishda yuz beradigan barcha holatlarni qanoatlantiruvchi aniq klassifikatsiyani yaratish imkoniyatini bermaydi.

A. Belkin dam olishning turiga va ko'kalamzorlashtiriladigan muhitning shahar tizimidagi joylashuviga qarab klassifikatsiya ishlab chiqqan (3.1-jadval). Ko'kalamzorlashtiriladigan fazoviy muhitlar 3 ta katta guruhga bo'lingan: ko'pfunksiyali parklar, maxsus parklar va ko'kalamzorlashtirilgan bog'lovchi hududlar.

Yirik shahar muhitini ko'kalamzorlashtirish tizimi

Ko'p funksiyali parklar dam olishning juda ko'p turlari bilan xizmat qiladi. Shaharlarda ko'kalamzorlashtirish tizimini optimal holatga keltirish uchun 4 guruh maxsus parklar ajratib olinadi:

1. Barcha yoshdagi aholining ommaviy dam olishi uchun yuqori darajada xizmat qiladigan parklar (suvda dam olish, chang'ida sayr qilish va h.k.);
2. Ma'lum bir ijtimoiy-demografik guruhga xizmat qilish uchun mo'ljallangan parklar (maktab o'quvchilari o'ynaydigan parklar, nafaqaxo'rlar tinch sayr qiladigan parklar, talabalar uchun sport bilan shug'ullanadigan parklar);

3. Turli xil dam olish, rivojlanish va o'yin-kulgiga mo'ljallangan parklar (sport parki, zoopark, tematik park, botanika bog'i, etnografik park va h.k.);

4. Ma'lum bir doiradagi guruhlarga xizmat qilish uchun mo'ljallangan parklar (tennischilar, baliqchilar park klublari).

Shahar yashil ko'kalamzorlarini joylashtirish va me'yorlashtirish

Yashil ko'kalamzorlarni me'yorlashtirish shaharning maqomi, hududining o'lchami, imoratlarning zichligi, tabiiy iqlim sharoiti, mavjud arxitektura-rejaviy yechimidan kelib chiqib amalga oshiriladi. Hamma foydalaniladigan yashil ko'kalamzorlarni turar-joy hududlarining barcha joyida, jamoat markazlari va sport majmualari atrofida joylashtirish kerak.

Juda yirik, yirik va katta shaharlarda umumshahar parkidan tashqari, tuman va maxsus (bolalar parklari, sport parki, zoopark) parklar ham yaratiladi. Ular barcha shahar aholisining turli xil dam olish talabini qanoatlantiradi.

Shahar tumanida yashil ko'kalamzorlar barcha foydalanadigan ko'kalamzorlashtirilgan hududlarni (turar-joy tumani, mikrotuman bog'lari, bulvar, xiyobon va h.k.) va maxsus foydalanishi chegaralangan ko'kalamzorlashtirilgan hududlarni (ko'kalamzorlashtirilgan hovlilar, maktab hudulari, maktabgacha ta'lim muassasalari hududlari va h.k.) o'z ichiga oladi.

Agar ko'kalamzorlashtirish tizimining bitta qismi yo'qolsa, boshqa turdagi ko'kalamzorlarning hududini kengaytirish hisobiga uni to'ldirish talab qilinadi, turar-joy tumanining 50% hududini ko'kalamzorlashtirishga erishgan holda.

Loyihalash jamoat markazi tuzilishini aniqlashdan boshlanadi. Bunda tashkilotlar va xizmat qilish muassasalari hududida – $1,5 \text{ m}^2/\text{kishi}$, umumiy foydalaniladigan ko'kalamzorlarda – $3 \text{ m}^2/\text{kishi}$, sport inshootlarida – $1,5 \text{ m}^2/\text{kishi}$, avtomobillar turar-joylarida $0,2 \text{ m}^2/\text{kishi}$ to'g'ri keladi.

Turar-joy tumanlaridagi ko'kalamzorlar hisobi birinchi navbatda $7 \text{ m}^2/\text{kishi}$ va $10 \text{ m}^2/\text{kishi}$ hisobiy muddatda qabul qilingan.

O'rmonlarga tutashgan tumanlarda ko'kalamzorlar maydoni 30% gacha qisqartirilishi mumkin.

Turar-joy tumanlaridagi ko‘kalamzor hududlar o‘lchami binolar qavatlarida mos ravishda o‘zgartirilishi mumkin: 2–3 qavat – 19–15 m²/kishi; 4–5 qavat 14–11 m²/kishi; 6–8 qavat 10,5–9 m² /kishi; 9–12 qavat 8,5–8 m²/kishi; 16 qavat 7 m²/kishi. Qavatlar sonidan qat’iy nazar sport va fizkultura maydonlarida ko‘kalamzorlarga 1,2 m²/kishi joy ajratiladi.

Umumiy foydalaniladigan ko‘kalamzorlar maydonlari

Ko‘kalamzorlar	Ko‘kalamzorlar maydoni, m ² /kishi							
	Juda yirik, yirik va katta shaharlarda		O‘rtacha shaharlarda		Kichik shaharlarda		Kurort shaharlarda	
	Birinchi navbatda	Hisobli mudatda	Birinchi navbatda	Hisobli mudatda	Birinchi navbatda	Hisobli mudatda	Birinchi navbatda	Hisobli mudatda
Umumshahar	5	10	4	6	7	7	12	15
Turar-joy tumanlarda	7	11	5	8	-	-	16	20

Shahar ko‘kalamzorlar tizimini loyihalashda quyidagicha maydon ajratiladi: umumshahar parki uchun – 15 ga; rejaviy tuman parki uchun – 10 ga; turar-joy tumani bog‘i uchun – 3 ga; xiyobonlar uchun 0,5 ga; umumposyolka bog‘i uchun ajratilgan muhit 2 ga dan kam bo‘lmasligi kerak.

Park, bog‘ va xiyobonlar umumiy maydonining 70 % ni ko‘kalamzorlar tashkil qilishi kerak. Shaharning kattaligi, rejaviy tuzilishi, iqlim sharoitiga nisbatan ko‘kalamzorlar maydoni aniqlanadi. O‘rtacha bir kishiga to‘g‘ri keladigan shahar ko‘kalamzorlarining maydoni 70 m² gacha yetadi. O‘rmon parklari umumiy foydalaniladigan shahar ko‘kalamzorlari tarkibiga kirmaydi. Ularning maydoni mahalliy sharoitga nisbatan hisoblanadi: juda yirik, yirik va katta shaharlarda -150–200 m²/kishi; o‘rtacha shaharlarda -70–100 m²/kishi va kichik shaharlarda 50–75 m²/kishi.

Qadimiy shahar tumanlarini rekonstruksiya qilish va ko‘kalamzorlashtirishda umumiy foydalaniladigan ko‘kalamzorlar hisobi quyidagicha qabul qilinadi: juda yirik shaharlardan (aholisi 500 mingdan ortiq) – 16–18% ; yirik, katta va o‘rtacha shaharlarda (aholisi 50–500 mingkishi) – 14–16%.

Juda yirik, yirik va katta shaharlarda ko‘chatlar bilan ta‘minlash uchun daraxt va buta o‘simliklari ko‘chatlari etishtiradigan pitomniklar, gulchilik xo‘jaliklari tashkil qilish ko‘zda tutiladi (bir kishiga 5–0,4 m²). Shaharlar va aholi yashash hududlari uchun 80 gektardan kam bo‘lmagan maydondagi pitomniklar ko‘zda tutiladi.

Vengriya me‘yorlariga mos ravishda, turar-joy tumanlari hududining 40–50 % qismi ko‘kalamzorlar, ko‘chalar, o‘yingoh va sport maydonlariga ajratiladi.

Ko‘p qavatli turar-joy tumanini ko‘kalamzorlashtirishga 5m²/kishi; o‘yingoh va sport maydonlarini ko‘kalamzorlashtirishga 2 m²/kishi joy to‘g‘ri keladi. Parklarga 8–10 ga, piyoda yurganda 20 minutlik radiusdagi joy tavsiya qilinadi. Ko‘kalamzorlar parkning 70–75 % qismini, o‘yingoh va sport maydonlari 8–10% qismini egallashi kerak.

Shaharlarni va yangi turar-joy tumanlarini loyihalashda Germaniyalik mutaxassislar quyidagi me‘yoriy ko‘rsatkichlardan foydalanishadi:

Ko‘kalamzor hududlar turi/maydon m ² / kishi;	
Park, xiyobon, bulvarlar.....	10–15;
Sport maydonlari.....	5–7;
Uylar oldidagi bog‘lar.....	10–15;
Turar-joy tumanlarining ko‘kalamzorlashtirilgan hududi .	10–15.
<i>Jumladan:</i>	
Turar-joy binolari hududi.....	4–5;
Maktabgacha ta‘lim muassasalari hududi	2,2–2,7;
Maktablar hududi.....	2–2,7;
Jamoat tashkilotlari hududi.....	0,4.

Polshada 50 ming kishilik turar-joy tumanida park, xiyobon, sport bilan shug‘ullanish markazi, bolalar maydonchasi bo‘lishi ko‘zda tutiladi. Yonma-yon joylashgan bir nechta turar-joy tumanlari uchun yagona park barpo qilinadi, uning xizmat qilish

radiusi piyoda yurilganda 20–30 minutlik yo‘lga teng bo‘ladi. Bunday parklarning maydoni me‘yorlardan kelib chiqqan holda 6–10 m² / kishi bo‘ladi.

Belgrad mikrotumanlarini ko‘kalamzorlashtirishni loyihalashda ko‘kalamzorlarga 3m²/kishi, sport va fizkultura maydonlariga 2,2 m²/ kishi joy ajratiladi. Asosiy e‘tibor turar-joy tumanlarida umumiy foydalaniladigan ko‘kalamzorlar va fizkultura-sport uskunalarini to‘g‘ri taqsimlashga qaratiladi. Yashash joydan sport majmuasigacha bo‘lgan maksimal masofa 1,5 km qilib olingan. Shahar aholisini sport inshootlarini ta‘minlash o‘rtacha 3 m²/kishiga to‘g‘ri keladi (sport inshootlari–1,7 m² / kishi, ko‘kalamzorlar–1,3m²/kishi).

AQSHda ko‘kalamzorlashtirilgan hududlarning yagona tizmiga shahar parklari, turar-joy tumani parki, o‘yingoh, fizkultura-sport majmualari, parkdagi yo‘llar va shahar tashqarisidagshi dam olish hududlari kiradi.

Buyuk Britaniya me‘yorlari bo‘yicha bitta shahar fuqarosiga o‘rtacha 20–25 m² umumshahar va tuman ko‘kalamzorlashtirilgan hududlari to‘g‘ri keladi. Tuman parklari 20–60 gektarga teng hududga ega bo‘lishi kerak.

Nazorat savollari:

- 1. Landshaft arxitekturasi obyektlarini klassifikatsiyalash deganda nimani tushunasiz?*
- 2. Qanday parklar ko‘kalamzorlashtirish tizimining asosiy unsurlari hisoblanadi?*
- 3. Etnografik parklar deganda nimani tushunasiz?*
- 4. Memorial park deganda nimani tushunasiz?*
- 5. Qo‘riqxonalar deganda nimani tushunasiz?*
- 6. Shaharlarda ko‘kalamzorlashtirish tizimini optimal holatiga keltirish uchun qanday maxsus parklar ajratib olinadi?*
- 7. Shahar yashil ko‘kalamzorlari qanday joylashtiriladi?*

IV BOB. SHAHAR VA SHAHAR MARKAZLARINI LANDSHAFT- REKRATSION REJALASHTIRISH

Umumshahar va tuman markazlarini landshaft-rejaviy tashkil qilish. Landshaftni tashkil qilishning fazoviy tamoyillari va umumshahar markazini ko‘kalamzorlashtirishga qo‘yilgan talablar. Shahar jamoat markazi tushunchasi.

Shahar, turar-joy tumanlari, shaharchalar jamoat markazlari – jamoat, ishlab-chiqarish, turar-joy va dam olish hududlarini mujassamlashtirgan murakkab shaharsozlik tuzilmasidir. Shahar markazi hududida xokimiyat, aholining madaniy va maishiy talablarini qondiruvchi tashkilotlar joylashgan bo‘ladi. Shaharlar jamoat markazlari 2 turga, ya’ni tumanlar ahamiyatiga ega markazlarga (shahar turar-joy tumanlari) va umumshahar ahamiyatiga ega bo‘lgan markazlarga (shahar markazi) bo‘linadi.

Jamoat markazlari bir funksiyali va ko‘p funksiyali bo‘lish mumkin. Ko‘p funksiyali jamoat markazi o‘z navbatida, ma’muriy, savdo-sotiq, madaniy-ma’rifiy, dam olish zonalariga bo‘linadi. Bir funksiyali jamoat markazi ma’muriy, savdo, ilmiy, tibbiy, madaniy bo‘lishi mumkin.

Umumiy arxitektura-rejaviy vazifalar asosida shahar jamoat markazlarining fazoviy tuzilishi ishlab chiqiladi. Shaharsozlikda fazoviy tizimning quyidagi turlari mavjud:

– asosiy ko‘chalar, magistral yo‘llar bo‘yida, ya’ni odamlar harakatining asosiy yo‘nalishlari bo‘ylab tashkil qilinadigan;

– yopiq tizim – odamlar va ularning faoliyatini markazlashtirish uchun qurshab olingan muhit;

– ochiq tizim – markazidagi asosiy inshoot yoki binolar guruhini o‘rab turgan muhit;

– o‘zaro aloqador muhitlar tizimi.

Shahar markazini obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirishning asosiy an’analari:

– markazning biror kichik muhitidagi murakkab arxitektura-fazoviy yechim;

– kompozitsiyali uslublar – shaharning gavjum joylarida gigiyenik va psixologik qulayliklarni taʼminlaydi (zinapoyalar, oʻtish yoʻllaridan foydalaniladigan koʻp qavatli skverlar kompozitsiyasi);

– markaziy koʻchalar va maydonlarda daraxtlar bilan qurshalgan hududlarni tashkil etish;

– zich joylashgan turar-joy hududlaridagi boʻsh joylardan samarali foydalanish, vertikal koʻkalamzorlashtirishga, koʻchalarda qatorlab va alohida daraxtlar ekilishiga, qiyaliklarni koʻkalamzorlashtirishga eʼtibor berish;

– texnik inshootlar atrofini, kichik boʻsh joylarni, transport yoʻllari atrofidagi devor, toʻsiq yonidagi ensiz joylarni oʻsimliklar bilan bezash;

– arxitekturaviy bino va inshootlarning koʻkalamzorlar bilan aloqasi;

– bino va inshootlar oldidagi hududlarni koʻkalamzorlashtirish uchun saqlab qolish;

– jamoat binosi kompozitsiyasiga oʻsimliklar, suv havzalari, tabiiy toshlar va boshqa ashyolarni kiritish.

Shahar bogʻlari, xiyobon va bulvarlar, magistral yoʻllar va koʻchalar, anhor boʻylari asosiy obodonlashtirish va koʻkalamzorlashtirish obyekti hisoblanadi.

Shahar jamoat markazlari obodonlashtirish obyektlari yuqori arxitekturaviy-badiiy echilishi zarur boʻlgan hajmiy-fazoviy koʻrinishda boʻladi (1-jadval).

Obodonlashtirish va koʻkalamzorlashtirish obyektlari maʼlum bir hajmiy-fazoviy tizimda shakllantiriladi va ular jamoat markazida uygʻunlashgan muhitni tashkil qilish kerak.

Shahar jamoat markazi shaharsozlik holati, ishlab chiqarish, xoʻjalik xususiyatlari inobatga olinib kengaytirilishi mumkin.

Shahar bogʻlari. Shahar bogʻi – shahar hududi tizimidagi murakkab unsur hisoblanib, hordiq chiqarish va arxitekturaviy-badiiy vazifalarni bajaradi. Koʻkalamzor muhitlar kam boʻlgan shahar hududida bogʻning ahamiyati katta. Shahar bogʻi asosan, aholining kundalik dam olishi va sayr qilishiga moʻljallanadi. Bogʻ

maydoni mavjud shaharsozlik holatidan kelib chiqib aniqlanadi va o'rtacha 3,5 to 7 gektargacha bo'ladi.

Bog' hududida balandligi 6 metrgacha bo'lgan bino va inshootlar (kafe, pavilon, bog'bon uyi) qurilishiga ruxsat beriladi. Shahar bog'lari uchun ularning atrof-muhit bilan aloqadorligi katta ahamiyatga ega. Shahar bog'ining kompozitsiyasi joylashgan o'rni va vazifasiga qarab aniqlanadi. Qoidaga ko'ra, shahar bog'lari shahar jamoat markaziga loyihalashtiriladi.

Shahar bog'i hududining tarkibiy qismlari 1-jadvalda berilgan.

1-jadval

Shahar jamoat markazini obodonlashtirish obyektlari.

Obyektlar	Joylashgan o'rni
Ommaviy tadbirlar o'tkaziladigan hudud.	Maydonlar, markaziy ko'chalar, sport majmualari, dam olish hududlari.
Piyodalar harakati hududlari.	Maydonlar, markaziy va piyodalar ko'chalari, anhor bo'ylari, vokzallar.
Transportda harakatlanish hududlari.	Maydonlar, ko'chalar
Transportda yetib borish hududlari.	Maydonlar, piyodalar ko'chalari, sport, savdo, landshaft, madaniy-ma'rifiy obyektlar.
Yer osti o'tish joylari.	Maydonlar, transport va piyodalar ko'chalari, savdo, sport, tomosha va transport obyektlari.
Jamoat transporti obyektlari.	Maydonlar, transport va piyodalar ko'chalari, savdo, sport, tomosha va transport obyektlari.
Taksi turadigan joylar.	Maydonlar, ma'daniy, transport, sport, savdo obyektlari, tomoshagohlar.

Bino va inshootlar kirish joylari.	Maydonlar, markaziy ko'chalar, ma'muriy, madaniy-tomosha, savdo, sport, transport obyektlari.
Ochiq foye – "kutish zali".	Mahalla ichidagi, madaniy - tomosha, sport, transport obyektlari oldidagi maydonlarda.
Ko'rgazma maydonlari.	Maydonlar, piyodalar ko'chalari, madaniy -tomosha, sport, savdo obyektlari, bog' - park san'ati obyektlari, shaharlarning tarixiy qismlari.
Texnik jihozlar hududlari.	Transport, savdo, mahalliy tomosho, ma'muriy, sport obyektlari hududlari.

2-jadval

Taxminiy balans % shahar bog'lari hududlari

Hudud unsurlari	Bog'ning vazifasi		
	Sayr va dam olish uchun	Ma'daniy-ma'rifiy tashkilotlar qoshida	Tomoshagohlar qoshida
Ko'kalamzorlar	70	45	65
Yo'llar va maydonlar	29	40	31
Inshootlar	1- 5	15	4

Bog'ni loyihalashda kichik me'moriy shakllar, jihozlar, qurilmaviy unsurlar, o'rab turuvchi o'simliklarga ko'proq e'tibor berish kerak. Bog'ning umumiy kompozitsiyasini tuzishda muntazam va erkin rejaga asoslanish tavsiya etiladi.

Shahar bogʻlari klassifikatsiyasi

Bogʻ turi va vazifasi (maydon).	Shahar rejasida joylashishi.	Funksional-rejaviy tashkil etilishi .
Ommaviy sayrlar, oʻyinlar va dam olishga moʻljallangan umumshahar bogʻi (1,5–2,0 dan 10–12 ga gacha).	Markaziy shahar tumani; yirik shaharlardagi tuman markazi.	Sayrgohlar va tranzit harakatni tashkil qilish; (keng xiyobon, bino va inshootlar oldidagi maydonlar) atrofda binolardan muhofaza qilish;
Tamoshagohlar qoshidagi bogʻlar, kutish, antrakt vaqtida aylanish, suhbatlar uchun (1 ga dan 5 ga gacha).	Markaziy tuman turar-joy tumani markazi.	Inshootlarga kirish joylarini tashkil qilish, tomoshobinlarni tez evakuatsiya qilish; atrofda binolar bilan kirish joylarini tashkil qilish.
Dam olish va sayr bogʻlari – dam olishga moʻljallangan keng tarqalgan bogʻlar.	Markaziy shahar tumani; turar-joy tumani.	Sayr va tinch dam olishni tashkil qilish, atrof-muhitdan muhofaza qilish, minimum tranzit harakat, manzarani tashkil qilish.
Reprezentativ (tantanavor) bogʻ .	Markaziy shahar tumani.	Sayr qilib dam olishni tashkil qilish, diqqatga sazovor joylarni koʻrish, tranzit harakat va qisqa muddatli dam olish.
Meʼmoriy obidalar oldidagi bogʻlar, yirik jamoat va meʼmoriy markazlardagi bogʻlar.	Shahar markazi, shahar tumanlari markazi.	Obidalarni tomosha qilishni tashkil qilish. Ekskursiya qildirish uchun maydonlarda sayyohlarni toʻplash (Sankt-Pererburgdagi

		Mixaylov va Moskvadagi Aleksandr bog‘lari).
Ko‘rgazma bog‘i – doimiy faoliyatli ko‘rgazmalar hududi.	Markaziy shahar tumani, turar-joy tumani markazi.	Ekspонатlar ko‘rgazmasini tashkil qilish, ekspонатlari ko‘rish uchun harakatlarni tashkil qilish.
Tabiiy va me‘moriy unsurlar ko‘rgazmasi uchun mo‘ljallangan shahar kichik bog‘i (0,01 ga dan 0,5 ga gacha).	Markaziy shahar tumani, turar-joy va ishlab chiqarish tumani markazi. Jamoat binolari, maxsus joylarda.	Relefli joylar, o‘simliklar, suv havzalaridan maksimal foydalanish.
Tomdagi yoki sun‘iy joylardagi bog‘lar (maydon tom o‘lchamiga mos keladi).	Turar-joy, jamoat, ishlab chiqarish binolarining yassi tomi.	Qisqa muddatli dam olish uchun kichik muhitni tashkil qilish, mustahkam qurilmalar bilan ta‘minlash.
Doimiy gullab turadigan bog‘lar (0,5ga dan 3,0ga gacha).	Umumshahar va maxsus parklar tarkibiga kiradi.	Gullarning yaxshi ko‘rinishi hisobga olingan holda, landshaft va muntazam kompozitsiya tamoyillari bo‘yicha bog‘ning yechimini topish. Turar-joy va ishlab chiqarish hududlarida joylashtirish.
Yozgi teatr yoki kinoteatr, kafe, estrada, klub atrofidagi bog‘lar.	Shahar markazida, turar-joy tumanida yoki	Ekzotik o‘simliklar kompozitsiyalaridan foydalangan yechim.

	yirik parkda.	
Yo‘l-yo‘lakay xizmat qilish uchun teatr, kinoteatr, konsert zali, estrada.	Dam olish maydonlari va sayrgohlar bilan “yashil foye” tashkil qilish.	Sinchkovlik bilan kichik me‘moriy shakllarni joylashtirib muhitni tashkil qilish. (Masalan, Moskvadagi “Ermitaj” bog‘i 4,8 ga, “Akvarium” bog‘i 3 ga).
Favvoralar, haykallar, xotira maydonlari dominant bo‘lgan bog‘lar.	Shahar me‘moriy muhitini tashkil qilish, hududning manzaraliligi va qulaylik darajasini oshirish.	Muhitning muntazam rejali bo‘lishi; simmetrik kompozitsiya o‘simliklarni rangbarang joylashtirishga mos bo‘lishi mumkin. Ochiq muhitlar, maysazorlar va gulzorlar bilan tashkil qilinadi (masalan, Sankt Peterburgdagi yozgi bog‘ (11,6 ga), M.Gorkiy nomidagi bog‘ (9 ga).
Tabiiy toshlar kichik me‘moriy shakllardan foydalanilgan bog‘lar.	Yirik parklarda, shahar markazida.	Yaqin masofadan ko‘rishga mo‘ljallangan tabiiylikka yaqinlashtirilgan landshaftni shakllantirish.

Relief, suv va o‘simliklar bog‘ning asosiy tarkibiy qismlari hisoblanadi. Suv shunday aktiv xususiyatga egaki, kompozitsiyada barcha unsurlarni yagona, yaxlit qilib birlashtirib turadi. Relief, suv va o‘simliklarning qo‘shilishi turli tuman landshaft kompozitsiyasini shakllantirish imkonini beradi. Har qanday holatda ham unsurlarning bittasi asosiy, qolganlari unga bo‘ysinuvchi bo‘lishi kerak. Shahar bog‘lari kompozitsiyasida har xil turdagi suv obyektlaridan

foydalanish kerak. (shaffof yuzasimon suvlar, shalola va favvoralar, manzarali suv havzalari).

Qoidaga ko‘ra, sayr uchun mo‘ljallangan bog‘lar tumanning qulay joyida joylashgan va piyodalarning qisqa muddatli xordiq olishi yoki boshqa hududga o‘tib ketishini ta‘minlashi kerak. Shahar hududida, magistral ko‘chalar bo‘ylarida joylashgan bunday bog‘lar ochiq me‘moriy-rejaviy tizimga ega bo‘lishi kerak, ya‘ni turli xil o‘simliklar guruhi, inshootlar va kichik me‘moriy shakllar joylashishini, piyodalar yo‘llarini tashkillashtirishni ta‘minlay olishi kerak.

Zamonaviy shaharlar qurish amaliyotida madaniy va ma‘muriy tashkilotlar qoshida bog‘lar barpo qilish ham keng tarqalib bormoqda. Ularning rekreatsion vazifasi saqlab qolinganda holda me‘moriy-rejaviy kompozitsiyasi mavjud bino va inshootlarga bog‘lanayapti. Jamoat binolari qoshidagi bog‘lar o‘ziga xos me‘moriy-rejaviy ko‘rinishga ega bo‘lishi kerak.

Maxsus bog‘lar parklar yoki ko‘kalamzorlashtirilgan hududlar kompozitsiyasiga kirishi kerak. Ular aniq vazifaga va rejaviy tuzilishga ega bo‘lib, butun park majmuasi kompozitsiyasiga rangbaranglik beradi. Shahar bog‘lari ommaviy dam olishga mo‘ljallangan, shuning uchun ular keng maydonlar, kerakli miqdordagi mebel va jihozlar, muhandislik tarmoqlariga ega bo‘lishi kerak. Ular zamonaviy shaharlar talabiga javob beradi va shu bilan birga katta shaharda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolarni hisobga olishni talab qiladi.

Qalin va baland daraxtlar bilan qurshab olingan ochiq hududni tashkil qilish usuli ko‘p qavatli uylar oralig‘idagi bog‘larga xos. Ko‘kalamzorlar ochiq maydonlar tashkil qilingan holda turli-tuman qilib tashkil qilinishi kerak.

Reprezentativ bog‘lar hududini ko‘kalamzorlashtirishda daraxt va butalarning sonini kamaytirish kerak. Daraxtlar binolarning oldida joylashishi yoki haykallar ortida fon vazifasini bajarishi mumkin. Bog‘ hududida o‘simlik va gullar guruhlari turlariga qarab shakllantiriladi, ya‘ni “buket” qilinadi. O‘simliklar kichik me‘moriy shakllarga va boshqa jihozlarga mos bo‘lishi kerak.

Magistral ko‘chalar bo‘yidagi bog‘larda daraxtlar yoki sun‘iy to‘siqlardan tashkil qilingan himoyaga ehtiyoj bo‘ladi. Dam

olinadigan maydonlar yoʻldan uzoqda, bogʻ toʻrida joylashtiriladi. Noqulay omillar taʼsiridan saqlash uchun nafaqat daraxtlardan, balki maxsus himoya jihozlari, relef va himoya ekranlaridan ham foydalaniladi. Shahar markazidagi bogʻlar gavjum boʻlishiga qaramay, yuqori darajada obodonlashtirilganligi, yaxshi yoʻl tizimiga egaligi va xushmanzara koʻkalamzorlari bilan ajralib turishi kerak.

Shahar skverlari (xiyobon). Shahar xiyobonlari deb qisqa muddatli dam olishga moʻljallangan, monumentlar bilan dekorativ - badiiy bezatilgan va koʻkalamzorlashtirilgan markaziy shahar koʻchalariga aytiladi.

Xiyobonlarning asosiy turlari:

– turar-joy binolari oraligʻida, koʻchalar boʻyida joylashgan, tinch dam olish va sayrga moʻljallangan xiyobonlar;

– teatr, muzey, maʼmuriy binolar oldida joylashgan xiyobonlar-ochiq hududlar;

– jamoat binolari yaqinida joylashgan koʻrgazma xiyobonlari (gullar xiyoboni, haykallar xiyoboni);

– dekorativ (binolar oldidagi moʻjaz hududlar);

– chorrahalaridagi xiyobonlar.

Joylashgan joyiga qarab xiyobonlar quyidagilarga boʻlinadi:

– shahar jamoat markazida, shahar koʻchalari va maydonlaridagi xiyobonlar;

– shahar tumani jamoat markazi, koʻchasida joylashgan xiyobon.

Maydonlardagi xiyobonlar koʻpgina maysazorlar va gulzorlar, baʼzan suv havzalari va favvoralarga ega ochiq landshaft kompozitsiyasi koʻrinishida yechim topadi. Maydonlardagi xiyobonlar landshaft arxitekturasi muhim obyekti hisoblanadi va ular yuqori darajada meʼmoriy-badiiy echimga boʻlishi kerak. Loyihalash jarayonida shuni inobatga olish kerakki, bunday xiyobonlarning markazi favvorali qilib, haykallar bilan bezatilgan holda echiladi.

Maydonning yoʻlaklari keng, barcha sayr qiluvchilar uchun qulay, qattiq manzarali toʻshamalar yotqizilgan boʻlishi kerak. Qoidaga koʻra, bunday yoʻlaklardan bogʻni kesib oʻtib ketuvchilar ham foydalanadi. Maydon sayr qiluvchilarning qisqa muddatli dam olishiga moʻljallanadi va u yerga oʻrindiqlar hamda axlat

tashlanadigan chelaklar qo‘yiladi. Asosiy yo‘laklarning eni piyodalar oqimidan kelib chiqilgan holda oldindan hisoblab chiqiladi. Yo‘laklarning o‘rtacha eni 4,5–6,0 m bo‘lishi kerak. Yo‘laklar diagonal bo‘yicha, xoch ko‘rinishida yoki erkin echilgan bo‘lishi mumkin. Eng asosiysi piyodalarning bemalol harakati ta‘minlanishi kerak. O‘rindiqlar, axlat chelagi, yoritish moslamalari estetik ko‘rinishga ega bo‘lishi va maydon markazidagi haykallar kompozitsiyasiga mos bo‘lishi kerak.

Loyihalash jarayonida shuni inobatga olish kerakki, xiyobondagi o‘simliklar kompozitsiyasi umumiy g‘oyaga bo‘y-sinishi, umumiy me‘moriy ansamblga mos bo‘lishi va yuqori darajadagi bezakdorligi bilan ajralib turishi kerak. Bu erga past bo‘yli daraxt va butalar: lola daraxti, forzitsiya, tobulg‘i, gorizontallirg‘ay, zirk, past bo‘yli mevali daraxtlar o‘tqazish maqsadga muvofiq. Ba‘zi holatlarda uzunsimon, oltiburchak yoki yumaloq ko‘rinishga ega bo‘lgan gulzorlar ham yaratiladi. Maysalar kompozitsiyaning yassi unsuri sifatida yam-yashil tusda bo‘lishi, daraxt va gullarni bo‘rttirib ko‘rsatishi kerak.

Qoidaga ko‘ra, haykali maydon xiyobon kompozitsiyasining asosiy unsuri hisoblanadi. Teatr, kinoteatr, konsert zali, muzey, o‘quv binolari kabi yirik obyektlarni loyihalash jarayonida binolarning fasadlarini, asosiy kirish joylarini ochib ko‘rsatish zarur. Hudud yuqori darajada obodonlashtirilgan, ko‘kalamzorlashtirilgan va jihozlangan bo‘lishi kerak.

Xiyobon hududlari unsurlarining taxminiy nisbatlanishi, umumiy maydondan % hisobida keltirilgan.

4-jadval

Xiyobon turlari	Yo‘laklar, maydonlar	O‘simliklar	
		Hammasi	Shulardan gullar
Shaharning markaziy va tuman maydonlarida 1 ga. gacha maydonlarda	25–28	72–75	1,5–2,0
1 ga dan katta maydonlarda	20–25	75–80	1,5–2,0

Manzaraviy va rejaviy vazifasiga ko'ra	3–5	95–97	0,5–1,0
Ko'p qavatli uylar oralig'ida va chorrahalarda: 0,5 ga. gacha maydon; 0,5 ga. dan katta maydon	18–20 15–18	80–82 92–85	0,3–0,5 0,3–0,5
Alohida binolar oldida	20–25	75–80	1,0–2,0

Turar-joy tumanlaridagi xiyobonlar yopiq kompozitsiya ko'rinishida echilishi kerak. Qoidaga ko'ra, xiyobonlar madaniy va savdo binolari oldiga joylashtiriladi. Hududning me'moriy-landshaft yechimi qulay piyodalar harakatini, dam olish, kichik me'moriy shakllar va o'simliklarning joylashishini ta'minlashi kerak. Hududda kattalar va bolalar dam olishi uchun mos bo'lgan jihozli maydonchalar bo'lishi ko'zda tutiladi. Maydonchalar gavjum yo'laklar va tashqi muhitdan to'silgan bo'lishi kerak. Agar xiyobon tuman ahamiyatidagi magistralga tutashgan bo'lsa, u yerda bolalar uchun maydonchalar ko'zda tutilmaydi.

Xiyobon rejasi muntazam yoki erkin kompozitsiyaga ega bo'lishi mumkin. Daraxtzorlar turlari – daraxtlarning zich guruhlari (guruhda 3..5 dona), bir qator daraxtlar va ko'cha tomondagi jonli to'siqlar. O'zining hajmiy-fazoviy tuzilishiga ko'ra daraxtlar yarim ochiq fazoviy ko'rinishga ega. Ko'kalamzorlashtirilayotgan hududlarda daraxt va butalarning ulushi 50 % dan oshmasligi kerak.

Turar-joy tumanlaridagi xiyobon hududi quyidagicha taqsimlanadi:

- yashil ko'kalamzorlar – 75–80 % gacha, shu hisobdan gulzorlar 2–3 % gacha;

- yo'lak va maydonlar – 25 % gacha, shu hisobdan kichik me'moriy shakllar hududi kamida 5 % (favvoralar).

Xiyobon hududidagi yo'lovchilar o'tib qaytadigan asosiy yo'laklarning eni 4,5–6,0 m, ikkinchi darajali yo'laklar eni 1,5–2,0 m bo'lishi kerak.

Ko'kalamzorlashtirilayotgan 1 ga hududga ko'pi bilan 100 ta daraxt va 100 dona har xil butalar to'g'ri keladi. Xiyobon hududida bino qurish taqiqlanadi.

Bulvarlar. Bulvarlar – uzunsimon shakldagi landshaft arxitekturasi obyeksi bo'lib, magistral ko'chalar, anhorlar bo'ylarida joylashgan bo'ladi. Bulvarlar piyodalar harakati, sayr qilishi va qisqa muddat dam olishiga mo'ljallanadi. XVIII asr Yevropa shahar devorlarida sayr qilish uchun alleyalar qilingan.

Shaharsozlik amaliyotida bir nechta turdagi bulvarlar paydo bo'ldi:

- ko'cha va magistrallar bo'ylarida;
- daryo va suv omborlari, ko'l, dengiz qirg'oqlarida;
- tarixiy shahar markaziy qismini o'rab turgan halqa shaklidagi.

Bulvarlar rejasiga ko'ra quyidagilarga bo'linadi:

– muntazam va nomuntazam unsurlarni o'z ichiga olgan erkin rejali;

- asosiy bog'-park yo'llari simmetrik bo'lgan muntazam rejali.

Bulvarning uzunligi va eni ko'cha va magistralning sinfiga va atrofda binolar arxitekturasiga qarab aniqlanadi.

Bulvarning eni 15–20 metr atrofida bo'ladi. Bulvar eni va uzunligining minimal nisbati 1:3 bo'lishi kerak. Eni 20–25 metr bo'lgan bulvarda, eni 4,5–6,0 metr bo'lgan bitta yo'l ko'zda tutiladi. Agar bulvarning eni 25 metrdan ko'payib ketsa, unda eni 1,5 m bo'lgan qo'shimcha yo'lak ko'zda tutiladi. Eni 50 m bo'lgan bulvarlarda sport maydonchalari, suv havzalari, kafe, bolalar o'yingohlari va velosiped yo'llari joylashtirish mumkin. Bunday turdagi bulvarlarda binolar balandligi 4–6 metrdan oshmasligi kerak. Barcha inshootlar daraxt va o'simliklarga mos bo'lishi kerak.

Bulvarning uzunasiga har 150...300 metr joyida kirish yo'llari ko'zda tutiladi. Qatnov gavjum bo'lgan ko'chalar oralig'idagi bulvarning kirish yo'llarini piyodalar o'tish joylari va bekatlar bilan bog'lash zarur. Bulvarning ensiz tomonida asosiy kirish joyi joylashadi. U favvorali, haykalli va gulzorli qilib loyihalalanadi.

Bulvarlarni loyihalashda 5-jadvalda ko'rsatilgan unsurlarning taxminiy nisbatini qo'llash zarur. (Нормы правила проектирования планировки и застройки Москвы MGSN 1.01–2000). Alohida holatlar uchun me'yorlar o'zgartirilish mumkin.

5-jadval

Bulvar hududi unsurlarining taxminiy nisbati

Eniga qarab bulvarlar	Bulvar hududining rejaviy unsurlari		
	Ko'kalamzorlar suv havzalari	Yo'llar va maydonlar	Bino va inshootlar
15–25	70–75	30–25	-
25–50	75–80	23–17	2–3
50 dan ko'p	65–70	30–25	Ko'pi bilan 5

Shahar bulvarining rejaviy yechimi dam olish joylari va sayrgohlar tashkil etish uchun ishlab chiqiladi. Ba'zi obodonlashtirish unsurlari gavjum savdo markazlari va kinoteatr oldi hududlarini shakllantirish uchun tavsiya qilinadi. Alohida hududlarni ko'kalamzorlashtirish gullaydigan butalar, gullarni joylashtirish hisobiga hal qilinadi. Bunday joylarga bezakdor mustahkam to'shamalar, o'rindiqlar, axlat qutilari va yoritish moslamalari tavsiya qilinadi. Transport serqatnov bo'lgan magistral ko'chalar oralig'idagi bulvarlar magistral ko'chaning o'qi bo'ylab joylashtiriladi. Masalan, savdo markazi yoki turar-joy hududi tomonga qaratib. Sergavjum magistrallarda ikkita bulvar tashkil qilish mumkin. Bu avvalambor piyodalarning bulvar hududiga yo'ldan o'ta olishiga bog'liq. Turar-joylardagi bulvarlar, ko'chalar o'qi bo'ylab joylashadi.

Asosiy piyodalar yo'lagi, ikkinchi darajali va qo'shimcha yo'laklar bulvarlarning asosiy rejaviy unsurlari hisoblanadi.

Bulvarlarni loyihalashda ko'kalamzorlarning ham manzaraviy, ham sanitar-gigiyenik va himoyachi rolini o'ynashini hisobga olish kerak.

Bulvarning chegarasi bo'ylab, avtomobil yo'llari tomonda chang va gazga chidamli daraxt va butalarni o'tqazish ko'zda tutiladi. Qoidaga ko'ra, bulvar hududida daraxtlarning yarmi ochiq

hajmiy-fazoviy tuzulishi shakllantiriladi. Baʼzan turar-joy tumanidagi bulvarlarda yarim ochiq va yopiq fazoviy muhitlarni shakllantirish tavsiya qilinadi. Dam olish maydonlaridagi daraxt va oʻsimliklar qator, guruh va alohida koʻrinishda boʻladi. Daraxt va butalar guruhini keng bulvarlarda shakllantirish koʻzda tutiladi. Asosiy yoʻl chetlarida toʻgʻri toʻrtburchak shaklidagi gulzorlar tashkil qilish maqsadga muvofiq. Maysazor hududlarda alohida daraxt, bir guruh daraxtlar va butalar joylashtiriladi.

Daraxt va oʻsimliklar iqlim sharoiti hisobga olingan holda tanlanadi. Issiq iqlim sharoitiga ega hududlarni quyosh urushidan va yoqimsiz shamol taʼsiridan saqlash tavsiya etiladi.

Bulvarlarni loyihalashda oʻtqaziladigan koʻchatlarning zichligi, yoshi va oʻlchami, bulvarning vazifasi va shahardagi joylashgan oʻrniga qarab aniqlanadi.

Bulvarlarning turli –tumanligi sayr qiladigan yoʻlaklariga bogʻliq. Bu oʻziga xos “yashil yoʻlak” turar-joy tumanlarini parklar va suv havzalari bilan bogʻliq turadi. Joylashgan relefiga qarab bunday obyektlar erkin rejalashtirish tamoyillari boʻyicha loyihalanadi. Sayr qiladigan yoʻlning yoʻnalishini, relefnings xususiyatlarini inobatga olish kerak. Bunday sayrgohlarda velosipedchilar yoʻlagi tashkil qilish mumkin, undan qishda changʻichilar yoʻllari sifatida foydalanish mumkin. Hududni obodonlashtirishda qulay yoʻl toʻshamalari, yoritish moslamalari, oʻrindiqlar, suhbatgohlar koʻzda tutiladi.

Koʻcha-yoʻl tarmogʻi. Shahar koʻchalari shahar muhitini tashkil qiluvchi muhim landshaft rejaviy unsur boʻlib, shahar va tuman ahamiyatiga molik jamoat markazlariga taalluqli.

Magistral, koʻcha, yoʻllar SNiP 2.07.01–89 klassifikatsiyada keltirilgan :

- umumshahar va tuman ahamiyatiga molik magistrallar;
- mahalliy ahamiyatga ega koʻchalar va yoʻllar (turar-joy va ishlab chiqarish hududlarida, ilmiy-sanoat markazlarida);
- piyodalar yoʻllari va koʻchalari;
- park yoʻllari;
- avtomobil yoʻllari;
- velosiped yoʻllari.

Magistral, ko'cha va yo'llar hududida har xil vazifani bajaruvchi landshaft-rejaviy kompozitsiyalar joylashadi. Hududlarni ko'kalamzorlashtirish tashqi obodonlashtirish unsurlari, inshootlar va muhandislik tarmoqlari mavjudligi, piyodalar va transport vositalarining gavjumligi hisobga olingan holda kompleks echiladi.

Obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirishni loyihalashda ularning rejaviy unsurlarini inobatga olish kerak:

- transportlar harakatlanish qismi;
- piyodalar yo'lagi;
- magistral va trotuar oralig'idagi ko'kalamzorlar;
- obodonlashtirish unsurlari.

Obodonlashtirish unsurlariga yoritish uskunalari va moslamalari, harakat ko'rsatkichlari, transport to'xtash bekatlari, svetofordan o'tish joylari, vaqtinchalik avtomobil to'xtash joylari, reklama moslamalari kiradi.

Ko'chalardagi daraxt va butalar transport yo'li va yo'lak oralig'idagi maxsus ajratilgan joylarda, bekatlar yaqinida orolchalar ko'rinishida shuningdek, balkonlarni vertikal ko'kalamzorlashtirish ko'rinishida joylashtiriladi.

Daraxt va o'simliklarni joylashtirishda ko'chalarning ko'ndalang ko'rinishini hisobga olish kerak.

Ko'chalarning ko'ndalang ko'rinishi deb ularning ko'ndalang qirqimiga aytiladi. Ko'chalarni loyihalashda ko'ndalang ko'rinishining asosiy unsurlari alohida ko'rsatiladi.

1. Yer ustining yuqorisida – bino, inshootlar, yoritish jihozlari, ko'rsatkichlar, ma'lumotlar va reklama moslamalari, daraxt va butalar;

2. Yer ustida – transport yo'llari, yo'laklar, muhandislik tarmoqlari, sug'orish moslamalari;

3. Yer ostida – yer osti muhandislik tarmoqlari (suv, elekt ta'minoti tarmoqlari, kanalizatsiya quvurlari). Daraxt va butalarning tomirlari.

Loyihalashda magistral va ko'chalarning kattaligi, shahar transporti va piyodalar harakatining hisobi, binolar qavatlari, relef, yer usti suvlarini chiqarib yuborish, yer osti tarmoqlarining

joylashishiga qarab ko'ndalang ko'rinish aniqlanadi. Ko'ndalang ko'rinish bilan ko'chalarning umumiy kengligi ma'lum bo'ladi.

Magistrallarining transport vositalari yuradigan qismining eni yo'l qatorlari eni (3,75–3,50 m) va soniga qarab aniqlanadi: magistrallar 4–8 qator; mahalliy ko'cha va yo'llar 2–4 qator; mahalliy yo'llar 1–2 qator; piyodalar yo'llari 1 qator; velosiped yo'llari 1–4 qator bo'lishi mumkin. Umumshahar ahamiyatiga molik magistrallar o'qida qatnovni ajratadigan yashil to'siqlar (6 metrgacha) ko'zda tutiladi.

Piyodalar yo'lagingining eni inson piyoda harakatlanayotganda zarur bo'ladigan o'lcham (0,75–0,90 m) dan kelib chiqqan holda 4,50 m qilib qabul qilingan. Jamoat binolari oldidagi yo'laklarning eni 6–9 m bo'ladi. Yo'lak transport yo'lidan ko'kalamzor bilan ajratiladi. Ushbu ko'kalamzorning eni 2,5–6,0 metr bo'lishi mumkin.

Qizil chiziq – bu yo'l tarmog'i hududini shaharning boshqa hududlaridan chegaralab turuvchi chiziq. Qizil chiziq ichkarisida biron ta bino qurilmasligi kerak. Qizil chiziq ichkarisida yo'l-transport inshootlari qurilishiga ruxsat beriladi (Yo'l o'tkazgichlar ustunlari, yer osti o'tish yo'llari, avtobus bekatlari).

Ba'zi holatlarda qizil chiziq ichkarisida quyidagi obyektlar qurilishi mumkin:

– transport tizimi inshootlari (jamoat transporti aylanib olish xalqalari va maydonlari, dispetcherlar punkti, orolchalar, mashina yuvish joylari, DAN xodimlari postlari);

– piyodalarga yo'l-yo'lakay xizmat qiluvchi savdo va maishiy xizmat do'konchalari.

Binolar chizig'i – bu qizil chiziq tashqarisidan o'tadigan, kengligi shaharsozlik me'yorlaridan kelib chiqib aniqlanadigan, yer ustidagi binolar qurish uchun o'tkaziladigan chiziq.

Qizil chiziq va binolar chizig'i o'rtasidagi oraliq eni quyidagicha bo'lishi mumkin:

- magistrallarda – kamida 6 m;
- mahalliy ko'chalarda – kamida 3 m.

Ko'chalarning transport va piyodalar harakatlanadigan qismlari oraliqidagi ko'kalamzorlar ahamiyati juda katta. Bunday

ko‘kalamzorlardagi daraxt va butalar piyodalarni yoqimsiz chang, gazlardan himoya qiladi va ko‘chalarning xushmanzara bo‘lishi uchun xizmat qiladi. Loyihalashda va ko‘chalarni ko‘kalamzorlashtirish usullarini tanlashda quyidagilarni inobatga olish kerak:

- tabiiy-iqlim sharoiti;
- shahardagi ko‘chalarning joylashuvi va vazifasini; ularning kengligi va yo‘nalishi; transport va piyodalar harakati gavjumligi, atrofdagi binolarning xususiyatlari va qavatlar soni;

- yer osti tarmoqlari va er usti inshootlari joylashuvi.

Daraxt va butalarning asosiy turlari:

- daraxt va butalar qatorlari (jonli to‘siqlar);
- daraxt va butalar guruhleri;
- maysazor, tuvaklarda o‘sadigan va gullaydigan o‘tsimon o‘simliklar;
- maxsus vertikal moslamalarda o‘sadigan lianalar.

Shaharsozlik me‘yorlari bo‘yicha ko‘chalar yoki magistrallar chorrahaları oralig‘idagi hududni ko‘kalamzorlashtirish darajasi quyidagicha bo‘lishi kerak (qizil chiziq ichida):

- turar-joy hududlari ko‘chalarida – 50–55 % ;
- tuman ahamiyatiga ega magistrallarda – 30–45 % ;
- umumshahar ahamiyatiga ega magistrallarda – 25–45 % ;
- transport tez yuradigan yo‘llarda – 50–60 % .

Gavjum ko‘chalarni ko‘kalamzorlashtirishda o‘simliklarning chidamliligini oshirish uchun quyidagi tadbirlar ko‘zda tutiladi:

- yo‘lovchilar harakatini yo‘naltirish;
- tuproq qattiq joylarga chidamli o‘simliklardan foydalanish (kanada teragi, berest, maydabargli jo‘ka);

- gavjum yo‘laklarda gul ekiladigan tuvaklarning balandroqda turishi; o‘simliklarga xloridlar ta‘sirini kamaytirish;

- qor yig‘ish uchun o‘simliklardan holi maxsus joylarning bo‘lishi;

- bir qator daraxtlar ekilishi uchun joyning eni 2,5–3,0 m, ikki qator uchun 5–7 m bo‘lishi;

– gavjum joylarda daraxtlar tanasini o‘rindiqlik va qum joylar vositasida to‘shish;

– shahar muhiti xususiyatlarini hisobga olgan holda o‘simliklarni parvarishlash;

– ko‘chalardagi muhandislik inshootlari bilan bog‘liqlik ravishda daraxt, butalarni joylashtirish(6-jadval).

Ko‘cha, magistrallardagi bino, inshootlar va daraxt, butalar oralig‘idagi masofa.

6-jadval

Bino va inshootlar nomi	Bino va inshootdan o‘q-gacha bo‘lgan masofa, m.	
	daraxt	buta
Bino va inshootlarning tashqi devori	5,0	1,5
Tramvay yo‘lining o‘qi	5,0	3,0
Bog‘ yo‘laklari va trotuar chetigacha	0,7	0,5
Transport yo‘li chetidan	2,0	1,0
Tramvay yo‘li va ko‘prik ustunlari	4,0	-
Terrasalar va qiyaliklardan	1,0	0,5
Tayanch devorlar chetidan	3,0	1,0
Yer osti tarmog‘i:		
– gaz o‘tkazish, oqova suv;	1,5	–
– issiqlik o‘tkazish;	2,0	–
– issiqlik o‘tkazish tarmoqlari quvurlari;		
– suv o‘tkazish, drenaj quvurlari;	2,0	–
– elektr va aloqa kabellari.	2,0	0,7

Bino va inshootlar tashqi devoridan daraxt va butalargacha bo‘lgan masofa SNI P.2.07.01–89 bilan aniqlanadi.

6-jadvalda ko‘rsatilgan me‘yorlar asosan umumiy kronasi diametri 5 m gacha bo‘lgan daraxtlarga taalluqli.

Elektr uzatish simlaridan daraxtlargacha bo‘lgan masofa elektr uskunalari o‘rnatish qoidalarida ko‘rsatilganidek bo‘lishi kerak.

Binolar oldidagi daraxtlar turar-joy va jamoat xonalarini shamollatishga xalaqit bermasligi kerak.

Shaharning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda markaziy ko'chalarga qadimdan ekib kelingan daraxt va butalar o'tqazilishi kerak. Turar-joy tumanlarini ko'kalamzorlashtirishda mavjud daraxtlarga mos gullar tanlanishi maqsadga muvofiq. Gavjum magistral ko'chalarda piyodalarni shovqin, chang va gazdan asrash uchun avtomobil yo'lining ikki tomonidan ikki qator daraxt va butalar ekishga ko'zga tutiladi. Daraxt ekilgan joyning eni 6m dan ko'p bo'lmasligi zarur. Eni 7,5 m bo'lgan joylarda turli-tuman daraxt va butalarning guruhi ekilishi mumkin. Avtomobil va piyodalar yo'li orlig'iga daraxt va butalarni almashlab ekish ko'proq samara beradi. O'simliklarni pog'onasimon, ya'ni eng past butalardan baland butalar, keyin o'rta daraxtlardan baland daraxtlargacha ekish mumkin.

Gavjum yo'llarda shovqindan himoya qilish uchun yo'l chetiga bir necha qator daraxt va butalar ekish zarur. Ularni shunday ekish kerakki shoxlari bir-birinikiga qo'shib ketmasin. Daraxtlarni bunday o'tqazishning samaradorligi shundaki tovush to'lqinlari fazoda sochilib ketadi. Agar daraxt shoxlari qo'shib ketsa, shovqin kuchayib ketadi.

G'arb-sharq yo'nalishidagi ko'chalardagi binolarning shimoliy fasadi oldiga daraxtlarni joylashtirishda ba'zi cheklov mavjud. Agar binolar unchalik qalin joylashmagan bo'lsa yoki yo'lakdan uzoqda joylashganda piyodalar uchun soya hosil qilinadi. Bunday yo'nalishda piyodalarni quyosh nuridan bir tomonlama himoya qilish ko'zda tutiladi.

Shimol-janub yo'nalishidagi ko'chalarda binolar qalin joylashgan bo'lsa, yo'laklar ikki tomonlama soyada qoladi, shuning uchun soyada yaxshi o'sadigan o'simliklarni tanlash zarur bo'ladi. Bunday yo'nalishdagi ko'chalarning ikki tomonidan yo'laklar bo'yiga daraxtlar joylashtirish ko'zda tutiladi.

Agar ko'cha kengligi imkoniyat bersa, yo'laklarning ikki tomonidan balandligi va ko'rinishga qarab daraxtlar ekish mumkin. Ensiz ko'chalarning soya tomonida butalar va uncha baland bo'lmagan daraxtlar ekish tavsiya qilinadi. Daraxt, buta va

o‘simliklarning yorug‘likda bo‘lishi kerakligini ham hisobga olish kerak, ular quyosh nuriga to‘yganda chiroyli ko‘rinadi.

Daraxt va butalar yordamida ko‘chalardagi shamol kuchini kamaytirish mumkin. Shamol qattiq esadigan hududlarda 2–7 qator daraxt ekish tavsiya qilinadi. Daraxt va butalar aralastirib ekilganda ham shamol kuchi kamayadi. Chorraha va muyulishlarda daraxt va butalar ko‘ndalang yo‘lni to‘sib qo‘ymasligi kerak. O‘simliklarning balandligi 0,5 metrdan oshmasligi tavsiya qilinadi.

Daraxt va qatorlar oralig‘ini tartibga solish yo‘li bilan ko‘chalarni shamollatib turish ham muhim hisoblanadi. Ko‘chalardagi daraxtlar va butalar o‘z xususiyatlariga ega va shu bilan bir qatorda ular gaz, shovqin va changga chidamli bo‘lishi kerak.

Shovqinni pasaytira oladigan daraxtlar: tikonli archa, g‘arb tuyyasi. Barglari qalin bo‘lib o‘sadigan daraxtlar: qirrabargli zarang, oddiy shumtol, soxtakashtan, ingichkabargli jiyda, venger nastarini.

Shaharlarda daraxtlarni o‘tqazish tajribasi shuni ko‘rsatadiki, ularni erkin o‘tqazish qatorlab o‘tqazishga qaraganda samarali. Daraxt va butalarning barglari past va qalin bo‘lganda shovqinni samarali qaytaradi. Daraxt va butalarni tanlaganda tomirlari yer yuzasiga chiqib ketadiganlarini tanlamaslik kerak, ular yo‘laklardagi to‘shamalarga ziyon keltirishi mumkin.

Har xil shakldagi o‘simliklardan foydalanib, berilgan topshiriqqa mos badiiy kompozitsiyani yaratish mumkin.

Me‘moriy ansambllar va monumentlar oldini ko‘kalamzorlashtirishda binolarga mutanosib shaklga ega o‘simliklardan foydalaniladi (terak, sarv, qoraqarag‘ay, oqqarag‘ay).

Sharsimon, parallelopiped yoki kub shakliga ega daraxt va butalar ayniqsa qishda, barglar to‘kilganda chiroyli ko‘rinadi.

Magistral ko‘chalarning ba‘zi alohida qismlarida muntazamlikni saqlash uchun geometrik shakldagi gulzor va butazorlar bilan bezash usuli ishlatiladi.

Obyektlarning tantanavorligini oshirish uchun navbat bilan ochiladigan gullardan foydalaniladi. Binolar oldi “quruq” bo‘lmasligi uchun kontrast shakldagi daraxtlardan foydalaniladi.

Navbat bilan ochiladigan gullari, barglari, rangi, mevasi, shoxlari va tanasining ko‘rinishiga qarab turli tumanlik hosil qilinadi.

Ko‘chalarni ko‘kalamzorlashtirishda o‘tqaziladigan daraxt, buta va gullarning sonini aniqlashda o‘tqazish turlari ham hisobga olinadi. Eni 3–4 m, daraxtlar oralig‘i 6–7 m qilib ko‘chalar hududi ko‘kalamzorlashtiriladi. 1000 metrlik ko‘chani ko‘kalamzorlashtirish uchun 200–340 dona daraxt va 1000 dona buta kerak bo‘ladi.

Ko‘chalarga o‘tqaziladigan butalarning soni mahalliy sharoitga ham bog‘liq. Loyihalashda daraxt va butalar oralig‘idagi masofani saqlash kerak, daraxt va butalarning rivojlanishi ta‘minlanishi zarur.

Butalarni ko‘p qatorli qilib ekishda qatorlar oralig‘i 1,5–2,0 metr bo‘lishi kerak. Daraxtlarni qatorlab ekishda oraliq 6–7 metr, ikki qator bo‘lganda 7–8 metr bo‘lishi tavsiya etiladi.

1,8 metr balandlikdagi butalarni qatorlab ekishda oraliq 0,6–0,8 m bo‘lishi kerak; past va o‘rtacha balandlikdagi butalarniki 0,3–0,5 metr bo‘lishi ko‘zda tutiladi. Daraxt va butalarni guruhlab ekishda daraxtlar oralig‘i 5–6 m, butalarniki esa 0,3–0,4 bo‘lishi ko‘zda tutiladi.

Piyodalar yuradigan ko‘chalar va yo‘llar. Piyodalar yo‘llari, savdo markazlari, bozorlar va jamoat binolarining yopiq ko‘chalari, bir va ikki qavatli yo‘llar shahar markazining muhim bir bo‘lagi hisoblanadi.

Transportdan holi piyodalar yo‘llari qurish inson harakatlanishi uchun zarur qulay muhit yaratish yechimi hisoblanadi. Bu yerda muhit inson talabiga moslab tashkil qilinadi. Piyodalar uchun muhitni tashkil qilishning muhim vositasi – shahar dizayni vositasi hisoblanadi. Dizayn usullari bilan o‘ziga xos ko‘cha, maydonlar olamini yaratish mumkin. Bunda loyihalashning asosiy obyektlari quyidagilar hisoblanadi:

- piyodalar yo‘lagini naqshinkor to‘shamalar bilan qoplash;
- daraxt va butalar, maysa va gullar;
- haykal, favvora, mebellar;
- reklama moslamalari;
- to‘siqlar.

Dizaynning zamonaviy vositalari bilan piyodalar maydoni va ko‘chalarni me‘moriy-landshaft tashkil etishning quyidagi asosiy usullari mavjud:

– bezakdor to‘shamalardan foydalanish, me‘moriy shaklning, hajmining ahamiyatiga urg‘u berish, funksional muhitlarni chegaralash; muhitning me‘moriy masshtabiga urg‘u berish;

– chiroyli haykallardan foydalanish, shahar markazining ahamiyatiga urg‘u berish;

– muhitning estetik sifatini oshirish, mikroklimatni yaxshilash uchun ba‘zi hududlarni ko‘kalamzorlashtirish;

– har xil binolarni turli xil shakllar, ranglar, nur-soya kontrasti vositasida birlashtirish.

Qirg‘oqlar. Qirg‘oqlar – daryo, ko‘l, dengiz bo‘yida joylashgan muhim landschaft arxitekturasi obyektini hisoblanadi. Qirg‘oqlarni obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish shahar sharoitidagi yangi qurilishlarda ham, qayta ta‘mirlashlarda ham katta ahamiyatga ega. Transport vositalari harakatini, qisqa muddat dam olish va sayr qilishni ta‘minlashda, madaniy va jamoat markazini joylashtirishda qirg‘oq bo‘yining me‘moriy-kompozitsiya tuzilishi katta ahamiyatga ega. Qirg‘oq bo‘yi kompozitsiyasini yechishda shahar bosh rejasi, tumanning rejaviy g‘oyasi, atrofdagi binolar, qirg‘oq bo‘yining vazifasi, suv havzasining o‘lchami va xususiyati hisobga olinadi. Qirg‘oq bo‘yini me‘moriy-rejaviy tashkil qilish har xil usullarda bajariladi. Shaharning katta-kichikligi, obodonlashtiriladigan va ko‘kalamzorlashtiriladigan hududning eni, relef, suvning ko‘tarilishi ham katta ahamiyatga ega.

Katta, yirik va o‘ta yirik shaharlarda eni 60 m bo‘lgan qirg‘oqlar nafaqat dam olish, balki shahar va tuman ahamiyatiga ega avtomagistral uchun ham xizmat qiladi. O‘rtacha shaharlardagi kichik daryolar qirg‘oqlari eni 20 metrni tashkil qiladi.

Keng va uzun qirg‘oq bo‘yi hududlarini ko‘kalamzorlashtirishda ochiq va yopiq muhitlarni shakllantirish zaruriyati paydo bo‘ladi. Qirg‘oq bo‘yi hududida faol va tinch dam olish zonaları tashkil etiladi. Qirg‘oq bo‘yidagi daryo vokzali, suv sporti markazlari kabi inshootlar yaqinida faol foydalaniladigan hududlar shakllantiriladi. Bunday hududlarda tomosha maydonchalari, suhbatgohlar, yozgi

kafe, kiosklar bunyod etiladi. Ko‘kalamzorlashtirish usullari tantanavor ko‘rinishga ega. Yuqori darajada obodonlashtirilgan hududlarda tabiiy tosh devorlar, favvoralar, bezakdor havzalar, kichik me‘moriy shakllardan keng qo‘llaniladi.

Atrofdagi binolar hududining me‘moriy-fazoviy kompozitsiyasini shakllantirishda qirg‘oqbo‘yi hududi muhim rol o‘ynaydi. Qirg‘oqbo‘yi hududini ko‘kalamzorlashtirish darajasi umumiy maydonga nisbatan quyidagicha taqsimlanadi:

- umumshahar ahamiyatiga ega hudud sifatida – 60 % ;
- sayrgoh hududi sifatida – 40–45 % ;
- transport hududi – 20–25 % ;

Qirg‘oqbo‘yi xiyobonlari yoki “chiziqli bog‘lar”. Bunday turdagi xiyobonlar umumshahar muhitini faol shakllantiradi va unga o‘ziga xos xususiyat baxsh etadi.

Qirg‘oqbo‘yidagi xiyobonlarni transport magistrallari bilan qo‘shish tavsiya etilmaydi. Daryo, ko‘l va dengiz qirg‘og‘idagi xiyobonlar o‘zining rejasiga ko‘ra turar-joy ko‘chalaridagi xiyobonlarga to‘g‘ri keladi. Farqi shundaki, bir tomoni daryo qirg‘og‘iga tutashib, akvatoriya landshaftini va shahar muhitini birlashtiradi. Bunday “chiziqli bog‘lar” yirik suv havzalari bo‘yida tashkil qilinadi. Ularning eni 15–18 metrdan bir necha o‘n metrgacha bo‘lishi mumkin. O‘zining rejasiga ko‘ra “chiziqli bog‘lar” markaziy to‘g‘ri chiziqli o‘qqa ega bo‘ladi.

Daryo yoki ko‘llar qirg‘og‘idan faqat dam olish va sayr qilish uchun foydalanish kerak. Kirish joylari bog‘ning hamma tomonida bo‘lishi kerak agar xiyobon shaharning ma‘muriy yoki transport maydonlariga chiqish imkoniyatini yaratsa, unda u juda ko‘p piyodalarni o‘tkazishga hisoblangan bo‘lishi kerak.

Nazorat savollari:

1. *Jamoat markazi tushunchasini tushuntiring va “tuman ahamiyati” va “umumshahar ahamiyati” tushunchalarining farqini ochib bering.*

2. *Shahar jamoat markazlarini obodonlashtirish obyektlari haqida nimalarni bilasiz va bunday obyektlarning qanday farqini bilasiz?*

3. *Xiyobon va bulvar nima, ularning qanday farqi bor va umumshahar, tuman markazlarini landshaft-rejaviy tashkillash-tirishda ular qanday rol o'ynaydi?*

4. *Qanday turdagi ko'cha va yo'llar sizga ma'lum va ular jamoat markazi muhitini yaratishda qanday ahamiyatga ega?*

5. *Qizil chiziq va qurilish chizig'i nimani ifodalab beradi, ularning qanday farqi bor va ularning oralig'i masofasi qanday bo'lishi kerak?*

6. *Qirg'oq bo'yi xiyobonlari yoki "chizikli bog'lar"ning ma'nosi nima va ular umumshahar muhitini yaratishda qanday ahamiyatga ega?*

V BOB. SHAHAR MARKAZINING BOG‘-PARK TIZIMINI SHAKLLANTIRISH

Shahar markazining bog‘-park tizimi, uni shakllantirishdagi tabiiy va funksional vositalar, bog‘ park tizimini joylashtirish tamoyillari, bog‘-parklar tizimini shakllantirishdagi xorijiy tajribalar.

Madaniyat va istirohat bog‘lari deganda, odatda ko‘p funksiyali park tushunilib, u aholining dam olishiga mo‘ljallangan madaniy-oqartuv va ko‘ngilochar, sport, bolalar zonasi, tinch dam olish va sayr-tomosha funksiyalari bilan ta‘minlangan hududi to‘liq obodonlashtirilgan, maydoni 20 gektardan kam bo‘lmagan, ko‘kalamlashtirilgan hududi esa uning kamida 70 foizini egallagan landshaft arxitekturasi obyekti hisoblanadi.

Bunday bog‘larning asosiy funksional-hududiy zonalariga quyidagilar kiradi:

- 1) ommaviy madaniy tadbirlar va attraksionlar zonasi;
- 2) sport zonasi;
- 3) bolalar zonasi;
- 4) tinch dam olish va sayr qilish zonasi;
- 5) xo‘jalik zonasi.

Ayrim hollarda ommaviy madaniy tadbirlar va attraksionlar zonasi ikki qismdan: ommaviy tadbirlar va madaniy-oqartuv zonalaridan tashkil topishi mumkin. Har bir funksional zona o‘zicha alohida tarkibiy qismlardan tuzilishi mumkin. Masalan, *tinch dam olish va sayr qilish zonasi* ochiq va yopiq yashil maydonlardan, kutubxona, shaxmat, shashka, suhbatgoh, tabiiy va sun‘iy suv havzalaridan va sohillardan tarkib topib, unda shuningdek, ko‘shk va ko‘rgazma zallar ham bo‘lishi mumkin. Ushbu zona park hududining 50–60 % ini egallab, uning xilvatroq, tinchroq, ko‘zdan va shovqinlardan xoliroq joylarda, yopiq yashil ko‘kalamzorlar, soya-salqin joylar, iloji bo‘lsa suvhavzalari bo‘ylarida joylashgani ma’quldir.

Sport zonasida sport o'yinlari, ommaviy sport maydonlari, minifutbol, basketbol, voleybol, tennis va boshqa sport saydonlariga joy ajratilish kerak. Sport zonasi parkning 10–15 % ini egallab, uning asosiy darvozasidan kirgach o'ngda yoki chapda, parkning magistral ko'chalarga yondosh qismida joylashtirilishi maqsadga muvofiq.

Bolalar zonasi ham parkning ichiga chuqur kirmasdan bosh darvozadan o'ng yoki chapda joylashgani ma'qul. Uning hududi, odatda, park maydonining 15–20 % ini tashkil qiladi. Ochiq maydonchalar, turli xil elektron o'yinlar uchun o'yin avtomatlari, bolalarga attraksionlar, o'yin maydonchalari hamda turli san'at seksiyalari va to'garaklari joylashadi.

Ommaviy-madaniy tadbirlar va attraksionlar zonasi parkning asosiy funksional zonalaridan biri bo'lib, parkning 8–15 % ni egallaydi. Mazkur zona bosh darvozadan kirilgach, bosh xiyobon bo'ylab yurib bog'ning markaziy qismida joylashtirilgani ma'qul. Ushbu zonada katta va kichik attraksionlar va ommaviy tadbirlar o'tkazish uchun ochiq maydonlar tashkil qilinadi.

Katta attraksionlarga turli xil o'yinqaroq va dilni yayratuvchi o'yinlar uchun qurilmalar: xalganchaklar, havo karusellari, sirpanchiqlar, avtomobilchalar va poezdchalar uchun qurilmalar, aylanma, burilma ko'ngilochar qurilmalar kiradi. Kichik attraksionlarga shaxmat, shashka, loto, tir va shunga o'xshash attraksionlar kiradi.

Xo'jalik zonasi (3–5 %) bog'ning chekkasida joylashib, unda ustaxonalar, ma'muriyatlar va hisobxona, rassom va dizaynerlar xonalari, gullar uchun issiqxongalar joylashadi.

Umumshahar parki–shaharning eng yirik yashil massivi hisoblanib, ommaviy tadbirlar, tomoshalar, madaniy-ma'rifiy chiqishlar va jismoniy tarbiya tadbirlarining rivojlangan tizimiga moslashtirilgan alohida ajratilgan maydoni 15 gadan kam bo'lmagan yashil hududdir. Shahar parklarining o'lchamlari 100–150 gektardan (odatda, eski, tarixiy tashkil topgan shaharlarda) va 100 gektargacha–yangi shaharlarda bo'lishi mumkin (5.1-rasm).

Bunday park odatda, aholining ommaviy davomatiga mo'ljallanib unda rivojlangan keng ochiq va yopiq xiyobonlar, sayrgoh yo'laklar, dam olish zonalaridan tarkib topgan bo'ladi.

Park funksional zonalari egallagan maydonning park umumiy hududiga nisbatan foizlari

Parkning funksional zonalari va maydonlari	Park umumiy hududiga nisbatan funksional zonalarning maydoni, % hisobida
Ommaviy-madaniy tadbirlar va atraksionlar zonasi	7–10
Sport va jismoniy tarbiya mashg'ulotlari uchun maydonlar zonasi (sport zonasi)	15–20
Bolalar o'yingohi zonasi (bolalar zonasi)	5–10
Tinch dam olish va sayr qilish zonasi	50–65
Ma'muriy-xo'jalik zonasi (xo'jalik zonasi)	2–4
Xiyobonlar va yo'laklar	10–15

Park inshootlari va istirohat obyektlari hamda ularning maydonlari

Bino va inshootlar tarkibi	Soni, dona	Imorat sig'imi, kishi hisobida	Maydoni, m²
Konsert zali	1	800	800
Ochiq estrada	1	500	500
Kinolektoriy	1	500	500
O'quv zali	1	75	150
Kichik planetriy	1	–	150
Raqs maydonchasi ayvoni	1	200	500
Ko'rgazma paviloni	1	50	400

Stol usi o‘yinlari paviloni	1	–	200
2 stollı bilyard	1	4	100
Tir (50 m)	1	–	300
Stol tennisi maydonchasi (5x10)	4	8–16	200
Voleybol maydonchasi (9x18)	2	24	720
Basketbol maydonchasi (14x26)	2	24	1100
Gorodoklar uchun maydoncha (15x30)	2	4–12	900
Tennis maydonchasi (20x40)	2	4–8	1600
Badminton maydonchasi (6,1x13,4)	2	4–8	400
Sport paviloni	1	–	1000
Jihozlar ıjarasi bazasi	1	–	400
Bolalar estradasi	1	–	200
Bolalar o‘qish joyi	1	–	180
Bolalar o‘yingohi	1	–	200
Bolalar mashg‘uloti paviloni	1	–	300
Bolalar jihozlari ıjarasi bazasi	1	–	150
Katta attraksionlar	10	–	3000

Park maydonchalari, landshaft arxitekturasi elementlarining murakkab kompleksiga kirgan suv havzalari, yashil massivlar, o‘tloqzorlar, daraxt va butalarning yakka va guruh landshaft kompozitsiyalari, katta yashil gullik parterlar, gulzorlar, favvoralar, bog‘-park arxitekturasi ning asarlari va yirik imoratlar joylashadi. Shahar pakri uchun joy tanlashda eng manzarali chiroyli tabiiy landshaft askanlari: o‘rmonzori, suv havzalari, qiziqarli relefga ega bo‘lgan joylar e‘tiborga olinadi. Shu sababdan park hududi hamma vaqt ham shahar markazida yoki unga yaqin joyda bo‘lavermasdan, undan uzoqroq, shaharning ayrim tumanlaridan chetroqda ham joylashishi mumkin.

Hozirgi vaqtda hammaga ma‘lumki, shahar parkining muqarrar mavjud bo‘lishining ma‘nosi shundaki u rekreatsion maqsadlarga mo‘ljallangan, shahar muhitiga ijobiy ta‘sir qiluvchi eng yirik yashil

massivdir. Shu munosabat bilan park hududini turli zonalarga bo‘lishda yashil ko‘kalamzorlar uchun eng ko‘p maydon-park hududining 70 % ajratiladi (5.2-rasm). Parkning me‘moriy-rejaviy yechimida imoratlar, maydonlar va boshqa inshootlarni joylashtirish asosiy masalalardan biridir. Ularni hal qilishda quyidagi talablarni hisobga olish zarur.

Parkning bosh darvozasi shahardan unga eng ko‘p kelinadigan yo‘nalish tomonidan o‘rnatiladi. Ikkinchi darajali yordamchi darvozalar ham aholining parkka ko‘proq keladigan tomonlaridan joylashtiriladi.

Attraksionlar uchun maydonlarni ko‘kalamzorlar ichida shahar magistral ko‘chalaridan biroz ichkariroqda, park ichida ammo shovqinni yoqtirmaydigan, tinchlikni talab qiluvchi obyektlardan uzoqroq joylashtiriladi. Maydonlar atrofi landshaft guruhlarini bilan bezaladi (5.3-rasm).

Sayrgoh, yo‘laklar, parkning qiyiq ko‘kalamzorlari ichidan, peyzajli landshaft kompozitsiyalarini tomosha qilish, tinch va osoyishta dam olish va sayr qilish imkoniyati bo‘lgan joylardan o‘tkazilishi zarur.



5.1-rasm. Moskva shahri uchun loyihalangan ko‘p funksiyali park.



5.2-rasm. London shahriga mo‘ljallangan ko‘p funktsiyali park.



5.3-rasm. Moskvadagi “Zaryade” ko‘p funktsiyali bog‘-parki.



5.4-rasm. “Mini Yevropa” ko‘p funksiyali bog‘-parki.

Sport va jismoniy tarbiya maydonchalari esa ommaviy o‘yin maydonchalaridan uncha uzoq bo‘lmagan relefi tekis joylarda joylashtiriladi. Maktabgacha bolalarning o‘yin maydonchalari park darvozalariga yaqinroq, yaxshi ko‘kamlashtirilgan, geoplastika elementlari bilan boyitilgan joylarga joylashtiriladi (5.4-rasm).

Maktabgacha bolalar uchun o‘yin maydonchalarini yaxshi tabiiy landshaft sharoitlariga ega kattalardan holiroq bo‘lgan joylarda, biroq bolalar uchun o‘rnatilgan inshootlar orasida qulay bog‘lanishlarni ta‘minlagan holda joylashtirish talab etiladi. Bolalar uchun o‘yin inshootlari joylashgan joydan tranzit yo‘llar, hatto, piyodalar yo‘llari ham kesib o‘tmasligi zarur.


Park ma‘muriyatining imoratlari bosh darvozaga yaqin joyda, parkdagi tadbirlar va ishlarni boshqarish va ayni paytda, shahar bilan doimiy aloqada bo‘lish imkoniyati bo‘lgan nuqtalarda joylashgani ma‘quldir.

Parking yordamchi inshoot va imoratlarni esa (ombor, ustaxonalar, garaj) park chegarasiga yaqin joylashtirish maqsadga muvofiqdir. Bu imoratlar park va shahar bilan ham doimiy bog‘lanishda bo‘lishi zarur.

Ko'p funksiyali parklarni landshaft loyihalash jarayonida bino-inshootlar va qurilmalar, sug'orish, obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirishning landshaft rejaviy yechimlari shaharsozlik talablar bilan bir qatorda ekologik talablar, ya'ni atrof-muhitni, iqlimni muhofaza qilishga, tabiiy landshaftni saqlash, tabiiy iqlimni yaxshila va atrof-muhitni ifloslanishidan saqlashga qaratilishi lozim. Bundan tashqari bu yerdagi joyning iqlim sharoitiga va loyihalananayotgan atrof-muhitga hamda mavjud saqlanib qolishini lozim bo'lgan bino-inshootlar va daraxt-butalarga umumiy solishtirma baho berib, mavjud shaharsozlik va texnik muhandislik qurilmalarini kurs loyahasiga tatbiq etish talab qilinadi.

Maxsus parklar

Sport parklari. Bu yashil o'simliklar orasida joylashgan sport, jismoniy, madaniy-oqartuv inshootlari komplekslaridir, ular o'z tarkibiga qisqa muddat dam olish joylarini ham oladi. Me'moriy-makoniy kompozitsiya musobaqalar va mashq-mashg'ulotlar o'tkazilishi sharoitlariga ko'ra aniqlanadi. Maydonchalar, inshootlar, o'tish joylari va xiyobonlar bu yerda boshqa park turlariga nisbatan hududning ancha kattaroq qismini egallaydi (5.5, 5.6, 5.7-rasmlar).



5.5-rasm. Berlindagi "Olimpiya" stadionining parki.



5.6-rasm. Moskva shahri uchun “Olimpiyskiy” sport parki.



5.7-rasm. “Olimpiyskiy” sport bog ‘-parkining basketbol, pin-pong, yengil atletika maydonchalari.

Sport parklarining katta-kichikligi, asosan, parkdagi sport inshootlarining soni va hajmi, funksiyaviy mavqei va qayerda joylashganiga bogʻliq boʻlib (shahar ichida yoki shahar chetida), ular alohida obyekt yoki biron-bir boshqa parkka yondoshgan boʻlishi mumkin.

Sport parklari hududining meʼmoriy-rejaviy va landshaft yechimi parkning funksiyaviy maqsadiga (mikrorayon, turar joy tumani yoki umumshahar sport parki ekanligiga), joy relefiga, mahalliy tabiiy-iqlim sharoitlarga sport inshootlari va binolarining nomenklaturasiga va h.k. bogʻliq.

Agar park tarkibida katta stadionlar yirik sport pavilonlari va inshootlari joylashgan boʻlsa, ularga koʻp sonli sportchilar va tamoshabinlarning kelib-ketishini hisobga olgan holda keng va ochiq asosiy va yonbosh xiyobonlar loyihalaniishi kerakki, ular tomoshabin va sportchilarning foydalanishi uchun park hududida qulay joylashtirilishi zarur. Asosiy xiyobon eni 10 m dan, yonbosh xiyobonlar esa 6 m dan kam boʻlmasligi kerak (5.8, 5.9, 5.10-rasmlar).



5.8-rasm. London shahri uchun loyihalangan sport parki.



5.9-rasm. Parijdagi Trembel sport parki:

1–kirish; 2–bolalar bog‘i; 3–klub; 4–suv sporti markazi; 5–katok;
6–bosketbol va voleybol maydoni; 7–tennis korti; 8–tir; 9–otda sayr
qilish maydoni; 10–atletika markazi; 11–dam olish va erkin o‘yinlar
sektori.



5.10-rasm. Berlindagi Fridrixsxayn parki:

1–bosh darvoza; 2–bahorgi gullar bog‘i; 3–ko‘rgazma paviloni; 4–bolalar o‘yini maydonchalari; 5–erkin o‘yinlar maydonchalari; 6–kompyuter o‘yinlari shiyponi; 7–atirgullar bog‘i; 8–raqs maydoni, restoran, kutubxona; 9–ko‘p yillik gullar ko‘rgazmasi.

Sport parklari nafaqat sportchilarga, balki aholini sportga qiziqtirish va sog‘lomlashtirish maqsadlariga ham mo‘ljallanishi mumkin. Bunday hollarda sport parklari hududi ikki asosiy qismga:

1) faol dam olish va shug‘ullanish qismi (bu qismda sportchilar shug‘ullanadigan sport inshootlari va binolari zonasi, tomosha uchun mo‘ljallangan sport inshootlari zonasi va aholini sport-sog‘lomlashtirish, ya‘ni jismoniy tarbiya inshootlari zonasi joylashadi) (5.11-rasm);

2) tinch dam olish va sayr qilish qismi.

Bunday parklarda sportchilarning avtobuslari, sportchilar va tomoshabinlarning yengil avtomobillari uchun to‘xtash joylarini to‘g‘ri shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Sport parklari

Sport parklarining memorial-rejaviy va landshaft yechimi bir nechta usullarda: muntazam (to‘g‘ri geometrik usulda); erkin tabiiy (peyzaj uslubida); aralash (ma‘lum qismi muntazam, qolgan qismlari erkin peyzaj) uslubida shakllantirilishi mumkin.

Qaysi usulni tanlash sport parkining o‘lchamlariga, hudud relefiga va uning shakliga, park hududida tabiiy suv havzalari va qirg‘oqlarning mavjudligi, sport inshootlari va binolarining park hududida qanday (alohida yoki ansambl tarzida) joylashganligiga bog‘liqdir.

Sport parki hududini ko‘kalamlashtirish tizimi bosh va yonbosh xiyobonlar va yo‘laklar, yopiq va ochiq sport inshootlari atroflaridagi ko‘kalamzorlar, sport o‘yinlari maydonlari chegaralariga o‘tkazilgan ko‘kalamzorlardan, landshaft kompozitsiyalari esa daraxtlar va butalardan ishlangan toza va aralash yashil guruhlar, yashil massivlardan iborat bo‘lishi mumkin. Sport parklarida sport maysazorlarining qo‘llanishi maqsadga muvofiqdir (5.12, 5.13, 5.14-rasmlar).



5.11-rasm. Berlindagi Fridrixsxayn parkida trinajerlar maydoni.



5.12-rasm. Sport parkining bosh rejasi. Avstriya.



5-13-rasm. Sport parklarida sport maydonchalarining joylashishi.



5.14-rasm. Sport parkida velosipedda uchishga mo'ljallangan yo'laklar.

Bolalar parklari

Bolalar parklari deganda, odatda, qulay, sanitariya–gigiyenik sharoitlarga ega bo‘lgan va turli yoshdagi maktab bolalarining bo‘sh vaqtlarida turli xil ko‘ngil ochar va sport o‘yinlari, jismoniy va madaniy-ma’rifiy mashg‘ulotlarni o‘tkazishga mo‘ljallangan, obodonlashtirilgan va ko‘kalamlashtirilgan obod, dam olish maskani tushuniladi (5.15, 5.16, 5.17-rasmlar).

Ularning asosiy vazifasi bolalarning faol dam olishini tashkil etish, jismoniy rivojlanishiga yordam berish, ularning sarguzastlarga, ijodiy mashg‘ulotlarga, tajribalarga bo‘lgan madaniyatini tarbiyalashdan iborat. Bolalar parki landshaftida tabiiy sharoit va hayvonot dunyosining xilma-xilligini, iloji boricha aks ettirmoq maqsadga muvofiqdir. Bolalar parklari uchun shaharning eng qulay va yaxshi ko‘kalamzorlashtirilgan hududi ajratilishi lozim. Ularga yashil massivlar, bog‘lar va o‘yin maydonchalari beriladi. Katta shaharlarda bolalar parki mustaqil park deb hisoblanadi. Markaziy bolalar parkining kattaligi 50 dan 300 ga gacha bo‘lishi mumkin. Bu sharoitda har xil yoshga kirgan bolalarga qiziqarli dam olish sharoitlarini yaratish mumkin. Masalan, Nyu-York shahrida “Disney-land” nomli bolalar parki uchun juda qiziqarli zonalar yaratish uchun ko‘p mutaxassislar takliflari kiritilgan.



5.15-rasm. Dunyoga mashhur “Disney-Lend” bolalar parki.



5.16-rasm. Bolalar parkining klauzurasi. Barselona.



5.17-rasm. Barselonadagi bolalar parki ko‘rinishidan lavhalar.



5.18-rasm. Bolalar bog '-parki. Yevropa.

Yangi shaharlardagi madaniyat va istirohat bog'larida bolalarning dam oladigan zonasi mustaqil bolalar parki deb hisoblanishi mumkin. Bolalar parki turar joy hududlariga iloji boricha yaqin va piyoda yo'llari yonida bo'lishi kerak. Odatda, bolalar parklari 3–5 ga maydonda loyihalanadi. Park hududini har xil yoshdagi bolalarga mo'ljallab bir qancha maydonchalarga ajratiladi. Me'moriy inshootlar, maydonchalar va uskunalarining o'lchamlarini hamma yoshdagi bolalarga hisob qilmoq kerak: 2 yoshgacha; 2–5; 6–7; 8–10; 11–13 va katta yoshgacha. Inshootlar o'lchamlari va ekspozitsiya mavzulari ushbu yoshlarga mos kelishi lozim. Eng kichik yoshdagi bolalar uchun qum qutilari uchun kichik maysazorlar, past o'rindiqlar, soyabon qo'ziqorinlar, shu atrofda bolalarning ota-onalari uchun kattalar dam olish joyi loyihalanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun tirmashib chiqish qurilmalari, kachelilar, sirpanish cho'qqilari, hovuzlar va boshqalar qo'yilishi kerak. Kichik maktab yoshidagi bolalar uchun koptok o'yinlari maydonchasi, sport devorchalari, mashinalar, kemalar, raketalarining maketlari, tirmashib chiqish fazoviy konstruksiyalari, shuningdek, stol o'yinlari uchun o'rindiq va stollari bo'lgan tinch burchaklar joylashtiriladi (5.19-rasm). Barcha yoshdagi bolalar guruhlarini uchun parkda hojatxona va qo'l yuvish joylari bo'lishi lozim. Bolalar parklarida mevasi va barglari zaharli (mojjevelnik kazatsskiy), ignali (gledichiya, shipovnik) butalarni ekish mumkin emas.

Tinch dam olish va sayr qilish parklari

Ruhshunoslarning tadqiqotlariga ko'ra katta shaharlarda, ishlab chiqarish va maishiy hayotda insonga qo'yilgan mas'uliyat va yuklatilgan ishlar ko'paygan sayin uning tinch dam olish, tabiiy landshaftda sayr qilishga ehtiyoji ortar ekan.

Sotsiologik so'rovlar natijasiga ko'ra, shahar aholisi odatda tabiiy landshaftli, oila bilan birga dam olishga mo'ljallangan, soyali xiyobonlar va ochiq maydonda turli xil o'yinlar o'ynashga mo'ljallangan bog'larda dam olishni xush ko'rishadi. Bu kabi bog'-parklar turli xil – shahar markazida mo'jaz bog'-parklardan tortib, velosiped va otda sayr qilishga mo'ljallangan, xiyobonlar tizimidan

iborat yirik bog‘-parklar bo‘lishi mumkin. Tinch dam olish bog‘-parklarida mavjud tabiiy landshaftdan to‘g‘ri va samarali foydalanish muhim rol o‘ynaydi.

Tinch dam olish jarayoni atrof-muhit landshaftini vizual qabul qilish bilan bir paytda amalga oshadi. Unga landshaftning estetik xususiyatlari, masshtabiliga, ochiqlik darajasi, insolyasiya rejimi, iqlimi, florasi, faunasi, havosining tozaligi, komfort va me‘moriy-rejaviy yechimi kiradi. Lekin bu kabi bog‘-parklarda boshqa elementlarining ahamiyatligini kamaytirmasdan, shuni ta‘kidlashimiz lozimki, tinch dam olish bog‘-parklarda o‘simliklar katta o‘rin egallaydi.


Har bir o‘simlik o‘ziga xos dekorativ shaklga ega, lekin bu uning qanday sharoitda o‘shiga bog‘liq. O‘simliklarning chiroyli bo‘lishi undagi shakllarning mutanosibli, o‘sh uchun barcha shart-sharoitlarning tashkillashtirilganligi, qo‘shni o‘simliklar va binolar bilan uyg‘unlashganligiga bog‘liq. Bu asosan, o‘ziga xos xarakterga ega katta hajmdagi daraxtlarga tegishli (5.20, 5.21-rasmlar).

Bizga ma‘lumki, insonni oval shaklli, sokin rangli daraxtlar tinchlantiradi. Bunday daraxtlar tagida odatda, asab kasalliklariga chalingan bemorlar dam olishadi.


Tinch dam olish bog‘-parklarini landshaftini loyihalashda daraxt va o‘simliklarning ranglariga katta ahamiyat beriladi (5.22-rasm). Ularning rangi, qanday tusedaligi, yorqin yoki sokin rangdaligi inson ruhiyatiga turlicha ta‘sir ko‘rsatadi. Daraxtlar insonga o‘zining nafaqat shakli va rangi bilan ta‘sir qilibgina qolmay, balki o‘zining hidi, barglarining shitirlashi va undagi qushlarning sayrashi bilan ham ta‘sir ko‘rsata oladi.



5.19-rasm. Tinch dam olish bog '-parki. Avstriya.



5.20-rasm. Tinch dam olish bog '-parki tarkibida archali saylgoh.



5.21-rasm. Tinch dam olish bog‘-parki. Seul.



5.22-rasm. O‘simlik dunyosiga boy tinch dam olish parki.

Bolgariya va Ruminiya davlatlarida daraxtlar insonga emotsional ta'sir qilish xususiyatiga ko'ra guruhlariga bo'lingan. Ruminiyada shu munosabat bilan landshaft arxitekturasida yangi yo'nalishga asos solingan. Bu yo'nalish "vitalizatsiya qiluvchi peyzajizm" (vita-hayot) deb nomlanadi. Landshaft arxitekturasidagi ushbu yo'nalish insonning asab tizimini davolash, ishlash qobiliyatini tiklash, inson hayotiy kuchlarini tejash va qayta tiklash uchun landshaftning inson ruhiyatiga ta'sir qilish tamoyillari ishlab chiqiladi (5.23,5.24, 5.27-rasmlar).

Tinch dam olish bog'-parklarining me'moriy-rejaviy yechimini shakllantirganda o'simlik va daraxtlarning yil davomida o'zining shakli va rangini o'zgartirishini inobatga olish zarur.

Bahorda bog' insonga ko'tarinki kayfiyat bag'ishlaydi, chunki yangi chiqqan barglarning rangi va hidi insonni asab tizimini tichlantiradi bu esa insonga hayotga bo'lgan qiziqishini orttiradi. Yozda zich bargli daraxtlarga uzoq tikilib turish insonni toliqtirsa, kuz faslida ranglarni xilma-xilligini inson juda juda sokinlik bilan qabul qiladi. Qishki peyzash o'zining kontrastligi – oppoq qor fonida to'q yashil rangli igna bargli daraxtlar va barglari to'kilgan antiqa shaklga kirgan butalar insonga qiziqtiruvchi, zavqlantiruvchi kayfiyat bag'ishlaydi.

Tinch dam olish bog'-parklarini loyihalashda sanitar-gigiyenik, mikroiklim va estetik shartlariga katta e'tibor qaratiladi.

Maydonning badiiy xususiyatlarini oldindan aniqlash manzaraning alohida kuzatuv nuqtalarini aniqlashga imkoniyat beradi. Bunday yondashuv bog'-park tarkibida xiyobonlarni joyini kuzatuv nuqtalarini inobatga olgan holda tashkillashtirishga, zaruriy binolarni joylshatirishga, sun'iy relef shakllantirish kerak bo'lgan joylarni aniqlashga, xullas, bog'-parkning umumiy hajmiy-fazoviy kompozitsiyasini aniqlashga imkoniyat beradi (5.26-rasm).



5.23-rasm. Vitalizatsiya qiluvchi peyzajizm.



5.24-rasm. Vitalizatsiya qiluvchi peyzajizm. Fransiya.



5.25-rasm. Vitalizatsiya qiluvchi peyzajizm.



5.26-rasm. Estetik shartlarga tinch dam olish parkida katta ahamiyat beriladi.

Tinch dam olish bog‘-parkida asosiy landshaft ishlariga: zich o‘sgan o‘simliklarni siyraklashtirish, kerakli o‘simlik va daraxtlarni ekish, daraxtlar assortimentini ko‘paytirish, bog‘ning ichida yaxshi ko‘rinishga ega bo‘lgan joylarni ortiqcha elementlardan xoli qilish, yaxshi insolyasiya qilinadigan va havo yuradigan maydonlarni shakllantirish, dam olish zonalari va xiyobonlarda zich soyali joylarni tashkillashtirish, keragidan ortiq yoritiladigan maydonlarda soya-salqin muhit yaratish, atrof-muhitni sug‘orish va hokazolar kiradi.

Tinchdam olish bog‘larida asosiy e‘tibor manzarali peyzashlarning eng yaxshi ko‘rinish nuqtalarini tashkillashtirish, tanlashga qaratiladi. Bizga ma‘lumki, bu kabi manzaralar odatda suvli tekisliklarda bo‘ladi. Suvning ishlatilish hajmi, uning atrofdegagi manzarani akslanishi bu kabi peyzashni yanada boyitadi (5.27-rasm).

Tinch dam olish bog‘-parklarida o‘simlik dunyosi va relefni suv va kichik me‘moriy shakllardan to‘g‘ri foydalanib, barcha masalalarni umumlashtirgan holda, tinch dam olish uchun optimal sharoitlarga ega, turli xil kayfiyat bag‘ishlovchi manzaralarni tashkillashtirish mumkin.

Ularda qiziqarli landshaft manzaralari, ko‘p tarmoqli yo‘laklar tuzilmasi, chiroyli daraxt va butalar guruhlari gulzorlar va maysazorlar loyihalanadi. Bog‘ relefining baland nuqtalarida besedkalar–rotondalar va keng ko‘lamli tomosha qilish uchun ko‘rish maydonchalari–belvederlar quriladi. Tinch dam olish bog‘-parklarida suv havzalari, ko‘prikchalar, hovuzlar va boshqa peyzaj parklariga xos landshaft elementlari shakllantiriladi.

Tinch dam olish bog‘-parklarida haykallar va mo‘jaz me‘moriy shakllar ham muhim ahamiyatga ega. Haykallarlarda, odatda, lirik mavzular aks etadi: afsonalar va ertaklar qahramonlari yashil fonga mutanosib joylashtirilishi kerak. Tinch dam olish bog‘-parklarida ko‘proq favvoralar, hovuzlar, gulzorlar kompozitsiyasi, daraxt va butalar guruhi, sharsharalar loyihalanadi.



5.27-rasm. Tinch dam olish bog‘-parkida suvdan foydalanish kompozitsion yechimni yanada boyitadi.



5.28-rasm. Tinch dam olish bog‘-parklarda o‘rindiqlar ayniqsa, ko‘p bo‘ladi.

Bunday bog'lar ko'p sonli o'rindiqlar bilan jihozlanadi (5.28-rasm). Parklar kechki payt ham foydalanishi uchun yaxshi yoritilishi kerak. Buning uchun esa yorug'lik va rang uyg'unligini hisobga olgan holda dekorativ yoritgichlar qo'llaniladi.

Ko'ngil ochar attraksion parklar

Attraksion parklari—bu insonlarni faol dam olish parklarining eng ommaviy turi hisoblanadi.

Bu yerda faqat ko'ngilochar attraksionlar emas, insonning qo'rqmasligi, abjirligi, o'zini boshqarishi, reaksiyasining tezligini rivojlantiradigan o'yingohlar joylashtiriladi. Zamonaviy attraksionlarni organizmning tashqi ta'sirlarga moslashuvi va jismoniy chidamliligini oshirishga xizmat qiladigan trenajerlarga tenglashtirish mumkin. Ularning konstruksiyasida fan va texnikaning oxirgi natijalari qo'llaniladi.

Attraksion parklarni loyihalash bosqichlari:

1. Loyihaning texnik bosqichi. Ushbu bosqichda loyihalana-yotgan obyekt haqida barcha ma'lumotlar — har bir funksional elementdan tortib, attraksionlarning montaj jarayonlari haqida to'liq axborot yig'iladi. Loyihaning bosh rejasida har bir attraksionni joylashtirish sxemasi tuziladi, bu har bir qurilmani montaj qilish jarayonini tezlashtiradi.

Loyihaning texnik bosqichi quyidagi qismlarga bo'linadi:

1. Arxitekturaviy-rejalashtirish qismini loyihalash.
2. Attraksionlarni elektr ta'minoti qismini loyihalash.
3. Suv ta'minoti va oqava suvlar tizimi qismini loyihalash.
4. Atrof-muhitni landshaft loyihalash qismini loyihalash.
5. Atrof-muhitni yoritish qismini loyihalash.
6. Akustika qismini loyihalash.
7. Maxsus "spetseffekt"lar qismini loyihalash.
8. Loyihani mahalliy boshqaruv organlariga tasdiqlatish.
9. Loyihani davlat arxitektura-qurilish nazorati organlariga taqdim etish.

Yuqorida sanab o‘tilgan qismlar ichida eng mas’uliyatli qismi bu – arxitekturaviy-rejalashtirish qismi hisoblanadi. Chunki bu qism loyihaning boshlanishi bo‘lib, qolgan boshqa barcha qismlar rejalashtirish qismidan kelib chiqadi.

Attraksion bog‘-parklarini loyihalashda har bir funksional zonani parkda to‘g‘ri joylashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Mijozlarni kutib olish, ularni park hududida teng taqsimlash, xo‘jalik zonalarini joylashtirish, mijozlar va ishchilarning bir-birlari bilan to‘qnashmasdan park zonasida harakatlanishini ta‘minlash uchun har bir zonani to‘g‘ri joylashtirish zarur. Attraksion bog‘-parklar quyidagi zonalardan iborat bo‘ladi.

Ekstremal attraksionlar zonasi. Bu zonada jo‘shqin hissiyotlarga beriluvchi mijozlar uchun mo‘ljallangan attraksionlar joylashtiriladi. Zonaning kattaligi unga ajratilgan hudud va attraksionlar soniga bog‘liq.

Attraksionni o‘zini loyihalash ham bog‘-parkni loyihalash jarayoniga kiradi. Devid Yanger o‘zining “Tematik bog‘larni loyihalash” kitobida ekstremal attraksionlarni turlarga bo‘lib ularni klassifikatsiya qilib chiqqan (5.29, 5.30, 5.31, 5.31-rasmlar).

Oilaviy zona. Ushbu zonada bolalar va ota-onalar uchun mo‘ljallangan attraksionlar joylashtiriladi. Attraksionlarning ketma-ketligi ularning dinamikasi oilaning birgalikda yurishini ta‘minlashi kerak (5.32, 5.33, 5.34-rasmlar).

Bolalar zonasi. Ushbu zonada attraksionlarni joylashtirish bolalarni yoshiga qarab joylashtiriladi. Bu zonada attraksionlar 3 yoshdan 14 yoshgacha bo‘lgan bolalarga mo‘ljallanadi. Bolalar attraksionlarini loyihalashda attraksionlar va qurilish materiallari to‘liq xavfsizlik tamoyiliga asoslanib bajariladi. Odatda, bolalar zonalarida "karusel"lar o‘rnatiladi.



5.29-rasm. Ekstrimal attraksionlar. Fransiya.



5.30-rasm. Ekstrimal attraksion "Swimming tower". Nyu-York.



5.31-rasm. Ekstrimal attraksionlar. London.



5.31-rasm. Ekstrimal attraksionlar. London.



5.32, 5.33-rasmlar. Ushbu bog‘-parklar oila bilan birgalikda dam olishga mo‘ljallangan.




5.33-rasmlar. Ushbu bog‘-parklar oila bilan birgalikda dam olishga mo‘ljallangan.




5.34-rasm. Oilaviy zonada ota-onalar bolalari bilan birgalikda attraksionlarda uchishi mumkin.


Loyihaning dizaynerlik bosqichi. Attraksion bogʻ-parklarda albatta, dizaynerlik bosqichi boʻladi. Bu bosqichda bogʻ-parkning dizayn bezaklari yordamida tematik gʻoyani yoritib berish mumkin. Ushbu bosqichda bogʻ-parkning qanday ranglarda bezatilishi, bezatish elementlarining kattaliklari va shakllari, qurilish ashyolari va dekoratsiya tanlanadi. Bundan tashqari tanlangan attraksion turiga qarab bogʻ-parkning gʻoyasi tanlanadi (5.35-rasm).




Uchar orol.




Tushayotgan parashut




Uchar koptok




Rokn-roll




Parrak




Harakatlanuvchi kater




Roko-plan




Aylanuvchi likopcha




Samoviy shapaloq




Samoviy fortuna




Tosh otgich




Yakuniy aylanish




Ip yigirgich




O'lim halqasi




Yangi yulduz



Suzayotgan bino



Suzuvchi qayiq




Aylanma disk

5.35-rasm. Attraksionlar turlari.

Etnografik parklarni loyihalash

Etnografik parklar. Bunday parklar ko'rgazma va madaniy oqartuv parklarining alohida turi bo'lib hisoblanadi. Bunday parklarni tashkil etishdan maqsad – muayyan bir joyga xalq me'morchiligi obektlari va inshootlarini saqlash, xalq hayoti va turmushining tarixiy sahifalarini tomoshabinga yaqindan ko'rsatish, qadimiy eksponatlarni asl holida qoldirishdir. Bu parklarga butun mamlakat hududidan eng mashhur xalq me'morchiligi, amaliy san'at asarlari va an'anaviy maishiy hayot namunalari olib kelinib ochiq tabiatda namoyish etiladi. Etnografik parklar erkin rejali asosan landshaft kompozitsiyalari asosida tashkil etiladi. Mohiyati jihatidan bular ochiq muzeylardir, ularning eksponatlari landshaft fonida namoyish etiladi va u bilan uzviy aloqada bo'ladi (5.36, 5.37 rasmlar).

Yevropa davlatlari bugungi kunda etnografik bog'lar, etnomuzeylar barpo etish borasida dunyo maydonida ildamlab bormoqda. Ular soni va turiga qarab xilma-xil. Biz tadqiqot ishimizda Yevropa davlatlarida faoliyat yuritib kelayotgan eng mashhur etnomuzeylarning o'ziga xos jihatlarini tahlil qilib chiqdik.



5.36-rasm. Shvetsiyada ochiq landshaft muhitida qurilgan etnografik park.



5.37-rasm. Tallindagi etnografik parkning rejaviy sxemasi.

Dunyodagi ochiq osmon ostidagi ilk etnografik muzey bu 1891-yil o'z faoliyatini boshlagan "Skansen" muzeyidir (5.38, 5.39-rasmlar). Bu etnomuzeyda Shvetsiya miniatyurasiga taaluqli barcha

ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin. Hududi 160 ga yaqin maydonda Shvetsiya madaniyati tarixida bo'lib o'tgan turli davrlarga mansub turar-joylar va qadimiy qo'rg'onchalar tuzilgan (5.40-rasm). Undan tashqari bu yerda hayvonot bog'i bo'lib, unda, Shvetsiyaning tub florasini tashkillashtirilgan. Shvetsiyaga mehmon bo'lib keladigan turistlar va tub xalqi uchun ushbu maskan asosiy tarixiy ma'rifat markazi hisoblanadi. "Skansen" da doim shvedlarning eng katta milliy bayramlari o'tkaziladi. Aprel oyidagi eng yirik bayram "Valpurgiyev kechasi", yoz o'rtasida esa "Muqaddas Lyussi", rojdestvo va yangi yil kechalari o'tkaziladi. Bu bayramlar shved xalqining milliy qadriyatlarini o'z ichiga olgan bo'lib, etnomuzeyning hajmiy-fazoviy kompozitsiyasi yechimi bu kabi bayramlarni tashkillashtirishga mo'ljallangan.

Demak, dunyodagi ilk etnomuzey "Skansen" muzeyi asosan milliy an'anaviy turar-joylardan tashkil topgan bo'lib, unda shvedlarning qadimiy eski shaharlarining tarixiy muhiti tiklangan va etnomuzey bugungi kunda ham zamonaviy aholi punktlari qatorida yashab kelayapti.

Serbiyaning Mokre Goredagi "Drenengrad" etnoqishlog'i – etnografik kompleks bo'lib, rejissor Emir Kusturetsning "Hayot mo'jizadek" filmi uchun qurilgan. Bu majmua o'zining har bir elementi bilan an'anaviy Serbiya qo'rg'onchasini eslatadi. Drenengrad bir qancha Serbiya an'anaviy turar-joylaridan tashkil topgan bo'lib, bu turar-joylar milliy an'analar asosida qurilgan, ya'ni ularda birorta ham mix ishlatilmagan. Taxta kleshidan bosilgan va milliy naqshlar bilan bezatilgan. Bu majmua arxitekturasi milliy an'analarga asoslangan eski tarixiy muhitni jonlantirishga asoslangan yechimga tayanadi. G'oya mualliflari ushbu majmuada Serbiya milliy arxitekturasi to'liq namoyon qilishga erishishgan.


"Katta Lend" etnomuzeyi Fransiyaning Akvitoniya shahrida joylashgan. Ushbu majmuada XIX asr qishloq hayoti muhiti tashkillashtirilgan. Sabradan Markez deb nomlangan hududga xohlovchilarni taxtali kabinalardan qurilgan qadimiy poezdda eltib qo'yishadi. Poezd harakatlanishida pollaridan g'ichirlagan ovoz chiqaradi. Mehmonlar tashrif buyurishganda mezbongacha ularni milliy kiyim – qo'y junidan to'qilgan to'n va XIX asrda chorvani

oʻrnatishda kiyilgan maxsus yogʻoch oyoqlarda kutib olishadi. Markez qishlogʻi dalalarida XIX asrning tabiiy landshaft muhitini yaratishga harakat qilishgan. Nonvoyxonalarda issiq non bilan mehmon qilishadi, kechga tomon fermada tematik bazmlar va bayramlar uyushtiriladi.

Keyingi etnografik bogʻ-muzey bu – Germaniya davlatida barpo etilgan Gessenpark etnografik muzeyidir. Muzeyda hududida yuzga yaqin tarixiy binolar joylashgan: qishloq uylari, cherkovlar, ustaxonalar, doʻkonlar shamol tegirmonlari boʻlib, bularning barchasi Germaniyaning Gessen shahrida 400 yil davomida barpo etilgan. Ularning ayrimlari hamon oʻz faoliyatlarini bajarib kelyapti. Bozorlarda keramik mahsulotlar bilan savdo-sotiq olib boriladi. Shu joyning oʻzida dekabr oxirida yorqin rangli rojdestvo yarmarkasi tashkillashtiriladi. Dam olish kunlari turli ustaxonalarda mohir ustalar oʻrtasida kulolchilik, supurgi yasash va qadimiy hunarmandchilik boʻyicha musoboqalar oʻtkaziladi.



5.38-rasm. “Skansen” etnografik bogʻ.



5.39-rasm. Ilk etnografik bog‘.

Ushbu majmua sun‘iy ravishda qurilmagan, balki tarixan shakllangan bo‘lib, hukumat bu qishloqni milliy qadriyat sifatida shu holicha saqlab qolishga harakat qilgan. Natijada, roman xalqlarini milliy hayot tarzini o‘zida mujassam etgan noyob etnografik muzey-bog‘ hosil bo‘lgan.

Ochiq osmon ostidagi Datsk Muzeyi Kopengagen shahri orti yaqinida joylashgan bo‘lib, ochiq osmon ostidagi qadimiy va yirik muzeylardan sanaladi. Hududda dehqonlarning XVII–XX asrga oid yog‘ochli turar-joylari joylashgan.



5.40-rasm. *“Skansen”dagi turar-joylar ustaxonali va fermalari butun Daniya madaniyatini jamlab, ifodalab turadi.*

Ularning interyerlari, idish-tovoqlari, asboblar va maishiy buyumlari qadimiy muhitga mos tarzda tanlangan.

Buxarestdagi Qishloq muzeyi dastlabki etnografik muzeylardan biri. 1936-yil ma’lum va mashhur etnograf tashviqotchi Dmitri Gusti tomonidan tashkil topgan bo‘lib, uning nomi bilan atalgan muzeydir. Ochiq osmon ostidagi muzey Yevropaning asotsatsiyasiga kiradi. Hozirda bu muzey Xerestrau orol qirg‘oqlarida yuz ming metr kvadrat atrofida XV asrdan hozirgi kun yog‘ochli arxitektura namunalari Ruminiyaning barcha chekka hududlaridan kuzatish mumkin. Bu yerda 76 kompleks, barcha mamlakat tumanlaridagi 322 qurilishlari shu qatorda 3 ta shamol va 3 ta yog‘ochli tegirmon bor.

Demak, Yevropa davlatlarida faoliyat yuritib kelayotgan etnografik muzeylarni ikki turga bo‘lish mumkin:

1. Sun’iy yaratilgan etnografik bog‘-muzeylar.

2. Tabiiy shakllangan etnografik bog'-muzeylar.

Sun'iy yaratilgan etnografik bog'-muzeylarni yaratishda avvalambor, u yoki bu xalqning tarixida bo'lib o'tgan muhim hodisa yoki davr tanlanadi va shu g'oyaga mos maydon tanlanib, tarixiy muhit yaratiladi.

Tabiiy shakllangan etnografik bog'-muzeylar esa tarixan shakllangan katta bo'lmagan shaharcha yoki qishloqlar bo'lib, ular asrlar osha millatning milliy qadriyatiga aylanib, etnografik bog'-muzey ko'rinishida davlat muhofazasiga olingan.

Markaziy Osiyo davlatlari etnografik bog'lari

Markaziy Osiyo hududidaga kiruvchi davlatlardan O'zbekiston Respublikasiga chegaradosh davlatlarni o'rganib chiqdik. Bular: Qozog'iston, Tojikiston, Qirg'iziston. Tadqiqot natijalariga ko'ra bugungi kunda Qozog'istonning Astana shahrida va Qirg'izistonning Bishkek shaharlarida etnografik bog'lar faoliyat yuritib kelmoqda.

Qozog'istonda bugungi kunda birinchi va yagona etnografik bog' Qozog'iston respublikasi prezidenti N.Nazarbayev tashabbusi bilan barpo etilgan "Atamaken" ("Otamakon") etnografik bog'i 2001-yildan buyon faoliyat yuritib keladi. Bu etnografik bog'ning asosiy me'moriy g'oyasi Astana shahrini kichik masshtabga solib ko'rsatishdan iborat. Etnografik bog' Qozog'iston Respublikasi maketi desak adashmagan bo'lamiz. U 1,7 ga maydonni egallagan. O'z ichiga 14 ta viloyat va ikkita shahar Astana va Alma atalarni oladi. Ushbu kompleks dunyodagi boshqa etnografik bog'lardan shu bilan ajralib turadiki, unda nafaqat qozoq xalqining ijtimoiy-madaniy qadriyatlari, sanoat binolari balki Qozog'istonning tabiiy landshafti, fauna va florasini bilan ham tanishish mumkin.


Bunday ko'rinishda etnografik bog'lar yaratish tajribasi Avstriya, Belgiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Shvetsariya davlatlarida keng tarqalgan bo'lib, ular dunyoda 17 tagacha etadi.

Markaziy Osiyo hududidagi keyingi etnografik bog' Qirg'izistonning Bishkek shahridan 3 km uzoqlikda joylashgan "Supara" etnografik majmuasi. Ushbu etnografik majmua qirg'iz xalqining barcha milliy urf-odatlarini, tarixan shakllangan yashash tarzi, qadriyatlarini ko'rsatishga mo'ljallangan (5.41-rasm).

Majmuani qurilish jarayonida faqatgina mahalliy xom ashyolardan (tabiiy tosh, loy, somon, chiy, mo‘yna, charm, qamish) foydalanilgan. Majmua tabiiy landshaftga uyg‘unlashib ketgan katta dala hovli ko‘rinishida bo‘lib, unda qamishdan ko‘tarilgan 7 ta o‘tov-uylar, tabiiy toshdan qurilgan tosh-uylar mavjud (5.42-rasm). Ularning har biri yil fasllariga qarab o‘z o‘rniga ega. Bundan tashqari hunarmandchilik ustaxona-do‘konlari, milliy oshxona mavjud. “Supara” etnografik bog‘ida faqatgina chet el mehmonlariga xizmat ko‘rsatibgina qolmay, mahalliy aholiga to‘y marosimlarida xizmat ko‘rsatish faoliyati yo‘lga qo‘yilgan. Bu yerda tarixiy shakllangan muhitda milliy to‘y marosimlarini o‘tkazish rasm bo‘lgan. Buning uchun “Supara” da barcha sharoitlar mavjud.



5.41-rasm. “Supara” etnografik bog‘i. Qirg‘iziston.



5.42-rasm. Tabiiy xom ashyodan qurilgan uyular tabiat bilan uyg'unlashib ketgan.

Rossiya hududidagi etnografik bog'lari

Rossiya hududidagi etnografik bog'larning me'moriy-rejaviy yechimi Yevropa davlatlaridagi etnografik bog'larning yechimi bilan bir xil. Ularning ichida o'ziga xos bo'lgan "Etnomir" deb nomlangan etnografik bog'ning me'moriy-rejaviy yechimini tahlil qilib chiqamiz.

Malavek va Kalujk chegaralarida "Etnomir" deb nomlangan ulkan tabiiy "tirik" muzey maqjud. Bu yerda mahalliy aholining turar-joylarida yashab, xo'jalik mollarini parvarishida qatnashib, ananaviy milliy kiyimlarni kiyib ko'rish, kasb hunar saboqlaridan xabardor bo'lish, xalq o'yinlarida ishtirok etish, umuman olganda bu yerda butunlay yashab qolish ham mumkin (5.43, 5.44, 5.45-rasmlar).

Bu olamda har bir mamlakat va har bir xalqlar o'zining hududi hovlilari bo'lib ularda turli maqsadlarga mo'ljallangan inshootlar ko'rsatilgan (5.46, 5.47-rasmlar). Har bir qadimiy hovlilarda an'anaviy hayot jilolarini ko'rsatuvchi uy mehmonxonalar, hunarmandlar markazi va ustaxonalar, muzeylar, qahvaxonalar, restoranlar, sovg'a do'konlari va boshqa inshootlar bor.

Hozirgi vaqtda etnografik bog‘ muzeyida quyidagi inshootlar qurilgan:

- Rus hovlilari;
- Rus pechi muzeyi;
- Ukraina va Belarusiya xutorlari;
- “O‘rta Osiyo mamlakatlari“ etno-hovlilari;
- ”Janubiy Osiyo mamlakatlari” etno-hovlilari;
- Jahon ko‘chasi turli mamlakatlari zonalariga xos va mos savdo ko‘rgazma kompleksi.

Kelajakda bularning qatoriga Avstriya, Eron, Yaponiya, Chili, Ekvador, kabi etno-hovlilar (etnohududlar) qo‘shiladi. Bu komplekslar qurilishi natijasida “jahon chorrahasi” deb nomlangan ko‘rinishda 2020-yilga borib tugaydi. Bugungi davrga kelib ushbu maskanda 52 ta etno-hududlar qurilgan bo‘lib, unda butun jahon davlatlari ham bo‘ladi.

Hozirda etnomir madaniy maorifga oid markaz bo‘lib bu maskanda har kuni o‘nlab ekskursiyalar o‘tkazilib o‘ziga xos turli mamlakatlar madaniyati va ananviy kasb-hunar sirlarini o‘rgatib kelishadi.

Bu loyiha RF Madaniyat vazirligi, RF Maorif vazirligi, RF Sport, Turizm, Yoshlar siyosati vazirligi, Maskvadagi YUNESKO byurosi, RF YUNESKO ishlari komissiyasi, Kallujsk tuman hokimligi va gubernatori, Rossiya va jahon jamoat tashkilotlari tomonidan qo‘llab quvvatlandi va tashqi ishlar vazirligiga taqdim etilgan.

Etnomir xalqaro elchixonat tashkilotlari bilan hamkorlikda mintaqaviy, federal va xalqaro darajadagi madaniy maishiy va ko‘ngilochar tadbirlar o‘tkazilib turadi. Bu yerda festevallar, biznes maktablar, yozgi lagerlar, jahonning xalqaro ananaviy bayramlari tez-tez o‘tkazilib turiladi.

Turli taklif va xizmatlarni birlashtirib, har bir etnomirga tashrif buyuruvchi, mehmonning o‘zi istagan mashg‘ulotni topishi tayin. Buning boisi shundaki, bu noyob mahsulotning samarasi faqat madaniy-turizm kompleksiga shunchaki tashrif buyurishni taklif qilmasdan, balki qaysidir muddat davomida xohlagan jahon “tub

mamlakat aholi”si sifatida o‘zini his qilish, uning go‘zalligini turli tumanligini anglash, madaniyati va an’analari bilan tanishish, ko‘p narsalardan saboq olish, eng muhimi – olamga va o‘ziga boshqa xalqlar ko‘zi bilan qarash, tashqi dunyoning go‘zalligini aynan turli tumanlikda bo‘lgani bilan lekin xalqlar o‘rtasida umumiy rishtalar bog‘liqligini sezish shu bilan birga er kurrasida insonlarning mavjudligi – bu ulkan garmonik oila va bizlar tinchlikda va hamjihatlikda yashashimiz shart ekanligini tushunib etishimiz kerak.



5.43-rasm. Rossiyadagi eng katta etnografik bog‘.



5.44-rasm. “Etnomir” etnografik bog‘ida rus kulbalari.



5.45-rasm. “Etnomir”da yakut xalqiga ajratilgan hudud.



5.46-rasm. “Etnomir”da rus pechi muzeyi.



5.47-rasm. Yevropada joylashgan etnografik bog‘-muzey.

Sharq mamkatlarining etnografik bog‘lari

Sharq mamlakatlari o‘zining uzoq o‘tmishga borib taqaladigan boy tarixiga ega. Ushbu mamlakatlarda asrlar davomida turli xil xalq, elatlar yashab o‘tgan va mamlakat tarixida o‘chmas iz qoldirgan. Shu asosda Yaponiya, Xitoy va Koreya davlatlarida tarixiy etno-muzeylar, etno-bog‘lar, etno-markazlar faoliyati keng tarqalgan. Chunki bu kabi faoliyatni olib borish uchun xalqda tarixiy zamin mavjud.

Li i Myao qishlog‘idagi “Sanya” etnografik markazi. Ushbu etnografik markaz Xitoy xalqining kundalik hayoti va bayramlarini o‘zida majassam etgan milliy bog‘. Unda Xitoy xalqining to‘y marosimlari, milliy raqslarini namoyish etish uchun barcha shart-sharoitlar mavjud.

Etnografik bog‘da xitoy xalq an‘anaviy uylari qurilgan. Ular asosan mahalliy xom ashyodan an‘anaviy uslublarda qurilgan. Bu esa bu kabi etno-uyllarning asosiy shartidir.

Bundan tashqari “Sanya” etnografik markazidagi me’moriy obyektlardan yana biri, bu ibodatxonalar. Ibodatxonalar har bir turar-joy majmuasi uchun alohida qurilgan bo‘lib, uning inter’eri eski muhitda qilingan. Unda tashkillashtirilgan interyer evaziga ibodatxonada qadimiy marosimlarni o‘tkazish mumkin.

“Sanya” etnografik markazdagi yana bir e’tiborga loyiq me’moriy obyekt bu – an’anaviy qo‘shiq va raqslarga mo‘ljallangan sahna va turli sohalarga mo‘ljallangan etno-muzeylar. Ushbu markaz turistik markaz bo‘lib, sun’iy tashkillashtirishgan etnografik markazdir.

Yana bir etnografik bog‘ning ko‘rinishi bu – Seuldagi imperator saroy-bog‘i. Saroy o‘rta asr oxirlarida shakllangan bo‘lib, bugungi kungacha saqlanib kelgan. Saroyda imperator hayotligidagi muhit qayta tiklangan. Undagi arxitektura, landshaft, oshxona va barcha yo‘nalishlari o‘rta asrlarni eslatadi. Bundan tashqari saroy-bog‘ tarkibida milliy-folklor muzey tashkillashtirilgan.

Ushbu markazni tashkillashtirish masshtablari, o‘lchamlari, haqqoniyligidan kelib chiqib, haqiqiy Koreya etnografik markazi desak, adashmaymiz.

Yaponiya etno olamini o‘rganib shunga amin bo‘ldikki, Yaponiyada etno-bog‘lar milliy bog‘lar ko‘rinishida aks ettiriladi. Bunday bog‘larning bir nechtasini misol tariqasida aytib o‘tishimiz mumkin. Saraksan milliy bog‘i, Odesan milliy bog‘i, Kerensen milliy bog‘i, Voraksan milliy bog‘i, Kayasan milliy bog‘i, Xallyo milliy bog‘i, Chirisan milliy bog‘i va boshqalar.

Ularning har biri Yaponiyaga qarashli kichik orolchalarda joylashgan. Tabiati va muhiti tabiiy shakllangan. Ayrimlariga esa odam oyog‘i etmagan. Ularning tabiati, landshafti o‘z xolicha yapon xalqining milliy qadriyati, moddiy-madaniy boyligi hisoblanadi. Ushbu orllarning tub aholisi eski qadriyatlar asosida yashaydi.

Xulosa qilib aytganda, Yaponiya milliy bog‘lari etnografik bog‘larning tabiiy shakllangan etno-bog‘lar turiga kiradi.

Zooparklar

Zoologik parklar. O‘zining funksional-tarhiy tuzilishi bo‘yicha eng murakkab parkdir. Ularning hududida ekologiya qismi umumiy

maydonning 45–70 %, park qismi–15–35 %, xizmat ko‘rsatish qismi–10% gacha, bolalar qismi–10 % gacha, xo‘jalik qismi 0,5–3 % gacha, ilmiy markaz–3 % gacha, veterinariya qismi 5 % gacha tashkil etish tavsiya etiladi. Hayvonlar ekspozitsiyasini tashkil etishda ularning ritmi va biologik hayot kechirish sharoitlarining buzilishiga yo‘l qo‘ymaslik kerak, bu hayvonlarning antagonistik turlarini bir-biridan ajratish orqali amalga oshiriladi. Keluvchilarning xavfsizligi, tomoshaning qulayligi hamda hayvonlarning yashash joylaridagi tabiiy landshaft fonini qayta tiklash to‘liq ta‘minlangan bo‘lishi lozim. Bunday joylar “voler” deb ataladi (5.46–5.47 rasmlar). Bu yerda hamma narsa hayvonlar namoyishini tashkil etish tamoyiliga va ularni tomosha qilishning eng to‘g‘ri variantiga bog‘liq.



5.48-rasm. Minsk shahridagi zooparkning hayvonlar voleri.




5.49-rasm. Sverdlovskdagi zoopark rejasi:

1–bosh maydon; 2–kirish pavilioni; 3–dekorativ basseyn. Volarlar: 4–belok; 5–sayroqi qushlar; 6–karquloqlar; 7–akvarium-terrarium. Pavilionlar: 8–qushlar; 9–suv qushlari; 10–lastonoglar; 11–suv qushlari uchun basseyn; 12–strauslar pavilioni. Valerlar: 13,14–yirtqich qushlar; 15–sayroqi qushlar; 16–quyonlar; 17–kunyalar pavilioni; 18–antiloplar; 19–fillar; 20–qahvaxona; 21–ayiqalar; 22–ekzotlar; 23–maymunlar; 24–cho‘chqalar; 25–yirik tirnoqlilar; 26–echkilar; 27–yunnatlar uyi; 28–aylanma yo‘l; 29–uycha; 30–ko‘rish maydonchalari; 32–kiyosklar; 33–ombor; 34–garaj; 35–issiqxona; 36–qozonxona; 37–vet.markaz; 38–xo‘jalik hovlisi.

Hozirgi paytda hayvonlar joylashgan qismlarni “zoogeografik” yoki “ekologik” tartibda joylashtirish eng ko‘p qo‘llanilyapti. “Zoogeografik” tamoyilda hayvonlar dunyo qit‘alariga (Yevropa, Afrika va h.k.) mos keladigan qismlarda namoyish etiladi. “Ekologik” tamoyil bo‘yicha namoyish, “tayga qismi”, “cho‘l qismi”, “tog‘ qismi” va boshqa qismlarga ajratiladi (5.48, 5.49, 5.50, 5.51-rasmlar).



5.50-rasm. Zooparklar: Berlin shahri zooparkining kirish darvozasi; hayvonot volterlari.



5.51-rasm. *Sankt-Peterburg zoologik parki loyihasi.*

Gidropark va akvoparklar

Gidroparklar, akvoparklar-sport sogʻlomlashtirish va suv atrofida dam olish vazifasini bajaradi. Ularning tashqi koʻrinishi ochiq suv havzalari va angarlardagi parusli va motorli qayiqlar uchun gavanlar, yopiq va ochiq basseynlar, oʻziga xos suv

atraksionlari, gidrokarusellar, suv trampoline (tabaganlar), suzib yuradigan sahna maydonchalari, restoranlar, ko'priklar va arqon yo'llari kabi inshootlar bilan belgilanadi (5.52 – 5.53-rasmlar). O'zbekistonning issiq quruq iqlimi sharoitida bu parklar eng maqsadga muvofiqdir.

Bizga ma'lumki, har bir bino o'zining funksiyasidan kelib chiqqan holda o'ziga xos tashqi ko'rinishiga ega. Har holda bu akvaparklarga taalluqli. Akvaparklarni loyihalashda namunaviy loyiha degan tushuncha yo'q. Har bir akvapark o'zi joylashgan hududning an'analari, o'ziga xos urf-odatlarini o'zida ifoda etgan takrorlanmas me'moriy ko'rinishga ega bo'ladi. Akvaparkning takrorlanmas ko'rinishi uning xizmat ko'rsatish doirasida tanilishiga va o'ziga xos o'rin egallashiga yordam beradi.

Akvaparklarni loyihalashni rasmiy tipologiyasi bugungi kunda ishlab chiqilmagan. Lekin bugun biz shuni shohidi bo'lib turibmizki, dunyo arxitektorlari ko'p qirrali piramida, gumbaz yoki yarim aylana shakldagi yopiq va yarim yopiq shakldagi akvaparklarni loyihalab kelishyapti. Akvaparkni tashqi ko'rinishi haqida fikr yuritayotganda uning me'moriy yechimi akvaparkning to'g'ridan-to'g'ri ko'ngilochar markaz vazifasidan tashqari funksional qirralarini ham oshirilishiga qaratilishi kerak. Bugungi kunda yaxshi akvaparklar quyidagi xizmatlarni ko'rsatishadi: 1) suvli tog'chalar; 2) hammomlarning turli xil ko'rinishlari; 3) SPA salonlar; 4) fitnes; 5) wellness va boshqa sog'lomlashtirish xizmatlari. Umumiy qilib aytganda, bugungi kundagi zamonaviy akvapark bu – ko'p funksiyali, sog'lomlashtirish va ko'ngilochar, zamonaviy servis xizmat tizimi joylashgan majmua. Uning me'moriy yechimi akvaparkning ichki funksiyasini o'zida aks ettirishi lozim.

Akvaparklar qurilishi murakkab texnik jarayon hisoblanadi. Shuning uchun, ushbu loyihada muhandislik qismiga katta e'tibor beriladi. Muhandislarga akvapark loyihasida murakkab konstruktiv yechimli katta qadamlarga mo'ljallangan orayopmalar, qobiqli hajmiy-fazoviy yechimga ega fazoni yopish, konsolli qavatlar, sun'iy g'or va qoyalarni loyihalash kabi aniq muhandislik hisoblariga asoslangan ishchi loyihalar amalga oshiriladi (5.54, 5.55, 5.56, 5.57, 5.58, 5.59-rasmlar).



5.52-rasm. Dunyodagi eng katta “Okeanskiy kupol” yopiq akvaparki.




5.53-rasm. Yevropadagi ochiq akvapark.



5.54-rasm. Moskvadagi eng katta yopiq akvapark.




5.55-rasm. Rossiyadagi eng katta ochiq akvapark.



5.56-rasm. AQSH. Michigan shtatidagi Belvil ko'lining gidroparki:

1–o'yin maydoni; 2–ovqatlanish zonasi; 3–jismoniy tarbiya maydonchalari; 4–avtomobillar to'xtash joyi; 5–plyaj; 6–maysazor; 7–tennis maydonchalari; 8–qayiq prokati; 9–qishqi sport turlarining zonasi.



5.57-rasm. Germaniyadagi Shtutgard gidroparki:

1–sport kompleksi; 2–katok; 3–ochiq basseyn; 4–dam olish joyi; 5–suv hayvonlari zonasi; 6–sun'iy ko'l; 7–qayiq saqlanadigan joy; 8–o'yingohlar; 9–avtomobillar to'xtash joyi; 10–daryo irmog'i; 11–piyodalar ko'prigi; 12–erosti o'tish joyi; 13–jamoat transportlarini to'xtash joyi; 14–turar joy massivi.



5.58-rasm. Ochiq akvaparklar murakkab attraksionlari bilan ajralib turadi.



5.59-rasm. Har bir murakkab attraksion aniq konstruktiv hisobga asoslangan.

Nazorat savollari:

- 1. Shahar markazining bog'-park tizimiga nimalar kiradi?*
- 2. Bog'-park tizimini shakllantirishdagi tabiiy vositalarhaqida tushuncha bering.*
- 3. Madaniyat va istirohat bog'lari deganda nimani tushunasiz?*
- 4. Bog'lar qanday funksional-hududiy zonalardan iborat?*
- 5. Qanday maxsus parklarni bilasiz?*
- 6. Sport parklari haqida aytib bering.*
- 7. Bolalar parklari haqida aytib bering.*
- 8. Bog'-parklar tizimini shakllantirishdagi xorijiy tajribalarga nimalar kiradi?*

VI BOB. BOG‘LAR, PARKLAR MAYDONLAR, SAYLGOHLAR, QIRG‘OQ BO‘YLARI VA PIYODALAR YO‘LAKLARINI SHAHARSOZLIK TALABLARI BO‘YICHA SHAKLLANTIRISH

Bog‘lar, parklar, maydonlar, saylgohlar, qirg‘oq bo‘ylari va piyodalar yo‘laklarini shaharsozlik talablari bo‘yicha shakllantirishdagi asosiy omillar va landshaft vositalari.

Dunyo shaharlarining markazlari transport harakatlari va shovqinidan holilashtirilib, piyodalar uchun alohida ko‘chalar va piyodalar zonalariga aylantirilmoqda. Qadimiy Samarqand shahridagi Toshkent va Mustaqillik piyoda ko‘chalari, Toshkent shahridagi Amir Temur xiyobonini Mustaqillik maydoni bilan birlashtiruvchi piyoda ko‘chalar, Buxoroning eski shahar tizimidagi o‘nlab piyoda ko‘chalari, Shahrisabzdagi Amir Temur piyoda ko‘chasi va boshqalar bunga misoldir (6.1, 6.2, 6.3, 6.4, 6.5- rasmlar).



6.1-rasm. *Shahrisabzdagi Amir Temur maydonining piyodalar muhiti va landshafti.*



6.2-rasm. Toshkentdagi Xasti Imom ansamblining piyodalar muhiti landshafti.



6.3-rasm. Samarqanddagi “Bibixonim” xonaqosi atrofidagi landshaft.



6.4-rasm. Toshkent. Mustaqillik maydoni. Ochiq maydonlar landshaftini tashkil etishga misol.

Bu ko‘chalarning uzunligi 500–700 metr va hatto 1 km.dan kam emas. Chet el shaharlaridagi yuzlab piyoda ko‘chalarining uzunligi esa bundan ham kattadir.

Bu ko‘chalar qanday landshaft va qulayliklarga ega bo‘lishi va loyihalaniishi kerak?

Avvalambor bunday ko‘chalar toza-ozoda, inson masshtabiga mos, fuqaroviy va osoyishta me‘moriy muhitga ega bo‘lishi kerak. Gap ko‘cha mebellari, tashqi obodonlashtirish elementlari, bunday ko‘chalarga xos bo‘lgan savdo, ovqatlanish va dam olish shaxobchalari, daraxtlar, maysalar, gulzorlar va ko‘cha yoritgichlarining kompozitsiyalari, masshtabi va shakllari haqida ketmoqda. Misol tariqasida zamonaviy turar joy kvartali piyoda ko‘chalari landshaftining namunaviy yechimlaridan birini keltirish mumkin (6.5-rasm).



6.5-rasm. Turar-joy kvartali piyoda ko‘chalarini landshaftining namunaviy yechimlaridan biri.

Piyodalar ko‘chalariga xos xususiyatlardan biri–bu ularda qo‘llaniladigan maxsus dekorativ to‘shamalar, ya‘ni yo‘l qoplamalaridir. Ularning materiallari, rangi va shakli turlicha bo‘lishi mumkin. Biroq ular mustahkam va chiroyli bo‘lishi kerak. Materiali pishiq g‘isht, rangli va fakturali beton, tabiiy tosh, bruschatka, toshtaxtalardan, shakli esa to‘g‘riburchakli panjara, doira, tasma, to‘lqinsimon, “asalari uyasi”, romb va h.k. ko‘rinishlarda, ranglari e‘tiborni o‘ziga tortmasligi, asosan neytral tonlarda bo‘lishi, to‘shamalarning tiporazmerlarini ikki xildan oshirmaslik tavsiya etiladi. Piyodalar ko‘chalarining qiyaligi 6–7% dan oshmasligi, zinapoyalar esa panduslar bilan ta‘minlanishi kerak. Bunday ko‘chalarining landshaft elementlariga tik ko‘kalamzorlashtirish qurilmalari (trelyaj va pergolalar, voishlar), joyi o‘zgartiriluvchi gulli tuvaklar, osib qo‘yilgan savatchalar va qutilar, rabatkalar, daraxtlar yoki butalardan shakllangan qator soliterlar, dekorativ suv havzalari va favvoralar kiradi.

Uzunroq piyoda ko'chalariga ekilgan daraxtlar qatori bir xillikni yo'qotish uchun har 50–70 metrdan so'ng ochiq maysazor, gullovchi buta va gulzorlar bilan almashinib turgani ma'qul.

Piyoda ko'chalar tomonga fasadi bilan chiqib qolgan ayrim nobob imoratlar yoki devorlar yuzasi chirmashib o'suvchi manzarali gulli lianlar bilan yopilishi mumkin. Piyodalar ko'chalariga yorqin rangli savdo reklamalari va ko'cha belgilarini o'rnatish, asfalt to'shamalar yotqizish tavsiya etilmaydi.

Ko'cha eni kengroq, uzunligi kattaroq bo'lgan hollarda uning o'rtasiga uzluksiz soya beruvchi manzarali doim yashil dov-daraxtlar ekish, ularning ostiga esa dam olish o'rindiqlarini o'rnatish mumkin.



6.6-rasm. Piyodalar ko'chalarini ko'kalamzorlashtirish va obodonlashtirish variantlari.

Shahar magistral ko'chalari va trotuarlar

Shahar ko'chalari va xiyobonlari joylashgan joyi va mavqeiga qarab turlicha bo'ladi. Uning eni shunga mos ravishda belgilanib, ko'chalarni ko'kalamzorlashtirish va landschaft arxitekturasi masalalari ham ularning turi va eniga, orientatsiyasiga va joylashgan o'rniga qarab aniqlanadi. Ko'chalar va xiyobonlardagi ko'kalamzorlarning asosiy vazifasi—bu aholini changlar, shamollar, shovqin va quyosh nuri taftidan himoya qilishdir. Ayni paytda, ko'chalarning me'moriy-badiiy va landschaft yechimlarining saviyasi ham katta ahamiyatga egadir (6.7-rasm).



6.7-rasm. *Shahar muhitidagi magistral ko‘cha va piyodalar ko‘chalarining me‘moriy-landshaft yechimiga loyihaviy misol.*

Ko‘chalarni, asosan, tashqi ko‘rinishidan to‘g‘ri shakllarga ega bo‘lgan baland o‘svuchi dovdaraxtlar (lipa, topol, klen, yasen va boshqalar) bilan ko‘kalamzorlashtirish tavsiya etiladi. Ko‘kalamzorlashtirishning eng oddiy turi–bu ko‘chaning harakatlanish chetki qismi va trotuar o‘rtasidagi masofa, ya‘ni yashil tasmaga qatorlab oraliq‘i teng daraxtlar o‘tqazib chiqishdir. Ushbu yashil tasmaga bir qator daraxtlar ekilganda uning eni 3 m, ikki qator daraxt ekilsa–5 m olinadi. Ko‘p qatnovli keng magistral ko‘chalarda esa ushbu yashil tasmaning eni 7,5 metrgacha bo‘lishi mumkin. Bunday hollarda ko‘cha tomondan bir qator daraxt ekib, qolgan hududni esa xili, o‘lchamlari, bo‘yi va shakllari turlicha bo‘lgan daraxt va butalardan tuzilgan guruhlar yordamida ko‘kalamzorlashtirish mumkin. Ayrim hollarda maysazor ustiga trotuar chetiga yaqin qilib gullar ham ekilishi mumkin.

Chorrahalarda, ko‘chaning burilgan joylari va piyodalar o‘tadigan joylar oldiga ekilgan daraxt va butalar transport haydovchilari va

piyodalarga yoʻlni va harakatlanayotgan transportlarni koʻrishga halaqit bermasligi, svetaforlarni va yoʻl koʻrsatgichlarini toʻsib qoʻymasligi kerak.

Tashqi yoritish fonarlarining ustunlarini esa koʻcha oʻrtasidagi harakatlanish yoʻllarini ajratuvchi yashil polosada joylashtirish maqsadga muvofiqdir. Yoʻllarni ajratuvchi yashil polosaga, odatda, yoʻllar eni uncha katta boʻlmagan hollarda, butalar va maysazor, yoʻllarning eni katta (har tomonga 3–4 yoʻnalish) boʻlgan hollarda daraxtlar va maysazorlar, transportlarning burilish joylarida esa pastqam butalar, maysazor va gulzorlar ekiladi.

Trotuarlarning eni katta boʻlsa, oʻrta qismiga modulli maxsus yashil kompozitsiyalar, rabatkalar yoki alohida gullar guruhi, pastqam miks-borderlarni shakllantirish mumkin. Ularni tuproqqa ekishning iloji boʻlmasa, sopol yoki beton vazalarga, maxsus qutichalarga ekib joylashtirish mumkin. Keng trotuarlarning boʻylama oʻqi boʻylab tanasi tigʻiz, soya-salqin beruvchi dov-daraxtlarni maxsus lunkalar bilan ekish tajribasi ham issiq iqlimli mamlakatlarda keng tarqalgan. Bunda lunka qoplamasini oʻrnatishni unutmashlik kerak.

Koʻchaning mashinalar harakatiga yaqin ariq boʻylab butalarni yashil toʻsiq shaklida ekish tavsiya etilmaydi, chunki ular qishda qor koʻchkilaridan, yozda esa koʻcha axlatlaridan ozor chekadi.



6.8-rasm. Daryo sohili boʻylab qurilgan turar-joylar guruhining loyihaviy meʼmoriy-landshaft yechimi.

Ko'chalarga ekiladigan butalarning bo'yi 1,5 metrdan katta bo'lmagan, yaproqlari tig'iz va yaxshi gullovchi turlari tanlanadi, chunki baland butalar trotuar haydovchilarining ko'rish imkoniyatlarini cheklab qo'yadi. Bunday butalarga spireya, tunberg barbarisi, xenomeleslarning turli xillari kiradi. Butalar qatorlab ekilganda yashil qatorning eni bir qator uchun 0,8 m, ikki qator ekilsa—1,5 metrdan kam bo'lmasligi kerak. Butalardan tuzilgan guruhlarini baland daraxtlar orasiga yoki qatorlar uzilgan joylarga, ya'ni ko'cha tomonga qaragan jamoat binolari oldiga ekish mumkin. Bunday hollarda butalar foniga ko'p yillik o'simliklarni ekish tavsiya etiladi. Bu ko'chalarni manzaraviy bezashga va bir xillikka barham berishga yordam beradi.

Agar ko'cha eni katta bo'lsa, ko'cha yo'lining cheti va trotuar o'rtasiga bulvar shakllantirsa bo'ladi. Uning minimal eni 10 m. O'rtadan piyodalar uchun yo'lak qilib, o'tirish uchun skameykalarga joy va yo'lakni daraxtlar qatori bilan ko'kalamzorlashtirish mumkin. Agar bulvar eni katta bo'lsa, daraxtlar va butalardan tuzilgan guruh kompozitsiyalarini shakllantirsa bo'ladi. Ularning foniga esa ko'pyillik gullovchi o'simliklar ekish zarurki, ularning xillari turlicha bo'lsin (akvilegiya, gaylardiya, liliya, floks metelchatiy). Piyoda yo'lakchasi bo'ylab miks-border kompozitsiyasini qo'llash lozim.

Ko'chalar orientatsiyasiga, ya'ni ufq tomonlariga nisbatan joylashishiga qarab kengliklar yo'nalishidagi (o'qi g'arbdan sharqqa), meridional yo'nalishdagi (o'qi shimoldan janubga) va diagonal yo'nalishlardagi (o'qi shimoliy-g'arbdan janubiy-sharqqa yoki shimoliy-sharqdan janubiy-g'arbga qarab) joylashgan ko'chalarga bo'linadi.

Kengliklar yo'nalishidagi ko'chalarning janub tomonidagi uylar fasadiga quyosh nuri tushmaydi va soyaga muxtoj emas. Bu yerda faqat trotuar soyalantiriladi. Janub tomonda joylashgan uylar ko'p qavatli bo'lganda ulardan tushayotgan soya trotuarni yopadi va trotuar soyalantirishga muxtoj bo'lmaydi. Biroq ko'chani shimoliy tarafidagi uylarni va trotuarni soyalantirish zarur bo'ladi.

Meridional yoʻnalishdagi koʻchalarda vaziyat boshqacha. Bunday koʻchalarning har ikkala tomonidagi trotuarlar va binolar ham quyosh nuridan himoyalashga muxtojlik sezadi.

Diogonal yoʻnalishli koʻchalarning janubiy-gʻarbga yoki janubiy-sharqqa qaragan binolari va trotuarlarini ham oftobdan himoyalash zarur. Ayniqsa, oʻqi bilan shimoliy-sharqdan janubiy-gʻarbga qaragan koʻchalarda ahvol yanada ogʻir boʻlib, tushdan keyin bu koʻchalar trotuarlarini ikki yoqlama qatorlab daraxtlar ekish yoʻli bilangina jazirama quyosh nuridan saqlab qolish mumkin. Koʻchalarni koʻkalamzorlashtirishda bu holatlarni eʼtiborga olmaslik jiddiy xatoliklarga olib kelishi mumkin (6.8-rasm).

Xiyobonlar, bulvarlar va skverlar


Yoʻlaklar va ularning toʻshamalari. Yoʻlaklar bogʻ kompozitsiyasining eng muhim elementi boʻlib, bogʻga oʻziga xos oroyish va funksiyaviy qulaylik baxshida etadi. Yoʻlaklarning qanday toʻshamalardan bajarilganligi tashrif buyuruvchilarda katta taassurot qoldiradi. Hozirda bogʻ yoʻlaklarining toʻshamalari turiga qarab tabiiy tosh, dekorativ yoki beton plitkali, gʻishtli, beton va dekorativ betonli, yogʻochli va oʻt-maysalilarga boʻlinadi. Ularning har birini oʻz oʻrnida qoʻllay bilish lozim.

Masalan, tabiiy tosh mustahkamligi va estetik jihatdan eng yaxshi material hisoblanadi. Ularning turlariga plitnyak, granit, bazalt, porfir, peschaniklar kiradi. Yoʻlaklar asosan 1,2–1,5 metrdan kam boʻlmasligi, yaʼni ikki kishining yonma-yon bemaol aylanib yurishiga moʻljallangan boʻlishi kerak. Ikkinchi darajali yoki unchalik muhim boʻlmagan soʻqmoqchalar eni esa 0,5–1 metr olinishi mumkin. Yuzida yomgʻir va qor suvlarining toʻplanib qolmasligi uchun yoʻlaklar ikki tarafga qarab ozgina qiya boʻlishi zarur. Releflar bor joylarda yoʻlak oʻrniga zina yoki panduslardan foydalaniladi.

Yoʻlak toʻshamalariga bob materiallardan biri betonli plitkalaridir. Hozirda ularning rangi, shakli, oʻlchami juda katta assortimentlarda chiqarilmoqda. Yoʻlaklarning shakli va koʻrinishi bogʻning umumiy uslubiga mos kelishi lozim. Masalan, plitkalar bilan yotqizilgan toʻgʻri geometrik yoʻlak romantik peyzajli

atirgullar klumbasiga hech ham mos kelmaydi. Yo‘lak va maydonlarga yotqizilgan to‘shamalar foydalanishga qulay, mustahkam va betashvish bo‘lishi lozim. To‘shama-yo‘lak dizaynning eng muhim elementlaridan biridir. Shu bois ularning rangi, uslubi, ashyosi bog‘-imoratlari me‘morchiligiga ham hamohang bo‘lishi kerak.

Bulvarlar–shahar muhitini chiziqli ko‘kalamlashtirishning asosiy uslubi hisoblanib, piyodalar harakatlanishi, qisqa vaqt dam olishi uchun mo‘ljallangan va obodonlashgan yashil maskandir. Ular shaharlarni ko‘kalamlashtirishda katta ahamiyatga ega bo‘lib, shahar ko‘rinishini sezilarli darajada o‘zgartiradi va havoni ifloslanishdan saqlaydi .Bulvarlarni o‘zbek tilida katta xiyobon deb atashimiz mumkin. Samarqand shahridagi “Universitet xiyoboni” bulvarining umumiy ko‘rinishlari va tarhi shular jumlasidan (6.9-rasm).






6.9-rasm. Samarqand shahridagi “Universitet xiyoboni” bulvarining loyihaviy taklifi.

Rejaviy yechimiga qarab bulvarlar: *to‘g‘ri chiziqli va halqasimon turlarga bo‘linadi* (6. 10-rasm). Bulvarlar ilk bor XIX asrda Yevropa tarixiy shaharlarida zamonaviy transportlar harakatiga halaqit beruvchi eski mudofaa devorlarini olib tashlash va ularning joyiga aylanma keng ko‘chalar qurish oqibatida vujudga kelgan. Venadagi Ring bulvari, Parijdagi katta bulvarlar, Moskvadagi “Bulvarnoe kolso” va boshqalar ana shunday paydo bo‘lgan.

Halqasimon tarhli bulvar.





6.10-rasm. *To‘g‘ri chiziqli muntazam tarhli bulvar.*

Bulvarlarning tarkibiy elementlariga xiyobonlar, yo‘laklar, maydonchalar, daraxtlar, butalar, gullar va gazonlar kiradi. Ikkinchi jahon urushidan so‘ng bulvarlar ancha rivojlandi va shahar ko‘chalarini piyoda yo‘llar va transport qatnovi zonalariga bo‘lib berdi.



6.11-rasm. *Xiyobonlar, yo‘laklar, maydonchalar, daraxtlar, butalar, gullar va maysazorlardan shakllangan zamonaviy bulvarlarning landshafti.*





6.12-rasm. Shahar ko‘chalarini piyoda yo‘llar va transport qatnovi zonalariga bo‘lgan bulvarlar ko‘rinishi.

Bulvarlar uzun va kalta bo‘lib, ba‘zan bir necha kilometrlab cho‘zilishi va o‘z ichiga bog‘lar, skverlar, piyoda yo‘llarni olishi mumkin. Shuning uchun ham bulvarlar kompozitsiyasini tuzish anchayin mushkul ish hisoblanadi. Odatda, ularni shahar imoratlaridan 30–40 m narida, intensiv harakatli ko‘chalardan esa 40–50 m narida qilib joylashtiriladi.





6.13-rasm. *Shahar hududidagi xiyobonlar va bulvarlarning landshaft yechimi.*

Bulvarlar yoʻlning ikki tomonida yoki yoʻlning oʻrtasida boʻlishi mumkin. Bulvarlarning minimal eni 18 m qilib belgilangan, bunday oʻlchamda uzunusiga 4–7 metrli xiyobon, qisqa dam olish uchun oʻtirgʻichlar, yoritgichlar, voish, muzqaymoq koʻshki va axlat qutisi joylashtiriladi. Qolgan qismlar koʻkalamzorlar bilan toʻldiriladi. Oʻzbekiston sharoitining joyga oʻrtacha, issiq va quruq iqlimli, serquyoshliligini hisobga olib 1 ga 350–400 ta daraxt, 3–4 mingta buta ekish tavsiya qilinadi. Katta bulvarlarga velo yoʻlaklar, piyodalar yoʻlaklari va xiyobonlar joylashtirish tavsiya etiladi.

Skver (uni oʻzbekcha sayrgoh desa boʻladi) shaharlarda hududi uncha katta boʻlmagan (0,5 dan 2 gektargacha), qisqa vaqt dam oladigan koʻkalamzor muhit boʻlib, piyodalar harakatiga ham xizmat qiladi. Skverlar odatda, shahar maydonlari va magistral koʻchalariga tutashib, ularning badiiy-manzaraviy bezagi hisoblanadi.



6.14-rasm. Shahar hududidagi uncha katta bo‘lmagan, qisqa vaqt dam olinadigan va piyodalar harakatiga ham xizmat qiladigan ko‘kalamzor sayrgoh.

Toshkentdagi Amir Temur, Hamid Olimjon va Xalqlar do‘stligi, Samarqanddagi Registon va Ruhobod, Yo‘lbarlar xiyoboni, Shaxrisabzdagi Amir Temur, Farg‘onadagi Al-Farg‘oniy va boshqalar ana shunday skverlardir.

Shaharlarning parki bo‘lmagan, eri tanqis bo‘lgan (tarixiy markaz, tig‘is qurilgan) qismlarida skverlarning roli kattadir. Bunday holatlarda aholining ochiq landshaftda dam olishga bo‘lgan ehtiyojini skverlar orqali qondirish mumkin.

Skverlarning rejaviy yechimi shaharning qaeida, qanday joylashganiga, atrof-muhit qurilmalariga, mahalliy landshaft va iqlim sharoitlariga bog‘liq. Skver muhiti ochiq bo‘lishi, parter ko‘rinishdagi gulzor va maysazorlardan tuzilishi yoki yopiq muhitli daraxtzor va butazorlardan tashkil topishi mumkin.

Skverlar shahar markaziy maydonlarida, turar-joy binolari oralig‘idagi yashil maydonlarda, nufuzli jamoat binolarining old yoki yon tomonlarida, shuningdek, me‘moriy obidalarga tutash ochiq muhitlarda shakllantirilishi mumkin. Agar skver binolar guruhi oralig‘ida, tarixiy obidalar yonida yoki trotuar va piyodalar ko‘chalariga tutash holda joylashsa, uning rejaviy yechimi diagonal

yoki erkin peyzajli uslubda bo‘lish mumkin. Agar skver markaziy maydonda, yoki nufuzli me‘moriy inshoot oldida joylashsa, odatda, u muntazam rejaviy yechimga ega bo‘ladi.



6.15-rasm. Rejaviy yechimi diagonal yoki erkin peyzajli uslubda bo‘lgan Toshkent shahridagi skverlar ko‘rinishi.



6.16-rasm. *Samarkand shaxridagi Registon va Chorsu atrof-muhitidagi muntazam rejaviy yechimga ega bo'lgan skver.*

Skverning asosiy elementi bu—uning haykali, favvorali, basseynli, gulzorli yoki maysazor fonidagi daraxt va butalarning fusunkor guruhidan tuzilgan markaziy maydonchasidir. Agar skver markaziga biror salobatli monument yoki favvora ishlansa, skver kompozitsiyasi uning badiiy jihatlari va obrazini ochib berishiga xizmat qilish kerak.




6.16-rasm. Turar-joylar va jamoat binosi oldidagi skverning landshaft yechimi.






6.17-rasm. Skver chizmasining namunasi.





6.18-rasm. Skverlarga amaliyotdan misollar.



6.19-rasm. Turar-joylar hududidagi skver chizmasi.

Skver hududini landshaft tashkillashtirishda har bir obodonlashtirish detali, relef elementi, maydon shakli, uning atrof-muhiti va o'simliklarga yoki to'shamalarga alohida e'tibor berilishi kerak.



6.20-rasm. *Piedalar ko‘chasi va yashil maydon ko‘rinishidagi skverlar.*

Skverlar hududining balansini undagi piyodalar harakatining jadalligiga bog‘liq tarzda quyidagicha belgilash tavsiya etiladi (1-jadval):

1-jadval

Skver hududining balansi

T/r	Obodonlashtirish va ko‘kalamlashtirish elementlari	Skver hududining o‘lchamlari, % da	
		Piyodalarning jadal harakatiga mo‘ljallangan skverlar	Binolar oralig‘idagi yashil maydon ko‘rinishidagi skverlar
1	Daraxt va butalar ekilgan maysazorlar	67–71	84–89
2	Maydonchalar va yo‘laklar	23–31	10–15
3	Gulzorlar	1–2	1

Respublikamizning issiq va quruq iqlimi sharoitida skverlar hududi iloji boricha soya beruvchi manzaraviy daraxtlar bilan ko'kalamlashtirish talab etiladi. Shu maqsadda 1 gektar hududga 340–400 tagacha daraxtlar ekish tavsiya etiladi. Skvyerdagi asosiy xiyobon enini 4–6 m, yo'laklar enini 1,5–4 m olish mumkin (6.11, 6.12, 6.13, 6.14, 6.15, 6.16, 6.17, 6.18, 6.19, 6.20- rasmlar).

Qirg'oqlar va sohillar

Qirg'oq bo'ylari va sohillar—bu suv havzalari bo'yidagi imoratlarni va akvatoriyaning bog'laydigan hajmiy-tarixiy komplekslaridir. Ular qum, daryo yoki dengiz bo'yida joylashgan shaharlarda anchagina hududni egallaydi. Qirg'oq bo'yi kompleksi jamoat binolari, turar joy binolari, tabiiy yoki sun'iy yaratiladigan landshaft, hamda er osti va er usti muhandislik kommunikatsiyalari, inshootlari va uskunalari o'z ichiga oladi.

Qirg'oq bo'yining me'moriy-landshaft komponentlariga quyidagilar kiradi:

– qirg'oq buyi akvatoriya elementlari bilan suv bo'yidagi gidrotexnik inshootlar (to'lqin qaytargichlar, orollar);

– tartibga solish chizig'idan qurilmalarning qizil chizig'igacha yoki qirg'oq qiyaligigacha bo'lgan qirg'oq bo'yi terrasalari;

– qirg'oq buyi terrasalarida va suvdagi inshootlar;

– qirg'oq qiyaligi, agar u bo'lsa, yoki shahar qurilmalarining yondoshgan fronti;

– injenerlik obodonchiligi va uskunalari.

Qirg'oq bo'ylarini yaratish murakkab jarayon bo'lib, ko'p mutaxassislarning qatnashuvini talab qiladi.

Shaharlarning arxitekturaviy qiyofasi va hajm-fazoviy kompozitsiyasiga qirg'oq va sohillarning ta'siri ham katta. Insonlarning shaharlar hududidan oqib o'tgan ariq, anhor, kanal, daryo sohillari va qirg'oqlarni ko'rmasligi va ularga ahamiyat bermasligi amri mahol.

Shahar qurilishida sohil va qirg'oqlarning ikki xil turdagi arxitekturaviy yechimi ma'lum. Bular tekis qurilgan va fazoviy yechimga ega bo'lgan sohil va qirg'oqlardir. Bir tekisda qurilgan sohillar shahar markazidan, binolar yonlaridan o'tgan bo'lib, keng

daryolar va kanallar uchun quriladi. Fazoviy yechimga ega bo'lgan sohil va qirg'oqlar katta bo'lmagan anhor va ariqlar uchun ishlatiladi. Ular atrofdagi turli hajmiy-fazoviy yechimdagi bino va inshootlarni, ochiq hovlilarning yaratilishi, sohil va qirg'oqlar me'moriy-kompozitsion echimlarini boyitishga olib keladi.

Suv havzasi va obyektining qaerda joylashganligi, tuzilishi va uzunligiga qarab sohil va qirg'oqlarga yonma-yon ko'chalarni joylashtirish mumkin. Biroq sohil va qirg'oqlarning yonlariga keng va serqatnov avtotransport yo'llarini joylashtirish bilan turar joy hududlarini toza havo va suv havzalari tomonidan esadigan shabadalardan to'sib qo'yib xatoga yo'l qo'yiladi.

Dam olib hordiq chiqarishga mo'ljallangan va unchalik keng bo'lmagan ko'chalar yoki yo'llarni sohil va qirg'oqlar bo'yicha joylashtirish maqsadga muvofiqdir. Shahar markazidagi sohil va qirg'oqlarni rivojlantirib, bulvar, skver va boshqa dam olish maskanlarini yaratish mumkin.

Uzun o'lchamli sohil va qirg'oqlarni bo'lish yo'li bilan, bir xildagi me'moriy-kompozitsion yechimlardan holi bo'lish mumkin. Me'moriy-kompozitsion yechimni chiroyli tugatish uchun sohil va qirg'oqlarning oxirida katta hajmga ega bo'lgan binolarni joylashtirish lozim.

Ularning bir-biriga kompozitsion nisbati kontrast yoki nyuans tartibda bo'lishi mumkin. Sohil va qirg'oqlar bo'ylariga majburiy ravishda avtomagistrallar joylashgan taqdirda, turar joy binolari bilan avtomagistrallar oraliq'ida ko'kalamlashtirilgan himoya chizig'i bo'lishi zarur. Sanitar-gigiyenik talablarni e'tiborga olish kerak, chunki sohil va qirg'oqlar birinchi navbatda shahar aholisining dam olishi va hordiq chiqarishiga xizmat qilishi lozim.

Sohillar va qirg'oqlarning me'moriy-kompozitsion va hajmiy-fazoviy echimlarini boyitish maqsadida zinapoyalar, panduslar, parapetlar, panjaralar, rotondalar va balyustradalardan foydalanish mumkin.

Suv havzasing asosiy landshaft arxitekturasi obyektining elementi tarzida qarab, uni asosiy va ikkilamchi zinapoya va panduslar, pog'onali sharsharalar bilan boyitib go'zal arxitekturaviy-kompozitsiya yaratish mumkin. Sohillar va qirg'oqlarning me'moriy

kompozitsiyasini tizimli tarzida qarab, ularni zinapoyalar, panduslar oʻrnatilgan hududlarga boʻlgan holda obodonlashtirish mumkin. Asosiy va ular yonidagi ikkilamchi zinapoyalar (panduslar bilan birgalikda), dam olish maydonchalari bilan boʻlingan holda, sohillar va qirgʻoqlarda tashkillashtirilgan hajmiy-fazoviy kompozitsion echimga ega boʻlgan maydonchalarga yoʻnaltirilgan boʻlishi lozim. Asosiy zinapoyalar suv havzasiga perpendikulyar joylashgan boʻlishi va qirgʻoqlardan chiqib qirgʻoq oldi maydonlariga tutashishi mumkin. Asosiy zinapoyalarning kengligi chegaralanmaydi, baʼzi katta shaharlarda 45 metrgacha yetadi. Asosiy kirish joyi suv havzasi tomonidan shahar bilan tutashishi mumkin. Zinapoyalar, haykalchalar, guldonlar va boshqa, moʻjaz arxitekturaviy shakllar bilan bezatilib, shahar meʼmoriy kompozitsiyasi bilan uygʻunlashib ketishi lozim.


Sohillar va qirgʻoqlar nishab va tik holatda qurilishi mumkin, qurilish materiallari uchun—gʻisht, beton, temir-beton, tabiiy toshlar, sunʼiy toshlar va boshqalar ishlatiladi.

Shahar va qishloqlar oʻrtasidan kesib oʻtgan suv havzalarining (ariqlar, anhorlar, kanallar va daryolar) kompozitsion yechimlari, shu shahar va qishloq meʼmoriy-landshaft koʻrinishini boyitibgina qolmay, odamlarning boʻsh vaqtlarini tabiiy landshaftga boy manzarali hududlarda madaniy hordiq chiqarishiga ham xizmat qiladi.

Plyajlar—Plyajlar aholining toza suv havzalarida choʻmilib va quyosh nurida toblanib dam olishi va hordiq chiqarishiga moʻljallangan joylardir. Ular turli xil: koʻllar, prudlar, orol, daryo yoki dengiz sohillarida, shuningdek, parklardagi katta tabiiy suv havzalari sohillarida ham tashkil etilishi mumkin. Plyajlar hududi shahar aholisining 10–12% iga moʻljallanib, har bir plyajga keluvchiga 5,5–6 m² joy hisobidan loyihalalanadi.

Plyajlar hududi uch qismdan: akvatoriya, yaʼni suv xavzasi—choʻmiladigan joy; solyariya, yaʼni quyoshga toblanadigan joy; aerariya, yaʼni soyada, ochiq maysazor ustida dam oladigan joylardan tashkil topadi. **Akvatoriyaning** eng chuqur joyi kattalar uchun 1,6 m, bolalar uchun 1,0 m boʻlishi zarur. Suvga tushadigan joy nishabligi 1/10, yaʼni suvga tushganda birdan favqulotda

chuqurlik sezilmaslik kerak, suvga sekin-asta, kichik nishablik bo'yicha tushish zarur. Akvatoriya zonasini suv tomondan chegaralovchi rangli belgilar quyilishi va ular suv yuzasida qalqib turishi lozim.



6.21-rasm. Plyaj hududining qirqimi (sxemasi).

Solyariya qumloq joy bo'lib, unda quyoshga toblanadigan sharoit yaratilishi zarur. **Aerariya** hududi odatda, tekis bo'lib ancha enli, unda sobonlar, turli sport maydonchalari, stol tennisi, ovqatlanadigan va sharbat ichimliklari joyi, yechinib-kiyinadigan joylarning bo'lishi, basseyn, dushxona, qahvaxona, ko'shklar, pavilonlar, hojatxona (tualet), prokat, qutqarish stansiyasi, suvga sakrash va toyinish qurilmalari bilan jihozlanishi zarur. Shahar plyajlarining hududi atrof-muhitdan qo'riqlanadigan, suvi toza holda saqlanishi lozim.

Plyajlar hududi quyoshgo'y, ya'ni quyoshga qaragan sohillarda shakllantiriladi. Plyajda kattalar va bolalarga alohida joy ajratilishi, bolalar cho'miladigan joy alohida ajratib belgilab qo'yilishi kerak (6.21, 6.22, 6.23, 6.24, 6.25, 6.26-rasmlar).

Plyajlar bir necha tiplarga: *umumshahar, kurort va davolanish plyajlariga bo'linadi*. Davolanish plyajlari sanatoriya va pansionatlar qoshida joylashadi. Plyajlar hududida cho'milish, dam olish, xizmat ko'rsatish, sport va fizkultura zonolari, shuningdek, yashil zona va maysazorlar hamda bolalar va o'smirlar sektori bo'lishi kerak. Ushbu funksional zonalarining maydoni plyajlarning turlariga bog'liq holda quyidagicha me'yorlanadi (2-jadval).



6.22-rasm. Sog'lomlashtirish muassalarining qoshidagi plyajlar.



6.23-rasm. Kurort va davolanish plyajlarining ko‘rinishi va loyihasi.



6.24-rasm. Umumshahar plyajining ko‘rinishi va loyihasi.

2-jadval


Plyajlarning tiplari, funksional zonalari va hududlarini me‘yorlash

Funksional zonalar	Plyajlarning tiplari va hududlari					
	Umumshahar plyajlari (1 kishiga 5,5–6 m ²)		Kurort plyajlari (1 kishiga 5m ²)		Davolanish plyajlari (1 davolanuvchiga 8–12 m ²)	
	Zona-ning mavjudligi	Maydoni, % da	Zona-ning mavjudligi	Maydoni, % da	Zona-ning mavjudligi	Maydoni, % da
Cho‘milish zonasi	+	–	+	–	+	–
Dam olish zonasi	+	40	+	40	solyariya aerosolyariya	20–40
Xizmat ko‘rsatish zonasi	+	20–25	+	20	+	10

Fizkultura va sport zonasi	+	15	+	10	davolash fizkulturasini zonasi	10
Yashil zona (xiyobonlar, yo'laklar va maydonchalar)	+	20-30	+	25	+	20
Bolalar va o'smirlar sektori	+	5	+	5	-	-

Eslatma: Plyajga tashrif buyuruvchilar va unda davolanuvchilar sonini hisoblashda umumshahar plyajlari uchun shahar aholisining 10–12 %; kurort plyajlari uchun kurortda dam oluvchilarning 80 %; davolanish plyajlarida esa sanatoriya va pansionatlarda dam oluvchilarning umumiy sonidan 40 % olinadi.





6.25-rasm. Kurortlardagi plyaj komplekslari bo'yicha loyihaviy takliflar.



6.26-rasm. Shahar plyajining umumiy ko'rinishi bo'yicha loyihaviy taklif.

Turar-joy hududlari landshafti

Samarqand viloyatining deyarli barcha tumanlari markazlarida sobiq ittifoq davrida qurilgan kam va o'rta qavatli ko'p seksiyali turar-joylar mavjud. Ular, odatda, aholi punkti ichidagi ko'chalar chetlari va atroflari bo'ylab qurilgan turar-joylar me'moriy maskanlari va guruhlarini tashkil qiladi. Yo'l chetidagi trotuarlar bo'ylab yursangiz ana shunday 2 va 4 qavatli ko'p seksiyali uylarni ko'rasiz. Bu uylar atroflaridagi joylarni ushbu uylarning birinchi qavatida yashovchilar o'zlariga an'anaviy tomorqa, mevali yoki xo'jalik bog'i qilishib olganlar. Har bir xonadon tashqi yonidagi bunday "bog"lar bir-biriga qo'shib, tartibsiz ko'kalamzor manzarani vujudga keltirgan. Ayrim holatlarda daraxtlar o'sib yuqori qavatlarining derezalarini ham to'sib qo'yilganligi va xonalarga keraklicha yorug' tushmasligi sababli kunduz kunlarida ham elektr energiyasidan foydalanishga to'g'ri keladi. Xonadon xonalarini shamollatishning ham imkoni cheklangan. Bunday qo'lbola "bog"larda estetik tamoyillar va manzaraviy landshaft kompozitsiyalari mavjud emas.

Shunday ekan bunday turar-joylar qoshida o'zaro yashil to'siqlar-izgorodlar bilan to'silgan xususiy ogorodlar—"bog"chalar emas, balki soyali manzaraviy daraxtlar va keng yashil o'tloqlar, bilan shakllantirilgan va ijtimoiy dam olishga mo'ljallangan yashil maskanlar tashkil qilish maqsadga muvofiqdir. Bunday turar-joylar qoshida, ayniqsa, uylarning seksiyalarga kirish qismlarida mevali daraxtlar ekish o'zini oqlamagan tajribadir. Mevali daraxtlarni uylarning orqasiga, aynisa, ularning janubga yoki ufqning quyoshli tomonlariga qaragan qismlariga eksa bo'ladi. Agar bunday uylarda balkonlar mavjud bo'lsa va ular ufqning sharq va g'arb tomonlariga qaragan bo'lsa, ularni chirmashib o'suvchi gullovchi lianlar yoki uzum soluvchi an'anaviy toklar bilan ko'kalamzorlashtirilsa maqsadga muvofiq bo'ladi deb o'ylaymiz.

Sobiq ittifoq davrida yoki yangi qurilgan qishloq mahallalarining landshafti va ko'kalamzorlarini loyihalashda barcha ko'chalar, piyodalar, trotuarlar, xiyobonlar va ichki proezdarga qatorlar ekilgan soya beruvchi manzaraviy daraxtlar ekilsa maqsadga muvofiqdir. Turar-joylar guruhlari va massivlaridagi

jamoat hovlilariga ekilgan ko‘kalamzorlar ulardan ijtimoiy tarzda foydalanish imkonini berishi zarur. Shuningdek, ulardagi ko‘kalamzorlarda aholining barcha yoshdagi qatlamlari uchun xususiy va jamoat bo‘lib dam olishlariga (kattalarning daraxt soyasida tinch dam olishlari, bolalarning ochiq maydonlardagi o‘yinlari, o‘smirlarning sport bilan shug‘ullanishlari uchun) sharoit yaratilishi zarur.

Turar-joylar guruhidagi bog‘lar va ulardagi maydonlarning ko‘kalamzorlari quyoshga nisbatan ochiq va yopiq yashil maydonlarni tashkil etishi zarur. Bino tarzlari bo‘ylab cho‘zilgan trotuarlar va xiyobonlar agar ular janub, g‘arb va ufqning quyoshli tomonlariga qaragan bo‘lsa, quyosh nurini to‘shish maqsadida baland soyapar daraxtlar ekilishi zarur. Gulzorlar va maysazorlar, yeryopar o‘simliklar ekilgan maydonlar bunday hovlilarning ichki va markaziy qismlariga joylashtirilsa maqsadga muvofiqdir. Dam olish maydonlarining atroflariga chetlari go‘zal gullovchi butalar bilan aylantirilgan manzaraviy daraxtlardan tuzilgan tabiiy guruhlar kompozitsiyalari shakllantirilishi zarur.

Turar-joylar har qanday aholi punktining ommaviy turar joylarining birlamchi bo‘lagi hisoblanib, bu yerda aholining maishiy, madaniy-ma‘rifiy va rekreatsion ehtiyojlari qondiriladi.

Turar-joylar hududini me‘moriy-landshaft va rekreatsion tashkil etishda sifatga erishish uchun turar joylarni landschaft-rekreatsion tashkil etish bosqichlarining quyidagi ketma-ketligiga rioya qilinishi zarur:

- loyihadan oldingi bosqichda, qurilishni tashkil etish va aholining ijtimoiy-demografik tuzilmasini (bolalar, yoshlar, kattalar va qariyalar) tarkibi va nisbatini tahlil qilish, aholining zichligi, dam olish turlari va shakllariga bo‘lgan ehtiyojlarini, tabiiy sharoitlar xususiyatini, loyihalanaotgan hududning sanitariya-gigiyenik holati va ekologiyasini hisobga olish;

- loyihalash bosqichida dam olish turlari va mezonlari bo‘yicha hududni landschaft-rekreatsion zonalash va landschaft elementlari-dam olish maydonchalari, suv qurilmalari, o‘simliklar va tashqi muhitni obodonlashtirish shakllarini me‘moriy-rejali tashkil etish masalalari echilishi zarur. Ko‘kalamlashtirishda o‘simliklarni

tanlash va ekish ochiq maydonlar muhitini shakllantirishning funksional, sanitariya-gigiyenik va estetik omillarini va landshaft tashkil etishning anʼanaviy uslublaridan foydalanish imkoniyatlarini hisobga olgan holda bajarilishi kerak.

Masalan, shaxsiy hovlilardagi bogʻ hududida dam olish uchun, xonadon ayvonchalari yoki birlamchi uy oldi maydonlarida dam olish zonasi tashkil etiladi (odatda, bu yerda oila aʼzolari va kichik yoshdagi bolalar kattalarning nazorati ostida dam oladi).





6.27-rasm. Xususiy uylar xovlilaridagi bog‘ hududida tashkil qilingan dam olish zonasining landshaft kompozitsiyasi.

Maktab yoshidagi bolalar va qariyalarning dam olishi uy oldidagi yarim jamoatchilik maydonlarida, o‘smirlar va kattalarning dam olishi esa tura-joy jamoatchilik maydonida tashkil etiladi. Yoshlar o‘zlarining dam olish va bo‘sh vaqtini turar-joylardan tashqarida (shaharcha, bog‘ yoki parklarida) o‘tkazishni afzal ko‘radi.



6.28-rasm. Turar-joy hududlarining landshaft yechimlari.



6.29-rasm. Turar-joy hududlaridagi bolalar o'yingohlarining landshaft yechimlari.






6.30-rasm. *Maktab yoshidagi bolalarning o‘yinlari va dam olishlari uchun ular yashaydigan turar-joy uylari yaqinida obodonlashtirilgan maydonlar.*

Landschaft-rekreasion muhitlarning barcha sanab o‘tilgan elementlari turar-joy qurilishi-landshaft muhiti yaxlitligini shakllantirishda, dam olish, muloqot qilish va bo‘sh vaqtni o‘tkazish, muhitning psixologik va fiziologik qulayligini ta‘minlashda o‘zaro bog‘lovchi ahamiyatga ega. Landschaftni shakllantirishda o‘simliklarni to‘g‘ri tanlash va yashil kompozitsiyalar tashkil etish yetakchi ahamiyatga ega bo‘ladi (6.26, 6.27, 6.28, 6.29, 6.30-rasmlar).


Turar-joylar muhitidagi aholi guruhlarining dam olishini ta‘minlashda kichik yoshdagi (0–4 yosh) va maktabgacha yoshdagi bolalar (5–7 yosh), kichik yoshdagi (8–10 yosh) va o‘rta yoshdagi o‘quvchilar (11–14 yosh), o‘qiyotgan (15–22 yosh) va ishlayotgan yoshlar (23–35 yosh), mehnat qilish qobiliyatiga ega aholi (36–60 yosh) va nafaqaxo‘rlarning (60 va undan ortiq yosh) dam olish hududlarini funksional zonalarga ajratishni ko‘zda tutish zarur, chunki aholining har bir guruhi o‘z vaqt byudjetiga ega bo‘lib, turar joy tuzulmasi hududida dam olishning tarkibi va mazmuniga o‘ziga xos talablar qo‘yadi.

Ko‘p kavatlig turar joy guruhlari hududida aholi dam olishi uchun mo‘ljallangan maydonchalardan tashqari har xil maqsadlarga yo‘naltirilgan xo‘jalik maydonchalarini ham loyihalash zarur (kirlarni quritish, gilam qoqish, axlat yig‘ish qurilmalari). Xususi turar-joylar guruhlari hududlarining landshaftini tashkil etish buyincha ham rasmlarda misollar keltirilgan. Turar-joylar maydonchalarining me‘yorlari 1-jadvalda berilgan.





6.31-rasm. Ko'p qavatli ko'p seksiyali turar-joy guruhlari hududlarini me'moriy-landshaft tashkillashtirishga amaliyotdan misollar.



6.32-rasm. Xususiy turar-joylar guruhlari hududlarining me'moriy-landshaft tashkillashtirilishi.

**Turar-joylar hududidagi har xil maqsadlarga mo'ljallangan
maydonchalar me'yorlari**


T/r	Maydonchalarning turlari	Me'yorlar
1.	Bolalar maydonchalari	0,55–0,7.
2.	Kichik yoshdagi o'quvchilar uchun	0,2
3.	Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun	0,35–0,5
4.	Sport maydonchalari	1,00
5.	Dam olish maydonlari	0,2
6.	Xo'jalik maydonlari	1,00
7.	Yo'laklar	10%
8.	Ko'kalamlashtirilgan maydonlar	30%

Turar-joy qurilishida madaniy-maishiy va savdo muassasalari, maktablar, bog'chalar va bekatlarga eng qisqa va qulay borish yo'li-transport tarmog'i ham o'rin egallashi lozim.


Turar joy tashqi muhiti qulayligining asosiy sharti hududga soya tushishi va havo almashish tartibini hisobga olgan holda landshaft elementlarini fazoviy tashkil etish va quyosh harakatini e'tiborga olish hisoblanadi. Mahalliy iqlim sharoitida ochiq va yopiq soya muhitlarining to'g'ri nisbati hisobga olinishi lozim (daraxtlar, soyabonlar, pergolalar va boshqalar). Yashash hududlariga o'simliklarni shunday joylashtirish kerakki, ko'kalmaz hududlarda havo almashish imkoniyati bo'lsin (6.31, 6.32- rasmlar).




6.33-rasm. *Tirmashib o'suvchi o'simliklarning hovli voishlari bilan uyg'unlashuvi.*



6.34-rasm. Hovlida turli xil soyali va chirmashuvchi o‘simliklar, mo‘jaz me‘moriy shakllar, voishlar va hovuzchalarni qo‘llab quyuq soyali muhit va muhitni shamollatish uchun imkon yaratishga misollar.



6.35-rasm. Xususiy turar-joy muhitida soya tushish va havo almashish tartibini tashkil qilish.



6.36-rasm. Ko'p qavatli turar-joylar muhitida soya tushish va havo almashish tartibini tashkil qilishda quyosh harakatini e'tiborga olgan holda landshaft elementlaridan foydalanish.






6.37-rasm. *Ko‘chalarda soya tushish va havo almashish tartibini tashkil qilishda quyosh harakatini e‘tiborga olgan holda landshaft elementlaridan foydalanish uslubi.*

Turar-joy hududlarini tuman markazi yo‘llaridan ko‘kalamlashtirish va katta ko‘chalardan quyuq daraxtlar va butalar ekib ajratish lozim. Ahlat yig‘iladigan xo‘jalik maydonchalari atrof-muhitdan ajratilishi va butun kun davomida soyada joylashishi lozim. Hozirgi vaqtda ayrim xorijiy mamlakatlarda ahlat yig‘iladigan xo‘jalik maydonchalari degan tushuncha yo‘q bo‘lib bormoqda, chunki yer ostida joylashtirilgan maxsus ahlat konteynerlari ustida zamonaviy ahlat qutilari o‘rnatilib, maishiy

turmush ahlatlari ularga plyonkali xaltalarga solib tashlanadi (6.31, 6.32, 6.33, 6.34, 6.35, 6.36, 6.37-rasmlar).





6.38-rasm. Ahlat yig‘iladigan xo‘jalik maydonchalarining atrof-muhitdan ajratilishi va soyada joylashishda landshaft yechimlaridan foydalanish uslubi.



6.39, 6.40-rasmlar. Yer osti ahlat konteynerlari va ular ustiga o‘rnatilgan ahlat qabul qiluvchi qutichalar.

Kirlarni quritish xo‘jalik maydonlariga shunday joy tanlash kerakki, ularga butun kun davomida quyosh tushishi va yaxshi havo aylanishi lozim. Bolalarning sport o‘yinlari va dam olish maydonchalari atrof hududdan yashil to‘siqlar bilan ajratiladi.



6.41-rasm. Yuqoridagi chizmada o'rtasida, kirlarni quritish xo'jalik maydoni, pastki rasmlarda esa kirlarni quritish ayvunchalarining namunalari keltirilgan.

Ba'zi hollarda maktabgacha va kichik yoshdagi, ya'ni 9–13 yoshgacha maktab o'quvchilari uchun umumiy kompleks maydonchalar qo'llash mumkin. Bunday maydonchalarning o'lchamlari 350–400 m bo'ladi (2-jadval).

Bolalar kompleks maydonchalarining o'lchamlari

Bolalarning yoshiga ko'ra guruhi	Ming kishiga maydonlar soni	Maydonlarning o'lchami, m
Bog'cha va maktabgacha	2	150–200
Kichik maktab yoshidagi 7 dan – 13 yoshgacha	3	200–250

Kichik yoshdagi maktab o'quvchilari maydonlarini, va yukorida aytib utilgan bog'cha yoshidagi bolalar maydonchalarini, birlashtirish tavsiya etilmaydi. Bog'cha yoshidagi bolalar maydonchasini kattalar dam olish maydoni bilan birlashtirish maqsadga muvofiq. 1,5–2,5 ming kishilik alohida turar-joylar guruhlarida 22x25 m o'lchamli kompleks sport maydonlari loyihalanishi mumkin (3-jadval). Bularga maktab sport maydonlari kirmaydi. Sport maydonlari atrofidagi turar-joy binolari derazalariga 25 m dan yaqin joylashmasligi kerak. Sport maydonlari atrofini, professional tarzda, talab va me'yorlarga javob bera oladigan qilib ko'kalamzorlashtirish kerak.

Turar-joylar hududi sport maydonchalarining turlari va o'lchamlari


Sport maydonchalarining turlari	Maydonchalar o'lchamlari		1000 kishilik turar joy guruhlariga uchun maydonlar soni		
	umumiy	o'yin maydoni	0,5–6,5	3,5–5,5	1,5–3,5
Basketbol maydoni	30x80	26x14	2–3	–	–
Voleybol maydoni	25x14	9x18	3–4	2–3	2–4
Tennis maydoni	40x20	24x11	1–2	1	–
Stol o'yinlari uchun	4x8	–	3	2	2
Gimnastika o'yinlari uchun	600 m ²	–	1	1	–


Turar-joylar guruhi bog‘larining ko‘kalamzorlari ochiq va yopiq yashil maydonlardan tashkil topishi zarur. Bino tarzlari bo‘ylab cho‘zilgan trotuarlar va xiyobonlar janub va g‘arb tomonlarga qaragan bo‘lsa, ularni quyosh nuridan to‘shish maqsadida baland soyapar daraxtlar ekilishi zarur. Dam olish maydonlarining atroflariga chetlari go‘zal gullovchi butalar bilan aylantirilgan manzaraviy daraxtlardan tuzilgan tabiiy guruhlar kompozitsiyalari shakllantirilishi lozim (6.38,6.39, 6.40, 6.41-rasmlar).

Turar-joy uylarining hovli-bog‘lari

Hovlini saranjom tutish, hovli ekinlari va xo‘jalik imoratlarini o‘rniga joylashtirib, hovlisini chiroyli va obod qilish hovlili uy qurgan har bir oilaning orzu-istagidir. Bu ishlar qancha to‘la va sifatli bajarilsa oila hayoti shuncha fayzli, obod va shirin kechadi, hovlidan foydalanish oson va serunum bo‘ladi.

Hovlini obodonlashtirish hovli hududini funksional zonalarga bo‘lib chiqishdan boshlanadi. Hovli hududi, odatda, quyidagi zonalarga bo‘linadi:





6.42-rasm.

Har bir zona uchun hovli yuzasidan maqsadga muvofiq va foydalanishga qulay boʻlgan joy tanlanishi kerak (6.32-rasm).

Xoʻjalik va maishiy imoratlar zonasiga, odatda, hovlining ichkari, toʻr qismidan joy ajratiladi. Xoʻjalik zonasini tarkibiga kiruvchi omborxonalar yoki kladvokalar, oʻtinxonalar, molxonalar, yemxonalar va boshqa xonalar bajaradigan xizmat turiga qarab joylashtiriladi. Bunda ular hovlining butun enini yoki bir qismini egallashlari mumkin. Xoʻjalik va maishiy imoratlar, ularning tarkibi va hovlida joylashish tartiblariga alohida toʻxtalib oʻtamiz.

Poliz ekinlari uchun uchastkaning quyi tomonidan xoʻjalik imoratlari yonida yoki uning atrof-chetlarida joy ajratish maqsadga muvofiqdir. Poliz ekinlarining suvga talabchanligini eʼtiborga olib, ularni hovli yuzasidan nisbatan pastroqda ekan maʼqul. Bu, kuz paytlari yomgʻir suvlarining oqib tushishiga ham qulaylik yaratadi. Odatda, poliz ekinlari uchun hovli maydonining 25–30%, mevali oʻsimliklarga 30–40%, yashash uyi, xoʻjalik va tirikchilik imoratlari hamda proezdlar uchun 30–40% ajratiladi.

Dastlabki 5–10 yillar davomida poliz ekinlari mevali daraxtlar qator oralariga ekilishi mumkin. Bogʻbonlar tajribasi shuni koʻrsatadiki, olma bogʻi vaqti-vaqti bilan kirqilib turiladigan maysazor yoki bedapoyada ham yaxshi etilishi mumkin, chunki bedapoya tuproq tuzumini saqlashga va undagi bioximik jarayonlarga sharoit yaratadi. Bundan tashkari beda mollar uchun eng yaxshi qoʻshimcha yemish sifatida ham foydalidir.

Uy va yashash hovlisi zonasini, ayvon, peshayvon, umumiy hovlining old qismi, uyga kiraverish joyi va uydan soʻnggi hovli

ichkarisiga chiqishdagi joylar gullar va manzarali daraxtlar bilan bezatilishi maqsadga muvofikdir. Qalin soya beruvchi baland daraxt va butalarni uyga yaqin masofaga ekmaslik kerak, chunki yashash xonalari kun bo'yi soya ostida qolib ketishi, uyni zax bosishi mumkin.

Gullarni tanlashda ularning ochilish mavsumiga e'tibor berish lozim. Umuman, gullarni shunday ekish kerakki, biri ochilib tugasa, ikkinchisi gullay boshlasin. Xalqimiz gullarni tanlab ekishda qadimdan an'anaga aylanib qolgan mahalliy va zamonaviy gullardan foydalanadi. Shunday gullardan ayrimlarini sanab o'tamiz: rayxon, atirgullar, binafshalar, namozshomgul, nargis, gulira'no, nilufar, shabbo'y, gulto'jixo'roz.

Manzarali daraxtlar orasida qishin-yozin ko'm-ko'k bo'lib o'suvchi archasimon ninabargli daraxtlar ham bo'lishi mumkin. Shunday qilinganda uy atrofidagi kirib-chiqish joylarining saranjom-sarishta, tartibli va manzarali bo'lishi ta'minlanadi. Nina bargli daraxtlar va gullar o'zlaridan xushbo'y hidlar chiqarib, xavoni toza va sog'lom qiladi, uy-joy va hovli ko'rinishiga o'ziga xos go'zallik baxsh etadi.

Qishloqda ko'p bolali oilalar yashashini e'tiborga olgan holda hovli ichida uyga yaqin joydan bolalar uchun maxsus maydoncha ajratilishi maqsadga muvofiqdir. Bunday joy bolalarning yoz kunlari kunduz, ayniqsa, kechqurunlari hovlida ochiq havoda yayrab o'ynashlari uchun qulaylik tug'diradi. Bolalar maydonchasining usti engil yopilishi, yonlari esa ochiq bo'lishi mumkin. Maydoncha janubiy-g'arbiy va g'arb tomondan soya beruvchi manzarali daraxtlar va butalar, qolgan tomonlardan esa yashil to'siqlar bilan to'silishi lozim.

Ayrim hovlilarda uy atrofidagi kirib-chiqish joylariga mevali daraxtlar zich ekilganligini ko'ramiz. Bunday hollarda yoz pishiqchiligida daraxtlar osti tagiga tushgan mevalar bilan to'lib bosilishi, ifloslanishi, har xil qurt-qumursqalar va besaranjomlik kuzatilishi mumkin. Bunday joyda yoz paytlari ochiq havoda chorpo'yada o'tirib hordiq chiqarish ancha noqulay, qishda esa manzaradan ancha boy berilishi mumkin. Bundan tashqari mevali daraxtlar bolalar ko'ziga yaqin bo'lmaganligi ma'qul. Shuning

uchun ham mevali daraxtlar zonasining katta qismi hovlining to'rtrog'ida, poliz ekinlari bilan yashash hovlisi oralig'ida yoki ularga tutashib joylashganligi maqsadga muvofiqdir.

Qishloq sharoitida hovli bog'i uy orqasida, uning yon tomonlarida qo'shni uchastka bog'i bilan yonma-yon joylashgan bo'lib, bu hovli joylar bo'yicha bir butun yashil massiv yaratishga va turar joy imoratlari mikroiklimini yaxshilashga yordam beradi. Mevali daraxtlar zonasida avval yo'ng'ichqa, beda uchun joy tayyorlanadi. Bedazordan alohida-alohida joylar ajratilib, ulardan biriga anor, ikkinchisiga bexi, uchinchisiga shaftoli, to'rtinchisiga esa nok ekilishi mumkin. Yozda qish va bahor fasllariga nisbatan sabzavot, qovun, tarvuzlar ko'p bo'lganligi sababli ho'l mevaga talab kamroq bo'ladi. Shuning uchun ham hovlidagi mevali daraxtlar orasida ko'proq kechki olma, nok navlari jami ekiladigan daraxtlarning 70–80% ini tashkil qilishi maqsadga muvofiqdir.

Qadimda shakllangan bog'lar quyidagi ikki xil ko'rinishda bo'lganligi ma'lum:

- 1) geometrik shaklda tashkil topgan bog'lar;
- 2) tabiat xushmanzaralari asosida tashkil etilgan bog'lar.

Birinchi xil bog'larda bog' maydoni turli istalgan (to'rtburchak, to'g'ri to'rtburchak, ko'pburchak va h.k.) shakllarga bo'lib chiqilib, shu bo'laklarda har xil daraxtlar va gulzorlar tashkil etilgan. Ikkinchi xildagi bog'lar esa tabiiy ko'rinishida yoki ularga ba'zi bir tutatishlar kiritilgan holda barpo qilingan.

Yashash hovlisidagi chorpoya atroflarini qator uzum ishkomlari bilan yopilganini ko'ramiz. Bunday uslub faqat shu chorpoya atroflari uchungina ma'qul bo'lib, uni bir tomondan yopishi mumkin. Uy atroflarini esa pastak qator ishkomlar bilan yopish yaramaydi, chunki ular yozda shamolni to'sib qo'yadi va manzarani oddiylashtiradi. Shuning uchun ham uzum ishkomlari chorpoyadan ancha ko'tarilgan, havodor bo'lishi kerak. Chorpoya va ayvondan hovliga chiroyli va soz tabiiy manzara ochilishini ta'minlash lozim. Ba'zan chorpoya hovlining ichkarirog'iga joylashgan bo'lib, atrofiga ariq qazigan, oldiga quvur bilan suv olib borilib, mo'jaz shakldagi favvora ishlangan bo'lishi mumkin. Favvora va chorpoya


atroflariga qizil olma daraxti ekilsa, pishiqchilikda olmalar favvoradagi suv ustiga tushib taftini oladi.

Issiq va quruq iqlimli respublikamiz sharoitida soya-salqin joylar, chorpoya, ishkom, hovuzcha va ariqlar hovlining muhim elementlari hisoblanadi. Ana shunday mo'jaz hovli elementlaridan foydalanishni yaxshi bilgan ota-bobolarimiz, yozning jazirama issiq kunlarida ham ular yordamida hovlida salqin, bahavo mikroiklim vujudga keltirishgan, ostidan ariklar o'tgan chorpoyalarda ishkomlar soyasida o'tirishib, ishdan bo'sh paytlarda hangoma qilishgan, mehmon kutishgan, miriqib dam olishgan.

Hozir xalqimiz tajribasida chorpoyalar asosan ikki xil materialdan: yog'och taxtadan va temirdan ishlangan. Yog'och va temir chorpoyalar ko'chma bo'lganligi uchun foydalanilishga qulay, ayniqsa temir supalar juda qulay bo'lib, ular qishda yig'ib qo'yilishi ham mumkin.

Hovli ichi yo'laklarining soni iloji boricha kam bo'lgani ma'qul: ularni zarur joylardagina o'tqazib soya bilan ta'minlash kerak. Yo'laklar g'ishtdan, g'isht siniqlaridan, tabiiy toshlardan, shag'al qo'shilgan betondan ishlanishi mumkin. Ularning eni 1 metr atrofida bo'lishi kerak.

Bir-biriga qo'shni uylarning derazalari yoki hovlilarining orasida devorlar hosil qiluvchi chirmashib o'sadigan o'simliklarni qo'llash yaxshi natijalar beradi. Bunday yashil devorning balandligi 1–2 metrdan oshmasligi kerak. Keyingi rasmlarda respublikamizning har xil tabiiy iqlim zonalariga mos ravishda xo'jalik imoratlariga ega qishloq uylari hovlisining qulay echimlari, hovlini obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish bo'yicha tavsiyalarimiz keltirilgan. Ularda shaxsiy yordamchi xo'jalik yuritish uchun sharoit, yashash va xordiq chiqarishga estetik qulay muhit yaratishni ta'minlovchi omillar hamda mahalliy shart-sharoitlar e'tiborga olingan (6.43,6.44, 6.45, 6.47, 6.48, 6.49-rasmlar).




6.43-rasm. Tabiiy toshdan to‘shalgan yo‘laklar:

- a) tosh oralariga maysa ekilgan yo‘lak qirqimi: 1–tosh; 2–qum;
- b) tosh oralariga qorishma solingan yo‘lak qirqimi: 1–tosh; 2–qum; 3–bir tekis qilib solingan qorishma;
- v) oralariga qorishma solingan chag‘irtosh yo‘lak qirqimi: 1–maydalangan chag‘irtosh; 2–qum; 3–tekis tarashlangan tosh-bordyur; 4–tekis solingan qorishma;
- g) avtomashina yo‘lakchasining qirqimi: 1–beton, 2–mayda xarsangtoshdan ishlangan zamin; 3–qorishma; 4–chig‘irtosh oralaridagi qorishma, 5–toshtaxta;
- d) tabiiy tosh to‘shovlarining xillari: 1–sodda; 2–to‘g‘ri qatorlab; 3–yirik toshlardan; 4–qavatlab to‘shash.

Yuqorida bayon qilingan takliflarga rioya qilish uy-joyni shinam, hovlini fayzli qilishga va hovli uchastkasidan serunum va qulay foydalanishga yordam beradi. Buning uchun, hovli ekinlarini va xo‘jalik imoratlarini o‘rniga joylashtirilishi talab qilinadi. Bu

ishlarni to‘la va sifatli bajarilishi oila hayotini fayzli va shirin qiladi, obodonlashtirilgan hovlidan foydalanish oson va serunum bo‘ladi.



6.44-rasm. An'anaviy hovli maydonini obodonlashtirish bo'yicha takliflar:

- a) cho'l va dasht zonasi uchun mo'ljallangan hovli;
 - b) qulay iqlimli vodiy va tog' vohalariga mo'ljallangan hovli;
- 1-turar joy uyi; 2-xo'jalik va maishiy imoratlar; 3-hovli;
4-mevali bog'; 5-sabzavot va poliz ekinlari; 6-chorpoya; 7-bolalar

o‘ynaydigan joy; 8–uzum ishkomi; 9–avtomashina joyi; 10–jiyda, bodom va boshqa daraxtlar; 11–berk devor; 12–pastqam to‘siq; 13–yashil devor; 14–go‘ng saqlash joyi; 15–ariq.



6.45-rasm. Obodonlashtirilgan hovli muhitining ko‘rinishlari.



6.46-rasm. An‘anaviy ichki hovlili uyning to‘r qismi joylashgan bog‘ining ko‘rinishi.



6.47-rasm. *Hovli muhitida mevali daraxtlardan shakllangan bog‘ning ko‘rinishi.*

Demak, hovlini obodonlashtirish, hovli hududini funksional zonalarga bo‘lib chiqish bilan bog‘lik. Hovli hududi, hovlining ichkari, to‘r qismidan joylashtirilgan xo‘jalik va maishiy imoratlar zonasidan (omborxona, o‘tinxona, molxona, yemxona va boshqa xizmat turiga kiradigan xonalardan) tashkil topadi. Bunda ular hovlining butun enini egallashlari mumkin. Zonalarning keyingilari, uy va yashash uchun, bolalarning sport o‘yinlari va katta yoshdagilarning dam olishiga ajratilgan hudud, poliz ekinlarini ekish, mevali bog‘ hududiga ajratilishi shart (6.50, 6.51-rasmlar).



6.48-rasm. Bolalar o‘yinlari va hordiq chiqarish zonasining ko‘rinishi.



6.49-rasm. Katta yoshdagilarning hordiq chiqarishi va dam olishiga mo‘ljallangan joylar landshafti.



6.50-rasm. Uy-joy, bolalar o'yinlari, katta yoshdagilarning hordiq chiqarishi va bog' zonalaridan shakllangan hovlilarning ko'rinishi.



6.51-rasm. Poliz ekinlari va mevali bog‘ hududlari bir-biridan ajratilgan bolalar va keksalarning dam olish hududlari holilashirilgan hovli muhitining ko‘rinishi. Maydonchalar va hovli muhiti soya beruvchi daraxtlar va butalar, yashil to‘siqlar bilan to‘silgan.

Mahallalar va guzarlar hududlari

Ma’lumki, O‘rta Osiyoning tarixiy shaharlarida ko‘plab mahallalar va ular markazlarining guzarlari saqlanib qolgan. Bunday mahallalar hududidan tor ko‘chalar o‘tkazilib, ular odatda, mahalla markazlari guzarlariga kelib ulangan. Tor ko‘chalarning boshi esa mahallalarni bir-biridan ajratib turuvchi shahar magistral ko‘chalariga borib tutuashgan. Ana shunday mahalla va guzarlar, tor ko‘chalar va magistrallar bugungi kunda O‘zbekistonning deyarli barcha tarixiy shaharlari: Samarqand, Buxoro, Shaxrisabz, Qo‘qon, Namangan va boshqa shaharlarda mavjuddir (6.52, 6.53, 6.54, 6.55, 6.57, 6.58, 6.59- rasmlar).




6.52-rasm. Tarixiy shaharlar mahallalarining an'anaviy landshaft ko'rinislari.



6.53-rasm. Issiq iqlimli shaharlarda soyali hovlilar va usti berk piyodalar ko'chalarining shakllanishi.




6.54-rasm. Ichan qal'a hududidagi mahalla va guzarlar landshafti.



6.55-rasm. Tarixiy shakllangan guzarlar va mahallalar landshafti.

Tarixiy mahallalardagi ko‘kalamzorlar asosan, guzarlarda joylashgan bo‘lib, odatda, ular guzar imoratlarining turkumini tashkil qiluvchi guzar hovuzlarining atrofida, guzar masjidi va maktabining hovlisida yoki atroflarida shakllantirilgan. Bunday ko‘kalamzorlar odatda, hovuzning suv bilan ta‘minlovchi ariqlar bo‘ylab qatorlab ekilgan. Masjid oldi, hovlisi, maktabda manzarali va mevali daraxtlardan tashqari atirgullarning bir nechta navlari hamda gultojixuroz, savsan, hamisha bahor, rayhoy va boshqa guli uzoq gullorvchi o‘simliklar ekilgan. Manzarali daraxtlarga terak, tol, chinor, qayrag‘och, majnuntollar kirsas, mevali daraxtlarga tut, yong‘oq, olxo‘ri, nok, anor, anjir, bodom va boshqalar kirgan.

Guzar hovuzining atrofida daraxtlar shunday ekilganki, ularning soyasi nafaqat hovuz atrofini, balki hovuz yuzini ham o‘z soyasi bilan yopib turgan. Bu uslub hovuz suvining jazirama quyosh nuridan ko‘p bug‘lanib ketmasligi, hovuzga chang tushmasligi va uning doim muzdek sovuq turishini ta‘minlagan. Natijada, hovuz atrofida qulay va shinam mikroiklim, yengil shabada bo‘lishligi ta‘minlangan. Hovuz atrofiga ekilgan daraxtlarning barglari tushib hovuz suvini ifloslamasligi talab etilgan.






*6.56-rasm. Buxoro. Tarixiy shaharlar markazlarining namu-
naviy landshaft yechimiga misol.*




6.57-rasm. Gazar hovuzi yuzi va atrofini soyasi bilan yopib turgan daraxtlar.



6.58-rasm. Buxoro. Tarixiy shaharlar markazlarining namu-naviy landshaft yechimiga misol.

Hozirgi vaqtda tarixiy shaharlarimizdagi bunday guzar va mahallalar muhiti qayta tiklanib, ularni zamonaviy texnik va estetik talablarga mos tarzda modernizatsiyalash loyihalari ishlanmoqda. Ana shunday loyihalarni ishlashda yuqorida aytib o‘tilgan guzar va mahallalar hududini landshaft tashkillashtirish bilan bog‘liq tarixiy qadriyatlarimiz e‘tiborga olinishi zarur.



6.59-rasm. Ta‘mirlangan qadimiy mahalla ko‘chasi va mahalla masjidi.

hovli muhitining ko‘rinishi. Yuqoridagi rasmlarda ushbu kitob muallifi rahbarligida bajarilgan diplom loyihalari va magistrlik dissertatsiya ishlaridan namunalar keltirilgan. Ularda tarixiy shaharlar mahalla va guzar hududlarini modernizatsiyalash va me‘moriy landshaft loyihalashning zamonaviy usullari ko‘rsatilgan.

Nazorat savollari:

- 1. Piyodalar yo‘laklari qurilishida qanday to‘shamalardan foydalaniladi?*
- 2. Shahar magistral ko‘chalari qanday ko‘kalamzorlashtiriladi?*
- 3. Bulvarlar qanday landshaft yechimiga ega bo‘lishi kerak?*
- 4. Skverlar haqida aytib bering.*
- 5. Akvatoriya nima?*

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Sh.Mirziyoyev.** «2018–2022-yillarda aholi punktlarini Bosh rejalar bilan ta'minlash, loyiha tashkilotlari faoliyatini yaxshilash, shuningdek, shaharsozlik sohasida mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. O'zbekiston bunyodkori № 10, 2018-yil 6-fevral.

2. **Karimov I.A.** Yuksak ma'naviyat–engilmas kuch.–T., 2007.

3. **Karimov И.А.** Без исторической памяти нет будущего. Журнал «Мулоқот».- № 5, 1998 г.

Maxsus adabiyotlar

4. **Адилова Л.А. Имамбаева Н.А.** Современные порходы к проектированию парковых территорий. //«Проблемы архитектуры и строительства» журналы, 2015 йил, 1-сон. Самарқанд: СамДАҚИ, 2015.

5. **Ахмедов М.К.** Пути формирования средневековых архитектурных ансамблей Средней Азии и некоторые вопросы включения их в современную застройку: Дисс. ... канд. арх. – Самарқанд: 1982.

6. **Базилевич А.М.,** Рол рельефа в ландшафте и в градостроительстве. –М., 2015.

7. **Воронова О.** Ландшафтный дизайн: шаг за шагом. –М., 2011.

8. **Вергунов А.П., Денисов М.Ф., Ожегов С.С.** Ландшафтное проектирование.–М., 1991.

9. **Голлвиссер Г., Вирсинг В.** Сады на крышах.–М., 1972.

10. **Гарнизоненко Т.С.** Справочник современного ландшафтного дизайна.–Ростов–на–дону, 2005.

11. **Горохов В.А., Гогохов V. А.,** Гороское зеленое строителство. –М., 1991

12. **Додхудоева Л.К.,** К истории Темуридского султоната в Герате:некоторые социальные аспекты управления государством. –Душанбе, 2001.

13. **Дормидонтова, В.В.** Этапы формирования сада XXI века / В.В. Дормидонтова//Архитектон: известия вузов. – 2012. – № 37. – http://archvuz.ru/2012_1/19.

- 14. Dormidontova, V.V.** Minimalizm v sadovo-parkovom iskusstve //Arxitekton: izvestiya vuzov. – 2012. – № 38. – http://archvuz.ru/2012_2/17.
- 15. Zabelina E.V.** Poisk novykh form v landshaftnoy arxitekture.– M., 2015.
- 16. Zelinskiy F.F.** Istoriya antichnoy kultury, SPb.-M.,1995
- 17. Zeki Validi Togana** «O zapadnoy politike Timura». Ibn Arabshax. Istoriya Amira Timura. 3-e izdanie. Avtor perevoda Xaydarbek Bababekov. – Tashkent: Izd-vo «Fan va texnologiyalar», 2008.
- 18. Isamuxammedova D.U., Adilova L.A.** Shaharsozlik asoslari va landshaft arxitekturasi. II–qism: Landshaft arxitekturasi.–T., 2010.
- 19. Pchenko I.A.,** Sistema zelenykh nasajdeniy goroda kak sredooobrazuyushiy faktor gorodskogo mikroklimata.–Taganrog.,2014
- 20. Kamilova X.X., Sattarova K.D.** Proektirovanie mnogo-funksionalnogo parka goroda. Uchebnoe posobie.–T., 2007.
- 21. Kolpinskiy YU. D., Britova. N.N.** Istoriya Etruskov i Drevnego Rima.– M., 1982.
- 22. Kaptereva T.,** (2000), eskorial /T. 11. Kagggersva // Grani tvorchestva. Sbornik nauchnykh statey. – M.,2000.
- 23. Klark E.** Iskusstvo islamskogo sada/ per. s ang. – M.2008.
- 24. Nazmiyeva A. A.** Arxitektura islamskogo sada po ikonograficheskim istochnikam. – M .2005
- 25. Nazmiyeva. A .** Razvitie regionalnykh shkol v kontekste istoriko-kulturnykh traditsiy: Mater., mejdunar. nauch. konf.:1t – Kazan. 2006
- 26. Kuliyeu E. R., Koran.** Perevod smyslov – izdanie pyatoe, ispravlennoe i dopolnennoe/E. R. Kuliyeu. – M. 2004
- 27. Kaptereva T.,** eskorial /T. 11. Grani tvorchestva. Sbornik nauchnykh statey. – M.2000
- 28. Knabe D.S.** Drevniy Rim: istoriya i povsednevnost. Ocherki. - M., 1986.
- 29. Losev A.F.** Ellinisticheski–rimsкая estetika I–II vv. n.e. - M., 1979.
- 30. Mikulina, E.M.** Eynshteyn ot landshafta. Djelliko i ego landshaftnoe proektirovanie // Novyy dom. – 2001. – mart. – S. 128.
- 31. Nozilov D.** Chorbog‘.–T., 1997.
- 32. Ojegov S.S., Uralov A.S., Raximov K.D.** Landshaft arxitekturasi va dizayni.–Samarqand, 2003.
- 33. Orelskaya, O.V.** Sovremennaya zarubejnaya arxitektura . – M.: Akademiya, 2006.

34. **Prixodko P.I.** Landshaftnaya kompozitsiya malogo sada.– Kiyev, 1976.
35. **Pugachenkova G.A.** “Sadovo-parkovoe iskusstvo Sredney Azii v epoxu Timura i Timuridov”, sbornik “Trudy SAGU”, n.s, вып.XXIII, Gumanitarnye nauki, kn.4 (Istoriya), Tashkent, 1951.
36. **Raximov K.D., Uralov A.S.** Sharq mamlakatlarining bog‘-park san‘ati.–T.: Tafakkur bo‘stoni, 2013.
37. **Raximov K.D., Uralov A.S.** Landshaft arxitekturasi abyeklarini loyihalash.–T., 2015.
38. **Randxava M.,** Сады через века [Sokr. per. s angl.) – M: Znanie. 1981
39. **Сычева А.В.,** Landshaftnaya arxitektura. Uchebnoe posobie-3 izd.–M.,2006.
40. **Sokolskaya, O.B.** Istoriya sadovo-parkovogo iskusstva: uchebnik . – M., Infra-M, 2004.
41. **Teodoronskiy V.S.** Stroitelstvo i ekspluatatsiya obyektov landshaftnoy arxitektury. –M, 2008.
42. **Uralov A.S.** An‘anaviy o‘zbek bog‘ining me‘moriy dasturini yaratish haqida.//“O‘zbekiston an‘anaviy me‘morchiligi va landshaft arxitekturasini tadqiq etishning yangi masalalari” mavzuidagi Respublika ilmiy–amaliy konferensiya materiallari.–Samarqand: SamDAQI, 2010.
43. **Uralov A.S.** “Chorbog‘” uslubidagi tarixiy bog‘larning me‘moriy-rejaviy va landshaft yechimlariga xos asosiy tamoyillar.//Me‘morchilik va qurilish muammolari ilmiy texnik jurnali. 2008-yil, 3-son.
44. **Uralov A.S., Adilova L.A.** Landshaft arxitekturasi.–T., 2014.
45. **Uralov A.S., Imomov M.** Qishloq uylari hovlisining me‘moriy-rejaviy va landshaft yechimlari.//Me‘morchilik va qurilish muammolari ilm.tex. jurnali, № 2, 2013.–B.
46. **Taxtaxadjayeva M.S.** Общее v arxitekturno-xudojestvenных priemax sadovo-parkovogo iskusstva Sredney Azii XIX-XX vv. i Indii XYI-XYII vv. // Kultura Srednego Vostoka.–T., 1988.
47. **O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi .** Toshkent., “NEU”, 2000.
48. **Qayimov A.Q.** Aholi yashash joylarini ko‘kalamzorlashtirish.–T., 2013.
49. **Yakubovskiy A.YU.** Mastera Irana i Sredney Azii pri Timure. //Iranskoe iskusstvo i arxeologiya. Materialы 3-go Mejdunarodnogo kongressa po iranskomu iskusstvu i arxeologii. Doklady. -M.-JL, 1939.

Xorijiy adabiyotlar

50. Architecture of the changing world, Edited by James Steeli, The Aga Khan award for architecture, Academy Education, New York, 1992.
51. **An English Arcadia.** Designs for gardens and gardens buildings in the care of the national trust 1600–1990. London, 1992.
52. . **Brown J.** The English Garden Through the 20 th Century. Woodbridge, Suffolk: Garden Art Press, 2002. – 287 p.
53. **Crowe S.** Garten design. – London. Un-t Press. 2004
54. **David Younger.** “Theme Park Design”, New York, 2016.
55. **Dormidontova V.V.** Etapy formirovaniya sada XXI veka [Stages of formation of the garden of the XXI century]. Architecton: izvestiya vuzov, 2012. № 37. http://archvuz.ru/2012_1/19
56. **Dormidontova V.V. Minimalizm v sadovo-parkovom iskusstve** [Minimalism. 1998
57. **Jonas Lehrman.** Water in the mutual Gardens, India. The Canadian Architect , November, 1997
58. **Hoppe U.** “Verwasserte Verteilung” in der Tideelbe. – bauweit, N 17/16, s.746–74–7. 199. Ja11icoe C. JI. Studies in Landscape Design. London.1960
59. **Hadfield Miles.** Gardenning in Britain. London. 1960. P.
60. **Hobhouse P.** The Story of Gardening / P. Hobhouse. London, Dorling Kindersley Limited. 2004. 468 p.
61. **Hobhouse P.** The Story of Gardening / P. Hobhouse. -London, Dorling Kindersley Limited. 2004. 468 p.
62. **Gamberdella Olga.** Natural landscape and rationalist movement. 33rd IFLA WORLD CONGRESS. Florence Italy.2005. Pr. №1.
63. **Landscape planning and design Ma’gia / Tic’ino.** – flnthos, 19607 N2, p.315.
64. **Lacey S.** Gardens of the National Trust / S. Lacey. – London: National Trust Books, 2008. 1996. – 392 p.
65. **Mosser M., Teysssof G.** The Architecture of Western Gardens. – Cambridge, USA, 1991.
66. **Mavrland M.** Functional typology of landscape with respect to recreational needs. – Sb. Cs. geogr. 5polec., 19ÖD, v.65, M1. 2009
67. **Mikulina E.M.** Einshtein ot landshafta. Jellicoe i ego landshaftnoe proektirovanie [Einstein on the landscape. Jellicoe and landscape design]. Novyi dom. 2001. mart. pp. 128.


- 68. Orel'skaya O.V.** Sovremennaya zarubezhnaya architectura [Modern foreign architecture]. Moscow: Academiya, 2006. 272 p.
- 69. Steinitz.** Carl Landscape design processes: six questions need of answer and three case studies. 33rd IFLA WORLD CONGRESS. Florence Italy. Pr. №1. 2015
- 70. Stauskas Vladas, Magnus Vytautas.** The living national parks: strive for harmony between present and preservation of natural and cultural heritage. // 33rd IFLA WORLD CONGRESS. Florence Italy. Pr. №2. 2012
- 71. Sajjad Kausar, Michel Brand, James L. Wescoat Jr.** "Shalimar garden Lahor", 1990.
- 72. Sokol'skaya O.B.** Istoriya sadovo-parkovogo iskusstva [The history of landscape art]. Moscow: Infra-M, 2004. 350 p.
- 73. Historic Houses and Gardens.** Hudson, Oxfordshire, UK, 2006. 605 p.
- 74. Tobey G.B.** A History of landscape Architecture, – Sidney, 1980
- 75. Webster Constance A.** Teaching historing landscape preservation: documenting the past, in the present for the future. 33rd IFLA WORLD CONGRESS. Florence Italy. Pr. №1. 2011
- 76. Wendel T.** Gartenkunst im Spiedel der Zeif. – Lepzig, 1985
- 77. Wilson A.** Influential Gardeners / A. Wilson. London: Mitchell Beazley, 2002. 192 p.

Internet saytlari

- 78.** www.uniquegarden.ru
- 79.** <http://www.Landstyle.ru>
- 80.** <http://www.sadtorg.ru>
- 81.** www-uznature-uz.hiv
- 82.** www.Gardener.ru
- 83.** [www. http://landscape.design.ru](http://landscape.design.ru)
- 84.** <http://en.wikipedia.org/wiki/Garden-of-Cosmic-Spucalation>
- 85.** <http://alldayplus.ru/design-art-photo/arch/3467-garden-of-cosmic-spucalation-proizvedenie-landshaftnogo-dizayna-chartza-dzhenksa.html>
- 86.** <http://www.etoday.ru/2012/2014/the-garden-of-cosmic-spucalati.ph>

Maskur o'quv qo'llanma tarkibida foydalanilgan chet el adabiyotlarining namunalari:

“Theme Park Design”. David Younger. Published by inklingwood press. – New York., 2016. (www.ThemeParkDesignBook.com)



Annotation. Over the past century, theme parks have created worlds where pirates still loot Caribbean towns, where daring adventurers explore booby-trap-temple, and where superheroes swing from New York skyscrapers – and allowed us to step into them too. This is a book about how to design those fantastic places, and the ingenuity that goes into their creation. This is a handbook for the practicing designer, a textbook for the aspiring student, and a behind-the-scenes guidebook for the theme park fan, building on hundreds of interviews with accomplished designers from Walt Disney Imagineering, Universal Creative, Merlin Entertainments, and more. Theme Park Design & The Art of Themed Entertainment explores everything from the stories, themes, and characters that theme parks bring to life, to the business models, processes, and techniques that allow them to do it.

Annotatsiya. O'tgan asrda maxsus tematik bog'-parklar Karib dengizi qaroqchilarining shaharchalari, Nyu-York osmono'par binolarida harakatlanuvchi super qahramonlar kabi turli xil obrazlarni yaratib kelgan.


Ushbu kitob shu kabi fantastik dunyolarni yaratishga kirishganlar uchun muljallangan. Shu bilan birgalikda qoʻllanma, ishlab chiqarish amaliyotida boʻlgan loyihachilar uchun maʼlumotnoma hisoblanadi. Qoʻllanmada maxsus tematik bogʻ-parklarni loyihalash boʻyicha Walt Disney Imaginnering, Universal Creative, Merlin Entertainments va boshqa kompaniya mutaxassislaridan intervyular olingan. Theme Park Design va The Art of Themed Entertainment maxsus tematik bogʻ-parklarni loyihalashda zaruriy boʻlgan loyihalash metodikasi, ishchi modellar, jarayonlar, ramzlar, xullas tematik bogʻ-parklar borasida jamiyki gʻoyalarni amalga oshirish uchun barcha kerakli maʼlumotlarni keltirgan.

Qullamaning eng asosiy tomoni, tematik bogʻlarni tashkil kilishda, landshaft rejalashtirish ixtisozligini inovatsion gʻoyalari bilan bogʻlangan.

Annotatsiya. Dannaya kniga posvechena تمام jizni fantazticheskogo xaraktera, gde osnovnoe mesto zanimaet obraz srednevekovyx razboynikov Karibskogo morya. Kniga presleduet mysl-nauchitsya proektirovat podobnyye tematicheskie parki, osnovoy kotoroy doljno stat landshaftnoe planirovanie, svyazannoe s rolyu relefa i vody v formirovanii dannyx parkov, usloviya razvitiya landshafta otkrytoy prostranstvennoy sredy, formirovanie, zelenyx uchastkov sistemy sentrov otdelnyx zon, reshexodnyx dorog mejdou kajdoy zony.

Samoy osnovnoy storonoy uchebnika yavlyaetsya, ispolzovanie invatsionnyx idey pri organizatsii teematischenkix parkov, svyazannyx so spetsialnostyu landshaftnoe planirovanie.

«**Avant Gardeners**». Tim Richardson. Published by Thames & Hudson.



Annotation. In recent years, garden and landscape design has witnessed a burgeoning of new ideas. Recent garden plans have embraced the latest thinking in science and materials, and have appropriated ideas from related disciplines such as architecture and product design. One indication of the rise in popularity of these designs has been the growing number of conceptual garden festivals, which have become a premier showcase for new concepts. This book profiles the work of fifty innovative designers through informative texts, photographs, and plans. Essays explore the underlying principles of these highly individual approaches and show how a new generation has rejected the naturalistic tradition of Western garden design, favoring instead the influences of Modernism, Postmodernism, Pop Art, and Land Art.

Tim Richardson is a highly respected writer on garden and landscape design. His books include *The Vanguard Landscapes and Gardens of Martha Schwartz*.

Annotatsiya. Ikkinchi chet el adabiyoti quyidagi mavzulardan iborat: rekretsiyon muhitlar, landshaft arxitekturasi obyektlarini shakllantirish omillari; landshaftni shakllantirishda relef va suvning ahamiyati; ochiq fazoviy muhit landshaftini rivojlantirish shartlari, shaharning tabiiy karkasini shakllantirish tamoyillari, shahar ko'kalamzorlar tizimining tasnifi, shahar markazi bog'-park tizimini shakllantirish, bog'lar, parklar, maydonlar, xiyobonlar, saylgohlar, qirg'oq bo'ylaridagi piyodalar yo'laklari.

Kitobda yoritib berilgan mavzular, landshaft rejalashtirish tabiiy sharoitlar va antropogen omillar bilan bog'lik bo'lgan yulanishda o'z aksini topgan.

Annotatsiya. Во второй книге иностранной литературы освещены следующие темы: рекреационные территории, факторы формирования объектов ландшафтной архитектуры; роль рельефа и воды в формировании ландшафта; условия развития ландшафта открытой пространственной среды, формирование садово-парковой системы городских центров, сады, парки, площади, бульвары, прогулочные скверы, размещение пешеходных дорог вдоль берегов по требованиям градостроительных норм.

Вышеупомянутые темы в данной книге, раскрываются будучи связанными с естественными природными условиями и требованиями человеческого фактора.

ILOVALAR

GLOSSARIY – ASOSIY ATAMALAR LUG‘ATI

Alleya (xiyobon) – piyodalar uchun harakatlanish yo‘li. Unda qisqa vaqt o‘tirib dam olish va suhbatlashish mumkin. Alleyalar daraxtlar, butalar, tirmashib, chirmashib o‘sovchi lianlar bilan ko‘kalamlashtirilgan va chegaralangan bo‘lishi mumkin. Alleyalarning ochiq va yopiq turlari mavjud.

Aranjirovka – gullar va barglarni guldastalarga, vazalarga, karzinkalarga, girlyandlar va gulchambarlarga o‘zaro uyg‘un, mutanosib joylashtirish san‘ati. Yaponiyada gullardan ishlangan aranjirovka “ikebana” deb ataladi.

Arboretum – turli iqlim zonalaridan keltirilgan o‘simliklarni mahal-liy sharoitga moslashtirishga mo‘ljallangan maxsus dendrologik bog‘.

Assortiment – berilgan muayyan joy yoki obyektни ko‘kalamlashtirish uchun tanlangan daraxt, buta va gullarning turli xillari.

Bonsay – yaponlarning mo‘jaz bog‘larni yaratishda qo‘llaydigan o‘ta past bo‘yli tabiiy daraxtlarni yetishtirish san‘ati.

Berso, bindaj – daraxt (lipa, grab) shohlari to‘kilib yarim doira ko‘rinishidagi sinchlar yordamida shakllantirilgan ravoq alleyali (xiyobon). Ravoqli alleyalar bilan chegaralangan bog‘ maydoni. Barokko davri bog‘ va parklarida qo‘llanilgan.

Bosket – daraxt yoki butalardan qirtishlanib ishlangan, tik yashil to‘siq bilan chegaralangan to‘g‘ri geometrik shakldagi kichikroq landshaft muhiti. Barokko davri parklarida ularni yashil kabinetlar yoki yashil zallar deb atashgan.

Viridariy – monastirlar yoki turar-joy uylarining qator ustunlar bilan aylantirilgan ichki hovli bog‘i, ko‘kalamlashtirilgan hovlisi. Odatda, to‘g‘ri geometrik rejaga ega, markazida favvora yoki basseyn va klumba gulzorlari joylashgan bog‘cha. Ayrim viridariylarni o‘rab turgan devorlarga fantastik bog‘larning perspektiv ko‘rinishlari freska uslubida tasvirlangan.

Girlyandlar – uzun tasma tarzida gullar, barglar yoki shoxchalardan to‘kilgan bezaklar.

Guruh – jozibador park peyzajining muhim elementi, landshaft kompozitsiyasi. Odatda, guruhlar toq sonli (11 tagacha) daraxtsimon, butasimon yoki gulli o‘simliklardan tuziladi.

Kashpo – keramika, plastmassa, yog‘och, gullar joylashgan idishlardan iborat dekorativ qurilma. Intererlar va ochiq joyga o‘rnatilishi mumkin.

Kurtina – yo‘laklar bilan chegaralangan daraxtsimonlardan tuzilgan landshaft kompozitsiyasi.

Modulli bog‘ – geometrik to‘g‘ri shaklli o‘xshash elementlardan tarkib topgan gulzor kompozitsiyasi.

Nimfeya – Qadimgi Rim bog‘laridagi cho‘milishga mo‘ljallangan va boy bezatilgan gumbazli inshoot-basseyn; Yunonistonda suv qurilmalariga ega bo‘lgan soyali, turli o‘simliklar bilan aylantirilgan joy.

Shalola (vodopad) – suvning yuqoridan pastga oqib tushish holati samarasidan foydalaniladigan suv qurilmasi. Sun‘iy inshootlardagi shalola balandligi 1,5–2 metrdan kam bo‘lmasligi zarur.

Dekorativ basseyn – maydoni 2–5 kv.m.dan katta bo‘lmagan kichik sun‘iy suv qurilmasi. Unda, asosan, suvning yaltiroq statik yuzasi samarasidan foydalaniladi. Basseyn rokariy, irmoq, dekorativ haykal hamda favvara bilan birlashgan bo‘lishi mumkin.

Dekorativ hovuz – yetarlicha kattaroq o‘lchamdagi sun‘iy suv qurilmasi.

Sharshara (kaskad) – me‘moriy tashkillashtirilgan shalolaki, uning suvi baland pog‘onadan yoki keyingi kichik pog‘onalardan pastga sachrab tushadi. Sharshara Italiya va Fransiyaning Uyg‘onish davri pog‘onasimon parklarining asosiy elementlaridan biri hisoblangan.

Prud – asosan, yer yuzi oqava suvlarini to‘xtatib qolish va saqlab turish uchun mo‘ljallangan sun‘iy suv havzasi.

Berso, bindaj – yarim doira shaklidagi ravoqli sinchlar yordamida usti daraxt shoh-shabbalari bilan yohilgan soyali xiyobon; ana shunday ravoqli yophiq xiyobon bilan aylantirilgan bog‘ hududi. Barokko uslubidagi bog‘ va parklarda qo‘llanilgan.

Bordyur – bog‘lar va parklarda gulzorlar yoki parterlarni chegaralab turuvchi pastkam ingichka yashil xoshiya, jiyak.

Labirint – o‘rta asr bog‘larida baland yashil to‘siqlar tarzida qayin yoki jo‘ka daraxti va butalardan tuzab ishlangan adashtiruvchi chalkash yo‘laklar.

Luna park – vazifasi turli xil tomoshalar va ovunmachoq o‘yinlarga mo‘ljallangan bog‘ yoki park.

Maysazor – bogʻlarda koʻp yillik boshqoqi oʻtlardan ekilgan yashil maydon. Vazifasiga koʻra maysazorlarning sport oʻyinlari maydoni, maxsus vazifalarga va manzarali maydonlarga moʻljallangan xillari mavjud. Manzarali maysazorlarning parterli, oddiy va yaylovli turlari mavjud.

Miksborder – erta bahordan to kech kuzgacha gullab turuvchi turli oʻsimliklardan tuzilgan, odatda, yoʻlaklar, devorlar, yashil toʻsikdar yoki pogʻonalar boʻylab ekilgan chiroyli va oʻziga xos gulzor.

Oranjereya – issiqxona, ochiq joyda oʻsmaydigan ekzotik oʻsimliklarni oʻstirishga moʻljallangan maxsus xona. Parklarda sitrus va boshqa ekzotik oʻsimliklarni oʻstirishga qurilgan bir va bir necha zallik inshoot. Qishki bogʻ vazifasini ham bajaradi. XVIII asr Yevropa parklarida oranjereyalar saroylar yonida qurilib, sayr-tomoshha maqsadlarida ham foydalanilgan.

Pandus – bogʻlarda zinapoyalar oʻrniga ishlatiladigan qiyali yoʻlaklar.

Park – bogʻ-parkchilik sanʼati qonuniyatlari asosida shakllantirilgan va aholining dam olishi uchun moʻljallangan yashil massiv. Parklar vazifasiga koʻra sport, bolalar parkiga, madaniyat va istirohat parkiga, zooparkga, memorial parklarga va boshqa vazifalarga moʻljallanishi mumkin.

Parter – skverlar, parklarning serhasham joylari, jamoat binolari oldilarini bezovchi manzarali tekis maysazor yoki gulzor maydon. Parterda hovuzlar va haykallar ham boʻlishi mumkin. Parterlar gullik, maysalik va jimjimador naqshli xillarga ega.

Peyzaj – joy yoki tabiat manzarasining umumiy koʻrinishi; Hajm-fazoviy tuzilishi jihatidan ochik, yarim ochik, yarim yopiq va yopiq manzaralarga boʻlinadi.

Rabatka – xiyobon, yoʻlak boʻylab ekilgan uzun tasma koʻrinishdagi gulzor; bir yillik oʻsimliklarning bir yoki bir necha xillaridan koʻp qatorlab ekiladi.

Ritm – bogʻ-parkchilik sanʼati obyektlarida turli qiyosiy elementlarning maromiy tarzda takrorlanishi, qaytarilishi.

Rozarium – atirgullarning har xil turlari ekilgan park, bogʻning alohida qismi yoki alohida hududi.

Rokariy – bogʻ yoki parklarda gullar va manzaraviy oʻsimliklarning tabiiy toshlar, suv qurilmalari bilan birgalikda maxsus ishlangan qismi.

Rosha – park manzarasining bir xil turdagi daraxtlar (masalan, beryoza, dubrava) ekiladigan yirik (1–1,5 ga) kamponenti. Roshada daraxt tanalarining orasi ochiq bo‘lishi zarur.

Skver – shahar ichida uncha katta bo‘lmagan (to 1 gektargacha) qisqa vaqtli dam olish va ayrim me‘moriy komplekslarni bezash uchun mo‘ljallangan ko‘kalamzor hudud.

Soliter – alohida o‘sovchi chiroyil daraxt yoki buga kompozitsiyasi.

Trelyaj – tirmashuvchi o‘simliklar uchun sinch vazifasini bajaruvchi engil yog‘och panjara yoki boshqa materiallardan ishlagan shunday kurilma.

Topiar san’ati – daraxt va butalarni qirtishlab shakl berish san’ati.

1. BOG‘-PARKLARNI KO‘KALAMZORLATIRISHDA QO‘LLANILADIGAN O‘SIMLIKLAR

Virgin archasi – (можевелник виригинский). Bo‘yi 15–30 m ga yaqin daraxt. Shox-shabbasi tor tuxumsimon yoki yoyiq. Bu archa tanasining tubidan shoxlaydi, keyinroq bu shoxlari qurib tushib ketadi. Ninabarglari qarama-qarshi joylashadi. Yon novda yoki shoxchalari-dagi barglar mayda, tangachasimon bo‘lib, uzunligi 1–2 mm dan oshmaydi. Barglarida uzunchoq smola bezlari bor. Qubbalari 5 mm uzunlikda, shar shaklida bo‘lib, birinchi yili yetiladi.

Shimoliy Amerikaning g‘arbiy va sharqiy shtatlarida tarqalgan. Tuproq tanlamaydi. Quruq toshli, qumli botqoq hamda nam sho‘rtob tuproqlarda o‘saveradi. Qurg‘oqchilikka, havoning ifloslanishiga, soyaga chidamli. Uni yashil to‘siq sifatida yakkaxon (soliter) yoki guruhlar tarikibida ekish tavsiya etiladi.

Doim yashil sarvi. Bo‘yi 25–30 m gacha yetadigan keng shox–shabbali daraxt. Soyaga chidamli, ayniqsa, yoshlik davrida boshqa daraxtzorlarning shox-shabbalari ostida ham o‘sa oladi. Uzoq vaqt davom etgan qurg‘oqchilikka hamda qisqa davomli–200°Cgacha haroratga chidaydi. Tuproqqa kam talabchan, toshloq, ohakli hamda quruq yengil tuproqlarda ham o‘sadi, ammo tuproq kuchli sho‘rlanmagan bo‘lishi zarur. Ortiqcha namli tuproqlarda ko‘p yashamaydi va shamoldan zararlanadi.

Shahar sharoitiga chidamli. Uning shox-shabbalarini kesib har xil yashil sun‘iy shakllarni hosil qilish mumkin. Juda ko‘p yil yashaydigan tur.

Sharq biotasi – (биота восточная). Daraxt yoki buta, bo‘yi 10 m, shox–shabbasi piramida shaklida bo‘lib, vertikal o‘sadigan novdalardan tuzilgan. Novdalari yassi, pishiq. Barglari ninasimon, tangachasimon bo‘lib, uchi o‘tkir, bezli, tiniq yashil rangda. Sharq biotasi asosan, urug‘idan ko‘payadi, qalamchadan ham ko‘paytirish mumkin. U sekin o‘sadi, soyasevar, issiqsevar, qurg‘oqchilikka katta yoshida esa sovuqqa ham va gazlarga ham chidamli. Tuproq tanlamanydi. Lekin ohakli, qumloq tuproqlarda yaxshi o‘sadi. Ildizi baquvvat. Shoxlari egiluvchan bo‘lib, shamol ta‘siri va qor bosib qolishidan zararlanmaydi. Sharq biotasining qalin, sharsimon, shox-shabbali va egilib o‘svuchi shakllari bor. Ba‘zilari pakana, boshqalari baland bo‘yli, yashil-zangori rangda bo‘lib, juda chiroyli manzarali o‘sadi.

Sharq biotasi O'zbekistonning janubiy tumanlaridagi shahar va parklarda yaxshi o'sadi, uni yakka-yakka yoki guruh qilib ekish tavsiya qilinadi. U ko'kalamzorlashtirishda keng miqyosda foydalanilmoqda.

Amur toki – (виноград амирский) – uzunligi 15–20 metr gacha. Barglari yirik, to'q yashil, kuzga borib qizaradi. Sovuqqa va issiqqa chidamli. Zamburug'li kasalliklarga bardoshli. O'zbekistonda tik ko'kalamzorlashtirishda keng qo'llanilib kelinmoqda. Urug'i va navdasidan ekib ko'paytiriladi.

Berlande toki – (виноград Берланде) – uzunligi 10–12 metr gacha. Barglari keng tuxumsimon ko'rinishda, yashil rangda. Issiqqa va sovuqqa chidamli. Tez o'suvchi bo'lib, go'zal manzaraviy sifatlariga ega. Urug'i va navdasidan ekib ko'paytiriladi.

Amplepsis – (виноградовник короткотычинковый) (amplepsis) – uzunligi 5–7 metr gacha. Barglari yirik, yengil tugli, to'q yashil rangda. Binafsha ko'kish rangdagi mevalarga kirganda o'ta manzarali bo'ladi. Urug'i va navdasidan ekib ko'paytiriladi. Hosildor tuproqqa va namlikka talabchan.

Yapon yovvoyi toki – (виноградовник японский) (amplepsis) – uzunligi 3–4 metr gacha. Barglari panjasimon kaft shaklida, to'q yashil rangda. Mevalari ko'kimtir binafsha rangda issiqqa va sovuqqa chidamli. Parvarishga talabchan emas. Urug'i va navdasidan ko'paytiriladi. Kuz paytida barglari issiq sarik-qizil tusga kirishi bilan ajralib turadi.

Bosh bargli yovvoyi tok – (девичий виноград пятилисточковый) (partenotsisus) – tanasidan chiqadigan elim moddasi yordamida devorga yopishib 10–15 metr balandlikkacha o'suvchi manzarali lian. Barglari g'uj besh barmoqli, to'q yashil tusda. Issiqqa va sovuqqa chidamli. Parvarishga ehtiyoji yo'q. Uylar, binolar devorlari bo'ylab balandga, 4–5 qavatgacha o'suvchi kuchli buta. O'zining sariq-qizg'ish tusga kiruvchi barglari bilan kuz faslida ham o'ta manzarali. Urug'i va navdasidan ekib ko'paytiriladi.

Xitoy pechakguli – (glitsiniya kitayskaya) – 10–15 metr balandlikkacha o'sadi. Barglari qush parlariga yaqin shaklda, 10–15 sm uzunlikda, to'q-yashil tusda. Gullari sirensimon, uzunligi 60 sm gacha osilib turuvchi g'uj tubga birlashgan. Aprel–may oylarining oxirida gullaydi. Sovuqqa chidamli. Parvarishga talabchan emas. Urug'i va navdasidan ekib ko'paytiriladi.

Yapon shilvisi – jimolost yaponskaya–10–12 metr balandlikkacha o‘sadi. Barglari to‘q-yashil. Gullari oq, hidli. Maydan boshlab iyungacha gullaydi. Manzarali, tez o‘sovchi, parvarishga ehtiyojsiz doim yashil lian. Kuzda ekiladigan urug‘i va novdasidan ko‘payadi.

Kaprifol shilvisi – jimolost kaprifola –7–10 metr balandlikkacha o‘sadi. Barglari to‘q yashil tusda gullari oq-qizg‘ich tusda, juda xushbo‘y. Apreldan boshlab iyunchaga gullaydi. Quruqlikka chidamli, parvarish talab qilmaydi. Kuzda ekilgan urug‘i va novdalari orqali ko‘paytiriladi.

Braun shilvisi – jimolost Brouna – 3–4 metrgacha baland o‘sadi. Barglari oqchil-yashil rangda. Gullari sarg‘ish-qizil rangda. Maydan to kuzgacha gullab turadi. Kuzda ekilgan urug‘i va novdasidan ko‘paytiriladi.

Virgin ilon pechagi – lomonos virginskiy–6–7 metrgacha baland o‘sadi. Barglari qush pati shakliga yaqin ko‘rinishda, to‘q-yashil rangda. Gullari kirroq oq tusda. Maydan to iyungacha gullaydi. Sovuq va issiqqa chidamli. Urug‘i va novdasi orqali ko‘paytiriladi.

Jakman ilon pechagi – lomonos Jakmana (klematis Jakmana)–3–4 metrgacha o‘sadi. Mazkur lianning manzaraviy go‘zalligiga uning diametri 10 smgacha bo‘lgan yirik gullari sababchidir. Gullarining rangi binafsha, alvon, qizg‘ish tushlarda bo‘lib, maydan to sentyabrgacha butun tanasini yopib turadi.

Oddiy plyush – doim yashil bo‘lib, butoqlari yordamida tirmashib va chirmashib o‘sovchi lian. 10–15 metrgacha o‘sadi. Barglari to‘q – yashil tusda, uch panjali. Soyaga chidamli, namlikni sevuvchi, sovuqqa unchalik bardoshli emas. Plyush daraxtlar ostida, soyali joylarda yer yopar o‘simlik tarzida ham foydalanilishi mumkin. Bo‘toqlari yordamida ko‘paytiriladi.

Qattik popukli puerariya – puerariya jestkovolosaya–yirik lian hisoblanib, uzunligi 20–25 metrgacha bo‘ladi, juda tez o‘sadi. 1 yilda to 10–15 metrgacha o‘sishi mumkin. Barglari yirik, uch qismli. Gullari binafsha rangda, g‘uj to‘pli, uzunligi 20 smgacha bo‘ladi. Iyundan oktyabrgacha gullaydi. Tuproq tanlamaydi. Iloji boricha soya tushmaydigan ochiq muhitda ekilishi lozim, davri bilan sug‘orib turish zarur. Butog‘i, ildizi, novdalari yordamida ko‘paytiriladi.

Tekoma, kampsis ildizlanuvchi kuchli lian. O‘zidan chiqargan elimlar orqali yopishib 15–25 metrgacha yuqoriga o‘sovchi o‘simlik. Barglari qush parlariga o‘xshash, yashil tusda. Gullari qo‘ng‘iroqsimon

10–12 sm uzunlikda, to‘q sariq qizg‘ish rangda. Maydan boshlab to kech kuzgacha gullab turadi. Issiqqa va sovuqqa, quruqlikka chidamli. Urug‘i, butoqi, ildizi, novdalari orqali ko‘paytiriladi.

Maydabargli yapon normushgi – beresklet yaponskiy melkolistniy – 0,8 metrgacha o‘sadi. Barglarining usti tukli, to‘q-yashil. Bordyurlar uchun keng qo‘llash mumkin. Qishning qahraton sovuq kunlari yosh butoqlarini sovuq urishi mumkin. Umuman olganda sovuqqa chidamli. Novdalari yordamida ko‘paytiriladi.

Yirik bargli yapon normushgi – beresklet yaponskiy krupolistniy – 2 metr balandlikkacha o‘sadi. Barglari yashil. Maydabarglisiga ko‘ra sovuqqa chidamsizroq. Guruhlar, bordyurlar uchun qo‘llaniladi. Novdalari yordamida ko‘paytiriladi.

Buksus – shamshot – 2–3 metr balandlikkacha o‘sadi. Sharsimon va ovalisimon shakllari mavjud. Barglari mayda, tukli. Guruh kompozitsiyasi, tirik yashil to‘siq va klumbalar markaziga yakka holda ekishga mo‘ljallangan. Sekin o‘sishi sababli tabiiy shaklini yaxshi saqlaydi. Novdachalari yordamida ko‘paytiriladi.

2. LANDSHAFT REJALASHTIRISH BO‘YICHA REYTING NAZORATI UCHUN TUZILGAN TEST SAVOLLARI:

1. Shaharning magistral ko‘chalarini ko‘kalamzorlashtirishda qanday daraxtlar tanlanadn?

A. *Gazga, changga, shovqinga chidamli hamda trotuarga soya beruvchi daraxtlar*

B. *Shovqinga, shamolga chidamli, baland o‘sovchi daraxtlar*

S. *Suvsizlikka va gazga chidamli baland o‘sovchi daraxtlar*

D. *Soya beruvchi, chiroyli gullovchi daraxtlar*

2. Qaysi orientatsiyali xiyobonlar O‘zbekistonda yopiq xiyobon ko‘rinishida ko‘kalamzorlashtirilishi kerak?

A. *Shimoliy-janub, janubiy-g‘arb orientatsiyali*

B. *Janubiy-sharq orientatsiyali*

S. *Shimoliy-g‘arb orientatsiyali*

D. *Sharqiy-g‘arb orientatsiyali*

3. Yopiq xiyobonlar qanday daraxtlardan shakllantiriladi?

A. *Safora, kashtan, chinor, dub, zarang*

B. *Zarang, majnuntol sarv, archa*

S. *Tol, chinor, qayin, biota*

D. *Sosna, archa, terak, tuya*

4. Ochiq xiyobonlar qanday daraxtlardan shakllantiriladi?

A. *Piramida simon dub, archa, mojjevelnik, kiparis)*

B. *Kashtan, zarang, dub chereshchatiy, safora*

S. *Chinor, magnoliya, qayin, tuya*

D. *Yasen, kanada, bagryannigi, lipa, kashtan*

5. Ko‘p funksiyali parklar hududi qanday funksional zonalarga ajratiladi?

A. *Ommaviy tadbirlar va attraksionlar, sport, bolalar tinch dam olish va sayr qilish, xo‘jalik zonalari*

B. *Ommaviy o‘yinlar, tomoshagohlar, sayrgohlar va xo‘jalik zonalari*

S. *Ommaviy o‘yin va tomoshalar zonasi, attraksionlar sport va sayr qilish zonasi*

D. *Ma‘naviy dam olish, sayr qilish, bolalar va xo‘jalik zonasi*

6. Ko'p funksiyali parklar hududining balansi qanday bo'lishi kerak?

A. Ko'kalamzorlar- 70–75 %, yo'laklar, xiyobonlar, maydonlar 20–25 %, bino va inshootlar- 5–10 %

B. Ko'kalamzorlar-80 %, yo'lak, xiyobon, maydonlar – 15 %, bino va inshootlar- 5 %

S. Ko'kalamzorlar- 60–70 %, yo'lak, xiyobon, maydonlar – 30 %, bino va inshootlar – 2 0%

D. Ko'kalamzorlar- 85 %, yo'lak, xiyobon, maydonlar – 10 %, bino va inshootlar – 5 %

7. Madaniyat va istirohat parki ichida qanday binolarni joylashtirish man etiladi?

A. Mehmonxonani, sirk binosini, bank binosini

B. Teatr binosini, yoshlar markazi binosini, restoranni

S. Stadionni, suv basseynini ko'rgazmalar zalini

D. To'yxonani amfiteatrni, raqslar zalini

8. Vertikal (tik) ko'kalamzorlashtirishda qo'llaniladigan o'simliklar qatorini to'g'ri ko'rsating:

A. Devichiy vinograd, tekoma, puerariya, plyush

B. Vinograd amurskiy, buksus, beresklet, magoniya

S. Glisiniya kitayskaya, ligustrum, forzisiya

D. Deysiya, jasmin, ayva yaponskaya buzina

9. Yozin-qishin ko'm-ko'k bo'lib o'suvchi lianlar qatorini ko'rsating:

A. Oddiy plyush, yapon jimolost

B. Jimolost, kaprifol, virgin, lomonosi

S. Puerariya, xitoy glisiniyasi

D. Tekoma, yapon jimolosti

10. O'zbekiston bog'-parklarida soya-salqin hosil qilish uchun 1 gektar hududga qancha daraxt ekilishi maqsadga muvofiq?

A. 250–300 daraxtgacha

B. 200–250 daraxtgacha

S. 350–400 daraxtgacha

D. 50–200 daraxtgacha

11. Bog'-parklar kompozitsiyasini shakllantirishda qanday tarixiy milliy stillar mavjud?

A. Fransuzcha, italyanacha, inglizcha bog' stillari, yaponcha, xitoycha stil, Chorbog' stili, ispan-mavritan stili

B. Yunoncha, misr, Eron, xindcha bog' stillar

S. Gollandcha, nemischa, turkcha, ispancha stillar

D. Ruscha, fincha, estoncha, arabcha bog' stillari

12. Park ssenariyalari deganda nimani tushunasiz?

A. Park hududining manzara va peyzajlari, ularning bir-biridan farkanib, uzgarib turishini

B. Park hududi uchun tanlangan daraxtlar manzarasini

S. Park hududidagi mavjud suv havzalari va akvazona ko'rinishlarini

D. Park inshootlari va qurilmalarining perspektiv ko'rinishlarini

13. Landshaft rejalashtirishda qo'llaniladigan suv qurilmalarining klassifikatsiyasi»ni to'g'ri ko'rsating:

A. Hovuzlar, ariqlar, prudral, ko'llar

B. Ko'llar, prudlar. Kanallar, ariqlar

S. Sharsharalar chadarlar, ko'llar

D. Favvoralalar, shalola, sharasharalar, hovuzlar

14. Landshaft rejalashtirishda tanlangan o'simliklarga yoziladigan talabnomada nimalar ko'rsatiladi?

A. O'simliklarning nomlari, yoshi, soni, shartli belgilari

B. O'simliklarning balandligi va yoshi, soni

S. O'simliklarning biologik xususiyatlari va soni

D. O'simliklarning tashqi ta'sirlarga chidamlilik darajasi

15. Dendroloyiha deb nimaga aytiladi?

A. Tanlangan daraxt va o'simliklar, ularning joylashish va eqilish tartibi ko'rsatilgan loyiha

B. Sug'orish suv ta'minoti tarmoklari ishlab chikilgan loyiha

S. Yer arxitekturasi ishlab chikilgan loyiha

D. Tashqi obodonlashtirish jihozlari ishlab chikilgan loyiha

16. Quyidagi qaysi javobda manzarali o'simliklar dunyosi to'g'ri ko'rsatilgan?

A. Daraxtlar, butalar, lianlar, gullar, maysalar, yeryopar o'simliklar

B. Daraxtlar, butalar, suv ostida va suv ustida usuvchi o'simliklar

S. Daraxtlar, daraxt-butalar, buta-daraxtlar, lianlar, tikonli o'simliklar

D. Daraxtlar, butalar, maysalar, o'tlar, suv usti gullari va manzaralar

17. Daraxtlar va butalarning dekorativ-biologik xususiyatlariga nimalar kiradi?

A. Tashqi shakli, balandligi, bargi va gullarining tuzulishi, rangi, qachon va qancha vaqt gullashi, mevasining shakli va rangi, shox va butoqlarining tig'isligi.

B. Tashqi shakli, sovuq va isiqlikka, suvsizlikka chidamliligi gaz va chang, shovqin ta'sirida bardoshlilik darajasi

S. Balandligi va hajmiy ko'rinishi, tuproqni tanlashi

D. Barg va gullarining tuzilishi va rangi, shox-shabbalarining tig'isligi

18. O'zbekiston hududi daraxt va butalarning o'sish imkoniyatlariga qarab qanday zona va tumanlarga bo'linadi?

A. Shimoliy-g'arbiy, markaziy, janubiy, sharqiy zonalarga va 11 ta rayonga

B. Shimoliy-sharqiy janubiy zonalarga va ularg tegishli 11 ta rayonga

S. Shimoliy-g'arbiy, markaziy, g'arbiy va sharqiy zonalarga va 14 ta rayonga

D. Markaziy, sharqiy, g'arbiy zonalarga va 12 ta rayonga

19. Yashil to'siqlar, bordyurlar, yashil devorlar, bosketlar, labirintlar qanday o'simliklardan ishlanadi?

A. Doim yashil butalardan

B. Doim yashil daraxtlardan

S. Gullovchi butalardan

D. Lianlardan

20. Landshaft loyihalashda qo'llaniladigan gullarning turlarini to'g'ri ko'rsating:

A. Bir yillik, ikki yillik, ko'p yillik gullar

B. Bir yillik, uch yillik, o'n yillik gullar

S. Mevali va mevasiz gullar

D. Tabiiy va sun'iy gullar

21. Gullardan shakllantiradigan landshaft kompozitsiyalarini to'g'ri ko'rsating:

- A. Soliter, klumbalar, rabatkalar, miksborderlar, massivlar
- B. Klumbalar, segmentlar freskalar, rozariyalar
- S. Miksborderlar, guruhlar, buketlar, kurtinalar
- D. Massivlar rabatkalar kurtinalar, freskalar

22. Klumbalar rabatkalardan qanday firq qiladi?

A. Klumbalar maydonlar, chorraxalar, yo'llar, xiyobonlar ichida, rabatkalar esa yo'llar atrofida, xiyobonlar, trotuarlar chetida shakllantiriladi

B. Rabatkalar—bu kvadrat, aylana, uchburchak shakllardabo'lsa, klumbalarcho 'zinchoq lentasimon yoki yoysimon shakllarda bo'ladi

S. Klumbalar daraxtdan, rabatkalar esa gullardan shakllantiriladi

D. Klumbalar butalardan rabatkalar esa daraxtlardan shakllantiriladi

23. Miksborderlar gul massivlaridan qanday farqqiladi?

A. Miksborderlar gul massivlaridan egallagan maydonining kattaligi bilan fark kiladi

B. Miksborderlar gul massividan deyarli fark qilmaydi

S. Miksborderlar gul massivlaridan tik ko'kalamzorlashtirishda qo'llanishi bilan fark qiladi

D. Miksborder bu aralash bordyur yoki aralash rabatkadir gulmassivi esa bir yoki ikki xil tonli parter ko'rinishli yirik gulzorlar hisoblanadi

24. Miksborderlar qanday o'simliklardan tashkil qilinadi?

A. Buzina, xitoy miskzntusi, buzilnik, molochay

B. Oddiy plyush, tekoma, agava, viola

S. Agava, palma, doimiy gullovchi begoniya, plyushsimon pelar-goniya, fuksiya

D. Xrizantema, hind dyusheneyasi, georginiya

25. Klumbalarning tarkibiy qismlari nimalardan tashkil topadi?

A. Gullardan, bordyurlardan, haykallardan

B. Gullardan, maysalardan, bordyurlardan, toshlardan

S. Gulladan, g'ishtlardan butalardan

D. Gullardan, toshlardan suvhavzasidan

26. Maysalar qanday shakllantiriladi?

A. *Maysa yoki yeryopar o'simligining urug'ini ekib, chimlashtirishusuli bilan, sun'iy yo'l bilan*

B. *Maysa yoki yeryopar o'simliklarning ko'chatini ekib, chimlashtirib*

S. *Chimlashtirib, georginiya va xrizantemalarni ekib*

D. *Faqat yeryopar o'simliklar bilan*

27. Dekorativ parter maysazorlar qanday o'simliklardan shakllantiriladi?

A. *Raygras pastbishniy, qizil osvyannisa, myatnik, lugoviy, katta va kichik barvinok, verbeynik, dyusheneya*

B. *Oddiy plyush, xitoy glisiniyasi, beda, floks*

S. *Raygras pasbishniy, oq beda, timofeevka lugovaya, jivuchka*

D. *Oq beda, oddiy grebennik, timofeevka, agava, viola*

28. Daraxtlardan tuziladigan landshaft kompozitsiyalarini to'g'ri ko'rsating:

A. *Guruhlar, soliterlar, qatorlar, massivlar, kurtinalar*

B. *Guruhlar, rabatkalar, miksborderlar, soliterlar*

S. *Qatorlar, klumbalar, massivlar, bosketlar*

D. *Rabatkalar qatorlar, kurtinalar, bosketlar*

29. Ochiq yashil muhitlar ko'rsatilgan qatorni to'g'ri belgilang:

A. *Klumbalar, rabatkalar, rozariyalar, miksborderlar, dekorativ maysazorlar*

B. *Xiyobonlar, rabatkalar, maysazorlar guruhlar*

S. *Bulvarlar, klumbalar va miksborderlar*

D. *Guruhlar, qatorlar, maysazorlar*

30. Yopik yashil muhitlar ko'rsatilgan qatorlarni aniq belgilang:

A. *Aguruhlar, xiyobonlar, massivlar, qishgi bog'lar, o'rmonlar*

B. *Soliterlar, kurtinalar, rabatkalar, parterlar*

S. *Klumbalar, rabatkalar, maysazorlar, qishgi bog'lar*

D. *O'rmonlar, miksborderlar, rabatkalar, parterlar*

31. Daraxt va butalar qanday tamoyillarga asoslanib tanlanadi?

A. *Funksional vazifasiga, badiiy-dekorativ, sanitariya-gigiyenik, biologik xususiyatlari va sifatlariga ko'ra*

B. *Suvsizlikka, issiq va sovuqqa chidamlilik darajasiga ko'ra*

S. Tuproqning holati va hosildorligiga ko'ra
D. Chang-to'zon, gaz, tutunlarga chidamliligiga

32. Istirohat bog'larining qancha foiz hududi ommaviy tadbirlar va attraksionlar zonasiga ajratiladi?

- A. 20–25 %.*
- B. 45 %.*
- S. 30–35 %.*
- D. 40 %*

33. Quyidagi daraxt va butalarning qaysi birlari yozin-qishin ko'm-ko'k bo'ladi?

- A. Kiparis, samshit, tuya, biota, mojjevelnik, krim karagayi*
- B. Mojjevelnik chinor, zarang, kashtan, yasen*
- S. Kashtan, kayin, bagryannik, tuya, yasen, dub*
- D. Biota, safora, gledexiya, jimolost, lipa, dub*

34. Soliter kompozitsiyasini yaratish uchun quyidagi daraxtlarning qayerlaridan foydalanish zarur?

- A. Qrim qarag'ayi (sosna), kumush archa, tuya, kashtan, dub, biota*
- B. Gledexiya, mojjevelnik chinor, qayrag'och, tuya, majnuntol, tut, olma*

- S. Yapon saforasi, barbaris, siren, terak, akatsiya, tol*
- D. Majnuntol, akatsiya, dub, samshit, mojjevelnik*

35. Klumbalarga ekiladigan gullarning nomini ko'rsating:

- A. Tyulpan, kann, gladios, narsissa, margaritka*
- B. Xrizantema, ayva yaponskaya, pion, georgina*
- S. Iris, romashka, gvozdika, forzisiya, jasmin*
- D. Shalfey, astra, viola, kasluzsa, sedum, salviya*

36. Soliter kompozitsiya uchun ekiladigan butalarning nomlarini ko'rsating:

- A. Siren, chibushnik, shipovnik, atirgul*
- B. Jimolos, kalina, lox, plyush*
- S. Forzisiya, floks, kann, alternater*
- D. Qizil kalina, sudum, tillorang fuksiya*

37. Tashqi ko'rinishi ustunsimon shaklga ega bo'lgan daraxtlarning nomlarini ko'rsating:

- A. Virgin mojjevelnigi, sharq biotasi, kiparis*
- B. Sosna, dub, pixta, jimolost, lip*
- S. Archa, qarag'ay, zarang, tol, tuya zapadnay*
- D. Chinor, archa, dub, kashtan konskiy, akatsiya*

38. Quyidagi o‘simliklardan qaysi biri tikonli butalardir?

A. Boyarishnik, gladichiya, maklyura, shipovnik, lox

B. Smorodina alpiyskaya, kizilnik, jasmin

S. Floksiya, xrizantema, gibiskus

D. Vyaz kustoviy, chibushnik, spireya, akatsiya jeltay

39. Alpinariya deganda nimani tushunasiz va u qanday muhitda qo‘llaniladi?

A. Tabiiy toshlardan va baland tog‘ o‘simliklaridan tuzilgan mo‘jaz bog‘, ichki va tashqi muhitda qo‘llaniladi

B. Turli xil gullardan tuzilgan gulzor, ochiq yashil muhitda qo‘llaniladi

S. Bir xil gulning turli sortlaridan tuzilgan gulzor, tashqi muhitda qo‘llaniladi

D. Tosh va suv sharshalaridan iborat mo‘jaz kompozitsiya, faqat tashqi muhitda qo‘llaniladi

40. Bog‘-parklarda "guruh" deb nimaga aytiladi?

A. manzaraviy park peyzajining muhim kompozitsiya elementi, odatda, toq sonli (2 tagacha bo‘lgan) daraxtlar, butalar yoki gul o‘simliklaridan tashkil bo‘ladi

B. Faqat daraxtlar va butalardan tashkil topgan landshaft kompozitsiyasi

S. Faqat buta va gullardan tashkil topgan landshaft kompozitsiyasi

D. Faqat gullardan tashkil topgan landshaft kompozitsiyasi

41. Bog‘-parklarni shakllantirishda qanday kompozitsiyaviy vositalar va usullar qo‘llaniladi?

A. Muhit va uning elementlari masshtabiga rioya qilish, kontrast, nyuans, metr, ritm va mutanosiblik qoidalarini qo‘llash

B. Kompozitsiyaviy markaz bosh va yordamchi o‘qlar va aksentlarni bo‘rttirish

S. Ranglar yaxlitligi va koloristik uyg‘unlikka erishish

D. Landshaft dizayni va fitodizayn elementlari

42. Maxsus parklarga qanday parklar kiradi?

A. Sport parklari, ko‘rgazmali xususiyatga ega bo‘lgan park-muzeylar, milliy parklar

B. Zooparklar qo‘riqxonalar, madaniyat va istiroxat parklari

S. Madaniy-ko‘ngil ochar, madaniy okartuv, bolalar parki, gidroparklar

D. Madaniyat va istiroxat parklari, disney-lendlar.

43. Quyidagi nomlari keltirilgan o'simliklardan har doim yashil bo'lib o'suvchi butalarni ko'rsating:

- A. *Samshit, bresklet yaponskiy, magnoliya*
- B. *Bryuchina obiknavennaya, tekoma, grebenshik*
- S. *Siren, boyarishnik obiknavenni*
- D. *Kalina obiknavennaya, kizilnik blestyashiy*

44. Maysazor o'rnida yashil manzarali tekis o'tzor hosil qiluvchi ko'p yillik o'simliklarni to'g'ri ko'rsating:

- A. *Veronika polzuchaya, sedum edkiy, floks dernistiy, plyush, alternatera*
- B. *Jimolost, mojevelnik kazaskaya, astra.*
- S. *Vakklyura, gledichiya, spireya, xrizantema, alternatera, astra, mojevelnik kazaskaya*
- D. *Plyush obiknavenni, glinisiya kitayskaya, vinofad amurskaya.*

45. Parter va skver muhitining bir-biridan farqini asosan nimada ko'rasiz?

- A. *Parter skverning ochiq maysazor va gulzorlardaniborat qismidir*
- B. *Parter bu asosan yopiq yashil muhit bo'lib, skverlardaesa ochiq yashil muhit ham mavjuddir*
- S. *Parter bu ochiq yashil muhit bo'lib, skverlarda esa yopiq yashil muhit ham mavjuddir.*
- D. *Parter va skver orasida deyarli farqi yo'q*

46. Arabeska deganda nimani tushunasiz?

- A. *Parter va klumbalarda qo'llaniladigan manzarali barglar va gullovchi o'simliklardan yoki mayda toshlardan terib ishlangan geometrik naqsh*
- B. *O'rtasida yumalok tosh yoki maysa joylashgan halqasimon gulzor*
- S. *Aralash bordyurning bir turi*
- D. *Rabatka tipidagi gulzorlarning bir ko'rinishi*

47. Geoplastika deganda nimani tushunish zarur?

- A. *Zinapoyalar, panduslar, tirkak devorlar, terassalar, otkoslar va joy relefiga badiiy ishlov berish san'ati*
- B. *Panno, zonapoyalarpanduslar, tirkak devorlar, terassalar yaratish san'ati*
- S. *Panduslar, pannolar, tasviriy oyna elementlari, hovuzlarni badiiy yaratish*

D. Tirgak devorlar, yer arxitekturasini ishlash svetilniklarni urnatish

48. "Modulli bog'" deb nimaga aytiladi va u nimalardan tashkil topadi?

A. Bu geometrik to'g'ri shaklli elementlardan tashkil topgan gul Kompozitsiyasi – gullar bog'i

B. Bu o'simliksimon naqshli shakllardan tuzilgan butalar kompozitsiyasi

S. Bu geometrik to'g'ri shaklli elementlardan tuzilgan butalar bog'i

D. Bu o'simliksimon shaklli elementlardan tuzilgan gullar kompozitsiyasi

49. Bog'-park obyektlarining landshaft loyihalari qanday masshtablarda chizilishi kerak?

A. 1:2000,1:1000,1:500

B. 1:1000,1:500,1:200

S. 1:500,1:400, 1:200,1:100

D. 1:10, 1:25, 1:50, 1:100

50. Maysazorlarning qanday xillari mavjud?

A. Sport maysazori, maxsus maysazorlar, dekorativ

B. Dekorativ maysazor, sport maysazori, park maysazori.

S. Parter maysazor, gulli maysazor, oddiy maysazor.

D. Maxsus maysazorlar, gulli maysazor, park maysazori.

51. Tashqi ko'rinishi ustinsimon ko'rinishga ega bo'lgan daraxtlarning nomlarini ko'rsating:

A. Archa, qarag'ay, zarang, tol, tuya

B. Virgin mojevelnigi, shark biotasi, kiparis

S. Sosna, dub, pixta, jimolist, lipa

D. Chinor, archa, dub, soxta kashtan, kiparis

52. Madaniyat va istirohat bog'larining asosiy funksional zonalarini to'g'ri ko'rsating:

A. Tinch dam olish va sayr qilish, ommaviy tadbirlar va attraksionlar, sport, bolalar va xo'jalik zonalari

B. Ommaviy o'yinlar, tomashagoxlar, sayrgoxlar xo'jalik zonalari

S. Ommaviy o'yin va tomashalar zonasi, attraksionlar zonasi, sport zonasi, sayr zonasi

D. Ommaviyi va tomashalar zonasi ma'naviy dam olish va sayr qilish zonasi

53. Parklarda tuzilishi jihatidan qanday ko'rinishdagi ko'kalamzorlar bo'lishi lozim?

A. Daraxtlar va butalar

B. Gulzorlar, maydonlar va maysalar

S. Yopiq, yarim yopiq yashil zonalar

D. Umumiy foydalaniluvchi va qisman foydalanuvchi ko'kalamzorlar

54. Parklarning ommaviy-madaniy tadbirlar zonasida qanday bino yoki inshootlar bo'lishi kerak?

A. Ko'rgazma zallar, estrada, raqslar maydoni

B. Yozgi teatr, kinoteatr, attraksionlar

S. Attraksionlar, favvoralar, maydonlar

D. Ochiq maydonlar, raqs maydoni, yozgi teatr

55. Parklarda bino va inshootlar egallagan maydon necha foizdan oshmasligi kerak?

A. 15 % dan

B. 5 % dan

S. 20 % dan

D. 10 % dan

56. Madaniyat va istirohat bog'larida qanday xiyobonlar va yo'laklar mavjud?

A. Bosh xiyobon, katta va kichik sayr qilish xiyobonlari va yo'laklari

B. Ochiq va yopiq xiyobonlar va yo'laklar

S. To'g'ri chiziqli va yoy shaklidagi xiyobonlar

D. Asosiy va yordamchi xiyobonlar va yo'laklar

57. Parklar va skverdlarda gullarni ranglari bo'yicha tanlab ekishda qanday qoidalarga rioya qilish lozim?

A. Ranglar kontrasti, nyuansi va neytral tonlar qoidalariga

B. Axromatik ranglar uyg'unligiga

S. Xromatik ranglar mutanosibligiga

D. Arxromatik va xromatik ranglar uyg'unligiga

58. Maysazor o'rnida yashil manzarali tekis o'tzor hosil qiluvchi ko'p yillik o'simliklarni to'g'ri ko'rsating:

A. *Veronika polzuchaya, sedum edkiy, floks dernistiy, plyush, alternatera*

B. *Jimolost, mojevelnik kazaskaya, astra.*

S. *Makklyura, gledichiya, spireya, xrizantema, alternatera, astra, mojevelnik kazaskaya*

D. *Plyush obiknavenniy, glinisiya kitayskaya, vinofad amurskaya.*

59. Parter va skver muhitining bir-biridan farqini asosan, nimada ko'rasiz?

A. *Parter skverning ochiq maysazor va gulzorlardan iborat qismidir*

B. *Parter bu asosan, yopiq yashil muhit bo'lib, skverlarda esa ochiq yashil muhit ham mavjuddir*

S. *Parter bu ochiq yashil muhit bo'lib, skverlarda esa yopiq yashil muhit ham mavjuddir.*

D. *Parter va skver orasida deyarli farqi yo'q*

60. "Quruq peyzaj" uslubida ishlangan yapon mo'jaz bog'i nimalardan tashkil topadi?

A. *Tosh ko'prik va to'shamalaridan*

B. *Qum, tosh va suv havzalaridan*

S. *Qum, tosh va mayda shag'allardan*

D. *Basseyn, maysa va toshlardan*

61. Sharq mamlakatlarining o'rta asrlar bog'-parklarini nechta va qanday guruhlarga ajratish mumkin?

A. *Ikkita: Islom sharqi mamlakatlar bog'lari va buddizm tarqalgan Uzoq Sharq mamlakatlari bog'lari*

B. *Uchta: Yaqin Sharq, O'rta Sharq va Uzoq Sharq bog'-parklari*

S. *Uchta: Islom Sharqi, buddizm sharqi, xristian sharqi bog'-parklari*

D. *To'rtta: Yaqin Sharq, O'rta Sharq, O'rta Osiyo va Uzoq Sharq bog'-parklari*

62. Yaqin va O'rta Sharq bog'-park san'tidagi alohida e'tiborga loyiq va tansiq narsa nima?

A. *Suv va soya*

B. *Yer va daraxtlar*

S. *Daraxtla va hayvonot dunyosi*

D. *Suv va hayvonot dunyosi*

63. Bog'lardagi yashil muhit deganda nimani tushunasiz?

- A. Bog'lardagi yashil massivlar, daraxtzorlarni
- B. Bog'lardagi butazorlar va qo'riqxonalarni.
- S. Bog'lardagi gulzorlar, yashil maydonlar va maysazorlarni
- D. Bog'lardagi hovuzlar va ariqlarni.

64. Temur bog'laridagi saroylar qanday joylarga qurilgan?

- A. Tabiiy yoki sun'iy tepaliklar ustiga
- B. Ko'l yoki suv havzalariga yaqin joylarga
- S. Manzarali daraxtzorlar va butazorlar ichiga
- D. Bog' darvozalariga yaqin bo'lgan joylarga

65. Yapon milliy bog'ining go'zalligi qanday g'oyalarga asoslangan?

- A. Muhitni miniatyuralashtirish va timsol (simvol)lashtirish g'oyalariga
- B. Yashil dunyoning jozibador manzarasini bo'rttirish g'oyasiga
- S. Suv dunyosining jozibalarini ko'rsatish g'oyasiga
- D. Tog'u-toshlardan turli xil kompozitsiyalar yaratish g'oyasiga

66. "Ban-say" san'ati ilk bor qaysi mamlakat bog'larida shakllanib vujudga kelgan?

- A. Yaponiya
- B. Xitoy
- S. Koreya.
- D. Vetnam

67. Zamonaviy Yapon bog'lari relefining holatiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?

- A. Qirlik va tekis bog'larga.
- B. Qirlik va past-baland bog'larga.
- S. Qirlik, tekis va past-baland bog'larga.
- D. Tekis va past-baland bog'larga.

68. Yapon bog'lari kompozitsion tuzilishi va tarkibiy qismlariga ko'ra qanday xillarga bo'linadi?

- A. To'liq, yarim qisqargan va qisqargan xillarga
- B. To'liq va qisqargan xillarga
- S. Yarim qisqargan va qisqargan xillarga
- D. Ochiq va yopiq xillarga

69. Yaponiyada mo'jaz bog'larning qanday yangi turlari mavjud?

A. Bino tomlari ustidagi bog'lar, balkon va erker bog'lari, piyodalar ko'chalari bog'lari, xususiy hovli bog'lari

B. Bolalar bog'lari va oranjereyalar

S. Hayvonlar bog'lari va gidroparklar

D. Akvarium va okeanirum bog'lari

70. Yaponiya bog'lariga xos asosiy o'simliklar turini ko'rsating:

A. Yapon sosnasi, klen, sakura, kameliya, azaliya, magnoliya, safora, bambuk

B. Kiparis, dub, safora, klen, yapon bereskleti.

S. Kedr, klen, bambuk, iva plakuchaya, shekovisa.

D. Yapon bereskleti, mojjavelnik kedr, palma

71. Ekzotik o'simliklar deb qanday o'simliklarga aytiladi?

A. O'zga yurtlardan keltirilgan, odatda, faqat mevali o'simliklarga

B. Mahalliy sharoitlarda yaxshi o'sadigan, o'ta nafis manzaraviy o'simliklarga

S. Ko'p yillik uzoq gullvochi o'ta nafis gul o'simliklarga

D. Yuksak manzaraviydekorativ sifatlarga ega bo'lgan, odatda, o'zga yurtlardan keltirilgan va mahalliy sharoitlarda yovvoyi holda o'smaydigan o'simliklarga

72. Ko'kalamzorlarning elementlariga nimalar kiradi?

A. Daraxtlar, butalar, lianlar, gulzorlar, maysazorlar

B. Toshloq maydonlar, daraxtlar, qirvaadirlar, butalar

S. Yo'laklar, xiyobonlar, maydonlar, gulzorlar, maysalar

D. Daraxtlar, butalar, suv havzalari va maydonlar

73. Qanday gulzorlar erkin tabiiy kompozitsiyalarga ega bo'ladi?

A. Miksborderlar, guruhlar, rokariyalar

B. Rabatkalar, klumbalar, parterlar

S. Miksborderlar, rokariyalar, klumbalar

D. Rabatkalar, guruhlar, porterlar

74. “Topiarbog‘” deb qanday bog‘ga aytiladi?

A. Daraxt va butalar qirtishlanib sun‘iy shakllar berilgan dekorativ kompozitsiyalarga boy bog‘larga

B. Toshloq, gullar, erylpar o‘simliklar va butalardan tuzilgan bog‘larga

S. Suv havzalari va ko‘llarga, qirg‘oqlari bog‘larga

D. Landshafti buzilgan va qayta tiklangan bog‘larga

75. Me‘moriy landshaft tuzilishi bo‘yicha muntazam stilidagi bog‘ fransuz stilidagi bog‘dan qanday farqqiladi?

A. Hech qanday farq qilmaydi

B. Relefiga ko‘ra farq qiladi

S. Suv havzasining borligi yoki yo‘qligiga qarab

D. Muntazam stilda topiar san‘ati bor, fransuz stilida esa yo‘q

76. Bog‘ maydonining kattaligi park maydonidan qanday farqqiladi?

A. Bog‘maydoni, odatda, 2 gektargacha bo‘lsa, eng kichik park 5 gektardir

B. Bog‘ maydoni 1 gektardan oshmaydi, park esa 100 gektardan

S. Bog‘ maydoni 0,5 gektardan oshmaydi, park esa 50 gektardan

D. Bog‘ maydonining kattaligi park maydonidan farq qilmaydi

77. Rabatka gulzorining eni qanday o‘lchamlarda bo‘lmaydi?

A. 0,5 dan 2 metrgacha

B. 0,1 dan 1 metrgacha

S. 0, 5 dan 3 metrgacha

D. 1 dan 4 metrgacha

78. Rus stilidagi bog‘larga xos bo‘lgan xususiyatlarni ko‘rsating?

A. Faqat muntazam rejaviy landshaft yechimida ishlanishi, bog‘larda olma, nok va qoroli daraxtlarining bo‘lishligi

B. Muntazam va peyzaj tipidagi rejaviy landshaft kompozitsiyalarining uyg‘unlashuvi, mevali xo‘jalik bog‘larining mavjudligi

S. Faqat peyzaj tipidagi landshaft yechimida ishlanishi, mevali xo‘jalik bog‘larining bo‘lishligi

D. Bog‘larda suv havzalarining ko‘pligi, rejasining peyzaj usulida ishlanishi

79. Dekorativ maysazorlarning turlarini to'g'ri ko'rsating:

A. Parter maysazorlar, ommaviy maysazorlar, gugoviy maysazorlar, mavritan maysazori

B. Bir yillik va ko'p yillik maysazorlar

S. Gulli va gulsiz maysazorlar

D. Aralash va toza maysazorlar

80. Maysazorlarni yaratish usullarini to'g'ri ko'rsating:

A. Tuxumini ekish, chimlashtirish, ajrig'idan ko'paytirish, gidroposev usullari

B. Gidroposev usuli, chatishtirish usuli, tuxumini ekish usuli

S. Ajrig'idan ko'paytirish, chatishtirish va ko'chirib o'tqazish usullari

D. Ko'chirib o'tqazish, tuxumdan va gidroposev

81. Parklarda 1 kishiga qancha ko'kalamzor yuza to'g'ri kelishi kerak?

A. 6–7 m²

B. 10–12 m²

S. 8–9 m²

D. 4–5 m²

82. Bog'-parklarni loyihalashda qanday loyiha hujjatlari ishlab chiqiladi?

A. Bosh reja, dendroloyiha, tik rejalashtirish chizmasi

B. Bosh reja, bog'-parkni loyihalash uchun hokimiyat qarori

S. Dendroloyiha, bog'-parkni loyihalash uchun bank qarori

D. Dendroloyiha, bog'-parkning me'moriy g'oyasi, geodezik hujjat

83. Bog'-parklarni loyihalashda qanday loyiha hujjatlari ishlab chiqiladi?

A. Drenaj, sug'orish va yoritish tizimlarining sxemalari

B. Geodezik hujjat, hokimiyat qarori

S. Bog'-parkni loyihalashga bank qarori

D. Bog'da transport joylashish sxemasi

84. Bog'-parklarni loyihalashda qanday loyiha hujjatlari ishlab chiqiladi?

A. To'shamalar, tirgak devorlar chizmalari, suv havzalari va gulzorlar sxemasi va eskizi

B. Bog'ni qurish haqidagi hokimiyat qarori

S. Kanalizatsiya tarmog'ining chizmasi

D. Gaz tarmog'ining chizmasi

85. Bosh reja o'z tarkibida qanday ma'lumotlarni grafik aks ettiradi?

A. Loyihalananayotgan hudud chegaralari va shakli; hududning reliefi, mavjud va loyihalananayotgan imoratlar, muhandislik tarmoqlari haqidagi ma'lumotlarni

B. To'shamalar, tirgak devorlar chizmalari, suv havzalarining chizmalarini

S. Kanalizatsiya va gaz tarmoqlarining chizmalarini

D. Drenaj, sug'orish va yoritish tizimlarining sxemalarini

86. Bosh reja o'z tarkibida qanday ma'lumotlarni grafik aks ettiradi?

A. Daraxt va butalarning hududda joylashishi, maydon va maysazorlar, gulzorlarning o'rni va joylashishi haqidagi ma'lumotlarni

B. To'shamalar, tirgak devorlar chizmalari, suv havzalarining chizmalarini

S. Kanalizatsiya va gaz tarmoqlarini

D. Drenaj, sug'orish va yoritish tizimlarining sxemalarini

87. Bosh reja o'z tarkibida qanday ma'lumotlarni grafik aks ettiradi?

A. Yo'llar va yo'laklar, sport maydonlari, sayrgohlar va xiyobonlar, mo'jaz me'moriy shakllarning joylashishini aks ettiruvchi chizmalarni

B. Drenaj, sug'orish va yoritish tizimlarining sxemalarini

S. Kanalizatsiya va gaz tarmoqlarining chizmalarini

D. To'shamalar, tirgak devorlar va suv havzalarining chizmalarini

88. Dendroloyihaga nima ilova qilinadi?

A. Ekiladigan barcha o'simliklarning nomlari, turlari va navlari, soni, yoshi, ekilishi usullari ko'rsatilgan jadval

B. Ekiladigan o'simliklarning rangli rasmlari

S. Ekiladigan o'simliklarning soni va narxi

D. O'simliklarni parvarishlash va ekish chizmalari

89. Tik rejalashtirish (vertikal planirovka) qanday holatlarda ishlab chiqiladi?

A. Loyihalananayotgan bog' yoki park hududi asosan notekis bo'lgan yoki tekis reliefni o'zgartirish zarurati tug'ilgan holatlarda

B. Park hududida yomg'ir va qor suvlarining to'planib qolishi havfi bo'lgan holatlarda

S. Park hududida yomg'ir va qor suvlarining to'planib qolishi havfi bo'lmagan holatlarda

D. Park hududida chang'i sportini tashkillashtirish kerak bo'lganda

90. Suv havzalar sxemasi va eskizida qanday rasm va chizmalar ko'rsatiladi?

A. Suv havzalarini yaratishning umumiy g'oyasi, suv havzalarining konstruktiv chizmalari, havzalar atrofida va suvda o'sadigan o'simliklar nomi va o'rni

B. Suv havzalariga suv tortuvchi nasoslarning chizmalari

S. Suv havzalariga suv tortuvchi nasoslarga elektr beruvchi tarmoq chizmasi

D. Suv sporti basseynining chizmalari

91. Gidroponika—bu nima?

A. Tuproqsiz, biroq ozuqa moddalarining eritmasi asosida turli o'simliklarni o'stirish

B. Tuproq va suv bilan ta'minlangan osma bog'

S. Suv ostidagi akvariumsimon bog'

D. Suv ustida o'stiriladigan gullar bog'i

92. Gidroponik bog'lar qanday kelib chiqqan?

A. Boshqarishning intellektual agrotexnologiyalari va ekish usullarining qorishmasidan kelib chiqqan

B. Shaharlarda er maydonining tanqisligidan

S. Tom ustida bog'lar qurish zaruratidan

D. Qishgi bog'larning shakllanishi va rivojlanishidan

93. Gidroponik bog'larda qanday gullarni o'stirish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi?

A. Bo'rigul (barvinok), begoniya, xrizantema, lavanda, chamandagul, karnaygul (petunya), qoqi o't, tosh cho'pgul

B. Barglari va gullari yirik bo'lgan gullarni

S. Qish faslida gullovchi gul o'simliklarini

D. Erta bahorda gullovchi gul o'simliklarini

94. Bog'-parklarning rekreatsion maftunkorligini oshirish va estetik jozibadorligini kuchaytirish, ularda ekologik toza va obodonlashtirilgan muqim landshaftlarni yaratish, ularga sarflanayotgan xarajatlarni qoplash imkoniyatlarini oshirish qanday vazifalar hisoblanadi?

A. Bog'-parklarni qayta tiklash zarurati bilan bog'liq vazifalar

B. Yangi bog‘-parklarni loyihalash jarayonidagi vazifalar

S. Respublikamizdagi mavjud parklarni qayta qurish va modernizatsiyalashning asosiy istiqbolli vazifalari hisoblanadi

D. Bog‘-park san‘ati yodgorliklarini saqlash vazifalari

95. Bog‘-parklar qurilishida qanday masalalarni yechish uchun yangicha funksional, estetik, kompozitsiyaviy, ekologik va iqtisodiy yondashuvlar talab qilinadi?

A. Bog‘-parklarni yaratish va mavjudlarini takomillashtirish masalalarini yechishda

B. bog‘-park san‘ati yodgorliklarini saqlash masalalarini yechishda

S. Bog‘-parklarni ta‘minlash masalalarini yechish uchun

D. Bog‘-parklarni qayta tiklash masalalarini yechish uchun

96. Park hududidini me‘moriy-badiiy tshkillashtirishni landshaft arxitekturasi, dizayni, xalq amaliy san‘ati, tasviiy san‘at va san‘atning boshqa turlarini sintezlashtirish asosida loyihalash, parkni san‘at obyekti tarzida ko‘rish va his qilish parklarni istiqbolli rivojlantirishning qaysi yondashuviga kiradi?

A. Funksional yondashuviga

B. Estetik yondashuviga

S. Kompozitsiyaviy yondashuviga

D. Ekologik yondashuviga

97. Ommaviy tashriflar zonalarida park hududlarining estetik jozibadorligini oshirish, O‘rta Osiyo an‘anaviy bog‘-park san‘ati kompozitsiyalari–“Chorbog‘”, “Chorchaman”, “Chortoq”, “Chorhovuz”, “Xiyobon” usullaridan foydalanish parklarni istiqbolli rivojlantirishning qaysi yondashuviga kiradi?

A. Kompozitsiyaviy landshaft yondashuviga

B. Ekologik yondashuviga

S. Funksional yondashuviga

D. Landshaft yondashuviga

98. Turlicha rekreatsion rejim va rekreatsion yuklamalirda foydalaniluvchi uchastkalarini alohida ajratish, shuningdek, yuksak ekologik resurslarga ega bo‘lgan zonalarga kirishni cheklash parklarni istiqbolli rivojlantirishning qaysi yondashuviga kiradi?

A. Kompozitsiyaviy landshaft yondashuviga

B. Funksional yondashuviga

S. Estetik yondashuviga

D. Ekologik yondashuviga

99. Park hududini shaharning turistik–rekreatsion marshrutlariga kiritish parklarni istiqbolli rivojlantirishning qaysi yondashuviga kiradi?

- A. Estetik yondashuvga*
- B. Kompozitsiyaviy yondashuvga*
- S. Funksional yondashuvga*
- D. Iqtisodiy yondashuvga*

100. Axborot tizimi ko‘magida har yilgi ommaviy tadbirlarni o‘tkazish (mavsumiy ochishlar–yozgi, kuzgi, qishgi fasllar ochilishi va bahorgi mavsum) parklarni istiqbolli rivojlantirishning qaysi yondashuviga kiradi?

- A. Funksional yondashuv*
- B. Ekologik yondashuv*
- S. Iqtisodiy yondashuv*
- D. Kompozitsiyaviy yondashuv*

3. TALABALAR BAJARADIGAN MUSTAQIL ISH MAVZULARI

Talabalarning mustaqil ish olib borishlari uchun quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- Fanni o'zlashtirish uchun tavsiya etilgan o'quv adabiyotlarining alohida boblari bo'yicha o'quv materiallarini o'rganish.

- Ma'ruza qismlari bo'yicha tarqatiladigan materiallarni o'zlashtirish.

- Ta'lim va nazoratning avtomatlashtirilgan vositalari bilan ishlash.

- Mazkur o'quv qo'llanma mavzularida berilayotgan masalalar bo'yicha zamonaviy axborot texnologiyalaridan bog'-parklarning rangli rasmlarini yig'ish, ularni boblar bo'yicha umumlashtirish, grafik-albomlar tuzish, tarqatma materiallar to'plash.

- Landshaft rejalashtirish bilan bog'liq o'quv uslubiy va ilmiy amaliy adabiyotlarni o'rganish.

- Internet tarmoqlarida joylashtirilgan bog'-park qurilishi, landshaft arxitekturasiga va dizayniga, ularni loyihalashga oid materiallarni to'plash va tahlil qilish.

4. MUSTAQIL O'RGANISH UCHUN TAVSIYA QILINADIGAN MAVZU VA BO'LIMLAR RO'YXATI

- Landshaft rejalashtirishda tabiiy sharoitlar va antropogen omillar;
- Madaniy landshaflar, rekreatsion muhitlar, sanoat va jamoa binolari landshaftlarini tipologiyasi.

- Ochiq fazoviy rivojlantirish shartlarini, shaharning tabiiy karkasini shakllantirish tamoyillari.

- Shahar ko'kalamzorlar tizimining tasnifini bilish va ulardan foydalana olish.

- Shahar va shahar markazlarini landshaft-rekreatsion rejalashtirish.

- Aholi turar joylari hududlarini landshaft-rejaviy tashkil etish. Bog'-parklarning zamonaviy tipologiyasi artlandshaftlar. Tabiiy omillar, aholi ehtiyojlarining zamonaviy turlaridan kelib chiqqan holda rekreatsion landshaf tashkil etishning xususiyatlari.

- Bogʻlar va parklar, maydonlar, koʻchalar, xiyobonlar, saylgohlar, qirgʻoq boʻylari, piyodalar fazoviy muhitlarining landshaft echimlarini rivojlantirish.

- Sanoat hududlarini landshaft-rejaviy tashkil etish.

- Shahar markazini bogʻ-park tizimini shakllantirish.

- Issiq iqlimli hududlarda bogʻ-parklar landshaftini tashkil etishga taʼsir etuvchi shart-sharoitlar va omillarni oʻrganish.

- Bogʻlar, parklar maydonlar, saylgohlar, qirgʻoq boʻylari va piyodalar yoʻlaklarini shaharsozlik talablari boʻyicha joylashtirish.

- Landshaft rejalashtirishda zamonaviy usullarini oʻrganish va egallash.

K.D. RAXIMOV

LANDSHAFT REJALASHTIRISH

Toshkent – «Barkamol fayz media» – 2018

Muharrir: Sh.Aliyeva
Musavvir: D.Azizov
Musahhiha: M.Hasanova
Kompyuterda
sahifalovchi: M.Mamarasulova

Bosishga ruxsat etildi: 12.11.2018 yil.
Bichimi 60x84 ¹/₁₆. «Timez news roman» garniturası.
Ofset bosma usulida bosildi.
Shartli bosma tabog‘i 18 Nashriyot bosma tabog‘i 19.25
Tiraji 100. Buyurtma № 34

«FAYLASUFLAR» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Toshkent shahri, Matbuotchilar ko‘chasi, 32-uy.